

# M.S.XAJIYEVA

# GLOBAL LASHUV ASOSLARI





**O'ZBEKISTONDA RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**M.S.XAJIYEVA**

**GLOBALLASHUV ASOSLARI**

*5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi bakalavriat ta'lifi  
yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik*

**TOSHKENT 2020**

**UDK:** 9(575.1):669.03

**KBK** 67.8(5U)

Globallashuv asoslari. Xajiyeva M. S. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi – T.: “-----”, 2020.----bet. ISBN:

Mazkur darslikda globallashuv alohida fenomen sifatida tadqiq etiladi, uni genezisidan tortib, to xalqaro aloqalarni ifoda etuvchi voqelikkaga ko'tarilish bosqichlarigacha ochib beriladi. O'zbekistonga va o'zbek xalqiga xos bo'lgan gnoseologik tajribalar, etnoan'analar va madaniy meros, ularni asrash, ko'paytirish muammolari muhokama qilingan. Eng muhimi talaba yoshlar g'arb madaniyati, globallashuv tarafdori va bosh aktyori bo'lgan amerikanizm g'oyasi tarafdarlarining intilishlarini ko'r-ko'rona qabul qilmasdan, balki ularni o'z xalqi, millati manfaatlari nuqtayi nazaridan baholashga o'rgatadi. Darslikda globallashuvning ijobiy va salbiy, konstruktiv va destruktiv tomonlari tahlil qilingan bo'lib, u 5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi bakalavriat ta'lif yo'naliishing "Globalashuv asoslari" fanidan darslik sifatida tavsiya etiladi.

В этой книге глобализация рассматривается как отдельное явление, начиная с ее генезиса и заканчивая этапами ее превращения в реальность, отражающую международные отношения. Обсуждаются гносеологический опыт, этнотрадиции и культурное наследие, их сохранение и воспроизведение. Самое главное, что студенты учатся не слепо восхищаться устремлениями западной культуры, глобализации, а скорее оценивать их с точки зрения собственных и национальных интересов. В учебнике рассматриваются положительные и отрицательные, конструктивные и деструктивные аспекты глобализации, она рекомендуется в качестве учебника по предмету "Основы глобализации" для бакалавров по направлению 5111600-Национальная идея, основы духовности и правовое образование.

In this book, globalization is explored as a separate phenomenon, from its genesis to the stages of its rise to reality representing international relations. Gnoseological experiences that are related to Uzbekistan and Uzbek people, ethno-traditions and cultural heritage, their preservation and reproduction problems are discussed. Most importantly, students are taught not to blindly admire the ideas of the Americanism, which is a proponent and the main actor of Western culture, globalization, but rather to evaluate them from the perspective of their own people and nationalities. The textbook reviews the advantages and disadvantages, constructive and destructive aspects of globalization and is recommended as a textbook on the subject "The Basics of Globalization" for undergraduate education in the direction 5111600 - National Idea, Fundamentals of Spirituality and Law Education.

M.Xajiyeva. Globalashuv asoslari. T.: 2020, -----bet.

## KIRISH

Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarini anglash, ularni obyektiv baholash oson emas. Ular bir tomondan, insoniyat va sivilizatsiya erishgan yutuqlarga tayanib, integratsiyani kengaytirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, gegemonlikka da’vogar qatlamlar va davlatlar ideologiyasini boshqa xalqlarga, qit’alar va davlatlarga zo‘rlab singdirishni qo‘llab-quvvatlamoqda. Ushbu ichki ziddiyatlar globallashuv bayrog‘i ostida barcha etnoslar va etnomadaniyatlarning mustaqilligiga raxna solayotgani voqelikka aylanib borayotgani uchun antiglobalistik harakatlar doirasi kengayib borayotgani kuzatiladi. “Globalashuv asoslari” nomli ushbu darslik ana shunday nihoyatda murakkab va dolzarb mavzuni milliy demokratik taraqqiyot nuqtayi nazaridan o‘rganishga jazm etilgani bilan e’tiborlidir. Darslikda globallashuv alohida fenomen sifatida tadqiq etiladi, uning genezisidan tortib to xalqaro aloqalarni ifoda etuvchi voqelikka ko‘tarilish bosqichlarigacha ochib beriladi.

“Globalashuv asoslari” deb nomlangan ushbu darslik oliv o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, globallashuvning yuzaga kelishi, ijtimoiy hayot sohalariga ta’siri xususida talabalarni bilimini oshirishga hamda ilmiy tafakkurini shakllantirishga mo‘ljallangan. Globallashuvning xalqaro voqelik ekanligi xorijiy adabiyotlarda mavjud globallashuvga xos bo‘lgan iboralarni qo‘llashni taqozo etadi.

Ushbu darslikda O‘zbekistonga va o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan gnoseologik tajribalar, etnoan’analar va madaniy meros, ularni asrash, ko‘paytirish muammolari muhokama qilingan. Eng muhimi talaba yoshlar g‘arb madaniyati, globallashuv tarafdori va bosh aktyori bo‘lgan amerikanizm g‘oyasi tarafdarlarining intilishlarini ko‘r-ko‘rona qabul qilmasdan, balki ularni o‘z xalqi, millati manfaatlari nuqtayi nazaridan baholashga o‘rgatadi.

“Globalashuv bilan etnomadaniyatlar to‘qnashuvi real voqelikka aylangan. Lekin bu ziddiyatni umuminsoniy qadriyatlar foydasiga hal etilsa-da, etnomadaniy omilning deterministik rolini unutmeydi. Xullas, darslikda o‘ta murakkab voqelikni ziddiyatlar bilan ochib berilgani uchun o‘quvchini befarq qoldirmaydi, uni o‘ylashga, goho bahslashishga chorlaydi. Falsafiy g‘oyalar doimo turli yondashuvlarni keltirib chiqargan, fikrlar plyuralizmi esa shaxs ongini, tafakkurini rivojlantirib kelgan. Darslik fikrlar mubohasasidan yaralgani uchun ham ongni, tafakkurni behalovat qiladi, talabani mustaqil izlanishga undaydi.

## **I-MODUL. FANNING NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI. GLOBALLASHUV FENONENINING NAZARIY ASOSLARI.**

### **1-MAVZU. “GLOBALLASHUV ASOSLARI” FANINING PREDMETI, OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

#### **REJA:**

1. Jahon miqyosida ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari va uni o'rghanishning ilmiy-nazariy zaruriyati.

2. Globallashuv haqida, uning genezisi, tarqalishi, ko'rinishlari, maqsad va vazifalari, ichki ziddiyatlari to'g'risida rang-barang fikrlar.

3. Globallashuvning nazariy asoslari. Globallashuv universallahuv jarayoni sifatida.

Ulrix Bekning yozishicha, bu yaqin davrda globallashuv kabi “keng qo'llaniladigan, suiiste'mol qilinadigan, mavhum, siyosiy nuqtayi nazardan e'tiborli” so‘z uchramaydi<sup>1</sup>. Hattoki, iqtisodiy aloqalarning globallashayotgani ustida gap ketganida ham nima nazarda tutilyapti o'zi: “Nemis firmalarining chet ellarga to‘g'ridan-to‘g'ri investitsiyalarimi? Yirik transmilliy korporatsiyalarimi? Balki iqtisodiyotni denatsionalizatsiyalash haqidadir? Balki pul o'tkazmalari yoki moliyaviy oqimlar bilan bog'liq “virtual iqtisodiyot to‘g'risidadir? Ulrix Bekning fikricha, bunday savollar juda ko‘p, hatto bir soha - iqtisodiyot nazarda tutilayotganida ham globallashuv nima degan savol mavhum qolmoqda. Ammo Ulrix Bek taniqli sotsiolog E.Giddens fikriga qo'shilgan holda “globallashuv tashqi jihatdan bir-biridan ajratilmagan, milliy davlatlar, dinalar, mintaqalar va qit'alar borligini tan olmaydigan faoliyat va mavjudlikdir” deb ta'rif beradi<sup>2</sup>.

Shu tariqa u globallashuvni chegara bilmaydigan, axborot-texnologiyalar asosida har bir kishini umumsayyoraviy tarzda kezib yurishini ta'minlaydigan, Odissey va Rabinzonlar ustidan kuladigan, “milliy davlatlar va milliy jamiyatlar birligini buzadigan” voqeа deb tasvirlaydi. Hozirgi davrda global iqtisodiyot ustida emas,

<sup>1</sup> Ульрих Бек. Что такое глобализация? - Москва: Прогресс-Традиция, 2001.-С.40.

<sup>2</sup> Ўша асар. С.43.

balki uning internatsionallashayotgani ustida kechishi kerak. Biroq Ulrix Bek globallashuv ro'y berayotgan voqelik ekanini inkor qilmaydi.

Globallashuv ziddiyatli hodisa ekanini uning ortodoksal tarafдорлари ham qayd etishadi. Demak, bugun insoniyat globallashayotgan dunyoda yashamoqda. XXI asr boshlarigacha u Ulrix Bek nazarda tutgan "internatsionallashish bosqichini bosib o'tib, endi tom ma'nodagi umumsayyoraviy voqelikka aylanmoqda. XXI asrgacha iqtisodiyotni internatsionallashuvining asosiy faktorlari Amerika, Yevropa va Osiyo edi. Rossiya, sobiq SSSR, Lotin Amerikasi, Afrika ushbu jarayonlardan tashqarida edi. SSSRning tugatilishi va bozor iqtisodiyotining keng yoyilishi bilan mazkur hududlar ham keng integratsiya subyektlariga aylanishdi. Ushbu o'zgarish internatsionallashuvni globallashuvga aylanganidan darak beradi. Bu jarayonlarning bosh faktorlari, mutaxassislarning yakdil e'tirof etishicha, hozirgacha AQSH va Yevropa bo'lib qolmoqda.

Demak, Globallashuv – bizning borlig'imiz, bu borliqni o'rganish, qonuniyatlarini ochib berish, ziddiyatlarini tahlil qilish va insoniyat kelajagiga ta'sirini tadqiq etish ilm-fanning vazifasidir. O'zbek tadqiqotchisi B.Umarovning keltirishicha dunyodagi yuzta eng yirik va qudratli transmilliy korporatsiyalar orasida Amerika korporatsiyalari yetakchilik qilmoqda. Neft ishlab chiqarish va uni qayta ishlash tarmog'ida faoliyat yuritayotgan "ExxonMobil", "Chevron", "Amoco", "Atlantic Richfield" korporatsiyalarining xorijga mahsulot chiqarish hajmi 189 milliard 200 million dollar (ya'ni, barcha korporatsiyalar mahsulotining 49 foizi), kimyo-farmatsevtika sohasida "DuPont", "Dow Chemical", "Procter & Gamble", "Johnson & Johnson", "American Home Products", "Farmasia end anjon ink" 71 milliard 200 million dollar (barcha kompaniyalari mahsulotining 27,6 foizi), elektron texnologiya va kommunikatsiya sohasida "General corporation", "Hewlett-Packard", "XERXES corporation", "Motorolla inc", "IBM", "AT&T" korporatsiyalarining ulushi 123 milliard 600 million dollar (barcha korporatsiyalar mahsulotining 30 foizi)ni tashkil qiladi<sup>1</sup>. Jahon bo'yicha ishlab chiqarilayotgan, uzoq muddatga

---

<sup>1</sup> Каранг: Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари.-Тошкент: Маънваият, 2006.20-216.

mo‘ljallangan samolyot, elektron asbob-uskunalar, avtomobil kabilarning yarmidan ko‘pini AQSHdagi beshta eng yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarilmoqda. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Shuning uchun ba’zi tadqiqotchilar bugun dunyoda ro‘y berayotgan madaniy-ijtimoiy o‘zgarishlarni “amerikancha” deb ataydilar. “Dunyoda birorta narsa, - deb yozadi masalan, J.Soros, - Amerika ruxsatisiz ro‘y bermaydi. Boshqa davlatlar AQSHning siyosatini ma’qullasa, AQSH esa boshqalar ergashadigan siyosatni tanlaydi”<sup>1</sup>.

Globallashuv jarayonlarida AQSH iqtisodiyoti, siyosati, madaniy mahsulotlari muhim o‘rin tutayotgan bo‘lsa-da, globallashuvni “amerikacha” deb atash jahonda kechayotgan murakkab, rang-barang, ichki ziddiyatlarga to‘la o‘zgarishlarni sodda, jo‘n talqin etishga intilishdir. Piter L.Berger haq: “global madaniyat, o‘zining negizi va mazmuniga ko‘ra, so‘zsiz, Amerikacha. Ammo, bu bugungi dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning yagona yo‘nalishi emas, bu kelgusida ustuvor an’anaga aylanadi...”. Chunki “bugun Qo‘shma Shtatlar katta qudratga ega bo‘lsa-da, ular boshqa mamlakatlarga o‘z madaniyatini majburiy tarzda singdirishni amalga oshirayotgani yo‘q”<sup>2</sup>.

Shu bilan birga Piter L.Berger amerikancha ingliz tili, ommaviy axborot vositalari, biznes, “hordiq industriyasi”, dunyodagi intellektuallar AQSHda qaror topgan “evangelcha protestantizm” dunyo bo‘ylab “madaniy zilzila”ni amalga oshirmoqda deb qayd etadi. Buni ko‘plab tadqiqotchilar tasdiqlaydi.

Globallashuvning bosh faktorlari kimlar ekani ilm-fan uchun juda muhim emas, endi uning insoniyat hayotidagi o‘rni, milliy davlatlar va lokal madaniyatlar bilan aloqalari muhimdir.

Globallashuv xalqlarga, davlatlarga qanday ta’sir etmoqda - ijobiymi yoki salbiy? Agar ijobiy bo‘lsa, u etnomadaniyatlarda va etnosiyosiy hayotda nimalarda namoyon bo‘lmoqda; agar salbiy ta’sir etayotgan bo‘lsa, nima uchun va bu qaysi sohalarda ko‘zga tashlanmoqda? Agar globallashuv real borlig‘imiz bo‘lsa, endi biz

<sup>1</sup> Қаранг: Сорос Дж. О глобализации. – Москва: ЭКСМО, 2004.-С181-182.

<sup>2</sup> Қаранг: Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П. Бергера. С.Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.-С.9.

uni ijobjiy voqelikka aylantirish ustida bosh qotirishimiz, uning samarali usullarini, yo'llarini tan olishimiz darkor.

Ijtimoiy falsafa jamiyat va insonlar hayotida ro'y berayotgan fundamental o'zgarishlarni, bu o'zgarishlarning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq jihatlarini, shaxs bilan sotsium o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini o'rganadi. U ilm-fan sohasi sifatida hayotdagi transformatsiya jarayonlarini, bu jarayonlarning inson hayotiga, taqdiriga, faoliyati va borliqqa munosabatlari ta'sirini ochib beradi. U mohiyatan ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini izlashga, ochib berishga qaratilgan gnoseologik izlanishlar sohasidir. Globallashuvning ziddiyatli ekani, goho mavhumligi uni ilm-fan, tadqiqot obyekti, predmeti sifatida qarashga xalaqit bermaydi. U hali tugal shakllanmagan, ma'lum bir tizimga tushmagan, ko'rinishlari noma'lum, o'zgaruvchan, qarama-qarshiliklarga to'la bo'lsa-da, ijtimoiy falsafa uchun tadqiqot obyekti, predmeti bo'la oladi. Aynan ushbu jihatlar uni ijtimoiy falsafa uchun qiziqarli, dolzarb, gnoseologik nuqtayi nazardan muhim qiladi. Mazkur fikrdan kelib chiqib biz "Globallashuv asoslari" ijtimoiy falsafiy tarmog'i deb ataymiz. Unda qo'llaniladigan tushunchalar, tadqiqot usullari, metodologiya o'z navbatida, avvalo, falsafaga taalluqlidir.

"Globallashuv asoslari" fanining tadqiqot doirasini xalqlar, davlatlar, madaniyatlar o'rtasidagi umumsayyoraviy aloqalar, xalqaro integratsiya jarayonlari va bu jarayonlarning jamiyat, inson taraqqiyotiga ta'siri tashkil etadi. Global miqyosda kechayotgan munosabatlari, aloqalar ayrim subyektlar xohishiga bog'liq emas, ular transmilliy, translokal va transmintaqaviy xususiyatga ega. Hatto AQSHni "globallashuvning bosh faktori" deb atashsa-da, bugun u yolg'iz emas. Umumsayyoraviy o'zgarishlarga xalqaro munosabatlarning subyektlari, suveren davlatlar, xalqlar, madaniyatlar befarq qololmaydi. Chunki umumsayyoraviy voqelik ularning qiziqishi, manfaatlari va taqdiriga ta'sir etmay qolmaydi. Demak, insoniyatning umumtaraqqiyoti, taqdiri bir faktor qo'lida bo'lishi obyektiv borliq talablariga ziddir. Shuning uchun endi gap barcha xalqlar, davlatlar, madaniyatlar

global rivojlanish faktorlari ekanini e'tirof etib, ularning jahon bozorida muhim rol o'ynashini tasdiqlash ustida bo'lishi lozim.

Fanning tadqiqot doirasi uning obyekti, predmeti bilan belgilanadi. Bu obyektning, predmetning ichki tizimlari, strukturaviy aloqalari, tashqi muhit bilan munosabatlari bu munosabatlarning mohiyati tadqiqot mavzulariga kiradi. To'g'ri, tadqiqot mavzularini izlanuvchining o'zi mustaqil qiziqishiga muvofiq tanlashi mumkin, biroq ular tadqiqot obyekti, predmeti doirasida u bilan bog'liq bo'lishi shart. Faqat transental izlanishlar mavhum obyektni, predmetni o'ziga mavzu qilib oladi, ilm-fanning mavzusi ham, obyekti, predmeti ham aniq - obyektiv borliq, jamiyat va inson munosabatlari hamda hayotidir.

“Globallashuv asoslari” hozircha to‘la shakllanmagan, oydinlashmagan, ziddiyatlarga to‘la jarayonlarni o‘rganishga majbur. Bu jarayonlarni ilg‘ashda, anglashda va qonuniyatlarini ochib berishda metodologik, gnoseologik hamda ontologik to‘sqliarga duch kelishi mumkin. Chunki obyekti, predmetining ham to‘liq shakllanmagani, oydinlashmagani, ziddiyatli ko‘rinishlari borasidagi fikrlarni goho metafizik tarzda mavhum, noaniq, gipotetik qilishi shubhasiz. Ammo bu fanning o‘zini keraksiz, foydasiz narsaga aylantirmaydi, har bir nazariya, fan, ilm sohasi boshqa polilogik xususiyatga ega bo‘lishi, kelgusida aniqlashtiriladigan apriori sifatida kelishi muqarrar. “Globallashuv asoslari” hozir ana shunday bosqichda turibdi.

“Globallashuv asoslari” fanining maqsadi insonning umumsayyoraviy voqeliklar, ayniqsa, hozir jahonda, xalqlar va davlatlar o‘rtasida kechayotgan integratsiya haqidagi bilimlarini shakllantirishdan iborat, mazkur jarayonlarni obyektiv o‘rganish asosida insondagi ijtimoiy borliq haqidagi tasavvurlarni boyitish, to‘ldirish o‘ta muhimdir. Shunday obyektiv bilimlarga ega bo‘lmaslik globallashuvni noto‘g‘ri talqin qilishga, hatto milliy taraqqiyotga zid voqelik degan tushunchalarni keltirib chiqarishi mumkin. Umumsayyoraviy o‘zgarishlar, ularning ko‘lamlari, ichki ziddiyatlari, ijobiy va salbiy ta’sirlari haqida bilim berish fan oldidagi asosiy maqsaddir. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi;

– “global” tushunchalarga – ilmiy, ijtimoiy falsafiy talqin berish, unga oid ilmiy talqinlarni ochib berish;

- globallashuvni alohida, ammo obyektiv voqelik ekanini asoslash;
- global-lokal-individual tizim o‘rtasidagi tizimli funktsional aloqalarni yoritish;
- globallashuvning ko‘rinishlarini klassifikatsiyalash orqali ularning har biriga xos immanent xususiyatlarni tadqiq etish va ochib berish;
- globallashuvning ijobiy va salbiy, konstruktiv va destruktiv tomonlarini, jihatlarini tahlil qilish;
- globallashuv jarayonlarining milliy ongga, milliy turmush tarzi, etnomadaniy merosga va etnoan’analarga ta’sirini yoritish;
- amerikanizm va yevropaneizmning globallashuvi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlarni kuzatish, to‘plagan materillar asosida tarixiy-madaniy merosni asrashga oid xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqish;
- mafkuraviy, g‘oyaviy tazyiqlar, ma’naviy tahdidlar mohiyatini ochib berish;
- ommaviy madaniyatdagi destruktiv tomonlarni o‘rganish;
- yoshlarni ma’naviy va g‘oyaviy tahdidlardan asrash muammolarini o‘rganish;
- internet, axborot-texnologiyalarining sotsiokreativ jihatlarini ochib berish, ulardan ijtimoiy taraqqiyotni yuksaltirishda hamda hurfikr, ijodkor, barkamol avlodni tarbiyalashda foydalanish muammolarini tadqiq etish.

“Globallashuv asoslari” fanining maqsadi va vazifalari global voqelikning, globallashuv jarayonlarining o‘zi kabi keng hamda globaldir. U hal etishi zarur bo‘lgan dolzARB masalalar quyidagi yo‘nalishdan iborat: 1) umuminsoniy, umumsayyoraviy muammolar; 2) milliy, etnomadaniy, etnosotsial muammolar; 3) ushbu ikki yo‘nalishni ijtimoiy va inson taraqqiyoti nuqtayi nazaridan uyg‘unlashtirib, sinergetik jihatdan tadqiq etishdir. Bu muammolarni turlicha talqin etish mumkin. Masalan, umuminsoniy, umumsayyoraviy muammolarning o‘zi nima? Ular qaysi jihatlariga muvofiq global ahamiyatga ega? Kim ularni keltirib chiqaryapti? Nega ularni jilovlash, regulyatsiya qilish mumkin emas? Ilm-fan, xususan, ijtimoiy falsafa bu borada nimalar deyapti? Bu savollarning birortasiga aniq

javob yo‘q. Ularga javobni “globallashuv asoslari” kabi ilm sohalari berishi kerak. Biroq bu sohadagi ilmiy-tadqiqotlar endigina boshlanmoqda. Hatto O‘zbekistonidagi ekologik muammolarni lokal, mintaqaviy va global nuqtayi nazardan o‘rganishga intilgan mutaxassislar ham rasmiy doiralar ustanovkasidan tashqariga chiqib biror ilmiy ratsional, yangi konstruktiv fikrni, yondashuvni ilgari surishmaydi. Ma’naviy xavfsizlik bo‘yicha yozilgan asarlar esa globallashuvni bir tarzda, dogmatik, hatto ortodoksal yondashuv bilan qoralashga qaratilgan. Ushbu ilmiy-nazariy muammolar endi ochiq, ilmiy muhokama qilinishi, obyektiv, predmetning tub xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil etilishi darkor. Esda tutish zarurki, ilm-fan ortodoksal, rezinyativ yondashishni yoqtirmaydi, u sanoxonlikka emas, obyektiv tahlilga tayanadi. Ilm-fan e’zozlanishga, ko‘kka-ko‘tarilishiga, cho‘qinishga muhtoj emas, u haq-u haqiqatni aytishga muhtoj.

Dunyoning hozirgi mafkuraviy manzaralari “globallashuv asoslari”ning mavzularidan biridir. Mazkur manzaralardagi manfaatlar to‘qnashuvi, g‘oyalar kurashi, bu kurashlar tagidagi maqsadlarni obyektiv ochib berishi bilan “globallashuv asoslari” ilm-fan, falsafiy tadqiqotlar tizimida o‘rin egallashi mumkin.

Mafkurasi bir xil bo‘lgan davlat uchramaydi, bu inson aql-u idrokiga, tasavvuri va tafakkuriga zid hodisadir. Mafkuralar doimo har xil, plyuralistik bo‘lgan, ammo u yoki bu makromuhitda, davlatda ma’lum bir mafkuralar ustuvor bo‘lgan, albatta. Bugun, ayniqsa, globallashayotgan dunyoda bitta mafkuraning ustuvorligini tasavvur qilish qiyin. Har bir davlat, har bir xalq, millat o‘z mafkurasiga ega. Mafkuraviy rang-baranglik globallashuv duch kelayotgan reallikdir. Bu rang-baranglik bilan unifikatsiyalashishga moyil globallashuv o‘rtasidagi farqlar, ziddiyatlar nimaga olib kelishini hozir bashorat qilish qiyin. Ushbu muammoni dolzarb mavzu sifatida tadqiq etish ijtimoiy falsafaning, shu jumladan, “globallashuv asoslari” fanining ham vazifasidir.

Globallashuvning nazariy asoslarini antik davr faylasuflarining butun va qism (Platon, Aristotel), Kosmos va Yer (Konfutsiy, Lao Szu), jamiyat va inson (Makiavelli, Didro), transsident va shaxs (Svedenborg, Berkli), ilm-fan va ratsional

idrok (Dekart, Bekon), ilohiy iroda va inson erki (Kerkegor, Berdyaev), gumanizm va pluralizm, demokratizm (A.Xaksli va K. Poper), tobeklik va dahriylik (G'azzoliy va Mansur Xalloj), ilohiylik va insoniylik (Shri Aurobindo va Maxatma Gandhi, Osho) haqidagi, goho eklektik qarashlari, konsepsiyalari tashkil etadi. Ularning har biridan “Globallashuv asoslari” fani uchun mavzu topsa bo‘ladi.

Globallashuvni universal voqelik sifatida qarashni, asosan, uning tarafdarlari ilgari surishadi. Globallashuv ijtimoiy borliqqa oid universal voqelik, ta’minot bo‘la oladimi? Bunga aniq javob berish mushkul, chunki jahon tarixini, Yaspers aytganidek, “bashorat qilish qiyin”, bu tarix ertaga qaysi tomonga o‘zgaradi, qanday qadriyatlarni targ‘ib etadi, ularning asoschilari kimlar bo‘ladi degan savollarga javob berishni hech kim o‘z zimmasiga ololmaydi. Shunday ekan insoniyat bugun o‘z taqdirida nimalargadir umid qilib, nimalarnidir e’zozlab, aslida tavakkal bilan yashashga majbur. Globallashuvni universal voqelik deb atashida ana shu bir tomon dan, ongimiz va umid, ikkinchi tomon dan, tavakkalchilik va fidoyilik yotadi. Bizning fikrimizcha, ushbu ikki yondashuv bir-birini rivojlantiruvchi, oldinga siljituvchi, boyituvchi fenomenlar sifatida yonma-yon saqlanib qoladi.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Globalashuv, iqtisodiy aloqalar, transmilliy korporatsiya, iqtisodiyot, denatsionalizatsiyalash, milliy davlatlar, dinlar, mintaqalar va qit’alar global iqtisodiyot, ilm-fan, elektron texnologiya, kommunikatsiya, samolyot, elektron asbob-uskunalari, transmilliy korporatsiyalar, ommaviy axborot vositalari, biznes, “hordiq industriyasi”, etnomadaniyat, etnosiyosi, jamiyat va inson, integratsiya jarayon, subyektlar, transmilliy, translokal va transmintaqaviy, suveren davlatlar, xalqlar, madaniyat, predmeti, ma’naviy va g‘oyaviy tahdidlar, internet, axborot-texnologiyalar, sotsiokreativ, hurfikr, ijodkor, umuminsoniy, umumsayyoraviy muammolar, milliy, etnomadaniy, etnosotsial muammolar.

### **Qo‘s himcha va tushuntiruvchi matnlar:**

**E.Giddens**

Globalashuv tashqi jihatdan bir-biridan ajratilmagan, milliy davlatlar dinlar, mintaqalar va qit’alar borligini tan olmaydigan faoliyat va ham mayjudlikdir.

**“Globallashuv asoslari” fanining maqsadi** - *insonning umumsayyoraviy voqeliklar, ayniqsa hozir jahonda, xalqlar va davlatlar o’rtasida kechayotgan integratsiya haqidagi bilimlarini shakllantirish, mazkur jarayonlarni obyektiv o’rganish asosida insondagi ijtimoiy borliq haqidagi tasavvurlalarini boyitish shuningdek, umumsayyoraviy o’zgarishlar, ularning ko’lamlari, ichki ziddiyatlari, ijobiy va salbiy ta’sirlari haqida bilim berishdir.*

### **“Globallashuv asoslari” fanining asosiy vazifalari:**

“global” tushunchalariga ilmiy, ijtimoiy falsafiy talqin berish, unga oid ilmiy talqinlarni ochib berish;

globallashuvni alohida, ammo obyektiv voqelik ekanini asoslash;

global-lokal-individual tizim o’rtasidagi tizimli funksional aloqlarni yoritish;

globallashuvning ko‘rinishlarini klassifikasiyalash orqali ularning har biriga xos immanent xususiyatlarni tadqiq etish va ochib berish;

globallashuvning ijobiy va salbiy, konstruktiv va destruktiv tomonlarini, jihatlarini tahlil qilish;

globallashuv jarayonlarining milliy ongga, milliy turmush tarzi, etnomadaniy merosga va etnoan'analarga ta'sirini yoritish;

amerikanizm va yevropneizmning globallashuvi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlarni kuzatish, to‘plagan materillar asosida tarixiy-madaniy merosni asrashga oid xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqish;

mafkuraviy, g‘oyaviy tazyiqlar, ma’naviy tahdidlar mohiyatini ochib berish;

ommaviy madaniyatdagi destruktiv tomonlarni o‘rganish;

yoshlarni ma’naviy va g‘oyaviy tahidlardan asrash muammolarini o‘rganish;

internet, axborot-texnologiyalarining sotsiokreativ jihatlarini ochib berish, ulardan ijtimoiy taraqqiyot va hurfikr, ijodkor, barkamol avlodni tarbiyalashda foydalanish muammolarini tadqiq etish.



### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. “Globallashuv asoslari” qanday fan?
2. “Globallashuv asoslari” fanining obyekti va predmeti, maqsadi, vazifalari nimalardan iborat?
3. “Globallashuv asoslari” fanining tadqiqot doirasiga nimalar kiradi?
4. Mazkur fan oldidagi dolzarb masalalar, mavzular nimalardan iborat?
5. Dunyoning mafkuraviy manzaralari haqida nimalarni bilasiz?
6. Fanning nazariy-falsafiy asoslari haqida gapirib bering?
7. Globallashuvning universallashuvini qanday tushunasiz?

### **Referat mavzulari**

1. Ulrix Bek va uning globallashuv to‘g‘risidagi qarashlari.
2. “Globallashuv asoslari” fanining maqsad va vazifalari.
3. Sharq mutafakkirlari qarashlarida globallashuv masalasi.
4. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.
5. Globallashuv universallashuv jarayoni sifatida.
6. G‘arb va Sharq mutafakkirlari ijodida globallashuv masalasi.

7. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar.

**Adabiyotlar:**

1. Ульрих Бек. Что такое глобализация? – Москва: Прогресс-Традиция, 2001.
2. Robertson R. Globaliration. – London, 1992.
3. Бжезинский 3. Великая шахматная доска. – Москва: Международные отношения, 1998.
4. Сорос Дж. О глобализации. – М.: «ЭКСМО», 2004.
5. Абдуллаев И.З. Информатизация и глобализация. Т., 2002.
6. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент. «O`zbekiston», 2015.
7. Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari? – Toshkent: Novro`z, 2015.
8. Сайдов У. Глобаллашув ва маданиятларо мулоқот. – Тошкент: Muharrir, 2009.
9. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Akademiya, 2008.
10. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. – Т.: Маънавият, 2006.
11. Алимасов В., Мамадалиев Ш, Илмий тадқиқот: методология, методика, ижодиёт. – Тошкент: ЎзР ИИВ. Академия, 2016.
12. Шермуҳамедова Н. Илмий тадқиқот методологияси. – Тошкент: Fan va texnologiya. 2014.

## **2-MAVZU: “GLOBALLASHUV” TUSHUNCHASI, MOHIYATI, JAMIYAT HAYOTIDA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI REJA:**

1. “Globallashuv” tushunchasi.

2. Globalashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo‘lish yo‘llari.

3. Globallashuv yuz berishida internet, badiiy adabiyot, OAV, ta’lim, hamkorlik va boshqalar.

Bugun ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida “global”, “globalizatsiya”, “globallashuv” tushunchalari keng qo‘llanilmoqda. Ularning umumiyligi xususiyatlari umuminsoniy, umumplanetar voqelikda namoyon bo‘lishi yakdillik bilan ta’kidlagani uchun ko‘pchilik atama, tushuncha qo‘llab o‘tirmaydi. Globallashuv alohida atama, tushuncha ekani aksioma sifatida talqin qilinadi.

“Global” fransuzcha “global” degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bog‘liq” ma’nolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” so‘zi lotinchcha “globus” ya’ni “shar” so‘zidan kelib chiqqan. Globus deganda yer shari nazarda tutiladi. Mazkur yondashuvni ilk bor Aristotel qo‘llagan. Taniqli sotsiolog E.Giddens fikriga ko‘ra, “Globallashuv bir-biridan ko‘p uzoqlarda ro‘y beradigan mahalliy voqealarni hodisalarining butunjahon sotsial munosabatlarga intensifikasiyalashuvidir”<sup>1</sup>. Uning ta’kidlashicha, bu intensifikasiyalashuv milliy davlatlar jahon tizimi, jahon kapitalistik tuzum iqtisodiyoti, umumjahon harbiy tartib va xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi bilan izohlanadi. U globallashuv jarayonining boshlanishini XVIII asr bilan belgilaydi.

P.Ratlend globallashuv deganda kishilar va xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning umuminsoniy mohiyat kasb etishi deb tushunadi. Ushbu talqining asoslanib, u globallashuvga informatsion texnologiyalar vositasida voqelik va masofalarning qisqarishi, transmilliy uyushmalar (korporatsiyalar) rolining oshishi, davlatlarning iqtisodiyotga aralashishining kamayib borishi, erkin savdo-sotiqning global hodisaga aylanishi, jahon valutasining va uni almashtirish tartibining yuzaga

<sup>1</sup> Giddens A. The Consequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990.P.64.

kelishi, xizmat ko‘rsatish sektorining iqtisodiy hayotda real voqelikka aylanishi, liberal(neoliberal) demokratik qadriyatlarning jahonga yoyilishi, siyosiy institutlarning milliy manfaatlarga va globallashuvga xizmat qilishi odatiy holga aylanishi, ba’zi davlatlarning o‘z madaniy merosini global taraqqiyot modeli sifatida taqdim etishga intilishi, Yevropalashish an’anasining keng davom etishi va bunda AQSH yetakchi rol o‘ynashi kabilar xos, deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Uning fikricha, globallashuv XX asrga taalluqli hodisadir. R.Robertson globalizatsiya deganda sotsial munosabatlarning lokal holatdan global holatga o‘tishi, “bir-birini to‘ldiruvchi, ba’zi holatlarda bir-biri bilan to‘qnashuvchi “gomogenezatsiya va geterogenizatsiya” jarayonlarini tushunadi<sup>2</sup>.

Taniqli I.Prigojin jahonda yuz berayotgan globallashuvni avvalo axborot tizimi bilan bog‘liq voqelik deb biladi. Uning fikriga ko‘ra, globallashuvga bifurkatsiya(ajralish) va fluktuatsiya(tebranish) xosdir<sup>3</sup>. U globallashuvni XX asrning 2-yarmi bilan bog‘laydi. J.Soros globallashuvni “global ochiq jamiyat” tashkil etish tomon eltuvchi voqelik deb tushunadi. Globallashuv uning fikricha, “Global moliya bozorini rivojlantirish, transmilliy korporatsiyalar qudratining olishi va uning milliy iqtisodiyotga ta’sirining oshib borishi”dir. Shu bilan birga u bugun informatsiya va madaniyat, televideniyaning yoyilishi, internet va boshqa kommunikatsiya shakllarining yuzaga kelishi, g‘oyalarning mobillashuvi va kommersializatsiyalashuvini ham ifoda etadigan hodisadir<sup>4</sup>. Ko‘pchilik olimlar tomonidan globallashuv XX asrning 70-80 yillardan boshlangan degan xulosaga keltingan.

Germaniyalik tadqiqotchi Ulrix Bek globallashuvni ikki bosqichga: birinchi modern va ikkinchi modernga ajratadi. Birinchi modernga ilmiy-texnik kashfiyotlar, fan rivoji, sayohatlar va o‘zga davlatlarni, qit’alarni o‘zlashtirish, bosib olish bilan

<sup>1</sup> Ратленд П. Глобализация и посткоммунизм // Мировая экономика и международные отношения, 2002, № 4.- С. 15-16.

<sup>2</sup> Robertson R. Globalization: Time-space and homogeneity-heterogeneity // Global Modernities.- London: Sage, 1995. P40.

<sup>3</sup> Пригожин И. Кость еще не брошена // Синергетическая парадигма. Нелинейное мышление в науке и искусстве. – Москва: Прогресс-Традиция, 2002.с.19-21.

<sup>4</sup> Сорос Дж. О глобализации. – М.: «ЭКСМО», 2004.С.15.

bog‘liq jarayonlarni kiritadi. Uning fikriga ko‘ra, Marks va Uollerstayn bu davrni XV asr bilan bog‘laydi. Kapitalistik tuzumning yuzaga kelishi, tovar-pul munosabatlarining umumplanetar voqellikka aylanishi ushbu bosqichning xarakterli jihatidir. Ulrix Bek Robertson fikricha, globallashuvning boshlanishi 1870-1920 yillarga to‘g‘ri keladi. Perlmutter esa, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi konfliktlarni yo‘qolishi, ya’ni SSSRning tarqatilishi global sivilizatsiyani boshlab berdi, deb ko‘rsatadi. Mazkur fikrlarni tahlil qilgan Ulrix Bek globallashuvga “hayotning ba’zan anglanmaydigan va nomuvofiq transmilliy shakllariga berilishlar o‘rtasidagi masalalarini bartaraf etuvchi hodisadir”<sup>1</sup>, - deb ta’rif beradi.

O‘zbek olimi B.Umarovning yozishicha, “XX asrning oxiri - XXI asrning boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartib, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida batamom yangicha vaziyatning yuzaga kelishi, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi, xullas, jamiyat hayotining barcha sohalari - iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog‘lanmoqda. Mazkur jarayon global kommunakatsiya tarmog‘ining vujudga kelishiga imkon yaratgan informatsion inqilob, kapitalning internatsionallashuvi, jahon bozorida raqobatning kuchayishi, tabiiy zahiralar taqchilligi va ularga egalik qilish uchun kurashning keskinlashuvi, ommaviy-qirg‘in qurollarining tarqalishi, umumsayyoraviy falokat xavfi kabilarda globallashuv jarayonining ziddiyatli hamda murakkab mohiyati namoyon bo‘ladi”<sup>2</sup>.

X.S.Jumaniyazov, M.A.Sobirova va U.B.Nigmanovalar globallashuvga “turli mamlakatlarning, xalqlarning jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy

<sup>1</sup> Ульрих Бек. Что такое глобализация? - Москва: Прогресс - Традиция, 2001.С.43.

<sup>2</sup> Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. Т.: Маънавият, 2006, 5-6 б.

sohalardagi o‘zaro ta’siri va bog‘liqligining keskin kuchayishidir” deb, – ta’rif beradilar. Uning asosiy xususiyatlarini quyidagicha sharhlash mumkin:

➤ globallashuvning muttasil davom etadigan jarayon ekanligi;

➤ globallashuvning jahoning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni ekanligi;

➤ globallashuvning milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni ekanligi;

➤ ishlab chiqarishning xalqaro formalariga o‘tilishi, ishlab chiqarish omillari harakatining jadallahuvi;

➤ jahon mamlakatlari iqtisodiyotida yagona xalqaro standartlarning joriy etilishi;

➤ ko‘pchilik mamlakatlar xalqlarining madaniyatida, kundalik hayotida Yevropacha turmush tarzining (vesternizatsiya), amerikacha turmush tarzining namoyon bo‘lishi;

➤ globallashuvning investitsiyalar, kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo‘ylab oqimining jadallahib va keng miqyosda ega bo‘lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholanishi;

➤ globallashuvning turli xalqlarni nihoyatda yaqinlashtiradigan ommaviy madaniyat tufayli yuzaga kelgan tub o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi;

➤ globallashuvning demokratik jarayonlar natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasi yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit deb qaralishi;

➤ globallashuv ishlab chiqarish samaradorligini rag‘batlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish, iqtisodiyotni o‘sirish evaziga qo‘srimcha ish joylarini yaratadigan integratsion jarayon sifatida qaralishi;

➤ globallashuv axborot sohasidagi inqilib bilan chambarchas bog‘liqligi;

➤ globallashuv ayrimlar odamlar, oilalar va elatlar uchun yashash joyini o‘zgarishi va moliyaviy munosabatlar bilan bog‘liq xavf-xatarning ortishida namoyon bo‘ladigan muayyan tahdidlarga ega bo‘lishdan iborat<sup>1</sup>.

Mualliflar globallashuvning kirib kelishini 80-yillar bilan bog‘lashadi. Ko‘rinib turibdiki, globallashuv atamasi, uning yuzaga kelishi, immanent xususiyatlari, namoyon bo‘lishi haqida turlicha yondashuvlar, fikrlar mavjud. Hatto ba’zi mualliflar globallashuv kurtaklarini ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy imperiyasiga taqashadi. Ha, bu imperiyalar xalqlar, davlatlar, Sharq-u G‘arbni harbiy yurishlar vositasida integratsiyaga kirib yashashga majbur qilgan. Shunday ta’sir boshqa imperiyalarda, birinchi va ikkinchi jahon urushlarida ham kuzatamiz.

Ammo ular kuch, bosqin, urush vositasi bilan amalga oshirilgan integratsiya edi. Bugungi integratsiya va globallashuv ta’sirida yuzaga kelayotgan xalqaro hayot va xalqaro aloqalar ixtiyoriy xarakterga, xususiyatga ega. Ular ko‘pincha ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik, kommunikatsiya, madaniy boyliklardan bahramand bo‘lish, inson huquq va erkinliklari, liberal va neolebiral qadriyatlarning yoyilishi, sivilizatsiya yutuqlarini o‘zlashtirish kabi omillar mahsulidir. Integratsiya va differensiatsiya, bir tomonidan, umuminsoniy birlikka, hamkorlikka, ikkinchi tomonidan, milliy o‘zlikni, madaniy identifikatsiyani saqlab qolishga intilish bugungi globallashuvdagagi o‘ziga xos xususiyatlardir.

“Globalashuv” atamasi dastlab ilmiy iste’molga AQSHlik sotsiolog T.Livitt tomonidan kiritilgan. U o‘zining 1983-yili “Harvard Business review” jurnalida chop ettirilgan maqolasida globallashuvni transmilliy uyushmalar (korporatsiyalar)ning jahon bo‘ylab olib borayotgan biznes-faoliyati, jahon tovar bozorlarida savdo-sotiqlarni amalga oshirayotgan hamkorligi sifatida tahlil qilgan va tilga olgan. Shundan biri globallashuvni amalga oshirishning vositalari ustida bahs-munozaralar ketadi.

Bu vositalarni:

---

<sup>1</sup> Qarang: Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari. - Toshkent: Navro’z, 2015.12-136.

- savdo sotiq;
- moliyaviy operatsiyalar;
- iqtisodiy hamkorlik;
- ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish;
- ommaviy-axborot vositalari, ayniqsa TV, internet, kosmik telekommunikatsiya, mobil aloqalar;
- xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO, YUNISEF, BVB, Shanxay hamkorligi, Daos Forumi, YeI, Yevrosiyo iqtisodiy hamkorligi, MDH va boshqalar);
- xalqaro turizm;
- konsultativ kengashlar (Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2019 yilgi Ostonada o‘tkazilgan konsultativ kengashi);
- xalqaro olimpiiadalar va sport o‘yinlari;
- ijodiy festivallar, musobaqalar (Yevrovidenie, Kinofestival, Sharq taronalar);
- fuqarolarlik jamiyati institutlarining xalqaro (hududiy, mintaqaviy, umumjahon) forumlariga ajratish mumkin.
- globallashuvni industrial, ayniqsa, postindustrial taraqqiyot bosqichi bilan bog‘lash keng tarqalgan.

Postindustrializm konsepsiysi targ‘ibotchilaridan biri bo‘lgan AQSHlik sotsiolog D.Bellning fikricha, industrial taraqqiyot bosqichidan oldingi davrlarning asosiy xususiyati qo‘l mehnatining ustuvorligida edi, industrial taraqqiyot bosqichi texnika vositalaridan foydalanishga o‘tdi, postindustrial taraqqiyot bosqichida insoniyat, jamiyatlar intellektual mehnatidan, salohiyatidan foydalanishni o‘zining xususiyatiga aylantirdi. Postindustrial taraqqiyot bosqichi inson omiliga, undagi intellektual salohiyatga e’tiborini qaratadi va neoliberal g‘oyalarni inson huquq va erkinliklarini to‘la ro‘yobga chiqarishga intiladi. Sivilizatsiya yaratgan barcha yutuqlar, qulayliklar, urbanizatsiya, kommunikatsiya vositalari insonga xizmat qilishi shart. Shu tariqa neoliberalizm inson-huquqlarini va erkinliklarini liberal g‘oyalar kabi e’lon qilib qolmaydi, u bu huquq va erkinliklarni to‘la ro‘yobga chiqarish, ularni taraqqiyot ko‘rsatgichi sifatida qarash, taraqqiyot indeksiga aylantirish, barcha

siyosiy institutlar, milliy davlatlarni mazkur talablarga rioya etishga da'vat etadi. Neoliberalizmning bu da'vatlari postindustrial taraqqiyot bosqichiga hamda globallashuvdagi ijobiy jihatlarga hamohangdir.

Globallashuv yuz berishda internet, badiiy adabiyot, OAV, ta'lif, hamkorlik va boshqalar. Globallashuvning tarqalishida kompyuter, internet, badiiy ijodiy hamkorlik, OAV, ta'lif, ilm-fan sohasidagi integratsiya muhim o'rinn tutadi. Agar o'tgan asrning 60-yillarida "kompyuter", "internet" degan so'zlarni tor doiradagi mutaxassislar ishlatgan bo'lsa, 70-80 yillarga kelib internet-aloqalar real voqelikka aylana boshladi. Masalan, 70-yillarning boshida "Intelsat" yo'ldosh aloqa tizimi AQSHdan atigi 240 ta telefon so'zlashuvni qabul qilgan, bugun bu ko'rsatgich kuniga 120 mingdan ziyod. Bugun istagan kishi internet orqali dunyo chekkasidagi zamondoshi bilan bemolol aloqa o'rnatilishi, IMO orqali suratini ko'rib gaplashish yoki Google orqali zarur informatsiyalarni olishi mumkin. SVIRT xalqaro moliya tizimi 200 ming kompyuter orqali 50 mamlakatdagi 2 ming bankni boshqarayotgani, ular orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirayotgani odatiy holga aylangan. O'rta hisobda bugungi kishilarning bir kunlik axborotlar almashuvi, muloqoti o'tgan 6 ming yillar davomida xalqlar, amalga oshirgan axborot almashuvlari, muloqotlaridan ziyoddir. Bugun dunyoda har kuni 40 ming nomda badiiy asarlar nashrdan chiqadi, bu bir yilda o'rtacha 1.4 600 ming kitobdir. Mazkur asarlarning aksariyatini internet-planshetlarda bepul o'qish, kelganlarini esa kitob do'konlarini kezib yurmasdan, uyda o'tirib sotib olish mumkin.

Tadqiqotchilarining yakdillik bilan ta'kidlashlaricha, globallashuv G'arb, ayniqla, Amerika kashfiyotidir. Industrial davr, shuningdek, postindustrial davrning o'ziga xos xususiyatlari dunyo manzarasini, insonning olamga, o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirib yuborgani aynan Yevropa va AQSHdagi ilmiy-texnik va iqtisodiy yuksalishlar natijasidir. Masalan, basketbol, beysbol, gamburger, xot-dog, coca-cola, snikers, muzqaymoq, salqin ichimliklar, saqich(jivochka), mobil telefon, kompyuter, kinokamera, otkritka, passajir samolyoti, metro, univermag,

jensi, rep-musiqa, kredit kartasi, osmono‘par uylar, market, 3D, shahar-sitilar bularning bari amerika yuksalishi najtiasi yuzaga kelgan kashfiyotlardir.

McDonald’s bir kunda dunyoda 20 million, coca-cola esa milliard kishiga xizmat qilmoqda. MTV yiliga yarim milliard kishini qabul qiladi, Gollivud dunyodagi ko‘p tomosha qilinadigan filmlarning 85% ishlab chiqaradi. Dunyo bo‘ylab turli bo‘limlari, filmlari va instituti bor yirik transmilliy uyushmalar (korporatsiyalar) ham AQSHda joylashgan. Focus on the Family radio dasturini har kuni 95 ta mamlakatda 650 million kishi eshitadi. Oilaviy muammolarga bag‘ishlangan bu radiodastur dunyo xalqlarini, asosan, nimalar, qanday muammolar qiziqtirayotgani kabi muammolarni ham uzatadi. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda globallashuv Amerikalashuv sinonimi sifatida tilga olinadi<sup>1</sup>. J.Soros esa AQSHni globallashuv va global fuqarolik jamiyatining “bosh aktyori”, deb ataydi<sup>2</sup>.

Dunyoning mavkuraviy manzarasini davlatlar olib borayotgan siyosat, ularning xalqaro muammolarni hal etishdagi ishtiroki, o‘z harakatlarini himoya qilish va xalqaro minbarlardan turib, o‘z da’vatini jahon hamjamiyatiga singdirish, harbiy doktrinasi va rivojlanish konsepsiysi kabi subyektiv omillar belgilab beradi.

XX asrning oxirlari va XXI asr boshlarida kommunistik mafkurasining tanazzuli bilan amerikanizm, to‘g‘rirog‘i, AQSH gegemonizm mafkurasini ustuvor o‘ringa chiqib oldi. Aynan ushbu mafkura, dunyo taqdiri AQSH qo‘lida, u ilgari suradigan demokratik tamoyillar, tartiblar insoniyatni global fuqarolik jamiyati barpo etishga yetaklaydi, AQSHning missiyasi dunyo taraqqiyotini belgilab berish, o‘z ketidan qolgan, ayniqla, qoloq va endi rivojlanish yo‘liga kirayotgan davlatlarga rahnomalik qilish, degan g‘oyani ilgari surdi.

Kommunistik mafkura tanazzuli amerikanizm mafkurasining tantanasi sifatida qaraldi. Bu mafkurani tan olmagan yoki o‘zining tarixiy-madaniy rivojlanishini himoya qilayotgan davlatlarga nisbatan siyosiy, harbiy tazyiqlar o‘tkazish AQSHning

<sup>1</sup> Қаранг. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П.Бергера. С.Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.-С.342.

<sup>2</sup> Сорос Дж. О глобализации. – М.: «ЭКСМО», 2004.С.186.

tashqi siyosatiga aylandi. Uning Iroq, Yugoslaviya, Suriya, Eron, davlatlariga nisbatan tutayotgan siyosati ana shu gegemonlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va harbiy qudratga asoslangan. Haqiqatan ham, AQSH bugun dunyoda eng yetuk, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan, dunyoning deyarli barcha muhim makonlarida o‘z harbiy kuchlarini joylashtirgan davlat bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy yadro quollariga ega ekani, harbiy texnikasi va mudofasi uchun eng ko‘p mablag‘lar ajratishi nuqtayi nazaridan AQSH bilan bellashadigan davlat yo‘q.

Biroq bu uning gegemonlik siyosatini mutlaq haqiqat sifatida qabul qilishga asos bo‘lmaydi. Keyingi yillarda jahon geosiyosatida Rossiya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya kabi davlatlar ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Rossianing gipertovushli harbiy qurollarga ega bo‘lishi AQSH uchun kutilmagan hodisa bo‘ldi. Rossiya AQSHga butun dunyoga gegemonlikka yo‘l qo‘ymasligini, kerak bo‘lsa, o‘zining harbiy quollarini ishga solishini ochiq e’lon qildi. Shu zahotiyoq dunyoning mafkuraviy manzarasi o‘zgardi, yangi-yangi mafkura markazlari paydo bo‘ldi. AQSH o‘zi istamagan va kutmagan tarzda gegemonlik mafkurasi qarshilikka duch kelganini, zarbaga uchraganini bildi. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy zaif Shimoliy Koreyaning “tengma-tenglik prinsipi”ga muvofiq muzokara olib borishga AQSHni majbur etgani gegemonizmni yagona hukmron mafkura, g‘oya bo‘lib qololmasligini, barcha masalalar tinch va muzokara yo‘li bilan hal etilishi lozimligini ko’rsatdi.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasini Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar ishtirokisiz tasavvur qilish mumkin emas. Bu manzarani yaratishda Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi ham o‘zining demokratik huquqiy davlat barpo etishga qaratilgan strategik maqsadi, milliy modeli va mafkurasi bilan qatnashmoqda. To‘g‘ri, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrda “hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatalishi mumkin emas” degan qoidani Konstitutsiyaga kiritdi. Kommunistik mafkuraning salbiy ta’siri tajribasi shunday moddani kiritishga majbur qilgan. Ammo jahon tajribasi, ayniqsa, amerikanizm va yevrosentrizm g‘oyalarining g‘arb turmush tarzini singdirishga bo‘lgan harakatlar o‘z milliy mafkurasiga ega

bo‘lmanan xalqni birlashtirishi, madaniy taraqqiyotga erishtirishi, kishilarda ijtimoiy-iqtisodiy faollilikni, fidoyilikni shakllantirishi mumkin emas. Bu mafkurani faqatgina davlat shakllantirish hamda ijtimoiy ongga singdirish imkoniga ega. Globallashuvga, mavjud ta’riflar va yondashuvlardan kelib chiqqan holda quyidagicha ijtimoiy-falsafiy ta’rif berish mumkin:

Globallashuv insoniyat hayotini, aloqalarini, integratsiya jarayonlarini global (umumsayyoraviy) miqyosda intensifikatsiyalash, xalqlar va davlatlar ijtimoiy borlig‘ini umuminsoniy tamoyillar va umuminsoniy taraqqiyot talablariga muvofiqlashtirish tomon yetaklayotgan jarayondir. Har qanday ijtimoiy hodisa kabi globallashuv ham ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy jihatlarga ega. U chambarchas bog‘liq bo‘lgan davrlar – industrial taraqqiyot va postindustrial rivojlanish bosqichining o‘zi ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy jihatlarga to‘la. Shuning uchun ham globallashuv nafaqat hozirgi davr, shuningdek, industrial davr xususiyatlari bilan bog‘lab o‘rganiladi hamda shu davrlar nuqtayi nazaridan ham baholanadi. Butun ijtimoiy hayotni modernizatsiyalash globallashuvning talablaridir.

### Tajribaviy amaliy matnlar

Globallashuv, immanent xususiyatlar, integratsiya, “global”, “globalizatsiya”, transmilliy uyushmalar liberal (neoliberal), gomogenezatsiya, geterogenizatsiya, bifurkatsiya (ajralish), fluktuatsiya (tebranish), informatsion universallashuv, investitsiya, kapital, postindustrial taraqqiyot, urbanizatsiya, kommunikatsiya vositalari neoliberalizm, gegemonlik, modernizatsiyalash.

### Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:

**GLOBAL**

fransuzcha “global” - umumga oid, umumga taalluqli, umum bilan bog‘liq.

lotincha “globus” - shar.

**Taniqli sotsiolog E.Giddens** - “Globallashuv bir-biridan ko‘p uzoqlarda ro‘y beradigan mahalliy voqealarning butun jahon sotsial munosabatlarga intensifikatsiyalashuvidir.


**P.Ratlend** - kishilar, xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning umuminsoniy mohiyat kasb etishi deb tushunadi.

**R.Robertson** - sotsial munosabatlarning lokal holatdan global holatga o‘tishi, “bir-birini to‘ldiruvchi, ba’zi holatlarda bir-biri bilan to‘qnashuvchi “gomogenizatsiya va geterogenizatsiya” jarayonlarini tushunadi.

**I.Prigojin** - jahonda yuz berayotgan globallashuvni avvalo axborot tizimi bilan bog’liq voqelik deb biladi. Uning fikriga ko‘ra, globallashuvga bifurkatsiya (ajralish) va fluktatsiya (tebranish) xosdir.

**J.Soros** - globallashuvni “global ochiq jamiyat”ni tashkil etish tomon eltuvchi voqelik deb tushunadi. Globallashuv - “Global moliya bozorini rivojlantirish, transmilliy korporatsiyalar qudratining olishi va uning milliy iqtisodiyotga ta’sirining oshib borishi”dir.


### **GLOBALLASHUVNING ASOSIY XUSUSIYATLARINI QUYIDAGICHA SHARHLASH MUMKIN:**



**Ulxix Bek** - globallashuvni ikki bosqichga Birinchi modern va Ikkinci modernga ajratadi. Birinchi modernga ilmiy-texnik kashfiyotlar, fan rivoji, sayohatlar va o‘zga davlatlarni, qit’alarni o‘zlashtirish, bosib olish bilan bog’liq jarayonlarni kiritadi.

**X.S.Jumaniyazov, M.A.Sobirova va U.B.Nigmanovalar** - globallashuvga “turli mamlakatlarning, xalqlarning jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalardagi o‘zaro ta’siri va bog’liqligining keskin kuchayishidir”.

**J.Soros**: AQSH – globallashuv va global fuqarolik jamiyatining “bosh aktyori”dir.



### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Globallashuv jarayoniga turli xil yondashuvlar?
2. Globallashuvning immanent xususiyatlari?
3. Globallashuvning namoyon bo‘lish belgilari?
4. Gomogenezatsiya va geterogenizatsiya tushunchalarini izohlang?
5. O‘zbek olimi B.Umarovning globallashuv jarayoni to‘g‘risidagi qarashlari?
6. Globallashuvni amalga oshirish vositalari?
7. “Globallashuv” atamasi dastlab ilmiy iste’molga kim tomonidan kiritilgan?
8. Postindustrial taraqqiyotni tushuntiring?
9. Globallashuvning asosiy davrlari?
10. Globallashuv jarayoniga o‘ziningizning shaxsiy yondashuvningiz qanday?

### **Referat mavzulari**

1. “Globallashuv” tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
2. Globallashuvning jamiyat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari.
3. Globallashuvning vujudga kelishi.
4. Bugungi integratsiya va globallashuv jarayoni.

### **Adabiyotlar:**

1. Ратленд П. Глобализация и посткоммунизм // Мировая экономика и международные отношения, 2002, № 4.- С. 15-16.
2. Ульрих Бек. Что такое глобализация? – Москва: Прогресс-Традиция, 2001.
3. Пригожин И. Кость еще не брошена // Синергетическая парадигма. Нелинейное мышление в науке и искусстве. – Москва: Прогресс-Традиция, 2002. С-19-21.
4. Giddens A. The Consequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990. P.64.
5. Robertson R. Globalization. – London, 1992.
6. Бжезинский З. Великая шахматная доска. – Москва: Международные отношения, 1998.

7. Сорос Дж. О глобализации. – М.: «ЭКСМО», 2004.
8. Абдуллаев И.З. Информатизация и глобализация. Т., 2002.
9. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент. «O`zbekiston», 2015.
10. Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari – Toshkent: Navro`z, 2015.
11. Сайдов У. Глобаллашув ва маданиятларо мулокот. – Тошкент: Muharrir, 2009.
12. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Akademiya, 2008.
13. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. Т.: Маънавият, 2006.
14. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современное мире. Под ред. П. Бергера. С. Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.-C.342.

### **3-MAVZU: GLOBALLASHUVNING MILLIY RIVOJLANISHGA O'TKAZAYOTGAN TA'SIRI VA UNING OQIBATLARI REJA:**

1. Globallashuv universallashuv jarayoni sifatida.
2. Globallashuv to'lqinlari va globallashuvning asosiy davrlari. Globallashuvga bozor munosabatlarning ta'siri.
3. Globallashuv hayotining gomogenezatsiyasi sifatida.
4. Globallashuvning milliy iqtisodiy siyosat bilan bog'liqligi. Globallashuv va dunyoning yo'nalishi masalasi.
5. Globallashuv fenomen sifatida. Globallashuvning milliy rivojlanishga o'tkazayotgan ta'siri.

Globallashuvning universallashuvi borasidagi fikrlarni Ulrix Bek faylasuflar F.Nitsshe va F.Lessing falsafasi bilan asoslashga intiladi. Ma'lumki, F.Nitsshe "Yevropaning tugallangan birinchi nigliisti" sifatida barcha qadriyatlarni qayta baholash tarafdori edi. U g'arb yaratgan barcha narsalarni, hatto axloq, din, madaniyatni ham rad etishi mumkin edi. Lessing universalizm tarafdori sifatida fikrlasa-da, u ham relyativizmdan voz kechmagan. Ijtimoiy borliqni, hayotni bila olmaslik, nisbiylik relyativizmga yetaklaydi, aql-u idrokka pessimistik yondashuv universallik tamoyilini cheklab qo'yish mumkin. Globallashuvni universal hodisa sifatida qarash bir tomonidan, unga xos bo'lgan ijtimoiy jihatlarni ifoda etadi. Bu bilan biz globallashuvni barcha sohalarga taalluqli hodisa ekanini tan olgan bo'lamiz. Ikkinchi tomonidan, universallik globallashuvni barqaror, shakllanishi shart voqelik sifatida tan olishga yetaklaydi. Ammo universallik ijtimoiy hayotda turlicha namoyon bo'ladi va voqe-a-hodisalarini ham turlicha aks etiradi.

Sotsiolog T.Parsonsning fikriga ko'ra, har qanday sotsial tizimda to'rtta barqaror va oltita beqaror jihatlar mavjuddir. Barqarorlik jihatlarga: 1) kommunikatsiya tizimi; 2) qarindoshlik tizimi; 3) din shakllari; 4) texnologiyalar kiradi. Jamiyatni tashkiliy qayta tuzilishi, o'zgarishi esa; 5) stratifikatsiya; 6) madaniy legitimlashish; 7) byurokratiya; 8) pul va bozor kompleksi; 9) umumlashtirilgan normalar tizimi; 10)

demokratik uyushmalar tizimini paydo qiladi<sup>1</sup>. Universallik ijtimoiy hayotga moslashuvchanlikni ifoda etib kelgani uchun ham yashovchandir. Ma'lumki, ijtimoiy hayot dinamizmi jamiyat oldiga yangi-yangi talablar qo'yadi, inson bu talablarga moslashib yashaganidagina o'zini, tirik mavjudot va organizm sifatida, asrab qola oladi. Umuman, ijtimoiy hayot dinamikasining o'zi vaziyatlarga moslashish demakdir.

Globallashuvga ijtimoiy hayot dinamikasi mahsuli sifatida qarash, biz istaymizmi yoki yo'q, moslashishni(adaptatsiyani) keltirib chiqaradi. Natijada globallashuv tepadan tushirilgan, kishilar hayotiga, ijtimoiy borliqqa zid, mutlaq begona hodisa va ijtimoiy borliqdan unib chiqqan voqelik sifatida keladi. Globallashuv shu ma'noda ijtimoiy hayot dinamizmiga moslashishning bir ko'rinishidir. U universalligi bilan ijtimoiy hayot dinamizmiga muvofiqligini, borliqqa zarurligini isbot qiladi. Qisqasi, globallashuv ijtimoiy taraqqiyot talabi, bu talabning keng, umumsayyoraviy makondagi ifodasıdır. U qandaydir kuchlar, hatto davlatlarning istagidan, xohishidan kelib chiqqan emas, u bir vaqtning o'zida butun ijtimoiy borliqqa, inson hayotiga taalluqligi, universalligi bilan ajralib turadi.

Ulrix Bek globallashuv to'lqinlarini universalizm bilan bog'lar ekan, quyidagi yo'nalishlar mavjudligini qayd etadi:

- universalli universalizm (UU);
- universalli kontekstualizm(relyativizm) (UK);
- kontekstual universalizm (KU);
- konteksli kontekstualizm (KK);

Ushbu yo'nalishlardan birinchi va ikkinchisi (UU va UK)da totalitarizm xislatlari mavjud. Kelganlarida universalizmni shubhaga olish, u bilan baholashi, dialog o'rnatish, hatto ma'lum bir yondashuvlarni yangilash mumkin. Kontekstual universalizm mohiyatan ijtimoiy hayot dinamizmidan kelib chiqadi, u bilan birga "universallahadi". Biroq gap bu yerda Ulrix Bek nazarda tutgan "yoki bir universalizm yoki hech qanday" tamoyili, talabi emas, "plyuralistik universalizm"

---

<sup>1</sup> Карапнг: Российская социологическая энциклопедия.-Москва: Норма-инфра. М.1998.С.584.

ustida ketmoqda. “Mening yoki sening universalizming” (aslida bu o‘rinda madaniyatlarning turli ko‘rinishlari nazarda tutilmoqda) umumiy, ya’ni global universallikning sharti hisoblanadi. Masalan, Inson huquq va erkinliklari haqidagi xalqaro Bill G‘arb kashfiyati, u g‘arb davlatlari uchun universal norma. Ammo undagi ko‘pgina normalar boshqa milliy qonunchilikka implementasiya qilishgan bo‘lsa-da, lokal xususiyatga ega. Inson va xalqlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Afrika xartiyasi faqat o‘sha qit’adagi kishilar va xalqlar madaniyatiga, universalizmiga muvofiqdir.

Globallashuvdagи universallik esa, lokal universallikdan keng bo‘lib, u lokal universallikning raqibi, uning lokalligini, cheklanganligini yengishga ahd qilgan fenomen sifatida keladi. Lokal universallikning ustunligini har yili yuz minglab Afrikaliklarning Yevropaga ko‘chib borishida ko‘rish mumkin. Globallashuvning asosiy davrlarini (industrial va postindustrial) aniq belgilash qiyin. Bu borada ayrim fikrlar uchrasa-da, ularni shu zahoti rad etuvchi fikrlar ham uchraydi. Ulrix Bek mazkur muammolarni “globallashgan”, “globallashayotgan” va “globalizm” tushunchalarini tahlil qilish orqali izohlashga intiladi.

Uning fikricha, globallashuvning o‘z bosqichlari va jarayonlari mavjud. “Globallashgan” tushunchasi mavjud reallikni qat’iy tasdiqlashga yo‘nalgan. U oxir natijada jahon jamiyatini anglatadi va bu vaziyat qaytarilmasdir. U ko‘p me’yorlik, politsentriklik, kontingentlik va siyosiylikni o‘z ichiga oladi. “Globallashayotgan” tushunchasi hali qat’iy bo‘lmagan, biroq mohiyatiga ko‘ra, jahon jamiyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayonlarni ifoda etadi. Nima globallashayotgan bo‘lsa, u muqarrar globalizmga taalluqli, nima globallashgan bo‘lsa, u ham globalizmga taalluqlidir. Bizning hayotimiz, biz yashayotgan dunyo globalizmdir (R.Robertson). Demak, globallashgan, globallashayotgan va globalizm turli to‘lqinlar, jarayonlar sifatida “jahon jamiyati”dagi uyg‘unlikni ifodalaydi. Bu uyg‘unlik tekis kechmaydi, u ba’zan bifurkatsiya, ba’zan fluktuatsiya tarzida keladi.

Globallashuvni bozor munosabatlari, iqtisodiy demokratiya, ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya yuzaga keltirgan, degan fikr keng tarqalgan. Ilmiy, ijtimoiy, falsafiy

asarlarda globallashuv jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy sohalar yetakchi o‘rinda turishi qayd etiladi. Amerikalik tadqiqotchilar G.Kan va J.Felps, butun dunyoda 19 global muammo mavjud, ular, asosan, “Amerika postindustrial iqtisodiyoti ta’siridir”, degan fikrni bildirishadi. J.Soros esa o‘z qiziqishlari doirasi bilan bog‘lab, globallashuv “Moliya bozori”ning faollashuvi, umumsayyoraviy xususiyat kasb etishi bilan bog‘liq, degan g‘oyani targ‘ib qiladi. Har ikki yondashuvda ham gap ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy omillarning globallashuv jarayonlariga ustuvor ta’siri nazarda tutiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish globallashayotgan dunyo hayotida ishtirok etish, erkin savdo-sotiq qilish, xalqaro aloqalarda o‘z manfaatlari va qiziqishlarini himoya qilish, kreditlar olish, investitsiyalar jalb etish, yangi infratuzilmalar tuzish kabilarga imkon beradi. Xususiy mulkning qo‘llab-quvvatlanishi tadbirkorlik va ishbilarmonlikning rivojlanishiga, bu esa, o‘z navbatida, aholi bandligini ta’minlash, turmush darajasini yuksalishiga olib keladi. Shu bilan birga bozor iqtisodiyotida mavjud global muammolarni hal etish uchun birlashish, bozor iqtisodiyoti tug‘diradigan inqirozlarni bartaraf etish yo‘llarini birgalikda izlash imkoniyatini ham beradi. Masalan, shu maqsadda 1999-yili tashkil etilgan “Katta yigirmatalik”ni olaylik. Mazkur uyushmaga yalpi ichki mahsulotning 90% ni tashkil etuvchi 20 ta rivojlangan va rivojlanish yo‘liga kirgan yirik davlatlar - Amerika, Avstraliya, AQSH, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, JAR, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Rossiya, Turkiya, Fransiya, Xitoy, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Yaponiya kiradi. 2008-yili ro‘y bergen jahon moliyaviy inqirozi ushbu uyushmani birgalashib harakat qilishga, bozor iqtisodiyotidagi raqobat, xufiyona savdo-sotiq, kiber hujum, korrupsiya, boylik ortirish yo‘lidagi jinoyatlarga qarshi turishga undadi.

2008-yil avgustda Vashinton (AQSH), 2009-yil sentyabrda Pittsburg (AQSH), 2009-yil aprelda London (Buyuk Britaniya), 2010-yil iyunda Toronto (Kanada), 2010-yil noyabrda Seul (Janubiy Koreya), 2014-yil mayda pekin (Xitoy) sammitlarida global inqirozlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar rejaları

qabul qilindi. Seul sammitida AQSH va Xitoyning valuta siyosati, Xalqaro hisob-kitoblar bankini nazariy qilish bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan jahon bank sohasi uchun yangi tartiblar, xalqaro valuta fondini isloh qilish, jahon iqtisodiyotini anglangan tarzda rivojlantirish yo‘llarini belgilab bergen va ularni amalga oshirishga da’vat etadigan “Seul konsensusi” qabul qilindi.

Unda 2013-yilga borib rivojlangan davlatlarning byudjet taqchilligini kamida 2 barobarga qisqartirish, rivojlanish yo‘liga kirgan davlatlarga moliyaviy yordamlar ko‘rsatish va kreditlarni berish hajmini 1,7% ga oshirish kelishib olindi. 2010-yildagi olingan tezkor ma’lumotlarga ko‘ra yalpi ichki mahsulotning o‘sishi AQSHda 1,5%, Yaponiyada 1,7%, Buyuk Britaniyada 0,9%, Germaniyada 3,6%, Kanada 2,0%, Fransiyada 2,1%ni tashkil etgan. Vaholonki, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozidan oldingi yillarda Yevropa ittifoqi davlatlari yalpi ichki mahsulotlar o‘sish sur’ati 4-6% atrofida bo‘lgan.

Jahon moliyaviy inqirozi bozor iqtisodiyotining goho kutilmagan tarzda global muammolarni keltirib chiqarishini ko‘rsatdi. Inqiroz ko‘pgina korxonalar, xizmat o‘choqlari, boshqaruv institutlarini yopilishiga olib keldi, natijada ishsizlikning oshishiga olib keldi. O‘sha inqirozlar paytida ishsizlik AQSH va Germaniyada 10,6%, Buyuk Britaniyada 9,3%, Fransiyada 8,9%, Yaponiyada 6,2%ga yetgan. Mutaxassislarning fikricha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bank-moliya tizimini mudom barqaror qololmasligini, ularni ham globallashayotgan iqtisodiyot talablariga muvofiq modernizatsiyalashga olib keladi. AQSH birinchilardan bo‘lib uzoq yillar davomida xususiy bank sifatida faoliyat yuritib kelayotgan 4 ta yirik bankni milliylashtirdi, ularni davlat ixtiyoriga o‘tkazdi. Yevropa Ittifoqi davlatlari banklarning yuqori riskli aktivlarini sotib olishga, shu tariqa ularni bankrotlikdan saqlab qolishga o‘tdi. Natijada davlatlar banklarda yirik mablag‘larni umumijtimoiy ehtiyojlarga sarflash, yo‘naltirish imkoniga ega bo‘ldi. To‘g‘ri, bu usul bozor iqtisodi qonunlariga zid, erkin faoliyatni cheklab qo‘yadi, raqobatni o‘ldiradi. Ammo, bu raqobat raqobat uchun, bozor bozor uchun emas, inson manfaatlari uchundir. Inqiroz

paytida bank tizimini o‘z holiga tashlab qo‘yish davlatga juda qimmatga tushishi mumkin edi.

Ma’lumki, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o‘sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi davlat byudjet xarajatlarining daromadlariga nisbatan ortib ketishi, ya’ni byudjet taqchilligiga olib keladi. Byudjet taqchilligining o‘zgarishi xo‘jalik konyukturasidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan iqtisodiyotning ma’lum sektorlarini moliyaviy ta’minlab turishga, umum davlat ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab qolishga majbur bo‘ladi<sup>1</sup>. O‘zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yillarida hukumatimiz va davlatimizning maxsus chora-tadbirlari tufayli yalpi ichki mahsulotlar sur’atini saqlab qolishga erishildi. 2008-yili bu sur’at 9% ni, 2009-yili 8,1%, 2010-yili esa 8,5%ni tashkil etgan. Ishsizlar soni o‘rtacha 7% atrofida saqlanib turilgan. Bu jahon o‘rtacha ko‘rsatkichlariga muvofiqdir.

Globallashuvning gomogenezatsiyalashuvi deganda rang-barang jarayonlarning bir xillashuvi, o‘zaro o‘xshashliklar kasb etishi, bir-biriga muvofiqlashuvi tushuniladi. Global dunyo barcha institutsional uyushmalar kabi tartibni, boshqarishni, qabul qilingan qoidalarga muvofiq harakat qilishni taqozo etadi. U ham institutsional birlashmalar kabi boshboshdoqlikni, xaosni yoqtirmaydi. Bugun real borlig‘imizga aylanib borayotgan liberal-demokratik va neoliberal qadriyatlar, umuminsoniy normalari milliylikni gomogenezatsiyalashuvga olib kelmoqda. Masalan, g‘arbcha kiyinish, ingliz tilini o‘rganishga qiziqish, ko‘ppartiyaviylik tizimi, davlat hokimiyatining taqsimlanishi (Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatiga), ikki palatali parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, modernizatsiya, innovatsiya o‘zida gomogenezatsiyalashni tashiydi. Ular ma’lum bir ko‘rinishida milliy zominga, mentalitet va lokal tarixiy-

<sup>1</sup> Қаранг: Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласи. Ўқув-услубий мажмуя.-Тошкент: ЎзРОЎМТ вазирлиги, 2011.266.

madaniy an'analarga tayansa-da, mohiyatan Yevropacha ish yuritish, kiyinish, boshqarish usullaridir.

Globallashuv milliy iqtisodiyotni va tarixiy-madaniy boyliklar plyuralizmini rad etmaydi. Har qanday o'zgarish milliy zaminga, tajribaga tayanganida ijobjiy natijalarga olib keladi. Globallashuv to'lqinlari qanchalik kuchli bo'lmisin milliy-madaniy an'analarning, milliy iqtisodiyotining o'z xususiyatlarini asrab qolishga ishtiyoqi ham shuncha kuchlidir. Shuning uchun ham taniqli tadqiqotchilar P.Berger va R.Xantington "Turfa globalizatsiya" degan tushunchani iste'molga kiritishadi. Shu bilan birga ular yoziladi: "Omadli sharqiy Yevropalik biznesmen kengash zalida o'zini amerikalik hamkasb sifatida tutishi, ammo uyiga kelgach, mahalliy an'analaringa muvofiq, xotinini urishi va bolalarini holdan qoldirishi mumkin"<sup>1</sup>. "Alternativ globalizatsiya" atamasi ham ana shu mahalliy an'analarning, milliy iqtisodiyot va madaniyatlarning ta'siri sifatida shakllangan tushunchadir. Globallashuvning obyektiv fenomen ekanligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jahon xalqlari, davlatlari global hamkorlikni tabiiy zaruriyat, ijtimoiy taraqqiyot qonuni sifatida qabul qilayotganida;
- jahon bozori va jahon jamiyati subyektiv qarashlar mahsuli bo'lmay, ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, transmilliy aloqalar va hamkorlik natijasiga aylanib borayotganida;
- inson faoliyati va qiziqishlari doirasining global tarzda kengayib, milliy chegara va lokal tartiblarni "qayta baholashga"ga undayotganida;
- erkin bozor munosabatlari turli iqtisodiy, moliyaviy, ekologik, ma'naviy inqirozlarni keltirib chiqarib insoniyat hayotini xavf ostiga qo'yishi yoki xomashyolar urush"ni keltirib chiqarishi mumkinligi real voqelik sifatida qaralayotganida;
- intellektual izlanishlar bir tomonidan, insonning ijodiy, kreativ faoliyatini oshishiga yordam berishini, ikkinchi tomonidan, aynan ushbu intellektual kuch yadro

---

<sup>1</sup> Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П.Бергера. С.Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.-С.12.

quroli orqali kelajakka, sayyoraga fojialar keltiruvchi fenomenga aylanishi mumkinligi anglanayotganida;

– destruktiv kuchlarning, antiglobalistik g‘oyalarni targ‘ib etishi va umumsayyoraviy muammolar yechimiga qarshi chiqayotgani, asta-sekin bo‘lsa-da, jahon hamjamiyati tomonidan real xavf sifatida e’tirof etilayotganidadir.

Globallashuvni real voqelik, o‘ziga xos fenomen ekanini endi asoslashga o‘rin yo‘q, u bugun aksioma sifatida hatto antiglobalistlar tomonidan ham tan olinmoqda. Ba’zi biror xalq davlat globalizatsiyani rad etmaydi, unga qarshi chiqayotgani yo‘q. Globalazatsiya bosh aktyorlarining ba’zan g‘ayridemokratik, g‘ayrilmay xatti-harakatlariga qaramay, jahon xalqlari globallashuvdagi ijobjiy tomonlarni o‘zlashtirish va lokal zaminiga tadbiq etishni ma’qul ko‘rishadi. Aynan shuning o‘zi globallashuvni ro‘y berayotgan ayrim jihatlari ijtimoiy borliqdan joy olgan va joy olishi davom etayotgan fenomen ekanini ko‘rsatadi. Dunyoning bugungi yo‘nalishidagi asosiy yo‘l, magistral ko‘rsatgich global taraqqiyotdir. Bu ko‘rsatgich tomon siljish ba’zan anglanmagan tarzda ro‘y bermoqda, ammo fenomenal xususiyatga ega globallashuvni hech bir davlat, xalq chetlab o‘tolmaydi. Chunki globalga, Platon iborasi bilan aytganda, “bugun”ga intilish azaldan, qismlarning xohishi, istagi va taraqqiyotining sharti bo‘lib kelgan.

Milliy rivojlanish mutlaq lokal voqelik emas, har qanday milliy madaniyatda nafaqat lokal, shuningdek, umuminsoniy, umumsayyoraviy belgilar mavjuddir. Aynan ushbu xususiyat milliy rivojlanishga lokal voqelik sifatida emas, shu bilan birga, umuminsoniy nuqtayi nazardan qarashga undaydi. Aytmoqchi bo‘lgan fikrimiz shundaki, milliy rivojlanishda doimo umuminsoniy xususiyatlar bo‘ladi, aynan ushbu xususiyatlar milliy rivojlanishni global taraqqiyot talablarini qabul qilishga hozirlaydi. Falsafa fanlari doktori O.Nishonova yozadi: “Insoniyat o‘zini globallashayotgan, madaniyatlar uyg‘unlashayotgan dunyoda yashayotganini idrok etmoqda. Shuning uchun har bir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va xalqaro o‘zgarish, islohotlar umuminsoniy madaniyatga nima beradi, degan savol nuqtayi nazaridan baholanmoqda. Ammo global taraqqiyot milliy etnomadaniyatlarni rad etmaydi, balki


ularni yanada rivojlantirishni, imkoniyatlardan foydalanib jahon hamjamiyatini mustahkamlashni nazardan tutadi.

Jahon xalqlari integratsiya va globalizatsiya yo‘lidan borayotgan ekan, ushu jarayonlarni pozitiv voqelikka aylantirish uchun etnomadaniyatlar va milliy madaniyatlar oldidagi muammolarni ham hal etish talab qilinadi”<sup>1</sup>. Olima milliy va etnomadaniyatlardagi muammo “ulardagi umuminsoniy qadriyatlar, xususiyatlarni o‘rganishda, ochib berishda”, - deb ko‘rsatadi. Madaniyatlardagi yadroni o‘zakni anglash ularni globallashuvga to‘la qo‘shilib ketish yoki assimilyatsiyaga uchrashi xavfidan asraydi.

### Tajribaviy amaliy matnlar

Globallashuv universallashuvi, ijtimoiy hayot, kontekstualizm (relyativizm), globalizm, politsentriklik, kontingentlik, infratuzilma, xo‘jalik konyukturasi, gomogenezatsiyalashuvi, institutsional uyushmalar, neoliberal qadriyatlar, ikki palatali parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, modernizatsiya, innovatsiya, mentalitet, kiyinish, boshqarish, integratsiya, transmilliy aloqalar, hamkorlik, global taraqqiyot, milliy etnomadaniyat.


### Qo‘shimcha va tushuntiruvchi matnlar:




<sup>1</sup> Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик мөхияти. Монография. – Тошкент: Фан, 2013-15-166.

Ulrix Bek globallashuv to‘lqinlarini universalizm bilan bog‘lar ekan, quyidagi yo‘nalishlar mavjudligini qayd etadi:

- universalli universalizm (UU)
- universalli kontekstualizm (relyativizm) (UK)
- kontekstual universalizm (KU)
- konteksli kontekstualizm(KK)



#### **GLOBAL INQIROZLARINING OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORATADBIRLAR REJALARI QABUL QILINGAN SAMMITLAR**



**O.Nishonova** - “Insoniyat o‘zini globallashayotgan, madaniyatlar uyg‘unlashayotgan dunyoda yashayotganini idrok etmoqda. Shuning uchun har bir ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va xalqaro o‘zgarish, islohotlar umuminsoniy madaniyatga nima beradi, degan savol nuqatayi nazaridan baholanmoqda. Ammo global taraqqiyot milliy etnomadaniyatlarni rad etmaydi, balki ularni yanada rivojlantirishni, imkoniyatlardan foydalanib jahon hamjamiyatini mustahkamlashni nazardan tutadi”.

### **GLOBALLASHUVNING OBYEKTIV FENOMEN EKANLIGI QUYIDAGILARDA NAMOYON BO‘LADI:**

- jahon xalqlari, davlatlari global hamkorlikni tabiiy zaruriyat, ijtimoiy taraqqiyot qonuni sifatida qabul qilayotganida;
- jahon bozori va jahon jamiyati subyektiv qarashlar mahsuli bo‘lmay, ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, transmilliy aloqalar va hamkorlik natijasiga aylanib borayotganida;
- inson faoliyati va qiziqishlari doirasining global tarzda kengayib, milliy chegara va lokal tartiblarni “qayta baholashga”ga undayotganida;
- erkin bozor munosabatlari turli iqtisodiy, moliyaviy, ekologik, ma’naviy inqirozlarni keltirib chiqarib insoniyat hayotini xavf ostiga quyishi yoki xom-ashyolar urush”ni keltirib chiqarishi mumkinligi real voqeiylik sifatida qaralayotganida;
- intellektual izlanishlar bir tomonidan, insonning ijodiy, kreativ faoliyatini oshishiga yordam berishini, ikkinchi tomonidan, aynan ushbu intellektual kuch yadro quroli orqali kelajakka, sayyoraga fojialar keltiruvchi fenomenga aylanishi mumkinligi anglanayotganida;
- destruktiv kuchlarning, antiglobalistik g‘oyalarni targ‘ib etishi va umumsayyoraviy muammolar yechimiga qarshi chiqayotgani, astasekin bolsa-da, jahon hamjamiyati tomonidan real xavf sifatida e’tirof etilayotganida.

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Globallashuvni universallashuvi deganda nimani tushunasiz?
2. Industrial va postindustrial davrlardagi globallashuvning xususiyatlari asosan nimada aks etadi?
3. Globallashuvning bozor munosabatlari bilan bog‘ligini asoslang?
4. Globallashuvning gomogenezatsiyalashuvi deganda nima tushiniladi?
5. Milliy iqtisodiyotda globallashuv omillari nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Globallashuvning fenomenal xususiyatlari nimalardan iborat?

### **Referat mavzulari**

1. F.Nitsshe va F.Lessing falsafiy qarashlarida universallashuv va uning mohiyati.
2. Universallik globallashuvni barqaror shakllanishi shart voqelik sifatida.
3. Globallashuvga ijtimoiy hayot dinamizmi mahsuli sifatida qarashlar.
4. Ulrix Bek globallashuv to‘lqinlari haqida.
5. “Globallashgan”, “globallashayotgan dunyo” va “globalizm” tushunchalarini tahlili.
6. Globallashuv “Moliya bozori”ning faollashuvi, umumsayyoraviy xususiyat kasb etishi bilan bog‘liq, degan g‘oyaning mazmun-mohiyati.
7. Gomogenezatsiyalashuv tushunchasi va uning globallashuv bilan bog‘liqligi.
8. Globallashuv obyektiv fenomen sifatida.

### **Adabiyotlar:**

1. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современное мире. Под ред. П. Бергера. С. Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.- С.12.
2. Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. Монография. – Тошкент: Фан, 2013-15-166.
3. Российская социологическая энциклопедия. – Москва: Норма-инфра. М.1998.С.584.

4. Ратленд П. Глобализация и посткоммунизм // Мировая экономика и международные отношения, 2002, № 4.- С. 15-16.
5. Ульрих Бек. Что такое глобализация? – Москва: Прогресс - Традиция, 2001.
6. Парсонс Т. Система современных обществ. – Москва: Аспект-Пресс, 1998.
7. Giddens A. The Consequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990. P.64.
8. Robertson R. Globalization. – London, 1992.
9. Глобальные проблемы современности. – Москва: Мысль, 1981.
10. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент. «O'zbekiston», 2015.
11. Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. – Toshkent: Navro'z, 2015.
12. Сайдов У. Глобаллашув ва маданиятларо мулоқот. - Тошкент: Muharrir, 2009.
13. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. Т.: Маънавият, 2006.
14. Глобальных проблем социального развития (философско-методологические аспекты). Кишинев: Шойинка, 1998.

#### **4-MAVZU: GLOBALLASHUVNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI REJA:**

1. Globallashuvning jamiyat hayotidagi ijobiy tomonlari.
2. Globallashuvning jamiyat hayotidagi salbiy tomonlari.
3. Globallashuv va ilm-fan, texnika taraqqiyoti masalalari.
4. Insoniyat hayotida jamiyat hayotining turli sohalarida hamkorlikning kuchayishi, uning turli jihatlari.
5. Insoniyatga tahdidlar va ularni hal etishda hamkorlikning roli.

Globallashuvning bifurkatsion va fluktatsion jihatlarini deyarli barcha tadqiqotchilar yakdillik bilan qayd etadilar. Globallashuvni maxsus fenomen sifatida o‘rgangan T.Levitt, J.Stigmiz, D.King, A.Pechen, P.Krugman, J.Soros, M.B.Olkott, A.Neklessa, F.Fukuyama, A.E.Gellner, E.Toffler, U.Bek, P.Ratlend, A.A.Zinovyev, A.K.Utkin kabi olimlar, avvalo, undagi ijobiy jihatlarga diqqatlarini qaratadilar. Ular globallashuvni real, obyektiv jarayon ekanidan kelib chiqib, hayot dinamizmdagi ziddiyatlarning global o‘zgarishlarda ham in’ikos etishini ta’kidlaydilar. Real, obyektiv hayot tarzida o‘zini namoyon etayotgan globallashuv ziddiyatlarsiz, ijobiy va salbiy ta’sirlarsiz kechishi mumkin emas, albatta.

Globallashuvning hayot dinamizmiga, ijtimoiy borliqning ziddiyatli kechishi qonunlariga muvofiq kelayotgani uni obyektiv fenomenga aylantirgan. Ushbu konteksda diqqatni, avvalo, globallashuvning ijobiy jihatlariga qaratishga to‘g‘ri keladi. Globallashuvning eng asosiy ijobiy jihatni milliy iqtisodiyotni o‘zining lokal-funksional doirasidan chiqishga, jahon hamjamiyati va jahon bozori bilan uyg‘unlashishga da’vat etayotganidadir. Mazkur jarayon XX asrning ikkinchi yarmida integratsiya va differentsiatsiya jarayonlari bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelgan. Bu Yevropa Ittifoqining tuzilishi (integratsiya) hamda milliy taraqqiyot modellarida (differentsiatsiya) ko‘zga tashlanadi.

Yevropa Ittifoqi xalqaro integratsiyaga ibratli misol bo‘lishi mumkin. Ikkinchi jahon urishidan keyin vayron bo‘lgan xalq xo‘jaligini va infratuzilmani tiklash Yevropa davlatlari oldidagi vazifaga aylandi. Asta-sekin “taraqqiyot modeli” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Gegemonlikka o‘rganib qolgan Buyuk Britaniya, Fransiya,

Ispaniya, va Rossiya o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, boshqa jahon urushining takrorlanmasligini ta’minlash, konstruktiv dialog uyushtiruvchi maydonni paydo qilishi uchun 1949-yili Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) tuzildi. Bu integratsiya modeli haqida keyingi yillarda turli fikrlar bildirayotgan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy imkoniyatlaridan foydalanish davlatlar uchun muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev o‘zining 2017-yil 18-20 sentyabrda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi orqali mamlakatimizni taraqqiyparvar davlat ekanini ta’kidladi va jahonga tanitdi. Prezidentimiz ushbu sessiyada “Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O‘zbekiston o‘zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashning qat’iy tarafdoridir. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo‘yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz”<sup>1</sup>. SH.Mirziyoyev o‘z nutqida BMT tomonidan qabul qilingan XXI asrda barqaror rivojlanish strategiyasini, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan gumanistik g‘oyani, bu borada davlatning xalqqa xizmat qildirish zarurligini qo‘llab-quvvatlashini bildirdi. Prezidentimiz nutqida Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli, tinch va barqaror rivojlanishiga qaratilgan rezolyutsiya qabul qilishni kun tartibiga qo‘ydi. Shuningdek, u nutqida BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish, “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiya qabul qilish zarurligini ta’kidlaydi. Davlatimiz rahbarining bu takliflari nafaqat mintaqaviy, shu bilan birga, umumsayyoraviy xususiyatga ega. Bunday integratsiyani Bugun BMT, YUNESKO, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar amalga oshirilayotgani, qo‘llab-quvvatlanayotgani ijobiy hol, albatta.

---

<sup>1</sup> Ш.Мирзиёев. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. 2017 йил 18-20 сентябрь.

Ikkinchchi jahon urushidan keyin Yevropada taraqqiyot modellarini yaratish an'anasi shakllandi. Bugun Yevropa, Shimoliy Amerika, Germaniya, Fransiya modellari yuzaga keldi. Ular bilan bir qatorda Osiyo, Lotin Amerikasi, Osiyo-Tinch okeani, Afrika iqtisodiy rivojlanish modellari yaratildi. Ularni bir vaqtning o'zida milliy, mintaqaviy va global nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin. Shu bilan birga ularda integratsiya va differentsiatsiyani ilg'ash qiyin emas. Masalan, ijtimoiy hamkorlikka, kommunitarizm an'analariga asoslangan Osiyo taraqqiyot modelida jamoa kuchiga va diniy omilga tayanish, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ustuvor. Aynan ushbu o'xshash jihatlar 1962-yili Misr, Iordaniya, Quvayt, Marokash va Suriya davlatlari integratsiyasiga qurilgan. Umumarab bozorini, 1964-yili esa Eron, Pokiston, va Turkiya ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mintaqaviy hamjamiyat tashkil etishdi. Undan ko'zlangan maqsad erkin savdo-sotiq zonalarini, umumiy bojaxona tartiblarini shakllantirish, mintaqaviy bozorni yaratish edi.

Yevropa taraqqiyot modeli ham o'zining tarixiy-madaniy tajribasiga, xususiy tashabbusni, tadbirkorlik va ilm-fanni, texnologiyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan paradigmaga asoslanadi. 1958-yilda Belgiya, Gollandiya, Italiya, Lyuksemburg, Fransiya va G'arbiy Germaniya davlatlari birgalikda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil qilishdi. Hozir bu tashkilotga 28 davlat a'zo. Ular yagona valuta - evroga ega, chegara, bojaxona va pasport tizimi umumiyyidir. Bu global ittifoq Yevropa davlatlarida yuksak ilmiy-texnologik rivojalanishni ta'minlamoqda. Davlat va xalq xo'jaligini boshqarishning yangi, innovatsion usullarini yaratmoqda, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda o'rnak bo'lib qolmoqda. Integratsiya har tomonlama foydali ekaniga ishongan davlatlar turli mintaqaviy yoki global ittifoqlarga birlashib, o'zining ichki rivojlanishini ta'minlayotgani sir emas. Shu maqsadda 1969-yili Boliviya, Venesuela, Kolumbiya, Peru, CHili va Ekvador And paktini imzolashadi. Bu fakt savdo-sotiqni amalga oshirish, o'zaro hisob-kitoblar olib borish, iqtisodiy yutuqlar bilan tanishtirish, ijtimoiy aloqalarni mintaqaviy tizimga solish, ishsizlik masalasini hal etish kabilarga qaratilgan.

XX asrning 70-80 yillariga kelib Osiyo Tinch okean modeli, integratsiyasi shakllandi. Unga Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Yaponiya birlashdi. 1967-yili esa Yaponiya, Xitoy, va Janubiy Koreyani o‘z ichiga olgan Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlaridan iborat Assotsiatsiya (ASEAM) tuzildi. 1990-yili Malayziya Sharqiy Osiyo iqtisodiy guruhi tuzish tashabbusi bilan chiqdi. Bu ittifoq Yevropa va AQSH bozoridan o‘zini himoya qilish, Sharqiy Osiyoda o‘ziga xos taraqqiyotni ta’minlashni nazarda tutdi. SSSR tarqatilgach MDH, IHT, markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi, 2012-yili Rossiya, Belarus va Qazog‘istondan iborat yagona iqtisodiy hudud, Yevroсиyo iqtisodiy ittifoqi kabi xalqaro uyushmalar yuzaga keldiki, ular global integratsiyaning mintaqaviy ko‘rinishlaridir. Birgina Yevroсиyo iqtisodiy ittifoqi hududida bugun 185 milliondan ziyod iste’molchi yashashini eslasak, iqtisodiy hamkorlik qanday ulkan vazifalarni bajarayotganiga ishonch hosil qilamiz.

To‘g‘ri, ba’zi birlashmlarning samarali ishlamayotgani ko‘zga tashlanadi. professor N.Cho‘xliyevning yozishicha, bunga Markaziy Osiyo iqtisodiy integratsiyasi, Eron, Pokiston, Turkiya, (keyinchalik bu ittifoqqa Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qирг‘истони ва Qозог‘истони ham qo‘shilgan) tomonidan tuzilgan “Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish” (IHT) birlashmasi misol bo‘lishi mumkin. “IHT davlatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni, jumladan, savdoni kengaytirish, mintaqada iqtisodiy o‘sish va aholi turmush darajasini ko‘tarish uchun shart-sharoitlar hozirlash, madaniy aloqalarni kuchaytirishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Shu maqsadda a’zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari kengashi, doimiy vakillar, mintaqaviy reja kengashlari, qobiliyat va oltita maxsus direktorat tuzildi. Davlat boshliqlari, hukumat raislari va delegatsiyalarining eng muhim iqtisodiy masalalar bo‘yicha yig‘ilish va uchrashuvlari o‘tkazib turildi. Lekin baribir IHT ham o‘zini yagona mintaqaviy integratsion model sifatida ko‘rsata olmadи”<sup>1</sup>. Buning sabablari ko‘p, eng muhim sabab ba’zi birlashmalarning globallashuv talablarini yetarli anglab

<sup>1</sup> Тўхлиев Н. Ўзбек модели: тараккиёт тамойиллари. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 201436-376.

olmagani, tashkiliy masalalardagi tajribasizlik va egoistik mayllarning integratsiyaga xalaqit bergenidir. Bunday salbiy hollarning uchrashi tabiiy holdir.

Globallashuvning ijobiy jihatlarini ilm-fan, texnika, savdo-sotiq, ta’lim, kadrlar tayyorlash, axborot-kommunikatsiya sohalarida ham ko‘rish mumkin. Aynan ushbu ijobiy jihatlar globallashuv, mintaqaviylashuv va milliylik o‘rtasidagi farqlarni kamaytirmoqda, ularni bir-biriga muvofiqlashtirib global dunyoni, global hamkorlik va gomogenezatsiyalashni ta’minlamoqda. Masalan, O‘zbekistonning BMTga a’zoligi, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, “Irqi kamsitishning barcha turlariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya”, “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya”, “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”, “Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya”, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt”, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt” kabi 80ga yaqin hujjatlar qo‘shilgan. Xalqaro huquqdagi eng muhim hujjatlarni milliy huquq tizimiga implementatsiya qilgan. Mustaqillik yillarida milliy parlament tomonidan inson huquqlarini himoya qilishga oid 16 kodeks va 600 ga yaqin qonunlar qabul qilindi. Respublikamiz 1998-yildan beri BMTning tegishli qo‘mitasiga milliy ma’ruzalar jo‘natib keldi. Global ahamiyatga ega bo‘lgan BMTning ikkinchi jahon konferensiyasi (Vena 1993 yil)ning rezolyutsiyasiga muvofiq O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlash niyatida:

- Konstitutsiyaviy sud;
- Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman);
- O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo‘yicha milliy markazi;
- O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi instituti;
- Qonunchilik palatasining demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi.

Ko‘pchilik taddiqotchilar globallashuv jarayonidagi ziddiyatlarni aholi sonining o‘sishi va iste’mol mollarining ko‘payishi natijasida yuzaga kelayotgan iqtisodiy-ekologik inqirozlar bilan bog‘lashadi. Prognoz bilan shug’ullanuvchi olimlar 70-yillardayoq 2000-yilga borib dunyo aholisi 6 milliarddan oshishi, sanoat ishlab chiqarishi 15 martaga ko‘payiishini bashorat qilishgan. BMTning har besh yilda e’lon qilinadigan demografik hisobotiga ko‘ra 2000-yilda dunyo aholisining soni 6 199000000 ga yetadi. O‘sish Afrika qit’asida 36,9%, Lotin Amerikasida 29,6%, Janubiy Osiyoda 27,8%, rivojalanishi yo‘liga kirgan davlatlarda esa 26,2%ga yetadi. Ammo ushbu mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish yuqori emas. Shu bois, birgina rivojlanish yo‘liga kirgan davlatlarda 0,5 milliard kishi och-nochor yashaydi, 1 milliard kishi to‘yib ovqatlanmaydi, har yili 20-25 million bola (besh yoshgacha bo‘lgan) vafot etadi, aholining deyarli 40% oddiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish imkoniga ega emas<sup>1</sup>.

Bugun dunyoda 7 milliarddan ziyod aholi yashaydi, ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ish bilan ta’minalash global muammolarga aylanib qolgan. Kambag‘allikni bartaraf etishga oid turli choralar ko‘rilayotgan bo‘lsa-da, davlatlar o‘rtasidagi tafovut saqlanib qolmoqda. Masalan, Xalqaro Mehnat tashkiloti(XMT)ning 2000-yilgi ma’lumotiga ko‘ra, qayta ishslash sanoatida soatiga to‘lanadigan ish haqi Hindiston va Xitoyda 0,25, Tailandda 0,46, Rossiyada 0,60, Vengriyada 1,7, Polshada 2,09 AQSH dollariga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatgich Angliyada 13,72, Kanadada 16,03, AQSHda 17,2, Fransiyada 19,34, Yaponiyada 23,66, Germaniyada 31,88 AQSH dollarini tashkil qilgan<sup>2</sup>. Bu ko‘rsatgichlar keyingi 20 yil ichida ancha o‘zgardi, masalan Rossiyada o‘rtacha oylik 2000-yildagi 520 AQSH dollaridan 1300 AQSH dollariga ko‘tarildi. Biroq bu ko‘rsatkich ish soatiga taqsimlanganida atigi 6,5 AQSH dollarini tashkil qiladi. Ko‘rinib turibdiki, rivojlangan Yevropa davlatlaridagi mehnatga haq to‘lash darajasiga yetish uchun hali

<sup>1</sup> Каранг: Глобальные проблемы современности.- Москва: Мысль, 1991.-С 100-103.

<sup>2</sup> Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. Т.: Маънавият, 2006.- 106.

ko‘p vaqt va sa’y-harakatlar zarur. Ayniqsa, G‘arb davlatlaridagi 1% aholining 52% daromadi aholi oladigan daromadiga tengligi turli ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmasligi mumkin emas. Transmilliy korporatsiyalarning egalari, top-menejerlari nihoyatda katta boylik to‘playotgani, ularning takliflari, istaklari hatto davlatlar siyosatiga ta’sir etayotgani, ba’zan esa ular milliy manfaatlardan o‘z manfaatlarini ustun qo‘yishga intilayotgani odatiy holga aylanib bormoqda. B.Geyte, J.Soros, R.Abramovich, A.Usmanov kabi yirik mulk egalari, badavlat kishilar turmush tarzi o‘rtasidagi katta tafovut transmilliy aloqalarni chigallashtirib, ijtimoiyadolatni ta’minlashda katta to‘sıqlar uyg‘otmoqda.

Globallashuv subyektlarining milliy hayotga, milliy davlatlar siyosatiga aralashishiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Bu aralashishlar ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega. Masalan, xalqaro valuta jamg‘armasi, jahon banki milliy davlatlarga kreditlar ajratayotganida mamlakatida o‘ziga ma’qul kelgan islohotlarni o‘tkazishni shart qilib qo‘yadi. Bu tartib odatiy, tabiiy hol, qoida sifatida qabul qilinadi. Kredit ma’lum bir ichki muammolarni hal etishga yordam beradi. Bu ijobiy hol albatta. Ammo u milliy madaniyatga, xalqning tarixiy-madaniy tajribalariga muvofiq kelmaydigan islohotlar o‘tkazishni ham talab qilishi mumkin. Bunday paytda milliy davlatning tashqi siyosati, global hamjamiyati a’zolari bilan integratsion aloqalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tashqi subyektlar, ayniqsa, globallashuv tashkilotchilari bilan sen-menga, konfrontatsiyaga borish (Shimoliy Koreyaning 2018-2019 yillardagi tajovuzkorona xatti-harakatlarini eslang)dan saqlanishi, yumshoq siyosat olib borishi ma’quldir. Davlatlararo munosabatlarda gegemonlik, agressivlik an’analariga tayanayotgan, “xalqaro jandarm” rolini o‘ynashga moyil subyektlar borligini unutib bo‘lmaydi. Ular xalqaro munosabatlar tartibini, qoidasini o‘zlari o‘rnatishdan qaytmaydilar. Shunday vaziyatda siyosat, haqiqatan ham, “qaltis o‘yin”, uni mohirona bajarish davlat rahbarining san’atidir.

Insoniyat hayotiga tahdid qilayotgan yadro urushi xavfi, g‘ayriqonuniy, transplantatsiya, klonlashtirish, inson genini o‘zgartirishga qaratilgan tibbiy eksperimentlar, robotlashtirish, tabiatni xususiylashtirish, kosmosni xuruj

maydonlarga aylantirishga urinishlar, “ommaviy madaniyat”, sun’iy oziq-ovqatlar va ichimlik kabilar jahon bozorida yildan-yilga oshib bormoqda, insoniyatni million yillar davomida qoniga singib ketgan turmush tarzidan voz kechishga yetaklamoqda. Davos jahon iqtisodiy forumining doimiy prezidenti Klaus Shvabning keltirishiga insoniyat “to‘rtinchi sanoat revolyutsiyasi” davriga o‘tmoqda. Bu inqilob 2025-2030 yillar ichida yer yuzi aholisining 10% internetga ulangan kiyimlar kiyadi, 90% aholi ma’lumotlarni bepul va cheksiz muddatga saqlash imkoniga ega bo‘ladi, dunyoda 1 trillion internetga ulangan datchiklar ishlaydi, AQSHda birinchi rabot farmatsevt ishga tushadi, 10% ko‘zoynak internetlar sotuvga chiqadi, raqamli hukumatlar shakllanadi, mobil telefon inson organizmiga implantatsiya qilinadi, 5% iste’mollari 3D texnologiyasi orqali yaratiladi, 90% aholi internetdan uzlusiz foydalanadi, 3D texnologiyasi yordamida birinchi jigar yaratiladi va u organizmga kiritiladi, svetoforsiz yashaydigan 50 ming kishilik shahar paydo bo‘ladi, yurist-maslahatchilar, buxgalterlar vazifasini bajaruvchi robotlar ishga tushadi. Kelgusi global jamiyat, Klaus Shvab iborasiga muvofiq, “raqamli giper ulangan dunyo” bo‘ladi<sup>1</sup>. Unda kompyuter, internet, robot, axborot texnologiyasi hukmronlik qiladi, kishilar o‘zlarini to‘la anglanmagan tarzda, hayotini, turmushi va o‘y-fikrlarini sun’iy vositalarga tushiradilar.

Bugunning o‘zidayoq transmilliy korporatsiyalar ilmiy-texnik inqilobni amalga oshirish borasidagi jiddiy izlanishlar olib bormoqda, ularning ayrimlari savdo-sotiqa bir necha davlatlar yalpi ichki mahsulotidan ko‘p doramad oladi. Masalan, “Jeneral motors” kompaniyasining savdo-sotiqa hajmi Avstriya va Shvetsiya singari rivojlangan davlatlar yalpi ichki mahsulotidan ko‘pdir. Shunday kuchga, ta’sirga “Exxon Mobil”, “CHevron”, “Amoko”, “Atlantik Richfield”, “DuPont” (E.I), “Pronter and Gembl”, “Djonson and Djonson”, “American Home Produkts”, “Farmasiya and Apjon”, “General Corporation” “Hewllet-Packard”, “Xerox Corporation”, “Apple” korporatsiyalari ham ega bo‘lib, ular nafaqat globallashuvdagি

<sup>1</sup> Шваб К. Четвертая промышленная революция. Москва: Эксмо, 2018. С.48-50.

ijobiy, shuningdek, salbiy jihatlarini namoyon etmoqda. Iloji boricha o‘z ta’sirini dunyoga yoyish ko‘proq foyda olish, kishilar ongiga, tasavvurlariga o‘z qarashlarini singdirishga intilmaydigan transmilliy birlashma yo‘q.

Iste’molchi uchun kurash, uni o‘z ta’siri doirasiga tortish hatto g‘ayriqonuniy usullar bilan bo‘lsa-da, bojxona to‘lovlaridan foyda solig‘ini to‘lashdan qochish keng tarqalgan holga aylangan. Bunday xatti-harakatlar mahalliy millioner va milliarderlarni, korruptionerlarni paydo qilayotgani sir emas. “Coca-Cola”, “KFC”, “McDonalds” kabi korporatsiyalar mahsulotlarining inson salomatligiga salbiy ta’siri haqida OAVda ko‘p axborotlar o‘qish mumkin. Demak, globallashuv subyektlarning barchasi ham xalqaro yoki milliy qonunlarga amal qilavermaydi. Hatto ularning ba’zilari milliy qonunlar talablarini o‘zining kuchli davlati orqali mensimaslikka intiladi. Shuning uchun xalqlarning, davlatlarning uyushgan jinoyatchilikka, korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorligi obyektiv zaruriyatga aylangan.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Bifurkatsiya, fluktatsion, fenomen, integratsiya, differentsiatsiya, milliy taraqqiyot, xalqaro integratsiya, taraqqiyot modeli, tarixiy-madaniy tajriba, tashabbus, tadbirkorlik, ilm-fan, chegara, bojxona, ilmiy-texnologik rivojalanish, xalqaro uyushmalar, global integratsiya, iqtisodiy integratsiya, ta’lim, kadrlar tayyorlash, axborot-kommunikatsiya, global hamkorlik, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, gegemonlik, agressivlik.


### **Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:**



## ***O'zbekistonning BMTga a'zoligi***


- inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga
- Irqiy kamsitishning barcha turlariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya
- Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya
- Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya
- Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi halqaro Pakt kabi 80ga yaqin hujjatlarga qo‘shilgan.

## **Global ahamiyatga ega bo`lgan BMTning ikkinchi jahon konferentsiyasi (Vena 1993 yil)ning rezolyutsiyasiga muvofiq O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash niyatida:**




**Xalqaro Mehnat tashkiloti(XMT)ning 2000 yilgi ma'lumotiga ko'ra,**  
qayta ishslash sanoatida soatiga to`lanadigan ish haqi Hindiston va Xitoyda 0,25, Tailandda 0,46, Rossiyada 0,60, Vengriyada 1,7, Polshada 2,09 AQSh dollariga teng bo`lgan.

BMTning har besh yilda e'lon qilinadigan demografik hisobotiga ko'ra 2000 yilda dunyo aholisining soni 6 199 millionga etadi. O'sish:



Davos jahon iqtisodiy forumining doimiy prezidenti Klaus Shvabning keltirishiga insoniyat "to'rtinchı sanoat revolutsiyasi" davriga o'tmoqda. Bu inqilob 2025-2030 yillar ichida:



- Birgina rivojlanish yo'liga kirgan davlatlarda:
- ❖ 0,5 milliard kishi och-nochor yashaydi,
  - ❖ 1 milliard kishi to'yib ovqatlanmaydi,
  - ❖ har yili 20-25 million bola, besh yoshgacha, qazo qiladi,
  - ❖ aholining deyarli 40% oddiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish imkoniga ega emas.

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Globallashuvning ijobiy tomonlari haqida nimalar deya olasiz?
2. Globallashuvning salbiy ta'sirini nimalarda ko'rasiz? Globallashuvning bozor munosabatlari bilan bog'ligini asoslang?
3. Globallashuvning ilm-fan, texnika bilan bog'liq jihatlari nimalardan iborat?
4. "To'rtinchi ilmiy texnik, sanoat inqilobi" nima?
5. Insoniyat qanday tahdidlarga duch kelmoqda? Ulardan xolos bo'lish yo'llari bormi?
6. Globallashuvni salbiy hodisaga aylantirayotgan omillar, subyektlar haqida nima deya olasiz?

### **Referat mavzulari**

1. Globallashuvning jamiyat hayotidagi ijobiy va salbiy tomonlari.
2. Globallashuvning bifurkatsion va fluktatsion jihatlari.
3. Osiyo taraqqiyot modelida jamoa kuchiga va diniy omilga tayanish, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari.
4. Markaziy Osiyo iqtisodiy integratsiya: kecha va bugun.
5. Xalqaro huquqdagi eng muhim hujjatlarni milliy huquq tizimiga implementasiya qilinishi.
6. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili – Ombudsman, uning faoliyati.
7. Globallashuv jarayonidagi ziddiyatlar.
8. Globallashuv subyektlarining milliy hayotga, milliy davlatlar siyosatiga aralashishining oqibatlari.

### **Adabiyotlar:**

1. Шваб К. Четвертая промышленная революция. Москва.: Эксмо, 2018.
2. Кларк Д. Alibaba. История мирового восхождения от первого лица. - Москва: Эксмо, 2018.
3. Бзежинский З. Великая шахматная доска. - Москва. Межд. Отношения, 2000.
4. Мамашакиров С. Вахимами ёки ҳақиқат. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA? 2012.
5. Wallerstein I. After Liberalism. - N.Y. 1995.
6. Неклесса А. Глобальное сообщество. - СПб.: Алетейя, 2000.
7. Тўхлиев Н. Ўзбек модели: тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: ЎзМЭ. Давлат илмий нашриёти, 2014.

## **2-MODUL. GLOBALLASHUVNING KISHILIK JAMIYATI HAYOTIDA NAMOYON BO'LISH SOHALARI.**

### **5-MAVZU: SIYOSIY JARAYONLARNING GLOBALLASHUVI REJA:**

1. Siyosiy jarayonlardagi integratsiya.
2. O'zbekiston va jahon. O'zbekiston va BMT. Milliy ma'naviy merosni asrashda YUNESKO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik.
3. Globallashuv jarayonlari tizimida demokratiya. Demokratiya, sharqona demokratiya tushunchalari.
4. Demokratiya va ma'naviyat. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasidagi vazifalar.
5. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida milliy manfaatlar.

Globallashuvning XX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'sirini Yevropa Ittifoqining shakllanishi bilan izohlash va bog'lash mumkin. Ikkinchi jahon urushi Yevropadagi davlatlar va xalqlar o'rta sidagi ziddiyatlarni chuqurlashtirib, keskinlashtirib yubordi. Tarqoqlik, o'zini o'ylash Gitlerga osonlik bilan deyarli butun Yevropani itoat ettirishga, bosib olishga imkon berdi. Mazkur fojiadan Yevropa saboq oldi. Uinston Cherchill, Buyuk Britaniya davlat arbobi 1946-yil 19-sentyabrdan Syurix shahridagi nutqida Yevropaliklarni birlashtirishga, AQSH kabi "Yevropa qo'shma shtatlari" tuzishga chaqiradi.

Shundan keyin Yevropa umumiy siyosiy birlik, siyosiy ittifoq - Yevropa ittifoqini tuzish g'oyasi paydo bo'ladi. 1946-yili Buyuk Britaniya Yevropa siyosiy ittifoqini tuzishga da'vat etgan bo'lsa, aynan u 2015 yili Yevropa Ittifoqini bartaraf etish, ya'ni Yevropa Ittifoqidan chiqishni boshlab berdi. Deyarli 70 yil davom etgan Ittifoq, xuddi sobiq Sovet Ittifoqi kabi, tarqalish jarayoniga duch keldi. Tereza Mey hukumatining iste'foga chiqishi va o'zining no'noq siyosiy o'yinlari tufayli Yevropa Ittifoqi bilan Buyuk Britaniya o'rta sidagi kelishmovchiliklarni yanada chuqurlashtirib yubordi. Bryussel siyosatini Yevropaliklarning aksariyati qo'llab-quvvatlamaydi. Yevropa "Komissiyasining buyurtmasi bilan "TN Opinion" tadqiqot markazi 2015-yili so'rov nomasini o'tkazgan. Uning natijalariga ko'ra, Yevropa Ittifoqining 41 foiz

aholisi Bryussel siyosatini yoqlaydi, 19 foizi xushlamaydi, 38 foizi betaraf. Ruminiya (62%), Bolgariya (55%), Polsha (53%) respondentlari Bryussel olib borayotgan siyosatdan minnattdor. Norozilarning aksariyati Ki'r (42%), Yunoniston (37%), Avstriya (36%) va Buyuk Britaniya (28%)dandir. Shuningdek, respondentlarning 58 foizi ertangi kundan ko'ngli to'q ekanini bildirsa, 36 foizining ko'ngli xavotir<sup>1</sup>.

Xorvard universiteti professori Stiven Martin Uolt Yevropa Ittifoqining kelajagi haqida ikki taxminni bildiradi. Birinchi taxminga ko'ra, Konrad Adenauer SHarl de Goll, Margaret Techcher singari chinakam yetakchilarning vorislari hokimiyatga keladi va mavjud muammolarni hal etib, "Yevropa uyi"ni falokatdan asrab qoladi. Ikkinci taxminga ko'ra, shunday vorislar tug'ilmasa, yetishib chiqmasa Yevropa Ittifoqi parchalanib ketadi<sup>2</sup>. Mazkur fikrlar va Yevropa siyosiy ittifoqidagi birlikni, ziddiyatlarni o'rgangan S. Yoqubov quyidagilarni yozadi: "Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqish uchun referendum o'tkazish payiga tushib qolgani (keyingi so'rovnomlar natijalariga ko'ra 80% yaqin respondentlar bu tashshabusni qo'llab-quvvatlaydi), integratsiya tarafдорлари ta'biricha, "dard ustiga chipqon" bo'ldi. Bosh vazir Devid Kemeroning (Buyuk Britiniyaning o'sha paytdagi hukumat rahbari) va'dasi chin bo'lsa, 2017-yili qirollikda YeI a'zolik masalasida referendum uyushtiriladi. (Tuzumlar-u tuzumlar beqarorligi ko'ringki, Yevropa birlashuviga "oq fotiha" bergen Cherchillning nabiralari endi integratsiyaga qarshi chiqayotir!). Ingliz oqsuyuklari iqtisodiy ittifoqining siyosiylashuvidan norozi"<sup>3</sup>.

Har qanday siyosiy birlikni ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchilik, muammolar larzaga keltirishi mumkin. 2008-yili boshlangan butun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Yevropa Ittifoqi birligiga raxna soldi. Unda yalpi ichki mahsulot 4%ga, kamaydi, ishsizlik ayrim davlatlarda 25%gacha yetdi. Ittifoq rahbariyati inqiroz asoratlarini bartaraf etish uchun 4,5 trillion yevro sarfladi. Yevropa Ittifoqi aholisining 27% iqtisodiy tanglikni, 24% esa ishsizlikni katta muammoga aylanganini qayd etishadi.

<sup>1</sup> Қаранг: Standard Eurobarometor 83 Spring 2015. Public Opinion in the European Union

<sup>2</sup> Қаранг: Walts. Dols Europe Have a Future? // "Forring Policy", July 16, 2015.

<sup>3</sup> Ёкубов С. YEVROPA ITTIFOQI Ayrilganni ayiq yer // Тафаккүр, 2016, 1-сон. 28-29б.

“Boz ustiga, Yevropaning ba’zi o‘lkalarida millatchilikning bosh ko‘tarayotgani integratsiyaga xavfli tahdid sifatida baholanmoqda.

Yevropa qadriyatlari yalovbardori bo‘lgan Fransiyada Marin Le Pen boshchiligidagi “Milliy front” partiyasi atrofiga qator tarafdorlarni yig‘ayotir. Farang yurtini Yevropa Ittifoqi “qulligi”dan xolos qilishga targ‘ib etayotgan mazkur harakat o‘n yilcha avval ham katta siyosatga yaqin yo‘lay olmas edi. Keyingi yillarda esa “Milliy front” mamlakat mahalliy kengashlari, hatto Yevropa parlamentida o‘z vakillariga ega bo‘ldi. Aksilyevropa g‘oyalarini bayroq qilgan boshqa bir siyosiy harakat-Buyuk Britaniya Mustaqillik partiyasi (IKIR) rahbari Naydjel Pol Faraj esa Yevropa Ittifoqini oqimga qarshi suzayotgan kema deb atadi.

Siyosatshunos Leonid Bershidskiy to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Yevropa Ittifoqi davlatlari o‘rtasida jipslikning yo‘qligi va milliy mahdudlikning kuchayib borayotgani bugun tashqi tahdidlardan-da xatarliroqdir<sup>1</sup>.

Globallashuv jarayonlarining siyosiy jihatlari borasida e’tiborli va bahsli fikrlarni bildirib kelgan AQSHlik siyosatshunos Z.Bjezinskiy hisoblanadi. U globallashuvning bosh subyekti AQSH ekanini ilgari surgan holda, SSSRning tarqalib ketishini ham bashorat qilgan. To‘g‘ri, u globallashuv SSSRning parchalanishiga olib keladi, degan fikrni bildirmagan, ammo ichki ziddiyatlar, kommunistik mafkuraning totalitar xarakteri yopiqlik, shaxs huquqlarining cheklanganligi, g‘ayrimilliy siyosat im’eriyani yemiradi, degan qarashni aytgan. AQSH o‘tkazayotgan globallashuv va neoliberal qadriyatlarni targ‘ib etuvchi ochiq fuqarolik jamiyatini barpo qilish g‘oyasi dunyo siyosatiga, ayniqsa, rivojlanish yo‘liga kirgan mustaqil davlatlarning strategik maqsadlariga ta’sir qildi.

Z.Bjezinskiy yozadi: XX asrning so‘nggi o‘n yilligida jahon ishlarida texnologik siljishlar ro‘y bergani qayd etiladi. Tarixda birinchi marta Yevrosiyo sultanati bo‘lidan davlat Yevrosiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning bosh arbitri hamda dunyodagi eng qudratli davlat sifatida maydonga chiqdi. Sovet Ittifoqining

---

<sup>1</sup> Bershidsky L. Europe’s Selfishness is Bigger Threat than Putin, Zune. 2015. <http://www.Bloombergview.com/articles/2015-06-11/en-ropes-selfishness-is-bigger-threat-than-putin>

mag‘lubiyati va yemirilishi G‘arb yarim sharini Qo‘shma Shtatni-haqiqiy va yagona global sultanat sifatida pog‘anaga olib chiqishini ta‘minlandi. Shu bilan birga Yevroсиyo kontinenti jahon hayotida o‘z o‘rniga ega. Kim Yevrosiyoni nazorat qilolsa, u dunyo ustidan hukmrondir. Amerikaning pirovard maqsadi, haqiqatan ham, hamkorlikka tayyor, insoniyatning funtamental qiziqishlari va uzoqqa qaratilgan an'analariga muvofiq keladigan jahon hamjamiyatini tuzishdir<sup>1</sup>.

Lekin siyosatshunoslarning tilaklari har doim ham davlatlar, ayniqsa, gegemonlikka da‘vogor davatlarning xatti-harakatlarini aniq ifoda etavermaydi, ularga muvofiq kelavermaydi. Biroq AQSH global hamjamiyat, global iqtisodiyot, global fuqarolik jamiyati barpo etish g‘oyalari milliy zaminlarda transformatsiyaga uchrashi, milliy talablarga muvofiq modernizatsiyalashuvi muqarrardir. Bugun u yoki bu g‘oyani kim birinchi bo‘lib e’lon qilgani, aytgani emas, balki kim, qaysi xalq, davlat, sotsium uni o‘ziga samarali, antagonistik kurashlarsiz, inqirolarsiz o‘z hayotiga tadbiq etganidadir.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida keng integratsiya va global hamkorlik yo‘lidan bormoqda. Bugun xalqaro jamiyat respublikamizda amalga oshirilayotgan haqiqiy demokratik islohotlarni, 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kuzatib turibdi. Bu strategiya BMTning Barqaror rivojlanish dasturiga hamohangdir. BMTning O‘zbekistondagi vakili, xalqaro aloqalarni muvofiqlashtiruvchisi Stefan Prisner quyidagilarni e’tirof etadi: “BMTning O‘zbekistondagi tuzilmalari malakatingizning yangi taraqqiyot dasturini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Harakatlar strategiyasida belgilangan choratadbirlar O‘zbekistonning bugungi rivojlanish bosqichida juda dolzarb sanaladi. Unda ma’muriy, sud-huquq, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy sohani rivojlantirish, shuningdek, yaqin qo‘snilik, do‘stlik va millatlararo bag‘rikenglik ruhida tashqi siyosat olib borish mo‘ljallangan. Unda belgilangan ko‘plab vazifalar BMTning 2016-2020 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyotga ko‘maklashuvchi doiraviy dasturiga muvofiq

---

<sup>1</sup> Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. -Москва. Межд. Отношения, 2000. С.12.

BMT tuzilmalarining mamlaktingiz bilan hamkorlikning ustuvor yo‘nalishiga hamohangdir. Birlashgan millatlar tashkilotining mamlakatimizdagi guruhi harakat dasturi ishlab chiqilayotgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlari asosidagi global taraqqiyot dasturi hamda xalqaro huquqiy asoslar, shuningdek, hamkorlikning joriy va istiqboldagi yo‘nalishlarini hisobga olgan holda, o‘z saviyalarini berdi. Shuni ishonch bilan ta’kidlamoqchimanki, BMT taraqqiyot dasturi va BMT agentliklarining O‘zbekistonidagi vakolatxonalari bundan keyin ham mamlakatingiz bilan hamkorlik qilishga, shu jumladan, harakatlar strategiyasini amalga oshirishga ko‘maklashishga tayyor”<sup>1</sup>.

BMTning eng muhim bo‘limi bo‘lgan YUNESKO Harakatlar strategiyasini xalqaro OAV orqali tushuntirish, targ‘ib etish, ustuvor vazifalardagi ta’lim-tarbiya, ilm-fan sohalarni rivojlantirishda ishtirok etmoqda. Xalqaro turizmni tashkil etish, Samarqand, Buxoro va Xiva tarixiy-madaniy merosini jahonga yoyishda O‘zbekistonga keladigan xorijiy turistlar soni 5 million 200 mingdan oshgan. Bundan uch yil avval u ko‘rsatkich 2 million atrofida edi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga oid maxsus konsepsiyanı ishlab chiqishi va davlat dasturini qabul qilinishi bilan O‘zbekistonni jahon hamjamiyati ko‘z oldida eng zavqli, mazmunli va betakror “sayyoх markazi” aylantirishga erishmoqda.

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2016-yil 2-dekabrda), “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2017-yil 16-avgust), “Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2018-yil 19-dekabrda), “2019-2025 yillarda O‘zbekiston turizmni rivojlantirish konsepsiysi” (2018-yil 15-avgust) to‘g‘risida qabul qilgan Farmonlari va qarorlari mohiyatan O‘zbekistonning tarixiy-madaniy boyliklarini, merosini jahonga tanitish, sayyoхlar orqali mamlakatimiz xalqaro nufuzi, investitsiyalar olib

---

<sup>1</sup> Каранг : Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммобоп рисола. -Тошкент: Маънавият, 2017. 286.

kelish imkoniyatini oshirishga qaratilgandir. 2019-yili Buxoroda I xalqaro ziyorat turizmi forumi o‘tkazildi. Bugun 64 davlat fuqarosi elektron vizalardan foydalanishi, 101 davlat fuqarolari uchinchi davlatga o‘tayotganda 5 kungacha yurtimizda vizasiz turishi mumkin. 7476 ta yirik tarixiy-madaniy obyektlar, 2,5 milliondan ziyod muzey eksponatlari va 107 ta nomoddiy ma’naviy meros sayyoohlar diqqatini tortayotgani e’tiborlidir.

Globallashuv va integratsiya bosh sektorlarining ta’kidlashicha, demokratik taraqqiyot insoniyat intilib kelgan ideal, fuqarolik jamiyati xalqlar farovon, erkin yashaydigan makondir. G‘arb davlatlarining Sharq davlatlariga o‘tkazayotgan tazyiqi, turli sanksiyalar e’lon qilishi, ularning jahon bozorida, erkin savdo-sotiqlida qatnashishni cheklashi, hatto o‘z milliy an’analariga, tarixiy-madaniy paradigmafiga muvofiq yashashiga harbiy tajovuzi G‘arbona demokratiyaning yoyilmagani bilan izohlashadi. Gegemonlikka intilayotgan globallashuv va integratsiya bosh aktyorlarining g‘ayriinsoniy va g‘ayrimilliy talablari “demokratiya yo‘q”, “inson huquqlari paymol qilinmoqda” kabi shiorlar bilan bezalgan. Bunday paytda sharqona demokratiyaning fundamental xususiyatlarini bilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

G‘arb demokratiyasi tashqi olamni, ijtimoiy-siyosiy borliqni, institutlar va boshqarish usullarini tinmay o‘zlashtirishga, takomillashtirishga moyil, u mavjud tuzumdan, siyosiy borliq va tajribalardan qoniqmaydi, ularni o‘zgartirib, modernizatsiyalab turishni hayot tarziga aylantirgan. “Sharqona demokratiya dunyonи, ijtimoiy hayotni o‘zgartirishni, takomillashtirishni insondan, uning ichki, ma’naviy hayotini mukamallashtirishdan boshlaydi. Uning maqsadi insonni, uning ma’naviyatini mukammallashtirish orqali yetuk davlat, ideal jamiyat qurishdir”<sup>1</sup>.

Globallashuv inson omilini unutish mumkin emas. Tadqiqotchilar ko‘pincha inson huquqlari va erkinliklari masalalarini tilga olish bilan cheklanishadi. Bu bizning fikrimizcha, yetarli emas. Huquq va erk inson ma’naviyatiga taalluqli bir qirra, jihat.

---

<sup>1</sup> Мусаев Ф. Демократик хуқуқий давлат куришнинг фалсафий-хуқуқий асослари.-Тошкент: О‘zbekiston, 2007, 36 б.

Ular inson ma'naviyatini to'la qamrab ololmaydi. Shuning uchun globallashuv g'arbona voqelik, fenomen bo'lsa-da, uning harakat doirasi, ta'siri umumsayyoraviy harakatlarga ega bo'lgani uchun Sharq tarixiy-madaniy paradigmasing o'ziga xos, immanent xususiyatlari borligini inkor qilolmaydi. Falsafa fanlari doktori, professor F.O.Musayev uning belgilarini quyidagilarda ko'radi:

- subordinatsiya va ierarxik munosabatlarda kam tajribali va kam bilimli kishining tajribaliroq, bilimliroq kishiga itoat etishida;
- davlat va jamiyatni boshqarishda, avvalo, axloqiy, ma'naviy me'yorlarga rioya etilishida;
- ajdodlar merosiga asoslangan odatiy huquqlarining saqlanib turishida;
- fiqhda tarixiy an'analar (Qur'oni Karim, hadislar) va analoglarga tayanib huquqiy muammolar erkin hal etilganida;
- podshoh (monarx - shoh) nafaqat o'z hayoti, xuddi shuningdek, fuqarolarning turmushi, ma'naviyati, ishonchi, e'tiqodi uchun Allah oldida javobgarlikni teran his etishida;
- podshoh (monarx - shoh) sifatida davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga oid muammolarni hal etishda ishtirok etadigan kengash (a'yonlar kengashi, vazirlar kengashi, olim-u fuzalolar kengashi) mavjud bo'lganida;
- ijtimoiy-siyosiy hayotni tadrijiy rivojlantirishga moyillikda;
- inson va jamiyat hayoti siyosiy mafkuralar tazyiqidan xoli tarzda kechishi ta'minlanganida;
- insonning ma'naviy hayotini, ma'naviy dunyosini boyitish, takomillashtirish boshqaruv ishlaridagi asosiy vazifa sifatida qaralishida;
- inson -jamiyat-davlat silsilasi uyg'unlikda qaralganida;
- jamoa hayoti va uning manfaatlarining va ustuvorligida namoyon bo'ladi"<sup>1</sup>.

Agar mazkur Sharqona xususiyatlarni G'arbona demokratiya globallashuv talablariga qiyoslasak jiddiy ziddiyatlar borligini ko'ramiz. Masalan, G'arb

---

<sup>1</sup> Ўша жойда.

demokratiyasi davlatning suveren huquqining ustuvorligini qayd etsa-da, inson erkini, manfaatlarini, hatto egoistik istaklarini ustuvor bilishga moyil. F.Nitsshe nigelizmi, M.A.Bakunin anarxistik, Z.Bjezinskiy va J.Soros gegemonizmi kommunitar qarashlarni rad etadi. Sharqona jamoa bo‘lib, kommunitar an’analarga bo‘ysunib, ular bilan ahil bo‘lib, murosa qilib yashashi xos. Bu murosani subordinatsiya va ierarxik munosabatlarda kam tajribali, kam bilimli kishining ko‘p tajribali, ko‘p bilimli kishiga itoat etishi ta’minkaydi. Shuning uchun ham Sharqona demokratiya G‘arb demokratiyasi, shu jumladan, globallashuv talablari bilan kelishavermaydi.

G‘arb ommaviy axborot vositalarida boshqa, ayniqsa, Sharq davlatlariga nisbatan “nodemokratik”, “despotik” degan iboralar ishlatiladi. Liberal, neoleberal qadriyatlarga moyil davlatlar ulug‘lanadi, ularga imtiyozli kreditlar ajratiladi, integratsiyaga keng yo‘l ochib beriladi. Ammo bunday “me’yorlar”ni g‘arb siyosatshunoslari, gegemonizm an’analaridan voz kechishni istamaydigan davlat arboblari o‘ylab topgan. Boshqacha mentalitetdagi va boshqacha hayot tarziga, ijtimoiy-siyosiy tizimga, boshqarish usullariga ega davlatlarga, “nodemokratik”, “despotik” yorlig‘ini yopishtirish ham etika, ham xalqaro huquq nuqtayi nazaridan to‘g‘ri kelmaydi. Har bir xalq va davlatning o‘z taraqqiyot yo‘llari, milliy manfaatlari mavjud, bunday xususiyatlarga ega bo‘lmashlik mumkin emas. Bu davlat va ijtimoiy-siyosiy tuzumning mavjudlik shartidir.

Global manfaatlar bilan milliy manfaatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik:

- inson hayotini, global yaqinlikni, hamjihatlikni asrab qolish;
- ishlab chiqarishni, tabiatga munosabatlarni insonparvarlashtirish;
- global xavfsizlikni ta’minalash;
- insondagi kreativlikni, yaratishga moyillikni, ijodiy salohiyatni qo‘llab-quvvatlash;
- qoloqlik, ishsizlik, korrupsiyani bartaraf etish, qurollanish poygasini to‘xtatish kabilar orqali ta’minalanadi. Ular milliy manfaatlarni mensimaslik hisobiga emas,

balki ulardagi umuminsoniy taraqqiyotga muvofiq keladigan jihatlarni qo'llab-quvvatlash orqali ta'minlanadi.

### Tajribaviy amaliy matnlar

Global hamjamiyat, global iqtisodiyot, global fuqarolik jamiyati, transformatsiya, modernizatsiyalashuv, xalq, davlat, sotsium, integratsiya, yaqin qo'shnilik, do'stlik, millatlararo bag'rikenglik, global taraqqiyot, gegemonlik, demokratiya, subordinatsiya, nodemokratik, despotik, liberal, neoleberal qadriyatlar, gumanizatsiyalash, kreativlik, qaloqlik, ishsizlik, korrupsiya.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar:

#### **Uinston Cherchel**

Buyuk Britaniya davlat arbobi 1946 yil 19 sentabrda Iyurix shahridagi nutqida yevropaliklarni birlashtirishga, AQSh kabi "Yevropa qo'shma shtatlari" tuzishga chaqiradi.

#### **Yevropa "Komissiyasining buyurtmasi bilan "TN Opinion" tadqiqot markazi 2015 yili so'rovnomaga o'tkazgan. Uning natijalariga ko'ra:**

Yevropa Ittifoqining 41 foiz aholisi Bryussel siyosatini yoqlaydi, 19 foizi xushlamaydi, 38 foizi betaraf

Norozilarining aksariyati Kipr (42%), Yunoniston (37%), Avstriya (36%) va Buyuk Britaniya (28%) dandir.

Ruminiya (62%), Bolgariya (55%), Polsha (53%) respondentlari Bryussel olib borayotgan siyosatdan minnatdor.

Shuningdek, respondentlarning 58 foizi ertangi kundan ko'ngli to'q ekanini bildirsa, 36 foizining ko'ngli xavotir.

**Xorvard universiteti professori Stiven Uolt Yevropa Ittifoqining kelajagi haqida ikki taxminni bildiradi.**

Birinchi taxminga ko'ra, Konrad Adenauer Sharl de Goll, Margaret Techcher singari chinakam etakchilarning vorislari hokimiyatga keladi va mavjud muammolarni hal etib, "Yevropa uyi"ni falokatdan asrab qoladi.

Ikkinci taxminga ko'ra, shunday vorislari topilmasa, etishib chiqmasa Yevropa Ittifoqi parchalanib ketadi".

**Siyosatshunos Leonid Bershidskiy to`g`ri ta'kidlaganidek, Yevropa Ittifoqi davlatlari o`rtasida jipslikning yo`qligi va milliy mahdudlikning kuchayib borayotgani bugun tashqi tahdidlardanda xatarliroqdir.**

**O`zbekistonning tarixiy-madaniy boyliklarini, merosini jahonga tanitish, sayyoohlar orqali mamlakatimiz xalqaro nufuzi, investitsiyalar olib kelish imkoniyatini oshirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlari**

O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida (2016 yil 2 dekabr)

Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida (2018 yil 19 dekabr)

2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantish bo`yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to`g`risida (2017 yil 16 avgust)

2019-2025 yillarda O`zbekiston turizmni rivojlantirish konseptsiyasi (2018 yil 15 avgust)

Global manfaatlар bilan milliy manfaatlар o`rtasidagi uyg`unlik:

- inson hayotini, global yaqinlikni, hamjihatlikni asrab qolish;
- ishlab chiqarishni, tabiatga munosabatlarni gumanizatsiyalash;
- global xavfsizlikni ta'minlash;
- insondagi kreativlikni, yaratishga moyillikni, ijodiy salohiyatni qo'llab-quvvatlash;
- qaloqlik, ishsizlik, korruptsiyani bartaraf etish, qurollanish poygasini to`xtatish kabilar orqali ta'minaladi. Ular milliy manfaatlarni mensimaslik hisobiga emas, balki ulardagi umuminsoniy taraqqiyotga muvofiq keladigan jihatlarni qo'llab-quvvatlash orqali ta'minlanadi.

**2019 yili Buxoroda I xalqaro ziyorat turizmi forumi o'tkazildi.** Bugun 64 davlat fuqarosi elektron vizalardan foydalanishi, 101 davlat fuqarolari uchinchi davlatga o'tayotganda 5 kungacha yurtimizda vizasiz turishi mumkin. 7476 ta yirik tarixiy-madaniy ob'ektlar, 2,5 milliondan ziyod muzey eksponatlari va 107 ta nomoddiy ma'naviy meros sayyoohlар diqqatini tortayotgani e'tiborlidir.

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Siyosiy integratsiya va globallashuv deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston va jahon hamjamiyati o'rtasidagi aloqalar haqida qanday tasavvurga egasiz?
3. O'zbekistonning xalqaro nufuzli tashkilotlar (BMT, YuNESKO, YeI va boshqalar) bilan hamkorligi haqida gapirib bering.
4. Globallashuv va demokratiya o'rtasida qanday yaqinlik hamda tafovutlar bor?
5. Sharqona demokratiya nima? Uning globallashuv jarayonlari bilan bog'liqligi nimalarda aks etadi?
6. Globallashuv va milliy manfaatlar o'rtasida bog'liqliklarni izohlab bering.

### **Referat mavzulari**

1. Global shuvning XX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri.
2. Yevropa Ittifoqining tashkil topishi va maqsadi.
3. Kommunistik mafkuraning totalitar xarakteri.
4. Ochiq fuqarolik jamiyatini barpo qilish g'oyasi va jahon siyosati.
5. Sobiq Sovet Ittifoqining yemirilishi va sabablari.
6. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida keng integratsiya va global hamkorlik.
7. Harakatlar strategiyasida – O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi.
8. G'arbona va Sharqona demokratiya.

### **Adabiyotlar:**

1. Мусаев Ф. Демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг фалсафий-хуқуқий асослари. – Тошкент: O'zbekiston, 2007.

2. Алимасов В. Ижтимоий-маънавий мерос ва Шарқона демократия. – Toshkent: Noshir, 2013.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нуткини ўрганиш бўйича илмий-оммобоп рисола. – Тошкент: Маънавият, 2017.28 б.
4. Бзежинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. – Москва. Межд. Отношения, 2000. С.12.
5. Қаранг: Walts. Does Europe Have a Future? // “Foreign Policy”, July 16, 2015.
6. Ёкубов С. YEVROPA ITTIFOQI Ayrilganni ayiq yer // Тафаккур, 2016, 1-сон. 28-29 б.
7. Шваб К. Четвертая промышленная революция. Москва: Эксмо, 2018.
8. Кларк Д. Alibaba. История мирового восхождения от первого лица. – Москва: Эксмо, 2018.

## **6-MAVZU: IQTISODIY JARAYONLARNING GLOBALLASHUVI VA MILLIY MANFAATLAR**

### **REJA:**

1. Xalqaro mehnat taqsimoti va insoniyat ehtiyojlarining o'sib borishi.
2. Tabiiy qazilmalarni qazib olish, qayta ishslash, takror ishlab chiqarishda hamkorlik.
3. Transmilliy korporatsiyalar, iqtisodiy jarayonlarning globallashuvida xalqaro tashkilotlarning roli.
4. Ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishning dolzarb masalalari.
5. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida O'zbekiston manfaatlari.

Globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq tarzda xalqaro mehnat taqsimotiga, insoniyat ehtiyojlari dinamikasiga, tabiiy boyliklarni izlab topish, ulardan foydalanish va milliy manfaatlarga ta'sir etmoqda. "Global iqtisod", "global bozor", "global mehnat" taqsimoti, "global hamkorlik" degan tushunchalar keng ishlatilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, global o'zgarish endi milliy davlatlar chegarasidan chiqib transmilliy xususiyat kasb etayotganiga ishonch hosil qilamiz.

Globallashuvning ilk bosqichi, ya'ni ikkinchi jahon urishidan keyingi 1970-yillarda bo'lган davrda Osiyo va Afrika mamlakatlarida milliy ozodlik harakati avj olib, ular mustaqillik sari intildilar. Mazkur qit'alarni o'z panjasida ushlab kelgan Angliya, Fransiya ularga mustaqillik berishga majbur bo'ldi. Lotin Amerikasida kuchaygan milliy ozodlik harakatlari dunyo xaritasini o'zgartirib yubordi. Bosqinchilik tufayli boylik orttirishga o'rgangan Yevropa davlatlari va AQSH yangi vaziyat bilan hisoblashishga majbur bo'ldilar. Biroq ular mustamlakasiga aylantirgan davlatlardagi infratuzilmalarni, korxonalarini, mehnat va tabiiy resursslarni o'z qo'lida saqlab qolishga intildilar. Integratsiya va transmilliy birlashmalar, korporatsiyalar ana shu maqsadga xizmat qiluvchi vositaga aylandi. Global iqtisodiyot jahon bozoridagi mehnat, kapital, xizmat, texnologiya, mehnat, kapital, xizmat, texnologiya, axborot, menejment, turizm kabilarni ma'lum bir talablar doirasida harakatlanishiga, integratsiya va transmilliy birlashmalarini o'z maqsadlariga muvofiq shakllantirishga erishdi. Bu o'z maqsadlariga muvofiq shakllantirishga erishdi. Bu o'z navbatida

mehnat taqsimotini shakllantiradigan, kapitalni harakatlantiradigan, yagona tizimlarni barpo etadigan fenomen, ya’ni globallashuvni faollashtiradi. Neokolonial tartib, asosan, transmilliy korporatsiyalar ixtiyoriga o’tdi. Shu sababli milliy mustaqillikka erishgan davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yo‘lga qo‘yishida, mehnat resurslari va tabiiy boyliklaridan foydalanishida kolonizatorga qaram bo‘lib qolaverdi. Ularga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minalash siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgandan qimmatga tushmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti ishlab chiqarish kuchlarining yoyilishiga, bo‘linishiga va tarqalishiga yordam beradi. Chunki kasb-korlarning paydo bo‘lishi, mehnat faoliyatining differentialsallashuvi, jamiyat ehtiyojlariga qarab mehnat bozorining shakllanishi globallashuv davriga xos xususiyatdir. Biroq globallashuv uchun shunchaki kasb-korlarning differentialsallashuvi emas, balki kam jismoniy mehnat sarf qilib ko‘proq doramad olish, xalqaro aloqalarni, tovar va kapitallar siljishini manfaatlarga qurish muhimdir. Shu tariqa u turli mamlakatlar va o‘lkalarda ishchi kuchlarini, sanoat yoki agrar sektorlarni, infratuzilmalarni, mehnatga haq to‘lash tizimlari va umuman, mehnatga bo‘lgan munosabatlarini shakllantiradi.

XXI asrning dunyoda 30 ming xil kasb-kor, mehnat, faoliyat turlari bo‘lgan. Bugun har kuni dunyoda 500 ta yangi kasb-kor paydo bo‘lmoqda. Mehnat taqsimoti jamiyatdagi ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga muvofiqdir. Industrial jamiyatlarda industrial, ya’ni mashina-texnikaga asoslangan mehnat, agrar jamiyatlarda qishloq xo‘jaligi mehnati, postindustrial jamiyatlarda intellektual mehnat turlari ustuvordir. Tajriba ko‘rsatadiki, mehnat taqsimoti yuksak shaklli intellektual mehnat bo‘lib, unga qurilgan ishlab chiqarish kam jismoniy kuch va kam vaqt sarflab ko‘proq doramad olish imkoniga ega. G‘arbiy Yevropa davlatlari ishchi-xizmatchilari endi rivojlanishiga kirgan mamlakatlardagi ishchi-xizmatchilardan 50-100 barobar yuqori ish haqi oladi. Bundan tashqari, mehnat taqsimoti ijtimoiy sohaga ta’sir etadi, xizmat turlarini ko‘payishiga olib keladi, kishining bo‘sh vaqtini oshiradi. Og‘ir qo‘l mehnati kishini jismonan toliqtiradi, ko‘p vaqtini oladi, mehnati doim ham kerakli samara va doramad beravermaydi. Intellektual izlanishlarga va texnologik

ishlanmalarga tayanadigan mehnat kishini ma’naviy-ruhiy yuksalishiga xizmat qiladiki, aynan ushbu omil G‘arb sivilizatsiyasini maftunkor qilmoqda.

Globallashuv tayanayotgan va targ‘ib etayotgan ilmiy-texnik kashfiyotlar, texnologik ishlanmalar, yangi-yangi ish usullari va xizmat turlari yer yuzida mehnat taqsimotini qaytadan tashkil etishga undamoqda. To‘g‘ri transmilliy korporatsiyalar o‘zidan-o‘zi, ixtiyoriga yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni milliy o‘lkalarga olib kiravermaydi. Ulardan naf, foyda keladiganini, iste’molchi bor va sotib olish imkonini mavjud mintaqalarga, davlatlarga investitsiyalar kiritishadi. Investitsiya ma’lum bir sohaga, faoliyat, mehnat turiga kiritiladi. Tovar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, mahsulotlarni tez va ko‘p sotish, keladigan daromadlarni oshirish transmilliy birlashmalar ko‘zlagan maqsad. Bu maqsadni, ming afsuski, milliy institutlar belgilamaydi, shakllantirmaydi. Ayrim transmilliy korporatsiyalarning ba’zi bir davlatlar yalpi ichki mahsulotdan oladigan daromadlaridan yuqori ekani globallashuv moddiy manfaatdorlik bilan ham bog‘liqligini tasdiqlaydi. Natijada, Ulrix Bek aytganidek, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, savdo-sotiqni amalga oshirish, hatto korxonalarni boshqarish uchun bir joyda o‘tirish(bo‘lish) shart emas. Ish joylarini eksport qilish, ishchilar mehnatini transmilliy, hatto transkontinental miqyosda “kooperativlash” mumkin yoki xizmat turlarini axborot-kommunikatsiya vositalari orqali ko‘rsatish mumkin”<sup>1</sup>. Bu aslida mehnat taqsimotining insoniyat tarixida uchramaydigan ko‘rinishidir.

Transmilliy birlashmalarning to‘menejerlari egalari, mutaxassislari milliy o‘lkalardagi bo‘limlariga ishga emas, balki sayr qilishga boradi, ishchi tashkiliy jarayonlarni mahalliy kadrlardan tayinlangan, korporatsiya ko‘rsatmalariga itoat etadigan shaxslar bajaradi. Bundan mehnat taqsimoti yangi tipdagi menejerlarni, kadrlarni, kasb-kor egalarini shakllantirmoqda. Endokapital korxonalar barpo etadi, kapital ularni boshqaradi, kapital ishchi-xizmatchilarni harakatga keltiradi, faoliyat turlarini joriy qiladi. XVIII-XIX asrlarda, hatto XX asrda burjua, kapital egasi korxona faoliyatiga, ishchi-xizmatchilar sa’y-harakatlariga bevosita aralashardi, hatto

<sup>1</sup> Ульрих Бек. Что такое глобализация? - Москва: Прогресс-Традиция, 2001. С. 39.

ular bilan birga ter to‘kardi. Endi bunday fidoyilikka, jon kuydirishga hojat yo‘q, u barcha faoliyatni kompyuter, axborot-texnologiya vositalari orqali bajarishi mumkin.

Globallashuv insoniyat ehtiyojlarining tinmay o‘sib, oshib borishidan manfaatdor. Bu ehtiyojlarni u sun’iy tarzda oshib borishini qo‘llab-quvvatlamaydi ham. Ma’lum bir hisob-kitoblarga ko‘ra insonni normal kun kechirish uchun 170 ta tovar, mahsulot yetarli. XIX asrda kishilar ehtiyoji 40-50 atrofida bo‘lgan. Industrial taraqqiyotdan uzoq o‘lka xalqlarining ehtiyojlari undan kam bo‘lmagan, albatta. Biroq bozorlar, do‘konlar kishiga 70 mingdan ziyod tovar, mahsulotlar tavsiya etadi. Ehtiyojlarning rang-barangligi ijobiy hol, ular kishini tinmay ishlash, izlanish va faollikka undaydi. Yangi-yangi mahsulotlar va tovarlar urbanizatsiyaga, hayotning madaniylashuviga, xizmat turlariga bo‘lgan qiziqishlarining oshishiga yordam beradi. Biroq bu tovar va iste’mol tovarlari tabiiy resurslarni kommertsializatsiyalashga, ekologik inqirozlarning kelib chiqishiga ham olib keladi. “Rim klub” a’zolari o’tgan asrning 60-70 yillarda keltirgan misollari va bildirgan bashoratlari qanchalik o‘rinli ekaniga insoniyat ko‘p o’tmay iqror bo‘ldi. Rim klub prezidenti A.Pechenning keltirishicha, 2010-yilga borib dunyodagi ochlar soni uch barobarga oshadi va bu energiya, oziq-ovqat va xomashyoga bo‘lgan talabni o‘rganib chiqishga undaydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, klub a’zolari ushbu uch manba 30-40 yillar ichida qator muammolarni keltirib chiqaradi, issiqlik energiyasiga, oziq-ovqatga va xomashyoga bo‘lgan talab keskin oshadi. Cheksiz o’sishdan, oqilona rivojlanishiga o’sishgina insoniyatni bo‘lg‘usi fojalardan xolis qilish mumkin<sup>1</sup>. Shuning uchun A.Pechen insoniyat tabiiy qazilmalarni qazib olish, qayta ishlash, takror ishlab chiqishda hamkorlik qilishga da’vat etadi.

Alternativ sivilizatsiya g‘oyasi tarafidori I.V.Bestujev-Lada, agar insoniyat ilm-fan yutuqlaridan, yangi texnologik ishlanmalardan samarali foydalanilsa, yerda 400 milliard kishi yashashi mumkin. Agar okeanlardagi resurslardan foydalanishni o‘rgansa, yana 1200 mlrd kishini boqish, oziq-ovqat bilan ta’minlash imkonini paydo

---

<sup>1</sup> Печчен А. Человеческие качества.-Москва : Прогресс, 1980. С.165-170.

bo‘ladi<sup>1</sup>. Agar Rim klubi a’zolari insoniyatni, rivojlanishi, o‘sishi shu tarzda davom etsa, katta fojialar, ochlik, inqirozlar kutadi, degan fikrni bildirishsa, I.V.Bestujev - Lada yerdagi resurslar yuz milliardlab kishilarni boqish imkoniga ega, deb hisoblaydi. Lekin ular mohiyatan aynan fikrni bildirishadi, ya’ni insoniyat yon-atrofga, tabiiy resurslarga oqilona, ehtiyyotkorana yondashish kerak. Ilm-fan, texnologik ishlanmalardan foydalangan tarzda tabiatni, hayotni asrashga o‘rganishi lozim. Takror ishlab chiqarishni kengaytirish orqali kishilar ehtiyojlarini qondirish mumkin. Buning uchun yangi yerlarni o‘zlashtirish va yangi qazilmalar izlash shart, bugun ishlab iste’mol qilingan mahsulotlarni qayta ishlab chiqishning o‘zi tabiatni ekspluatatsiya va kommersializatsiyalashni cheklashi mumkin.

Iqtisodiy globallashuvda transmilliy korporatsiyalar yetakchi rol o‘ynaydi. Shunday yirik kompaniyalarning AQSHda joylashgani mamlakat iqtisodiyotiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Manbalarga ko‘ra, 1990-2001 yillar ichida AQSH iqtisodiyoti 27% ga o‘sgan. AQSHning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2002-yilda 31,4 trln. dollarni tashkil qilgan. Ishsizlik esa 4% ga tushgan. Bu paytda yalpi ichki mahsulot Yaponiyada 3,942 trln, Germaniyada 2,392 trln., Britaniyada 1,771 trln., Fransiyada 1,677 trln., Italiyada 1,422 trln., Xitoyda 1,388 trln., Rossiyada esa 0,392 trln. AQSH dollarini tashkil etgan. Yirik investitsiyalar olib kirgan Merrill Linch, Morgan Stenli Din Uitter, Goldmen Saks, Solomon Smit Barni va J.P.Morgan kompaniyalari AQSH iqtisodiyotini “ishchanlar dunyosi giganti”ga aylantirgan. AQSH fuqarosining yillik daromadi 38 ming dollarga yetgan<sup>2</sup>.

Transmilliy kompaniyalar AQSH iqtisodiyotining investorlariga, ilmiy-texnik kashfiyotlarini amaliyatga, ishlab chiqarishga joriy etish subyektlariga aylangan. Masalan, kompyuter texnologiyalarni rivojlantirishga ular yiliga 220 mlrd. dollar kiritishadi. Bu esa AQSHdagi kompyuterlarni Yevropa va Yaponiyadagidan 5 marta tez ishlashini ta’minlaydi. “Intel”, IBM va “Motorola”, “Microsoft”, “Oracl” va “Nescafe” kompaniyalari dunyoga mashhur. AQSHda internetga ulangan 15500

<sup>1</sup> Бестужев-Лада И.В. Альтернативная цивилизация. Единственное спасение человечества. - Москва: Альгоритм, 2003.С.8-9.

<sup>2</sup> Уткин А.И. Американская империя.- Москва: ЭКСМО, 2003.С.58-59.

teletarmoqlar ishlab turadi. Internet saytlarining 90% dan ziyodi AQSHga to‘g‘ri keladi. Mamlakatdagi yirik transmilliy kompaniyalar dunyoning istagan qismiga, davlatga investitsiyalar kiritishi, o‘z ofislarini ochishi mumkin. AQSHdagi 500 yirik transmilliy korporatsiya jahon yalpi ichki mahsulotining 61% ni ishlab chiqarmoqda<sup>1</sup>. “Manpower Ink”- 72%, “Gillette”- 66%, “Mobil”-63%, “Digital Equipment”-61%, “EXCON”-56%, “Sochi Car”-51% mablag‘larini chet ellar iqtisodiyotiga sarflamoqda. Bular bejiz, xayriya emas, ular kompaniyalarga ulkan foyda keltiradi, milliy iqtisodiyotni modernitsiyalashga, Yevropalashtirishga yetaklaydi. AQSH ana shu transmilliy kompaniyalari orqali jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, global iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatmoqda. Haqiqatan ham, AQSH transmilliy kompaniyalarini Yaponiya, Singapur, Xitoy, Indoneziya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi davlatlari, MDH respublikalarida uchratish mumkin. Ular olayotgan daromadlarni esa hali hech kim o‘rgangan emas, hisob-kitob qilish ham mushkul. M.Sorrel iborasi bilan aytganda “bugun dunyo globallashayotgani yo‘q, balki amerikalashmoqda”<sup>2</sup>.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini chetga investitsiyalar orqali amalga oshirish mumkin, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Bu o‘rinda asosiy e’tibor milliy omillarga, mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va iqtisodiy imkoniyatlarga qaratilishi lozim. Mutaxassislarning fikricha, globallashuv va milliylik o‘rtasida maqsadga muvofiqlikni ifodalaydigan ko‘rsatgich yoki mezonlar bo‘lmog‘i lozim. Globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va mamlakat aholisi farovonligining muttasil o‘sib borishini ana shunday mezon sifatida tavsiflash mumkin.

Shu bois milliy davlatlar globallashuv yaratadigan barcha ne’matlar va imtiyozlardan to‘liq foydalanishi lozim. Milliy iqtisodiyotlar xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvida faol ishtirok etishi, jahon savdo tashkiloti, mintaqaviy iqtisodiy uyushma va alyanslar orqali jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv yo‘lidan

<sup>1</sup> Ўша acap. C.62-63.

<sup>2</sup> Ўша acap.C.58.

bormog‘i darkor. Buning uchun esa globallashuv jarayoni qator shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi”<sup>1</sup>.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish globallashtirishga zid hodisa emas, ularni uyg‘unlashtirish milliy iqtisodiy rivojlanish omiliga aylanishi mumkin. Bugun O‘zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar va savdo-sotiq hududlari mintaqaviy integratsiyaga qurilgan. Ammo bu globallashuv boshqa faktorlarining qatnashishini inkor qilmaydi. Savol globallashuv talablariga rioya etish kerakmi yoki mahalliylashtirish ustuvor bo‘lishi kerakmi, tarzida qo‘yilishi mumkin emas. Jahan tajribasi (Singapur, Tayvan, Malayziya va boshqalar) ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishni global taraqqiyot, ayniqsa zamonaviy ilmiy-texnik kashfiyotlar bilan uyg‘unlashtirish milliy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi. Aynan shu tarzda O‘zbekiston manfaatlarini himoya qilish va global hamkorlikda ularni ta’minlash mumkin. professor N.To‘xliyev yozadi: “Globalashuv ulkan planetar jarayon bo‘lib, o‘z yo‘lidagi har qanday milliy to‘sinqi vayron etib baraveradi. Ammo, globallashuv milliy suverenitetga tahdid solmaydi”<sup>2</sup>.

Erkin iqtisodiy zonalarda globallashuvda faol ishtirok qilayotgan xalqaro kompaniyalar muhim vazifalarni bajarayotgani kuzatiladi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev BMTning Bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi nutqida qayd etganidek: “O‘zbekistonda yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, ularda investorlarga keng imtiyozlar yaratilib berildi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, biz Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini yangitdan tikladik”<sup>3</sup>. O‘zbekistonda chet el kompaniyalarini erkin iqtisodiy zonalar ochishga jalb etish davlat siyosati darajasidagi vazifaga aylangan. Samarqand viloyatidagi “Urgut” erkin iqtisodiy zonasida Turkiya sarmoyadorlari va kompaniyadorlari va kompaniyalari, Samarqand shahrida mehmonxona kompleksini barpo etishga “Dal texnik” va “APEAS”,

<sup>1</sup> Тўхлиев Н. Ўзбек модели: тараққиёт моделлари.-Тошкент: ЎзМЭ. Давлат илмий нашри, 2014.1776.

<sup>2</sup> Ўша асар. 1716.

<sup>3</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.Т.2.-247б.

to‘qimachilik hamda san’atini rivojlantirishda “Yildirm Grupp”, “SUR international”, “Besler Foods”, “Chalik Holding”, “Limak”, “Kibar”, “Kalyon”, “Komin” kompaniyalari qatnashmoqda. Bunday hamkorlik dunyodagi 60 ga yaqin davlatlar bilan o‘rnatalgan bo‘lib, ilg‘or ish tajribalariga ega xorijiy kompaniyalarning innovatsion g‘oyalari amaliyotga joriy etilmoqda. Xitoy, Singapur, Malayziya, Tayvan, Yaponiya, Turkiya tajribalari ko‘rsatadiki, aynan erkin iqtisodiy zonalar, xorijiy investorlarni jalb etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning milliy manfaatlarga erishishning eng samarali yo‘llaridir. Bugun O‘zbekistonda tashkil etilgan 7 ta erkin iqtisodiy zona (Navoiy, Angren, Jizzax, Urgut, G‘ijdivon, Qo‘qon, Xazarasp)lar xalqaro iqtisodiy hamkorligimiz namunasidir.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Transmilliy korporatsiyalar, manfaat, global iqtisod, global bozor, global mehnat, global hamkorlik, transmilliy, integratsiya, mehnat, kapital, xizmat, texnologiya, mehnat, kapital, xizmat, texnologiya, axborot, menejment, turizm, mashina-texnika, intellektual, tovar, savdo-sotiq, transkontinental, axborot-kommunikatsiya, kommersializatsiyalash, ekologik inqiroz, milliy suverenitet, investorlar, moliyaviy institut.

#### **Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:**

***Globallashuv*** ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog’liq tarzda xalqaro mehnat taqsimotiga, insoniyat ehtiyojlari dinamikasiga, tabiiy boyliklarni izlab topish, ulardan foydalanish va milliy manfaatlarga ta’sir etmoqda.

***Rim klubi prezidenti A.Pechchenning keltirishicha,*** 2010 yilga borib dunyodagi ochlar soni uch barobarga oshadi va bu energiya, oziq-ovqat va xom-ashyoga bo‘lgan talabni o`rganib chiqishga undaydi.

Yirik investitsiyalar olib kirgan ***Merril Lynch, Morgan Stenli Din Uitter, Goldmen Saks, Solomon Smit Barni va J.P.Morgan*** kompaniyalari AQSh iqtisodiyotini **“ishchanlar dunyosi giganti”**ga aylantirgan.

## Alternativ sivilizatsiya g'oyasi tarafidori I.V.Bestujev – Lada

Agar insoniyat ilm-fan yutuqlaridan, yangi texnologik ishlanmalardan samarali foydalanilsa, erda 400 milliard kishi yashashi mumkin. Agar okeanlardagi resurslardan foydalananishni o'rgansa, yana 1200 mlrd, kishini boqish, oziq-ovqat bilan ta'minlash imkonini paydo bo'ladi.

Rim klubi a'zolari insoniyatni, rivojlanishi, o'sishi shu tarzda davom etsa, katta fojialar, ochlik, inqirozlar kutadi, degan fikrni bildirishsa, I.V.Bestujev - Lada, erdag'i resurslar yuz milliardlab kishilarni boqish imkoniga ega, deb hisoblaydi.

### **Iqtisodiy globallashuvda transmilliy korporatsiyalar etakchi rol o'ynaydi.**

**Shunday yirik kompaniyalarning AQShda joylashgani mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Manbalarga ko'ra:**

- 1990-2001 yillar ichida AQSh iqtisodiyoti 27%ga o'sgan
- AQShning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2002 yilda 31,4 trln. Dollorni tashkil qilgan.
- Ishsizlik esa 4%ga tushgan.

### **Iqtisodiy globallashuvda transmilliy korporatsiyalar yetakchi rol o'ynaydi.**

**Shunday yirik kompaniyalarning AQShda joylashgani mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Manbalarga ko'ra:**

- 1990-2001 yillar ichida AQSh iqtisodiyoti 27%ga o'sgan
- AQShning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2002 yilda 31,4 trln. dollorni tashkil qilgan.
- Ishsizlik esa 4%ga tushgan.

#### **Bu paytda yalpi ichki mahsulot**

Yaponiyada 3,942 trln,

Germaniyada 2,392 trln.

Italiyada 1,422 trln.

Britaniyada 1,771 trln.

Xitoyda 1,388 trln.

Fransiyada 1,677 trln.

Rossiyada esa 0,392 trln. AQSh dollarini tashkil etgan.

**M.Sorrel** - “bugun dunyo globashayotgani yo`q, balki amerikalashmoqda”

**N.To`xliyev** - “Globalashuv ulkan planetar jarayon bo`lib, o`z yo`lidagi har qanday milliy to`sinqni vayron etib baraveradi. Ammo, globallashuv milliy suverenitetga tahdid solmaydi”.

Navoiy

Angren

G`ijdivon

O`zbekistonda tashkil etilgan 7 ta erkin iqtisodiy zona

Jizzax

Qo`qon

Xazarasp

Urgut

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Xalqaro mehnat taqsimoti deganda nimani tushunasiz?
2. Insoniyat ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot o`rtasida qanday yaqinlik bor?
3. Globallashuv va qayta ishlab chiqarish haqida nimalarni bilasiz?
4. Transmilliy korporatsiyalar nima?
5. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va globallashuv jarayonlari o`rtasidagi bog`liqlikni tushuntiring.
6. Globallashuv va milliy manfaatlar haqida gapirib bering.
7. Erkin iqtisodiy zonalar nima? Ularning milliy iqtisodni rivojlantirishdagi o`rni qanday?

### **Referat mavzulari**

1. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvida xalqaro tashkilotlarning roli.
2. “Global iqtisod”, “global bozor”, “global mehnat taqsimoti”, “global hamkorlik” tushunchalari va ularning mohiyati.
3. Postindustrial jamiyatlarda intellektual mehnat turlari.
4. Globallashuv va insoniyat ehtiyojlari.

5. Iqtisodiy globallashuvda transmilliy korporatsiyalarning o‘rni.

**Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
2. Тўхлиев Н. Ўзбек модели: тараққиёт моделлари. - Тошкент: ЎзМЭ. Давлат илмий нашри, 2014.
3. Бзежинский З.Б. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. - Москва. Межд. Отношения, 2000.
4. Уткин А.И. Американская империя. - Москва: ЭКСМО, 2003.
5. Печеи А. Человеческие качества. - Москва: Прогресс, 1980.
6. Бестужев-Лада И.В. Альтернативная цивилизация. Единственное спасение человечества. - Москва: Альгоритм, 2003.
7. Ульрих Бек. Что такое глобализация? - Москва: Прогресс-Традиция, 2001.
8. Global Culture, - London, 1990.
9. Kurch J. The Adoles cent Emprie. Amerika and the Imperial Idea (The National Interest, Summer, 1997).

## **7-MAVZU: MADANIYAT SOHASIDAGI GLOBALLASHUVNING MOHIYATI**

### **REJA:**

1. Madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati.
2. Madaniyat muammolari va milliy-ma'naviy qadriyatlarni saqlash zarurati.
3. Madaniy globallashuvga axborot-texnologiyalarning ta'siri, globallashuv sharoitida ta'lim sohasidagi, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi mafkuraviy tazyiqlar.
4. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida ta'lim tizimi oldidagi vazifalar.
5. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida milliy merosni asrash masalalari.

Globallashuvning madaniyat, maorif, axloq, meros, ma'naviy boyliklar, yoshlar ongi va tasavvurlariga ta'siri haqida ham ziddiyatli fikrlar, yondashuvlar mavjud. Globallashuvning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotga ta'siri mantiqan, obyektiv tarzda subyektiv omillarda ham aks etmasligi mumkin emas. Shuning uchun globallashuvning madaniyat va ma'naviyatga ta'siri obyektiv olib berilishi zarur. Ming afsuski, bizning mutaxassislarimiz, ayniqsa jamiyatshunos va ma'naviyatshunoslarmiz globallashuvdan nimagadir salbiy ta'sirlar izlashadi, undagi ijobiy jihatlarni ko'rmaslikka, ko'rishsa ham fikr bildirishmaslikka intilishadi. Natijada, globallashuv "ommaviy madaniyat" va "ma'naviy tahdidlar" bilan cheklab qo'yildi. Globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy va xalqaro integratsiyada bo'lganidek, madaniyat va ma'naviyat sohasida ham ijobiy va salbiy jihatlarga ega voqelik, fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Xo'sh, ushbu ijobiy va salbiy ta'sirlar, jihatlar nimalarda aks etadi? Ular milliy taraqqiyotimiz, innovatsion rivojlanishimiz uchun qanchalik foydali yoki xavfli?

Globallashuv xalqlar va davlatlarni yaqinlashtirmoqda, S.Xaktington iborasi bilan aytganda, "global madaniyat" yuzaga kelmoqda. Buning o'zi ijobiy hol, albatta, Chunki:

- azaldan xalqlar madaniyat fenomeni asosida birlashishga intilib keladi;

- madaniyatning sotsiokreativ voqeligi insonlar faoliyatini, tasavvurlarini, turmush tarzidagi fundamental jihatlarni umuminsoniy qilib keladi;
- madaniyat bilan shug'ullanmaydigan, madaniy boyliklar yaratmagan yoki yarata olmaydigan xalq, millat, etnos yo‘q;
- bugun madaniyatga sivilizatsiya va taraqqiyot, axloq va ma’naviy taraqqiyot mezoni sifatida qaralmoqda, madaniyat kasb etgan yangilik, izlanish, faoliyat e’zozlanadi.

Tarixiy-madaniy rivojlanish shuni ko‘rsatadiki, xalqlar, davlatlar o‘rtasida aloqalar doimo u yoki bu madaniy boylikni yoki tajribani o‘rganish, savdo-sotiqlar o‘rnatish, ijtimoiy-demografik aloqalarni mustahkamlash negizida qurilgan. Hatto harbiy to‘qnashuvlar va yurishlar paytida ham xalqlar bir-birlari bilan madaniy aloqalar o‘rnatishdan, bir-birlarining madaniy boyliklaridan bahramand bo‘lishdan to‘xtamagan.

Xalqning, millatning shakllanish jarayonining o‘zi madaniy-ijtimoiy voqelikdir. Akademik A.Asqarov yozadi: “Millatning shakllanishi ham xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo‘lib, millat etnik tarixining eng yuksak yuqori cho‘qqisi, kamolot bosqichiki, bu bosqichga ko‘tarilgan xalqning davlat, madaniyati millat nomi bilan yuritiladi, u suveren davlat sifatida ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritadi, millat tili davlat tili maqomini oladi, uning davlat chegaralari qat’iy, daxlsiz bo‘lib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinadi, millatning o‘zlikni anglash darjasini yuksak, milliy g‘urur, vatanga fidoyillik, ona zamin va xalqiga sodiqlik, millat fuqarolarining hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi, millatga xos mentalitet shakllanadi, ya’ni davlat millatning xohish-irodasini bajaruvchi jonli mexanizmga aylanadi”<sup>1</sup>. Ijtimoiy-madaniy voqelik sifatida shakllangan xalq, millat madaniyatga tayanmay rivojlanishi va tarix sahnasida yashab qolishi mumkin emas edi. Xalqni xalq, millatni millat sifatida shakllantirgan madaniyat ijtimoiy taraqqiyotning, sivilizatsiyaning hamda keljakning kafolatiga aylanishi muqarrar edi.

---

<sup>1</sup> Аскаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи.-Тошкент: Университет, 2007. 596.

Globallashuv bu tarixiy-madaniy paradigmani inkor qilmaydi, inkor qilolmaydi ham, balki madaniy boyliklar yaratishda, bu boyliklarni umuminsoniy voqeliklar sifatida targ‘ib etishni yangi bosqichga ko‘taradi. Bu o‘rinda Yuneskoning milliy-tarixiy boyliklarni (Samarqand, Buxoro, Ichan Qal‘a - Xiva komplekslarini) o‘z himoyasiga olib, ularni ta’mirlashga har yili mablag‘lar ajratib o‘tkazib kelayotganini eslash mumkin. Demak, globallashuv ijobiy fenomen sifatida milliy madaniyatni asrashga, undagi umuminsoniy ahamiyatga ega artefaktlarni himoya qilishga o‘z hissasini qo‘shadi. BMT, xalqaro tashkilotlar, jahon hamjamiyati, transmilliy birlashmalarning Orolni qutqarish jamg‘armasini global tarzda qo‘llab-quvvatlab kelayotgani yana bir misoldir. Mazkur jamg‘arma hisobotlari va faoliyatidan xabardor har bir kishi unga AQSH, Shvetsariya, Ispaniya, Shvetsiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar katta mablag‘lar ajratayotganiga ishonch hosil qiladi. Orol mintaqasi xalqlari madaniyatini rivojlantirish, turmush farovonligini ta’minlash, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, yangi ijtimoiy infratuzilmalarni yaratish kabilar global hamkorlik tufaylidir.

Madaniyatning sotsiokreativ voqelik ekani, uning insonlar faoliyatini, tasavvurlarini yaratishga, ijodga undayotganini globallashayotgan dunyo, xalqlar, subyektlar ko‘rmasligi mumkin emas. Aynan yaratishga, ijod va izlanishlarga undash bilan madaniyat inson hayotini zavqli qiladi, unga yangi-yangi mazmun-mohiyat olib kiradi. Madaniyatning sotsiokreativ funksiyasi insonni, xalqlarni o‘zligini anglashga, o‘zidagi ijobiy kuchlarga ishonishga undaydi. Globallashuv inson hayoti mohiyatiga aylangan mazkur funksiyani rad qilmaydi, ammo uni keskin tarzda, umumsayyoraviy makonda ommalashtiradi.

Bugun O‘zbekistonda yaratilgan, kashf etilgan yangilik, ijod mahsuli ko‘p o‘tmay boshqa qit’alarga, dunyoga tarqaladi. Undan boshqa xalqlar bahramand bo‘ladi. Madaniyatlararo aloqalarning, integratsiyaning kengayishi umuminsoniy jamiyat, umuminsoniy birlik shakllanishiga xizmat qiladi. Hech bir omil madaniyat kabi xalqlar, millatlar va davlatlarni keng, chuqur birlashtirolmaydi, ularning ijtimoiy-madaniy borlig‘iga singgan artefaktlar, boyliklar global voqelikka aylanadi.

Umuminsoniy bo‘lishi milliy madaniyatlar mohiyatidadir, ular ma’lum bir lokal etnoslarga, kishilar jamosiga xizmat qilgan taqdirda ham o‘zidagi umuminsoniy negizni saqlab qoladi.

Shuning uchun ham “global madaniyat” insoniyatning kelajagi, globallashuvning ijobiy ta’siri mahsulidir. Barcha xalqlar, millatlar, etnoslar madaniy boyliklar yaratishga qodir. Ular o‘zining tarixiy missiyasini madaniy boyliklar yaratishda ko‘radi. Inson faoliyatining mohiyati madaniyatda bo‘lgani uchun ham gloaballashuv madaniyatga qarshi chiqolmaydi, unga zid voqelikka aylanishi mumkin emas. Aks holda inson, insoniyat o‘ziga, o‘zining ontologik asosiga qarshi chiqqan, ya’ni o‘zini-o‘zi rad etish yo‘lidan borgan bo‘lardi. To‘g‘ri, ayrim kishilar yoki guruhlarda radikalizm, anarxizm, nigelizm uchraydi, ular mutlaq yangi, tarixiy-madaniy tajribalarga tayanmaydigan borliq, narsalar yaratishga intiladilar, lekin butun xalq, insoniyat bunday qilolmaydi. Yaratish, ijod qilish, izlanish ongli inson mavjudligining shartidir.

Madaniyat sivilizatsiya, taraqqiyot mezoni hisoblanadi. Ushbu aksiomadan voz kechayotgan etnos, xalq yo‘q. Demak, globallashuv instinctiv tarzda madaniyatga xizmat qiladi va o‘zi ham, pirovard natijada, ijtimoiy-madaniy fenomenga aylanadi. Uning ichida kechayotgan ziddiyatlar, fluktuatsiya bundan keyin ham davom etadi, hayot dinamizmining o‘zi shuni taqozo qiladi. Globallashuv - hayot dinamizni ifodasi, bu dinamizm fluktatsion kechish xususiyatiga ega. Ammo globallashuv madaniy boyliklarini yangi ko‘lamda, yangi shaklda, yangi vositalar bilan yaratishga targ‘ib etishga undamoqda. Masalan, ilgari kandakor jimjimador naqsh tushilgan mis laganni yaratishi uchun uch-to‘rt oy tinmay ishlagan, qo‘lidan bolg‘a, parma qalam, ko‘zbo‘yar qalam tushmagan. Bugun shunday texnika vositalari, elektr qalamlar borki, kandakor istagan laganini bir-ikki kunda yasashi mumkin. Ilmiy-texnik vositalar kandakor, o‘ymakor, haykaltarosh, chinni ustasi ishlarini yengillashtirib, unga samarali ishlash, izlanish imkonini bermoqda. Ilgari xalq amaliy san’atini ustalari, masalan, shipga naqshni qo‘lda tushirishardi, bugun ular yopishadigan qog‘ozlarga tushirilib, shipga yopishtiriladi. Bu usul tabiiyligida ilgari qo‘l usulidan

deyarli farq qilmaydi, ammo tez, arzon va kamharajatdir. Mana, globallashuv targ‘ib etayotgan va milliy madaniyatlarga olib kirayotgan ilmiy-texnik ishlanmalarning ijobiy tomoni.

Shu bilan birga globalashuvning salbiy, ziddiyatli jihatlari birligini inkor qilolmaymiz. Milliy ma’naviyatga tahdidlar xalqlarni bezovta qilmoqda. Madaniyatlarni gomogenezatsiyalash, bir xillashtirish xavfi yuzaga kelgan. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganidek: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi”<sup>1</sup>.

Globalashuvning axborot-texnologiyalardan keng foydalanayotgani ko‘pincha internetga salbiy munosabatlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, internet tarmog‘idagi g‘ayriaxloqiy ko‘rsatuvsular, videotasvirlar, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi filmlar ko‘pchilikda narozilik uyg‘otmoqda. Internetda shaxsiy saytlar ochib, duch kelgan narsani, hatto kishilarning shaxsiy hayotini buzuvchi fisq-u fasod gaplarning tarqatilishi e’tiroz uyg‘otmay qolmaydi, albatta. Internet mohiyatan shaxsiy aloqalarni global miqyosda kengaytirish, tezlashtirish imkonini beradi, dunyodagi yangiliklardan xabardor yurish va ularga munosabat bildirish imkoniyatining mavjudligi ijobiy hol, albatta.

1995-yili AQSHlik Rend Konraya “Classmastes.com” (“Sinfdoshlar”) saytini ishga tushirdi. 2003-2004 yillarda “LinkedIn”, “MySpace”, “Facebook” ijtimoiy tarmoqlari ishga tushirildi. 2006-yil Rossiyada “Odnoklassniki” va “V kontakte” saytlari ish boshladi. Web 2.0 texnologiyasida asoslangan ijtimoiy tarmoq ilm-fanda o‘ziga xos o‘zgarish, inqilob yasadi. Keyinchalik “Twitter” (AQSH), “Vevo” (Buyuk

---

<sup>1</sup> Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси//Халқ сўзи, 2017, 4 август.

Britaniya), “Nexopia” (Kanada), “Dol2day” (Germaniya), “Taggen.com”, “Skyrock” (Yevropa), “Orkut”, “Hi5” (AQSH), “Friendster”, “Multiply”, “Renren” kabi ijtimoiy tarmoqlar keng tarqaldi. Agar Jorji Dorsi ishga tushirgan. “Twitter” ijtimoiy tarmog‘iga 700 million kishi a’zo. Bugun yoshlarning deyarli 90 % internetdan foydalanmoqda. Kishilar ongiga ta’sir etishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotgan siyosatshunoslar, davlat arboblari, hatto ruhoniylar soni ham oshib bormoqda. Shu bilan birga mutaxassislar kiber olamda g‘ayriaxloqiylik, zo‘ravonlik, jinoyatlar ko‘payib borayotganini ta’kidlashmoqda.

“Global tizimning rivojlanishi bilan virtual olamdagи jinoyatlar ko‘lami ko‘paydi. Bugun kiber firibgarlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z “mijoz”lariga aniq “tashxis” qo‘yib, ularni osonlikcha chuv tushirmoqda. Olomon madaniyati atalmish baloyi azim ham ijtimoiy tarmoqlar bag‘rida kurtak yoymoqda, o‘z tarafdoरlarini topmoqda. Angliyalik professor Erik Kaulman zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlarni “zarrabinga solib” o‘ргanib chiqib, “Socialnomincs” nomli salmoqli tadqiqot yaratdi. Professorning xulosalariga ko‘ra, aksar ijtimoiy tarmoqlar pornografik materiallar tarqatuvchi, axloqsizlik, zo‘ravonlik va millatchilikni targ‘ib etuvchi vosita bo‘lib qolmoqda (Erik Kaulman. Sociabnomics: How Social Media Transforms the way we live and Do Bisiness. Wiley, 2009). Moddiy manfaat desa tug‘ishganini sotishga tayyor kartalonlar tazyiqsiz mayllarga tobe nafs bandalarini ko‘paytirishga homiylik qilmoqda. Hatto, G‘arbda ayrim onalar ijtimoiy tarmoqda hali qornidagi bolasiga profil ochib, uning nomidan yozishmalar qilayotganiga nima deysiz!”<sup>1</sup>.

Globallashuv internet tarmoqlari orqali milliy madaniyatlarga tahdid o‘tkazayotganini G‘arb tadqiqotchilari ham tashvish bilan qayd etishadi. Masalan, taniqli sotsiolog P.L.Bergerning keltirishicha, 1970-yili Chili aholisining 10,3% oilasida televizor bo‘lgan, bu ko‘rsatgich hozir 91,4 tashkil etadi. Ammo TVda ko‘rsatiladigan dasturlarning asosiy qismi AQSH axborot agentligidan sotib olingan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Карапг: Муродов Ш. Ижтимоий тармоқ “сўқмоқлари”// Тафаккур, 2013, 4сон.-226.

<sup>2</sup> Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П.Бергера. С.Хантингтона. - Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.-С.14.

Globallashuvning Xitoy, Hind, Yapon mentalitetiga, madaniyatiga o'tkazayotgan salbiy ta'sirlari haqida ham o'sha manba(kitob)da ko'plab misollar keltirilgan. Tadqiqotchilar globallashuvni obyektiv jarayon deb hisoblab, unga "tushinish konsepsiysi"ni qo'llashni tavsiya etishadi.

Mazkur konsepsiaga muvofiq, globallashuv izchil va kuch bilan davom etayotgan jarayon, unga qarshi turli befoyda, hayot dinamizmiga qarshi turib bo'lmanidek, globallashuvga ham qarshi turish qiyin, faqat uni anglash, ijobiy va salbiy jihatlarini ilg'agan holda milliy madaniy taraqqiyotga zid bo'lman yondashuvni ishlab chiqishi zarur. Mazkur yondashuv milliy madaniyatni, ta'minlash, tarixiy merosni asrashning uzoq yillarga mo'ljallangan dasturini yaratishi lozim. Ijodkor ziyyolilar oldidagi vazifalar haqida to'xtalgan O'zbekiston Respublikasining prezidenti SH.M.Mirziyoyev deydi: "Ijodiy tashkilotlarimiz shiddat bilan o'zgarayotgan zamonga hamqadam bo'lib yashash, o'z faoliyatini samarali tashkil etishda davr talablaridan orqada qolmoqda. Aslida ular nafaqat bugungi kun, balki kelajakni ko'zlab ish tutishi, shu asosda puxta o'ylangan, mustahkam rejalarini tuzishi kerak emasmi? Deylik, 15-20 yildan keyin O'zbekistonning madaniy rivojlanishi qanday kechadi, bugun biz yashayotgan Internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san'at, madaniyatimizning o'rni va ta'sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin, degan to'g'ri va odilona savollar barchamizni, birinchi navbatda, xalqimizning eng ilg'or vakillari bo'lgan ijod ahlini o'yantirishi zarur emasmi?"<sup>1</sup>

Milliy madaniyatni rivojlantirishga oid konseptual fikrlar, g'oyalar prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2018-yil 26-avgust) farmoni, "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2018-yil 19-dekabr) Qarorida ilgari surilgan. Ularda metsenatlar va homiylar yordamini jalb qilishni rag'batlantirish,

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018. 183.

muqobil manbalar izlab topish, davlat byudjetiga mutlaq qaramlikdan xoli qilishi, kasbiy tayyorgarlikni yuksaltirish, milliy madaniyat va san'at muassasalarini jahon madaniy makoniga puxta integratsiya qilish, boy tarixiy-madaniy merosdan, kreativ imkoniyatlaridan samarali foydalanishning innovatsion usullarini izlash lozimligi ko'rsatiladi. Mohiyatan bu ko'rsatmalar milliy madaniyatni globallashuv va integratsiya jarayonlari bilan uyg'un tarzda rivojlantirishga oiddir. Konseptual ahamiyatga ega bu hujjatlar globallashuv sharoitida milliy madaniyat qanday bo'ladi, madaniyat va san'atni boshqarishda davlatning roli nimalarga qaratiladi, kommersializatsiya masalalari qanday yechiladi, mutaxassislar tayyorlash tizimida qanday yangiliklar amalga oshiriladi, degan savollarga javob izlashga undaydi. Professional ijod bilan havaskorlik ijodi, xalq madaniyati bilan elita madaniyati masalalariga oid bahs-munozaralarga munosabatimizni qanday shakllantiramiz?

Globallashuv madaniyatlar plyuralizmini rad etolmaydi, ammo milliy madaniyatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Siyosiy, iqtisodiy sohalarda ro'y berayotgan global o'zgarishlar madaniyatga, kishilar ongi va ma'naviyatiga ta'sir etishi turgan gap, buni inkor qilish rivojlanishning obyektiv qonunlarini bilmaslik bilan barobar. Ming affuski, globallashuv va milliy madaniyat o'rtasidagi bog'liqliklar, integratsiya, ziddiyatlar, fluktuatsiya haqida biz hali aniq tasavvurlarga ega emasmiz. O'zbek etnomadaniyatining 20-30 yillargacha bashorati bilan shug'ullanish hali boshlanganicha yo'q. Bunday mavhumlik, nofaollik, befarqlik milliy madaniyatimizga qimmatga tushishi, yoshlarda ma'naviyatsizlik, yot g'oyalarga ergashish va kosmopolitizmni shakllantirish mumkin.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Madaniyat, maorif, axloq, meros, ma'naviy boyliklar, yoshlar ongi, ziddiyat, mantiq, obyektiv, subyektiv, ma'naviyat, ommaviy madaniyat, ma'naviy tahdidlar, jamiyatshunos, global madaniyat, madaniyat fenomeni, sotsiokreativ, xalq, millat, etnos, sivilizatsiya, taraqqiyot, axloq, ma'naviy taraqqiyot, madaniyat, yangilik, xalqlar, davlatlar, etnomadaniy jarayon, millat, etnik, elita madaniyati, plyuralizm,

milliy madaniyat, integratsiya, ziddiyatlar, fluktuatsiya, mavhumlik, nofaollik, befarqlik, ma'naviyatsizlik, kosmopolitizm.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar:

**Globallashuv xalqlar va davlatlarni yaqinlashtirmoqda, S.Xaktington iborasi bilan aytganda, “global madaniyat” yuzaga kelmoqda. Buning o'zi ijobiy hol, albatta, Chunki:**

- azaldan xalqlar madaniyat fenomeni asosida birlashishiga intilib keladi;
- madaniyatning sotsiokreativ voqeligi insonlar faoliyatini, tasavvurlarini, turmush tarzidagi fundamental jihatlarni umuminsoniy qilib keladi;
- madaniyat bilan shug'ullanmaydigan, madaniy boyliklar yaratmagan yoki yarata olmaydigan xalq, millat, etnos yo'q;
- bugun madaniyat sivilizatsiya va taraqqiyot, axloq va ma'naviy taraqqiyot mezoni sifatida qaralmoqda, madaniyat kasb etgan yangilik, izlanish, faoliyat e'zozlanadi

**Akademik A.Asqarov vozadi:** “Millatning shakllanishi ham xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo'lib, millat etnik tarixining eng yuksak yuqori cho'qqisi, kamolot bosqichiki, bu bosqichga ko'tarilgan xalqning davlat, madaniyati millat nomi bilan yuritiladi, u suveren davlat sifatida ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritadi, millat tili davlat tili maqomini oladi, uning davlat chegaralari qat'iy, daxlsiz bo'lib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinadi, millatning o'zlikni anglash darajasi yuksak, milliy g'urur, vatanga fidoyillik, ona zamin va xalqiga sodiqlik, millat fuqarolarining hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi, millatga xos mentalitet shakllanadi, ya'ni davlat millatning xohish-irodasini bajaruvchi jonli mexanizmga aylanadi”.

Web 2.0 texnologiyasida asoslangan ijtimoiy tarmoq ilm-fanda o'ziga xos o'zgarish, inqilob yasadi.

- 1995 yili AQShlik Rend Konraya “Classmastes.com” (“Sinfdoshlar”)
- 2003-2004 yillarda “Linkedlin”, “MySpace”, “Facebook”
- 2006 yil Rossiyada “Odnoklassniki” va “Vkontakte”

“Twitter” (AQSh), “Vevo” (Buyuk Britaniya), “Nexopia” (Kanada), “Dol2day” (Germaniya), “Taggen.com”, “Skyrock” (Yevropa), “Orkut”, “Hi5” (AQSh), “Friendster”, “Multiply”, “Renren” kabi ijtimoiy tarmoqlar keng tarqaldi.

Taniqli sotsiolog  
P.L.Bergerning  
keltirishicha

1970 yili Chili aholisining 10,3% oilasida televizor  
bo`lgan

bu ko`rsatgich hozir 91,4 tashkil etadi.

Ammo TVda ko`rsatiladigan dasturlarning asosiy qismi AQSh axborot agentligidan sotib olingan.

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. “Global madaniyat” nima?
2. Milliy-ma’naviy qadriyatlarga qaratilgan tahdidlar nimalarda aks etadi?
3. Madaniyatning globallashuvida axborot texnologiyalarning o‘rni qanday?
4. “Ommaviy madaniyat” deganda nimani tushunasiz?
5. Globallashuvdagi ijobiy jihatlar haqida nima deya olasiz?
6. Globallashuvning salbiy jihatlari nimalarda aks etadi.
7. Milliy madaniy meros nima?

### **Referat mavzulari**

1. Globallashuvning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotga ta’siri.
2. Globallashuv va ta’lim.
3. Globallashuv sharoitida milliy – madaniy merosga munosabat.
4. Global tahdidlar va ularning xalqlar madaniyatiga ta’siri

### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2 –Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
2. Печчеи А. Человеческие качества. – Москва: Прогресс, 1980.
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007.

4. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П. Бергера. С. Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.

5. Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. – Тошкент: Фан, 2013.

6. Глобальные проблемы и общечеловеческие ценности. – Москва: Прогресс, 1990.

7. Клонхан К. Зеркало для человека, Введение в антропологию. – СПб.: Евразия, 1998.

## **8-MAVZU: GLOBALLASHUV VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI REJA:**

1. Axborot texnologiyalari globallashuvining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Globallashuvni ta’min etuvchi axborot vositalari. Internet – axborot globallashuvining o‘ziga xos vositalari, jamiyat axborotlashuvining global tendensiyalari.
3. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo‘llari.
4. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi va uning salbiy tomonlari.
5. Axborot texnologiyalarning globallashuvi sharoitida axborot xavfsizligi masalalari.

Axborot texnologiyalari deyilganda kishilarning muloqoti va boshqarish uchun zarur axborotlar to‘plash ehtiyojlarini, u yoki bu obyektning holati, shu on va keljakda o‘zini namoyon etish xususiyatlarini anglashga yordam beradigan ilmiy-texnik vositalar nazarda tutiladi. Bu vositalar inson aql-u idrokining, intellektual izlanishlarining mahsulidir. Ularning asosiy vazifasi axborotlar to‘plash va ularni iste’molchiga yetkazishdir.

Axborot texnologiyalari degan tushuncha keng ma’noda XX asrning 50-yillaridan keyin qo‘llanila boshlandi. Raqamli hisoblash mashinasi, kibernetika ana shu texnologiyalarni yuzaga kelishini boshlab berdi. Bugun ular safiga TV, raqamli TV, internet, mobil telefonlar, planshet, Wi-fi, kosmik antenalar, 3D, 4D, 5D uskunalar kiradi. Kelgusida bunday vositalar hatto dori-dormonlar tarzida inson organizmiga o‘rnatalishi, kiritilishi mumkin. Robotlar nafaqat axborotlarni qabul qiladi, tarqatadi, shuningdek, insonga xos bo‘lgan faoliyat turlarini bajaradi. Buning uchun programmalashtirilgan, inson tomonidan ma’lum bir dasturlar bilan qurollantirilgan bo‘lishi zarur. Axborot texnologiyalari va kompyuterlashtirish bilan shug’ullanuvchi mutaxassislar kelgusida soch tolasidan million marta nozik axborot tarqatuvchi uskunalar yaratilishi va ular kishilar organizmiga, kiyim-kechaklariga, buyumlariga, xonalaridagi jihozlariga o‘rnatalishi mumkinligini bashorat qilmoqdalar.

Globallashuv deganda, avvalo, axborot olamining istalgan bir nuqtasida ro‘y bergen voqeа-hodisalarning umumsayyoraviy tarzda tarqalishi anglanadi. Shuning

uchun axborot lokal doiradan chiqib, global voqelikka aylanganidagina umumsayyoraviy ko‘rinish kasb etadi. Globallashayotgan dunyo axborotlarning umumsayyoraviylashuvi demakdir. Hech bir sohani global iqtisodiyot, na global siyosat, na global meditsina (tibbiyot), axborotsiz (global axborotsiz) o‘zini namoyon qila olmaydi. Demak, globallashuvning yadrosini global axborotlar tashkil etadi.

Axborot madaniyati texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlarga ega bo‘lib, u axborotlar olish, qayta ishlash, saqlash va yetkazib berishga xizmat qiladi<sup>1</sup>. Axborot madaniyati subyekt-obyekt tizimi o‘rtasidagi aloqalar, bu aloqalarning ijtimoiy mohiyatini ifoda etadi. Bu madaniyatga qarab biz kishi ma’naviy ehtiyojlari haqida ma’lum bir fikrlarga ega bo‘lamiz. Ma’naviy ehtiyojlar ichida muloqot yoki axborot olish, tarqatish, saqlash yetakchi o‘rinda turadi.

Mutaxasislarning ta’kidlashicha, muloqot kishining ijtimoiy xususiyatlarini ifoda etadi. “Do‘sting kimligini aystsang men seni kimligingni aytaman”, degan naql kishining kim va qanday xususiyatlarga ega kishi bilan do‘s st ekanligini bildiradi. Do‘s bilan muloqotlashish, axborot almashish - ma’naviy ehtiyoj. Bu ehtiyojni kishi xabarlar olish, axborotlar yetkazish orqali qondiradi. Internet saytlaridagi ikir-chikir gaplar, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmagan “oh-voh”lar, uydirma, shov-shuvsalar aslida ana shu ma’naviy ehtiyojning ifodalaridir.

Axborot texnologiyalarining globallashuvida kishilarning bir-birlari bilan tanishishga, izlab topishga, xabarlashib turishga bo‘lgan ma’naviy ehtiyojlari namoyon bo‘ladi. Kishilarning ma’naviy ehtiyojlari har doim obyektiv borliqdagi imkoniyatlardan keng bo‘lgan. Davr, zamon, madaniy imkoniyatlar ularni qondirishga intilavermagan. Obyektiv imkoniyatlarning cheklanganligi asosiy to‘sinq edi. Bugun mazkur to‘sinq yo‘q, obyektiv imkoniyat-internet kishilarni muloqotga, axborotga bo‘lgan har qanday ma’naviy ehtiyojini qondirishi mumkin. Ammo axborot texnologiyalarini bunday tor ma’noda tushinish mumkin emas. Axborot texnologiyalarining funksiyalari rang-barangdir. Ularga:

---

<sup>1</sup> Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari?- Toshkent: Navro‘z, 2015.756.

- ilmiy, texnik, texnologik xarakterga ega ma'lumotlar olish;
- bilimni yoki ma'rifiy qarashlarni egallash;
- badiiy-estetik bilimlar orttirish;
- madaniy boyliklardan bahramand bo'lish;
- xalqaro aloqalar yo'nalish;
- diplomatik aloqalar olib borish;
- ko'ngil ochish, dam olish va boshqalar.

Mazkur funksiyalar axborot texnologiyalarining vazifalari rang-barang va kishilar ma'naviy ehtiyojlarining deyarli barcha tomonlari bilan bog'langanini ko'rsatadi. To'g'ri, bu funksiyalar inson hayoti va qiziqishlariga turlicha javob beradi, aynan shuning uchun ham "axborot madaniyati" (aniqrog'i axborotlardan foydalanish madaniyati) atamasi qo'llanilyapti.

Axborot madaniyati inson umummadaniyatining tarkibiy qismidir. Bu madaniyat alohida fenomen sifatida o'rganilishi lozim. Bugungi ilmiy-texnik inqilob axborot texnologiyalari bilan bog'liqligi uchun axborot madaniyati ushbu inqilobning ifodasi, mezoni, pirovard natijada yutug'i sifatida qaralishi mumkin.

Internet va globallashuv ilmiy-texnik bilimlar ta'siridan, innovatsion izlanishlar qo'yndan o'sib chiqqan. Ularning mazmun-mohiyati, ijtimoiy xususiyatlari, zarurligi aynan ilmiy-texnik bilimlar, texnologik xarakterdagi innovatsiyalardan iborat. Har qanday internet sayt va globallashuv ilmiy-texnik bilimlarga, innovatsion ishlanmalarga tayanadi, ularni targ'ib etadi, shu tarzda ular modernazatsion hodisalar sifatida keladi. Shuning uchun internet va globallashuvni ilmiy-texnik bilimlar, innovatsion ishlanmalar bilan uyg'un qarash darkor.

Internet axborot vositalariga saytlar, blogerlar, mediamarkazlar, OAVlaridagi ruknlar, "Falsafiy asarlar", "O'zbekiston faylasuflari", "Kun.uz", "Huquqiy axborot", "Telegramm", "Shareit", "Мои новости", "Последние новости", "Здоров", "Markaziy Osiyo", "uz,Twitter" kabi 40 mingdan ortiq saytlar, axborot markazlari kiradi. Istagan kishi internetda o'z saytini olib, global olam bilan bevosita muloqot o'rnatishi mumkin. Ammo gap sayt ochishda emas, uning inson ma'naviy

dunyosining yanada go'zal, oliyjanob, gumanistik qilganidadir. Insonning farishta ham, hayvon ham emasligini antik davr faylasuflarning fikrlari tasdiqlaydi. Islom falsafasi esa “Beayb parvardigor, degan qoidani yoqlaydi”, bu insonga adashish, xato qilish, boshqalarni yoki o‘zini-o‘zi aldashi xos deganidir.

Shunday ekan, erk ifodasi bo‘lgan internet ushbu resurslardan xoli bo‘lishi mumkin emas edi. Internet materiallaridan o‘ziga kerakligini tanlab olish - axborot madaniyatiga bog‘liq. Undagi g‘ayriaxloqiy mavzularga e’tibor qaratdingizmi, ularni ko‘rishni istadingizmi, demak, avvalo o‘z istagingizni gumanistik yo‘nalishga, yuksak axloqiy normalarni o‘zlashtirishga tayyorlang. Axir Muhammad payg‘ambar paytida badaviy arablar qanday g‘ayriaxloqiy udumlargaga berilmagan. Ular qizlarini tiriklay ko‘mishgan-ku? Muhammad payg‘ambarning jasorati T.Karleyl iborasi bilan aytganda, “ma’naviy qahramonligi”<sup>1</sup> shunda ediki, u bu g‘ayriinsoniy an’analarga qaramadi, ularga ergashmadni, ularga oid normalar o‘rniga o‘zining gumanistik qarashlarini joriy etdi. Internet materiallariga gumanistik ruhda yondashib, ulardagi olivjanob, ilmsevar, obyektiv manbalarga e’tibor qaratish zarur, hadeb erotikaga, fantaziyaga, ziddiyatlarga, “san-man”larga e’tibor berish oxir natijada shaxsni shunday materiallar kushandasiga, asiriga aylantirib qo‘yadi. Mana axborot madaniyatining mohiyati.

Jamiyat axborotlashuvining global tendensiyalariga quyidagilar kiradi:

- ommaviy axborot vositalarining ochiqligi, demokratiyaviyigli va plyuralizm;
- hurfikrlikning inson huquq va erkinliklari ifodasi sifatida qaralishi;
- kishilarning yangi-yangi informatsiyalarga muhtojligi va qiziqishi;
- yangi nashrlar, saytlar, byulletenlar, OAVlarining paydo bo‘lishi;
- hurfikrlikning umuminsoniy qadriyat, inson huquq va erkinliklarining ifodasi, mezonii sifatida qaralishi kabilari.

Bu tendensiyalar davr talablari va ehtiyojlariga qarab o‘zgarishi, transformatsiyaga uchrashi yoki tubdan yangilanishi mumkin. Masalan, SSSRning tarqalishi bilan axborotlar yetkazish tendensiyalarida tub o‘zgarish ro‘y berdi, ilgari

<sup>1</sup> Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории М.: Эксмо, 2008.: С.48-50.

kommunistik mafkura yakka hokimligini targ‘ib etgan OAV, nashrlar madaniy, siyosiy plyuralizm tarafdarlariga aylandilar. Shuning uchun axborotlashuv tendensiyalari o‘zgarmas, dogmatik xususiyatga ega emas, ular hayot, dinimizga moslashishi mumkin.

OAV ochiqligi, demokratligi va plyuralizmi global taraqqiyot shartlari sifatida qaraladi, G‘arb tadqiqotchilari bashorat etayotgan global ochiq fuqarolik jamiyatni aslida shunday ochiqlikni, demokratlikni va plyuralizmni taqozo etadi. Axborotlashgan jamiyatdagi global muammolarni yoritish, ularga nisbatan ijtimoiy fikrni shakllantirish ushbu ochiqlik, demokratik va plyuralizm tufaylidir. Shuning uchun ba’zi global muammolarni kishilar, boshqa qit’a aholisi bevosita sezmasligi, bilmasligi mumkin, ammo OAVlari ular haqida zarur axborotlar tarqatib, jahon hamjamiyatini muhim qarorlar qabul qilishga, amaliy dasturlar ishlab chiqishiga turki bo‘ladi. Goho bunday minbarlar vazifasini nufuzli xalqaro tashkilotlar, ayniqsa, BMT, YUNESKO, YeI, Shanxay hamkorligi, Yevrosiyo iqtisodiy hamkorligi kabi transmilliy birlashmalar o‘tashi mumkin. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so‘zlagan nutqida Orol muammosini tilga olgani, mazkur global muammoga jahon hamjamiyatni diqqatini qaratgani misol bo‘lishi mumkin. Mazkur nutqida prezidentimiz deydi: “bugungi kunning eng o‘tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e’tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo‘limda - Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O‘ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo‘q. Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafborimiz”<sup>1</sup>.

Orol bir paytlari 100 mingdan ortiq kishini ish bilan ta’milagan, undan 24 turdagи baliq ushlangan, atrofida o‘rmon, o‘simpliklarning 500 dan, sut emizuvchi

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2-Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.2506.

hayvonlarning 200 dan ziyod turi, 1200 dan oshiq to‘qay, sazan va orol plotvasi kabi baliqlarlardan konservalar tayyorlovchi korxonalar ishlagan. So`ngi 50 yilda Orol dengiziga keladigan suv oqimi 56 dan 12,7 km kub yoki 4,5 martaga kamaygan. Suv maydoni 8 hajmi 13 barovar qisqardi, suv sathi 29 metrga pasaydi. Suvning sho‘rligi 13-25 marta oshdi, bu dunyo okeani sho‘rligidan 7-11 marta ko‘pdir. Dengiz tubida paydo bo‘lgan “Orol qum” cho‘lidan yiliga atmosferaga 75 million tonnadan ko‘p chang va zaharli tuzlar ko‘tariladi va ekologik vaziyatni murakkablashtiradi. Bugun oroldan baliqlarning 11 turi, sut emizuvchilarning 12 turi, qushlarning 26 turi va o‘simliklarning 11 turi butunlay yo‘qolib ketgan.

Orololdi mintaqadagi vaziyatni normallashtirish uchun O‘zbekistonning 75 million dollarli maxsus loyihasi amalga oshirilmoqda, 740 ming gektar maydonda butazorlar barpo etildi, aholini suv bilan ta’minalash uchun 1,7 ming kilometr uzunlikda vodoprovord tarmoqlari, 100 dan ortiq qishloq vrachlik punktlari barpo etildi. Natijada Qaroqalpog‘iston Respublikasida tug‘ma anomaliyalar soni 3,1 marta, onalar o‘limi 2 marta va chaqaloqlar o‘limi 2,4 marta kamaydi<sup>1</sup>. Bunday xalqaro, transmilliy minbar jahon hamjamiyatini bee’tibor qoldirmaydi, mavjud global muammolar yechimini topishga undaydi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, BMT inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari janob Al-Husaynning 2019-yilda O‘zbekistonga tashriflari shunday muammolar bilan bevosita tanishish va zarur amaliy chora-tadbirlar ko‘rish imkonini berdi.

Axborotlashgan jamiyatda kishilar yangi-yangi informatsiyalar olish uchun TV va OAVlaridan keng foydalanadilar. O‘zbekistonda ularning soni yildan yilga oshib bormoqda, bugun ularning soni 1500 dan ziyoddir. Prezidentimiz aytganidek: “Bugun biz dunyodagi uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo‘yicha ham hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunamiz. Ommaviy axborot vositalari so‘zda emas, amalda

<sup>1</sup> Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президенти. Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблейсининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммобоп рисола.- Тошкент: Маънавият, 2017. 102б.

“to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilishi zarur. Bu zamon talabi, islohotlarimiz talabi”<sup>1</sup>.

Ochiq jamiyat “ochiq” so‘zni taqozo etadi. Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar mohiyatini kishilarga yetkazish, mavjud salbiy hollarni oshkora tanqid qilish, ayniqsa yuqori mavqedagi, lavozimdagi amaldor faoliyatini yoritib borish, jamiyatni bezovta qilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash o‘quvchilarni befarq qoldirmagan. Amaldorlar faoliyatiga, hayot tarziga, axloqiga bo‘lgan qiziqish mudom yuqori bo‘lgan. Kishilar ulardan o‘ziga, yoshlarga o‘rnak, ibrat yaratgan. Haqiqiy axborot vositalari ana shunday shaxslarni elga, yoshlarga tanitadi, ularning ezgu ishlarni sharaflashga chaqiradi. Sovet totalitar tuzumi davrida kamsitilgan, nohaq qoralangan Sharof Rashidovning elparvar, yurtparvar va yuksak axloqli shaxs, davlat arbobi, o‘zbek xalqi farzandi ekanini ko‘pchilik bilardi, lekin bundan yoshlarmiz yetarli xabardor emas edi. Ommaviy axborot vositalarida uyushtirilgan suhbatlar, maqolalar, esdaliklar va ommaviy tadbirlar bu insonni xalq-millat oldida sharaflanishini ta’minladi.

Oshkoraliq, fikrlar plyuralizmi, hayot dinamizmini, transformatsiya jarayonlarini obyektiv yoritish har doim ham yoqaveradigan, ayniqsa, tanqid qilinayotgan shaxslarga, guruhlarga manzur bo‘ladigan narsa emas. Tanqidiy material real holatni yaxshilashga qaratilgan bo‘lsa-da, u turli e’tirozlar, raddiyalar, hatto “tosh otish”larga sabab bo‘ladi. Tahririyatga kelgan raddiyalar ba’zan do‘q-po‘pisa, o’ch olish, qo‘rqitish tarzida kelishini jurnalistlar yaxshi bilishadi. Bu aslida jamiyatda tanqid va o‘zini o‘zi tanqidiga ijobiy narsa sifatida qarash a’nangaga aylanmaganidan darak beradi.

SH.M.Mirziyoyev o‘z siyosati va faoliyatini “tanqidiy tahlil” usuliga qurayotganini e’lon qilganida (uning 2016-yil 19-oktyabr, 2017-yil 14-yanvar kunlarida qilgan ma’ruzalariga qarang) kishilarimizda hukumatga, kelajakka ishonch uyg‘ondi. Xalq qabulxonalariga qisqa muddatda yarim milliondan (hozir 3

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2 - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.485-486б.

milliondan ziyod) ortiq murojaatlar, arz va shikoyatlar tushdi. Prezidentimizning har bir chiqishida, videoselektr yig‘ilishida, farmon va qarorlarida sezilib turadi. U OAVlaridan o‘zining sotsiokerativligini, tashabbuskor, elparvar va innovatsiyaga moyilligini namoyishi, davlat institutlarini shunday fidoyilik bilan ishlashga da’vat etishda foydalanadi. Uning elektron hukumatni yaratish borasidagi tashabbusi, qarorlari O‘zbekiston uchun innovatsion ahamiyatga ega. Kishilar vaqtini, xarajatlarini tejash, “raqamli aloqalar” orqali davlat xizmatlaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish asta-sekinlik bilan ijtimoiy hayotimizga singib bormoqda.

Elektron hukumatlar dunyodagi ilg‘or davlatlarda keng tarqagan, shu nuqtayi nazardan ular o‘zaro aloqalar o‘rnatishlari mumkin. Elektron aloqalar hukumatlararo munosabatlarning tez va keng yo‘lga qo‘yishga imkon beradi, endi hukumat a’zolari ko‘p vaqtini sarflab markazga, yig‘ilishga tashish kerak emas, videoselektor yig‘ilishlari orqali markaz bilan bog‘lanish mumkin.

Globallashuv axborot xavfsizligini ta’minlash masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Bunga:

- xokkerlar hujumidan saqlanish;
- noxoliq informatsiyalarni saralash;
- sir saqlash, ya’ni OAV uchun mo‘ljallanmagan axborotlarni yoyishga yo‘l qo‘ymaslik;
- inson sha’ni, qadr-qimmatini to‘kuvchi xabarlardan tiyishi kabilar kiradi.

Tajriba ko‘rsatayaptiki, axborot madaniyati maxsus tarbiyalashni taqozo etadi. Qanday informatsiyani tarqatish, olish shaxs huquqi, biroq uning mazmuni, ijtimoiy ahamiyati, axloqiy normalarga muvofiqligi jamiyat, ijtimoiy fikr tomonidan nazorat qilinishi darkor. Fikr erkinligi bo‘hton va axloqsizlikni tarqatish erkinligi emas.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Axborot texnologiya, axborot vositalari, internet axborot vositalari, global tendentsiyasi, global muammolar, axborot xavfsizligi, muloqot, ilmiy-texnik vositalar, hisoblash mashinasi, kibernetika, internet mobil telefon, planshet, kosmik

antenalar, robotlar, umumsayyoraviy ko‘rinish, global iqtisodiyot, noglobal meditsina, shaxs huquqi.

### **Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:**

**Axborot texnologiyalari** - kishilarning muloqoti va boshqarish uchun zarur axborotlar toplash ehtiyojlarini, u yoki bu obyektning holati, shu on va kelajakda o‘zini namoyon etish xususiyatlarini anglashga yordam beradigan ilmiy-texnik vositalardir.

**Axborot texnologiyalari degan tushuncha keng ma’noda XX asrning 50 yillaridan keyin qo’llanila boshlandi.**

**Globallashuv** deganda avallo axborot olamining istalgan bir nuqtasida ro‘y bergan voqeа-hodisalarning umumsayyoraviy tarzda tarqalishi anglanadi.

ilmiy, texnik, texnologik xarakterga ega ma’lumotlar olish;

bilimni yoki ma’rifiy qarashlarni egallash;

badiiy-estetik bilimlar orttirish;

**Axborot texnologiyalari-ning funksiyalari rang-barangdir. Ularga:**

xalqaro aloqalar yo`nalish;

madaniy boyliklardan bahramand bo`lish;

ko`ngil ochish, dam olish va boshqalar.

**Internet axborot vositalariga**

saytlar

blogerlar

mediamarkazlar

OAVlaridagi ruknlar

telegramm

huquqiy axborot

Мои новости

kun. Uz, uz.Twit

kabi 40 mingdan ortiq saytlar, axborot markazlari kiradi.

### ***Jamiyat axborotlashuvining global tendentsiyalariga quyidagilar kiradi:***

- ommaviy axborot vositalarining ochiqligi, demokratiyaviyligi va plyuralizm;
- hurfikrlikning inson huquq va erkinliklari ifodasi sifatida qaralishi;
- kishilarning yangi-yangi informatsiyalarga muhtojligi va qiziqishi;
- yangi nashrlar, saytlar, byulletenlar, OAVlarining paydo bo'lishi;
- hurfikrlikning umuminsoniy qadriyat, inson huquq va erkinliklarining ifodasi, mezoni sifatida qaralishi kabilar.

#### **OROL DENGIZI:**

Orol bir paytlari 100 mingdan ortiq kishini ish bilan ta'minlagan

24 turdag'i baliq ushlangan

500 dan ortiq o'simlik turlarning bo'lgan

- 200 dan ortiq sut emizuvchi hayvon turlari bo'lgan
  - 1200 dan oshiq to'qay, sazan va orol plotvasi kabi baliqlarlardan konservalar tayyorlovchi korxonalar ishlagan
  - So'ngi 50 yilda Orol dengiziga keladigan suv oqimi 56 dan 12,7 km kub yoki 4,5 martaga kamaygan
  - Suv maydoni hajmi 13 barovar qisqardi, suv sathi 29 metrga pasaydi
- Suvning sho'rligi 13-25 marta oshdi, bu dunyo okeani sho'rligidan 7-11 marta ko'pdir

***Globallashuv axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini kun tartibiga qo'ydi. Bunga:***

xokkerlar hujumidan saqlanish;

noxoliq informatsiyalarni saralash;

sir saqlash, ya'ni OAV uchun mo'ljallanmagan axborotlarni yoyishga yo'l qo'ymaslik;

inson sha'ni, qadr-qimmatini to'kuvchi xabarlardan tiyishi kabilar kiradi.

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Axborot texnologiyalari nima? Ularning ko'rinishlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Global axborot tizimi deganda nimani tushunasiz? Uning bosh faktorlari kimlar?
3. Elektron hukumat nima?
4. Axborotlashayotgan jamiyatdagi inson huquq va erkinliklarini qanday tasavvur qilasiz?
5. O'zbekistondagi axborot tizimidan xabardormisiz? U haqda nimalarni bilasiz?
6. O'zingiz axborot vositalarining qaysi shaklidan, turidan ko'proq foydalanasiz?

### **Referat mavzulari**

1. Axborotlashgan jamiyatda global muammolar.
2. Globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi.
3. Globallashuv sharoitida elektron hukumat shakllanishi.
4. Axborot madaniyati inson umummadaniyatining tarkibiy qismi sifatida.
5. Jamiyat axborotlashuvining global tendensiyalari.
6. Oshkoraliq, fikrlar plyuralizmi, hayot dinamizmini, transformatsiya jarayonlari.
7. Global axborot tizimi.

### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт – йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга қўтаримиз. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2017.
2. Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari? – Toshkent.: Navro`z, 2015.
3. Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории М.: Эксмо, 2008.
4. Жўраев Н. Мафкуравий иммунитет. – Тошкент: Маънавият, 2000.
5. Хайек Ф.А. Общество свободных. – London, 1990.
6. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.
7. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий маънавий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, НМКУ, 2013.
8. Сайдов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Тошкент: Akademiya, 2008.
9. Хоназаров К. Глобаллашув ва тил фалсафаси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст., 2009.
10. Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. – Тошкент: TAFFAKUR, 2009.

## **9-MAVZU: DINLARARO MUNOSABATLARNING GLOBALLASHUVI REJA:**

1. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Islom dinida globallashuv talqini va So‘fizmda global muammolarining ko‘tarilishi.
3. Dirlarning rivojiga globallashuvning ta’siri va din globallashuvining mezonlari.
4. Din globallashuvida xalqning iroda va erkinlikligi masalasi va globallashuvning an’anaviy dinga ta’siri.
5. Diniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida diniy bag‘rikenglikni asrash masalalari.

Dinning ijtimoiy-madaniy fenomen (hodisa) ekanini isbotlab o‘tirishga hojat bo‘lmasa kerak. Chunki, insoniyat hayoti, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti diniy tassavurlar va diniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. E.B.Taylor va J.Frezer o‘tkazgan fundamental tadqiqotlar ko‘rsatadiki, odam o‘zini anglay boshlaganidan beri tashqi kuchlarga, mo‘jiza va transsidental obrazlarga ishonib keladi. Iqtisodiy davrlardagi animizm va totemizm, ilk diniy tasavvurlar sifatida, kishilarda g‘ayrihayotiy, g‘ayritabiiy kuchlar, hodisalar mavjud. Inson hayoti bilan ular o‘rtasida sirli bog‘liqlik mavjud, degan qarashlarni ifoda etadi. Animizm inson, hayvon, daraxt va narsalarning joni, ruhi bor, ular yon atrofda kezib yuradi. Kishi amallari tartiblarga muvofiq kelmasa, masalan, kishi biror daraxtni sindirsa yoki biror jonivorni o‘ldirilsa, ushbu daraxt yoki jonivorning ruhi undan o‘ch oladi, degan sodda tasavvurlar ifoda etadi. Hindiston hatto jaynizm tarafdarlari og‘zini doka bilan bog‘lab qo‘lida mudom supurgi bilan yurishgan, ular tasavvurlarida yon-atrof ko‘zga ko‘rinmas jonivorlarga ega. Kishi nafas olganida yoki yurganida ularni yutib, bosib o‘ldirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun jaynizm gumanizmi, olamparvarligi ko‘pgina kishilarni o‘ziga jalb qilib qoladi. Hindistondagi betakror spiritualistik meros hisoblanadi.

Din va uning xususiyatlari borasidagi bahs-munozaralar hech qachon to‘xtamagan. Birgina qadimgi Hindistonda yuzdan ziyod diniy-falsafiy oqimlar,

ta'limotlar bo'lgan, ular o'rtasidagi bahs-munozaralar fikr erkinligi, falsafani rivojlantirgan. Dindagi umuminsoniy xususiyat insonni yuksak ideal, maqsad, niyat bilan yashashga undaganidadir. Yaratgan, Xudo, Alloh, Yahve, Izid kabi nomlar (o'rta hisobda bugun dunyoda 30 mingdan ziyod din, diniy oqimlar, maktablar va ta'limotlar mavjud. Ularning har biri o'z dogmatikasi va urf-odatlari, marosimlariga ega) ana shu yuksak idealni ifoda etadi.

Inson qalbi, ruhi doimo o'zidan yuksakroq, o'zidan mukkammalroq narsaga, obrazga intilgan. Bu obrazni u Xudo tarzida anglagan. Xudoni anglash transsidental tasavvurlarigina emas, u ba'zi shaxslar uchun real obraz, voqelik, fenomendir. Masalan, shvetsariyalik buyuk mistik E.Svedenborg, islomda mutasavvuf Ibn Mansur Halloj, Muhammad payg'ambarning o'zi Xudo bilan muloqot qilganlarini aytadilar. Ular nazarida Xudo mukammal zot, o'tmish va kelajakni bir paytda anglaydigan, biladigan, inson taqdirini aytib beradigan, har narsaga qodir mavjudot, kuch. Bunday kuch insonda yo'q, shuning uchun u Xudo amriga bo'ysunib, uning aytganlarini qilib, umri bo'y়i Xudodek mukammal, sof, toza, yetuk bo'lishga intilib yashashi darkor.

Mukammallik, yetuklik fantaziya, quruq hayol emas, payg'ambar, avliyolar hayoti ularga yetish mumkinligini ko'rsatadi. Dindagi ushbu da'vat kishilar qalbida, ruhida yetuk kelajakka yetish umidini uyg'otgan. Shu jihatdan ham ular najotni dindan qidiradilar. To'g'ri, ayrim dinlarda obyektivlik, mukammallikni insonni o'zidan izlashga da'vat uchraydi. Buddaviylik, o'zingga o'zing xaloskorsan, najotni yakka o'zingdan izla, deganida inson ma'naviy-ruhiy olamiga, ichki quvvatlariga ishonishga undagan. Biroq u ham transsidentning borligini, insonning ma'naviy-ruhiy barkamolligi undan tashqarida bo'lmasligini tan oladi.

Dindagi maftunkor jihat kishilarni ma'lum bir e'tiqod, g'oya, axloqiy normalar atrofida birlashtirishga, ahil, ittifoq bo'lib, bir-birini qo'llab-quvvatlab yashashga da'vat etganidandir. E'tiqod, yirik ma'naviy-ruhiy kuch sifatida, insonlar hayotiga ma'no beradi, ularni yuksak ideallar bilan yashashga, axloqiy qadriyatlarni e'zozlashga o'rgatadi. E'tiqod kishini har qanday qiyinchiliklar va to'siqlarni yengib o'tishga tayyorlaydi, uning qalbida kelajakka, porloq, farovon, adolatli hayotga

ishonch uyg‘otadi. Bunday e’tiqodni bartaraf etish qiyin. Bunday e’tiqodli kishi yengilmas, mag‘rur, tik qoyaga o‘xshaydi. Insondagi olivjanob orzular, tilaklar tik, mag‘rur, erkin yashashda emasmi?

Erkinlik va din, falsafa borasida ko‘p fikrlagan, betakror asarlar yozgan rus transsidental ekzistentsializmining yirik namoyondasi N.A.Berdyaev yozadi: Xudoga immanentdir. Odam bilan sodir bo‘lgan barcha narsa Xudo bilan ham ro‘y beradi”<sup>1</sup>. Xudo insonni erkin yaratgan, u erkin, hur yashashga intilishi bilan o‘zini ongli, ratsional fikrlovchi mavjudot ekanini isbot etadi.

Dinlar dogmatikasiga ko‘ra borliqni yaratgan qudrat, kuch mavjud. Uni hech kim inkor qila olmagan, isbotlay olmaydi ham. Bir narsaki, o‘zi his qilolmaganidan keyin, ko‘r-ko‘rona inkor qilgandan ko‘ra, unga qiziqib, uni o‘rganish, unga ixlos qo‘yish ko‘proq foyda beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, din (turidan qat’iy nazar) talablarini bajarish inson ruhi, ma’naviyati va jismoniy salomatligini mustahkamlaydi. Binobarin, Avesto, Tavrot, Zabur, Injil va Qur’oni Karimda “yolg‘on gapirmanglar, yalqov bo‘lmanglar, manmanlikka, qimorbozlikka hamda nafsga berilmanglar. Razolat deb hisoblangan g‘iybat, hasad, ochko‘zlik, sudxo‘rlik, zinoga o‘xhash gunoh ishlardan yiroqda bo‘linglar”, deyilgan. Bunday muqaddas kitoblarda odamlarga buyurilgani tavba, ibodat, duo, najot, umidvorlik, axloq, sabr, qanoat, ehson, afv, sadoqat, o‘zaro yordam, olivjanoblik, shirin so‘zlik va boshqa yaxshi amallardir. Bular umuminsoniy qadriyatlar bo‘lib shaxs va jamiyat rivojiga hamda ijtimoiy muhit musaffoligiga, shuningdek, shu muhitda yashovchi inson ruhi, imoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Dinlardagi ushbu ezgulikka, insonparvarlikka da’vatlar umuminsoniy xarakterga ega, shu nuqtayi-nazardan ular ijobiy globallashuvning yoyilishiga yordam beradi. Globallashuvning o‘zi ulardan kelib chiqqanida ijobiy voqelikka aylanadi. Globallashuv inson ma’naviy-ruhiy olamiga taalluqli din fenomenidan tashqarida ro‘y berishi mumkin emas. Dirlarning globallashuvi aslida ko‘p asrlar oldin boshlangan. Buyuk siljishlar, yurishlar, hatto imperiyalar tuzish din bayrog‘i ostida amalga oshirilgani misoldir.

---

<sup>1</sup> Бердяев А. Философия свободы. Смысл творчества. - Москва: Правда. 1990, С.364.

Biroq bu globallashuv zo'ravonlik, kuch, boylik toplash, boshqa o'lkalar va xalqlarni qaram qilish bilan amalga oshirilgan. Jahon dinlari (buddaviylik, nasroniylik, islom)ning asoschilarini dinni majburlab singdirish mumkin emasligini vasiyat qilib qoldirgan bo'lsalar-da, ularning keyingi izdoshlari tazyiq, majburlash yo'lidan borishgan. Bugun dinning globallashuvi asosan jahon dinlarining yoyilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda "global nasroniylik", "global islom", "global protestantlik", "global katolitsizm" atamalari uchraydi.

Globallashuv ma'lum bir diniy tashkilotlarga keng yoyilish imkonini bermoqda. Masalan, Ispaniyada paydo bo'lgan Orus Dei diniy tashkiloti Franko rejimi paytida kishilarni birlashishga, bozor iqtisodiyotini joriy etishga undab, siyosiy hayotga aralasha boshlagan. U Ispaniyada ikki biznes-maktablar ham ochadi. U katolitsizmga mos diniy an'analarni targ'ib etadi va butun dunyoda o'z qarashlarini tarqatishda internet-saytlardan samarali foydalanib keladi. Orus Dei bugun Lotin Amerikasida ham ommalashib, amerikacha protestantizm"ga qarshi turadi, "integral katolik madaniyati"ni yaratish uchun kurash olib boradi.

Shunday diniy tashkilotlardan biri Hindistonda paydo bo'lgan Sai Baba oqimidir. Uning 137 mamlakatda 2 mingdan ziyod bo'limlari, filiallari mavjud. Soka Gakkai, Xare Krishna, Szi Un jamg'armasi kabilalar olib borayotgan diniy-ma'rifiy targ'ibot ishlari allaqachon Yevropa va Amerika qit'asida ko'rinish bermoqda.

Islom dini ham globallashuvga intilmoqda. Undagi olivjanob, gumanistik g'oyalar allaqachon dunyoga, yer yuziga tarqalgan. "Islom sivilizatsiyasi, "alternativ islom olami", "dunyoviy islom" degan iboralar uning globallashayotganidan darak beradi.

Islom dinida globallashuv talqini uning dogmatikasida ko'zga tashlanadi. Borliqni Alloh yaratgan degan dogma, universal mohiyatga ega. Barcha dinlar shunday dogmaga asoslanadi. Borliqning yaratilishi borasidagi bu dogma falsafiy, hatto ilmiy konsepsiyalarga zid emas. To'g'ri, ilm-fan olamning yaratilishini Tabiat, Atom kabilarda ko'radi, din esa Allohdha. Ular o'rtasida yaqinlik mavjud, ya'ni ilm-

fan ham, din ham olamning yaratilishi o‘z boshiga, ibtidosiga ega, degan fikrga olib keladi. Yakka asosning mavjudligi ularda tan olinadi.

Globallashuv imkoniyatlaridan, ayniqsa, OAV internet, erkin savdo-sotiq, transmilliy birlashmalardan radikal diniy oqimlar ham foydalanayotgani tashvishli hol. Afg‘onistondagi “Tolibon” harakati, Eron, Pokiston, Misr, Saudiya Arabistondagi radikal islom tarafdarlarining globallashuv imkoniyatlaridan ustamonlik bilan foydalanayotgani hayratli. Ular internet vositalariga har yili yuz millionlab AQSH dollari sarflashadi, mutaxassislarni o‘z maqsadlariga ishlatishadi, yoshlarni kiber tahdid usullariga o‘rgatishadi. Demak, internet-vositalar destruktiv kuchlar qo‘liga tushsa katta fojalar keltirib chiqaradi. Ammo ularni bunday usullardan qaytarishning samarali texnologiyasi ham hali yaratilmagan. Bu o‘rinda eng ta’sirli usul terrorizmga qarshi uyushgan tarzda qarshi turish, uning o‘choqlarini izlab topish, bartaraf etish bo‘lib qolmoqda.

So‘fizm (tasavvur)da global muammolarning qo‘yilishi deganda undagi inson ruhi, kamoloti, ma’naviy yuksalishi, o‘zini anglashi orqali borliqqa munosabatining shakllanishi nazarda tutiladi.

Tasavvuf bir xil emas, unda tushkunlik (Yassaviya tariqati)dan tortib to mehnat qilib, jamiyat bilan ahil yashash (Naqshbaniya tariqati)gacha da’vat etuvchi g‘oyalar uchraydi. Eng muhimi tasavvuf insonga, undagi ma’naviy-ruhiy quvvatlarga ishonadi. Globallashuv ushbu quvvatlardan ayricha kechishi mumkin emas.

Globallashuvning dinlariga ta’siri ularning ommaviy tadbirlar o‘tkazayotgani, siyosiy hayotga aralashayotgani, ta’lim-tarbiya tizimiga kirayotgani kabilarda ko‘zga tashlanadi. OAVlarida diniy-irfoniy mavzularda ruknlar ochilayotgani, diniy nashriyotlar ochilib diniy qadriyatlarga oid adabiyotlar nashr etilayotgani misol bo‘lishi mumkin. Masalan, Toshkentdagи “Movarounnahr” nashriyoti diniy-ma’rifiy asarlar chop etishga mo‘ljalangan bo‘lib, u har yili 600 nomda risolalar, kitobchalar, kalenderlar chop etmoqda. Ushbu nashriyotning maxsus kitob do‘konlari mavjud.

Dinning globallashuv mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– dindorlar sonining ko‘payishi;

- din dogmatikasiga qat’iy amal qilinishi;
- diniy-ma’rifiy tadbirlar, chiqishlar, urf-odat va marosimlar o’tkazilayotgani;
- diniy ta’limni yo‘lga qo‘yilgani;
- vijdon erkinligining ta’minlanganligi;
- maslakdoshlar, e’tiqoddoshlar bilan xalqaro aloqalarning o’rnatilgani kabilar.

Ushbu mezonlar davr va din borasidagi siyosatga muvofiq transformatsiyaga uchrashi mumkin. Masalan, keyingi ikki-uch yil ichida O‘zbekistonda vijdon erkinligini buzganligi uchun jazo o’tayotgan 1600dan ortiq kishi qamoqdan ozod qilindi, prezident SH.M.Mirziyoyevning farmonlari bilan adashib terroristlar guruhiga qo‘silib qolgan fuqarolarni avf etish amalga oshirildi. Natijada O‘zbekiston ilg‘or davlatlarda amal qiladigan va xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgan vijdon erkinligi normalarini to‘la bajarayotganini isbotladi.

Diniy aqidaparastlikning radikal ko‘rinishi global tartiblarga, millatlararo, hatto davlatlararo hamjamiyatlikka raxna soladi. Hozirgacha bu omilning ijtimoiy-falsafiy, ilmiy asoslari o‘rganilmagan. Aslida aqidaparastlik o‘z dinini, undagi dogma va urf-odatlar, marosimlarni mutlaqlashtirish demakdir. Aqidaparastlik prozelitizmga olib keladi va vijdon erkinligiga xavf soladi.

Prozelitizm boshqa dindagi kishini o‘z diniga majburlab e’tiqod qildirish hisoblanadi. Buning natijasida musulmon mayitini xristian qabristoniga, nasroniy mayitni musulmonlar qabristoniga qo‘yish, yoki xristian dinini qabul qilgan kishi o‘z o‘g‘lini xatna qildirishni xohlamagani, uning otasi esa, o‘z nabirasini musulmon urf-odatlariga muvofiq xatna qildirishni istagani uchun o‘zaro nizolar kelib chiqayotgani uchramoqda, insonning qaysi dinga e’tiqod etishi uning konstitutsion huquqi ekanini tan olmaslik natijada bag‘rikenglik tamoyili buziladi.

Globallashuv sharoitida diniy bag‘rikenglik ta’minlash dolzarb masalaga aylanadi. Integratsiya dinlar o‘rtasidagi aloqalarga ta’sir etadi, ularni umuminsoniy tamoyillar asosida o‘zaro muloqotga, dialog o‘rnatishga da’vat qiladi. Dinlar tarixi ko‘rsatadiki, har bir din o‘z dogmatikasini mutlaqlashtirishga moyil. O‘zga e’tiqoddagilarni kofirlar atab, “e’tiqodsizlar” deb o‘z qarashlarini ularga majburlab

singdirishga intilgan. Aslida bu intilishlar tagida ijtimoiy-siyosiy maqsadlar: bir tartib, bir g‘oya, bir urf-odatlar va marosimlar bilan yashashga majburlash niyati borligi ayni haqiqat.

Dinni faqat e’tiqod, ma’naviy-ruhiy hodisa sifatida qarash, shu nuqtayi nazardan unga yondashish inson psixologiyasini, unda davr ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni, eng muhimi, dunyoviy maqsadlaridan tashqari shakllanmagani va dunyoviy qiziqishlardan kelib chiqqanini bilmaslik oqibatidir. Bu o‘rinda ilm-fan bilan teologiya o‘rtasida farq, tavofut borligi ko‘zda tashlanadi. Ilm-fan g‘ayrihayotiy tassavurlar va fantastik hayollarga emas, obyektiv borliqning qonunlariga, real hayot talablari va inson qiziqishlariga tayanadi, u dinni inson xayoloti mahsuli ekanini unutolmaydi. Ilk transsensual tasavvurlar - animizm va totemizm negizlarini o‘rgangan. E.B.Taylor, J.Frezer va A.Tokarevlar ularni tabiat mo‘jizalari, hodisalarini oldida ojizligini tan olgan ong, aql, tasavvur, ya’ni inson yaratganini ta’kidlaydilar. Demak, bu ilk diniy tasavvurlar (ular keyingi diniy ta’limotlar asosini tashkil qiladi) ojiz inson, aql-u ongi, tasavvurlari mahsuli ekan, ularga ilmiy, tajriba va eksperimentlarga asoslangan, izlanishlar xulosalari zarur edi. Ushbu obyektiv ehtiyoj, dunyoviy yondashuvni rad etish, undan diniy dogmatikani ustun qo‘yish xalqlarni, jamiyatlar taraqqiyotini orqaga sudragan.

Diniy mutaassiblikning eng xavfli jihatni ilmiy xulosalarni, eksperimental izlanishlarni, hayotiy ehtiyojga asoslangan ratsional tajribalarni rad etish bilan bog‘liq. Dunyoviy bilimni, ma’rifatni diniy dogmatikaga qurbon qilish inson jamiyat uchun nomaqbul holdir. Buni XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda hukm surgan diniy mutaassiblik tasdiqlaydi. Bag‘rikenglik, avvalo, ushbu mutaassiblikka ziddir. Unafqaqt dinlararo muloqotni, dialogni ochiq qiladi, shuningdek, ulardagi mutaassiblikni bartaraf etishga intiladi.

Diniy bag‘ikenglik dinlar o‘rtasidagi dialogni, muloqotni, aqidalardagi umuminsoniy normalarni ijtimoiy taraqqiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish imkonini sifatida jamiyat uchun muhimdir. Bunday muloqot dinlar negizidagi aqidada, dogmada mavjud. Masalan, islom dini nasroniylikdagi ko‘pgina qoidalarni

o‘zlashtirgan, Allohning yagonaligi, borliqni u yaratgani, odam uning xizmatkori, cho‘risi, quli ekan, jannat va do‘zax, oxirgi zamon haqidagi tasavvurlar nasroniylik ta’siridandir. Yahyo, Muso, Davud, Nuh payg‘ambarlar, Odam Ota va Momo Havo haqidagi hikoyatlar injilga aynandir. Demak, yahudiylar, nasroniylar va musulmonlar e’tiqodida umumiy negizlar mavjud. Aynan ushbu negiz ular o‘rtasidagi dialogni, muloqotni shakllantiradi.

Bugun dunyodagi konfrontatsiya va to‘qnashuvlar, asosan, din va madaniyat asosida yuzaga kelmoqda. Ikki jahon dini – nasroniylik va islomni ba’zi mutaassiblar bir-biriga qarshi qo‘yishga shu tariqa o‘zining siyosiy maqsadlariga yetishga intilishadi. Bu o‘ta xavfli hodisa ilm-fan, taraqqiyot tarafdarlarini bezovta qilmasligi mumkin emas. Diniy bag‘rikenglikni ijtimoiy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qilish maqsadi shakllantirishi mumkin. Agar diniy e’tiqod ushbu maqsaddan alohida qaralsa, u nafaqat mutaassiblikni, shuningdek, g‘oyaviy, e’tiqodiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma’lumki, g‘oyalar, e’tiqodlar turfa xilligi bilan insonni o‘ziga jalb etadi, unda dunyoni anglashga istak uyg‘otadi. G‘oyalar, e’tiqodlar, plyuralizm ular o‘rtasidagi dialog, konsensus bo‘lishini rad qilmaydi. Bu dialog, konsensus insonni olamni bilishda turli yondashuvlarga asoslanishi xususiyatidan kelib chiqadi.

Keyingi yillarda dindan ilm-fan, ma’rifat va ma’naviyat ishlarida foydalanishga intilish qaror topayotgani ijobiy hodisa, albatta. Ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotni diniy-irfoniy va axloqiy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Biroq ilm-fan din dogmatikasiga qurilmaydi, aks holda hayot dinamizni o‘z zavqini, qonuniyatları va mohiyatini yo‘qotadi. Obyektiv borliq har qanday dogmadan, shu jumladan, ilmiy dogmadan ham yuqori, boy. Hayotiy tajriba, fikrlar plyuralizm insonning yangilikka o‘chligi dogmalar orqali asoslanishi mumkin emas. Bu o‘rinda gap ilm-fan uchun ham, din uchun ham muhim jihat inson qalbi, ruhi, ongini takomillashtirish, boyitish, oliyjanob qilishdir.

## Tajribaviy amaliy matnlar

Diniy tashkilotlar, islom sivilizatsiyasi, alternativ islom olami, dunyoviy islom, dogmatika, ilm-fan, OAV, internet, erkin savdo-sotiq, transmilliy birlashmalar, radikal diniy oqimlar, terrorizm, tassavuf, diniy-irfoniy, diniy-ma'rifiy tadbirlar, chiqishlar, urf-odat, marosimlar, vijdon erkinligi, maslakdoshlar, e'tiqoddoshlar, xalqaro aloqalar, transformatsiya, vijdon erkinligi, diniy aqidaparastlik, prozelitizm, e'tiqod, plyuralizm.

### Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar:

**E.B.Taylor va J.Frezer** o'tkazgan funtamental tadqiqotlar ko'rsatadiki, odam o'zini anglay boshlaganidan beri tashqi kuchlarga, mo'jiza va transtsendental obrazlarga ishonib keladi.

*Dindagi umuminsoniy xususiyat insonni yuksak ideal, maqsad, niyat bilan yashashga undaganidadir.*

Erkinlik va din, falsafa borasida ko'p fikrlagan, betakror asarlar yozgan rus transdental ekzistensializmining yirik namoyondasi **N.A.Berdeev yozadi**: Xudoga immanentdir. Odam bilan sodir bo'lgan barcha narsa Xudo bilan ham ro'y beradi."

*"yolg'on gapirmanglar, yalqov bo`lmanglar, manmanlikka, qimorbozlikka hamda nafsga berilmanglar. Razolat deb hisoblangan g'iybat, hasad, ochko`zlik, sudxo'rlik, zinoga o'xshash gunoh ishlardan yiroqda bo`linglar"*

Avesto

Tavrot

Zabur

Injil


Qur'oni Karim

### Bunday muqaddas kitoblarda odamlarga buyurilgani

tavba	najot	sabr-qanoat	sadoqat
ibodat	umidvorlik	ehson	o'zaro yordam
duo	axloq	afv	oliyanoblik

shirin so'zlik va boshqa yaxshi amallardir.

### **Dinning globallashuv mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:**



### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Dinning ijtimoiy-madaniy fenomen sifatidagi xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Globallashuv va uning dinlar globallashuviga ta'sirini qanday tasavvur etasiz?
3. Vijdon erkinligi nima?
4. Dirlarni o'zaro dialogga, konsensusga chorlovchi omillar nimalardan iborat?
5. Diniy bag'rikenglik nimalarda aks etadi?

### **Referat mavzulari**

1. Dinning ijtimoiy-madaniy fenomen, hodisa ekanligi.
2. Din globallashuvida xalqning iroda va erkinlikligi masalasi.
3. Globallashuvning an'anaviy dinga ta'siri.
4. So'fizmda global muammolarining ko'tarilishi.
5. Globallashuv sharoitida diniy bag'rikenglikni ta'minlash.
6. Din globallashuvining mezonlari.
7. Globallashuv va diniy tashkilotlar.

### **Adabiyotlar:**

1. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – Москва.: Политиздат, 1989.
2. Фрэзер Ж.Ж. Золотая ветвь. – Москва.: Политиздат, 1993.
3. Жўжон Махмуд Асьад. Ислом, тассавуф ва ахлоқ – Тошкент: Истиқлол, 2000.
4. Ислом справочник. – Тошкент: ЎзСЭ. Бош редакцияси, 1989.

5. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафқуралар. – Тошкент: Turonzamin ziyo, 2015.

## **10-MAVZU: FAN VA TA'LIMNING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA G'OVAVIY TARBIYA MASALALARI**

### **REJA:**

1. Hozirgi davr fanining global imkoniyatlari. Globallashuv sharoitida fanning funksiyalari.
2. Ta'lism globallashuvning ziddiyatli xarakteri, iqtisodiyotning bilimga bog'liqligi - yagona ta'lism tizimini yaratishning zarurati.
3. Ta'limning globallashuvi - mamlakatning milliy manfaatlariga jiddiy yondashuvining muhim omili.
4. Ta'limning rivojlanishida axborotlashuvning roli.
5. Ta'limning globallashuvida internet va masofali o'tishning roli. Ta'lism globallashuvining rivojlangan industrial davlatlar va uchinchi darajali mamlakatlar ziddiyatining keskinlashuvi bilan bog'liqligi.
6. Milliy maktab ta'lism tizimida vorisiylikni ta'minlash, multimadaniy universitet ta'limi rivojlantirish omillari.
7. Ta'limning globallashuvida o'quv dasturlaridagi muvofiqlikning ahamiyati.

Globallashuvni umumsayyoraviy fenomenga aylantirgan omillardan biri ilm-fan, texnika, intellektual izlanishlardir. Aynan ushbu sohalar global integratsiyada, yutuqlarni ommalashtirishda, xalqlar o'rtaсидаги aloqalarning kengayishida asosiy motiv vazifasini bajardi.

Ilm-fan, texnika, texnologiyalar va intellektual izlanishlar insonning erkin ijod qilish huquqini real voqelikka aylantirdi. XX asrda ular ayrim kishilarning, elitaning kasb-kori doirasidan chiqib global huquqqa aylandi. Global huquq esa chegara bilmaydi, u huquq fenomenini barcha kishilarning, ularning irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, hatto qiziqishidan qat'iy nazar hayot tarziga, erkiga aylantiradi. Buyuk zomondoshlarimiz Abu Nasr Farobiy insondagi bilishga bo'lgan ehtiyoj, qiziqish, axloq, madaniyat ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lism va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi, ta'lism degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtaсидаги nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtaсидаги tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lism so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi.

Tarbiya esa, amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar. Maqsadni amalgaloshirishda jahd va g‘ayrat mo‘ljallangan ishni bajarishda zo‘r ta’sirga egadir. Nazariy bilimlarning yo ustozlar, yoki hikmatlar o‘rgatadilar<sup>1</sup> deydi. Farobiy nazarda tutgan kasb-hunar, malakaning ma’noda ilm-fanga bo‘lgan qiziqishiga ham taaluqlidir. Kishidagi kasb-hunar, malaka o‘zidan-o‘zi, hatto u shunday huquqga ega bo‘lgan taqdirda ham, paydo bo‘lmaydi, shakllanmaydi. Jahd va g‘ayrat, ustoz ta’limi, kitoblar mutolaasidagi hikmatlar, tajribalar bilan boyitilishi darkor. Shubhasiz, ilm-fan, texnika, intellektual izlanishlarni qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy omillar, kafolatlar bo‘lishi shart, ammo ular ta’lim va tarbiya bilan mustahkamlanishi ham darkor.

Ilm-fan, texnika, intellektual izlanish - ijodiy faoliyat turlari hisoblanadi. Ular o‘zining sotsial funksiyalariga ega. Bu funksiyalardan biri tabiiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanlikdir.

Tabiiy va ijtimoiy sharoitlar kishilarni izlanishga, kashfiyotlarga, yangi-yangi vositalarni, usullarni yaratishga, faoliyati doiralarini, qiziqishlarini kengaytirishga undagan. Tabiiy va ijtimoiy sharoitlarni kishi tayyor holda topadi. Keyinchalik u ularni o‘zlashtirish va o‘zgartirishga kirishadi. Tayyor shart-sharoitlardan qoniqmaslik, ularni mukammallashtirish istagi, samarali ishslash usullarini topishga qiziqishi, ehtiyoji kishilardan, Farobiy iborasini ishlatganda, “Jahd va g‘ayrat”ni talab etgan, bu ruhiy holatlarga ta’lim va tarbiya qo‘shilgan, natijada ilmiy izlanish ayrim kishilar amallariga aylangan. XX asrgacha ilm-fan, texnika, intellektual izlanish ayrim kishilarga xos faoliyat turi sifatida yashab keldi. Jamiyatning demokratlashuvi, axborot-texnologiyalarning keng yoyilishi mazkur faoliyat turining ommalashuviga yo‘l ochdi. Hattoki XX asrda ham ijodning elitalashuvi tarafдорлари (Xose Ortega-i-

---

<sup>1</sup> Фаробий, Абу Наср. Фозил одамлар шахри,- Тошкент. А. Қодирий номидаги, Халқ мероси нашриёти, 1993. 184-185б.

Gasset, N.A.Berdiyaev) “omma”, “to‘da”, “olomon” atamalari bilan intellektual izlanishlarning ommalashuviga qarshi chiqishgan. Ijod, ayniqsa, falsafiy ijod alohida qobiliyatni, salohiyatni taqozo etadi, degan fikr Platon davridan beri yashab keladi. Bugun bu qarash keskin o‘zgardi, K.Popper fikriga ko‘ra, “har bir kishi-faylasuf, ammo kimdir ko‘proq faylasuf, kimdir-kamroq”. Demak, ijod har kimning erki, huquqidir. Bu erk, huquq ilm-fanning ijtimoiy hayot, inson faoliyati va ehtiyoji bilan bog‘liq.

Tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bir-biridan farq qilsa-da, ilm-fan, izlanish uchun ular yagona obyektdir. Olim, tadqiqotchi, kashfiyotchi tabiiy shart-sharoitni shunchaki kuzatib, o‘rganib qolmaydi, u bu shart-sharoitni ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Tabiiy shart-sharoit o‘z qonunlariga ega, ular har doim ham inson istaklariga bo‘ysunavermaydi. “O‘jar tabiat” ne’matlarini insonga o‘z ixtiyori bilan beravermaydi, inson ularni bilimi, intellektual izlanishlari bilan ko‘paytiradi, samarali qiladi, takomilga yetkazadi. Tabiatning “yovvoyiligi” insonni qo‘rkitmaydi, bu yovvoyilikni u o‘z foydasiga ishlashini istaydi. Natijada ilm-fan tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlardan kelib chiqadi, ularga moslashib ularni o‘zgartiradi, takomillashtiradi. Moslashuvchanlik ilm-fan uchun yangilik yaratish, biror nimani kashf etish imkonidir. Bu imkondan ratsional foydalanish maxsus ko‘nikma va intellektual bilimni taqozo etadi.

Ilm-fan, texnika va intellektual izlanishning sotsiumning xulq-atvorini, yon-atrofga munosabatini shakllantirishi bilan e’zozlidir. Buni tadqiqotchilar ilm-fanning variativlik funksiyasi deyishadi.

Variativlik rang-barang borliqdagi universal boyliklarni, inson va taraqqiyot uchun muhim narsalarni avaylashga, kashfiyotni destruktiv hodisaga aylantirmaslikka undaydi.

Tabiatan o‘zgarish yoki undan turli ne’matlar olishda foydalanish inson ehtiyoji natijasi hisoblanadi. Lekin tabiatni mutlaq o‘zgartirishga inson qodir emas, u tabiat qonunlarga moslashib, shu bilan birga, ushbu moslashuv jarayonida tabiatning u yoki bu tomonini takomillashtirib, manfaatlariga bo‘ysundirib yashashga majbur. Masalan,

Yer kurrasining shaklini, Quyosh harakatini, galaktika ko‘rinishi yoki harakatlar trayektoriyasini, yulduzlar o‘rnini o‘zgartirish inson ixtiyorida emas, biroq u tabiiy sharoitning ba’zi jihatlariga ta’sir etishi mumkin. Yer osti boyliklarini qazib olish yoki o‘rmonlarni kesish orqali ob-havoga ta’sir qila oladi.

Ilm-fan tabiiy shart-sharoitlarni, ijtimoiy borliqdagi o‘zgarishlarni kuzatib, monitoring qilib, ulardan zarur xulosalar chiqaradi. Kuzatuv obyektiv borliq haqida kerakli bilimlar beradi, muhim eksperimentlar-sinovlar o‘tkazishga undaydi. Nazorat qilish jarayonlarda yuzaga keladigan xaosning, deviant xulq-atvorlarning oldini oladi, obyekt holatini obyektiv ehtiyojlariga muvofiq boshqarishni ta’minlaydi. Ilm-fan, mohiyatiga ko‘ra, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni maqsadli tashkil etishga yordam beruvchi vositadir. U insonni shunchaki qiziqishi ifodasi emas, unda borliqni ratsional tashkil etish va boshqarish texnologiyasi mujassam. Alisher Navoiy aytganidek: “Ki har ne ishnikи qildi odamizod, tafakkur birla bildi odamizod”: Tafakkur – insonni qudratli qilgan, unga tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish imkonini bergen. Globallashuvning o‘zi inson tafakkuri, izlanishlari, faoliyati mahsulidir, aynan shuning uchun ham u globallashuv jarayonlarini ratsional boshqarish mumkin, deb hisoblaydi.

“Globallashuv asoslari” predmeti bu jarayonlarni kuzatish, monitoring qilish, o‘rganish bilan cheklanib qolmaydi, u globallashuvni ratsionallashtirishga oid bilimlarni to‘playdi, bu borada zarur ijtimoiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi. Nazariy bilimlar ilm-fan uchun qanchalik muhim bo‘lmasisin, obyektiv hayot ehtiyojlarini unutish mumkin emas. “Globallashuv asoslari” negizidagi maqsad ushbu obyektiv ehtiyojlarga xizmat qilish, kishilar ongida, hayot tarzida global dunyoga muvofiq keladigan tasavvurlarini, normalar va qarashlarni shakllantirishdir.

Globallashayotgan dunyo ilm-fanga befarq emas, u ilmiy-texnik kashfiyotlarga tayanganida, ratsional bilimlardan kelib chiqqanida, bir qarashda betartib, xaos bo‘lib ko‘rinadigan transmilliy aloqalarga uyushganlik, insonparvarlik va taraqqiyparvarlik baxsh etganida insoniyat uchun zarur jarayonlarga aylanishini unuta olmaydi. Globallashuv xaos emas, unda ming-minglab, yuz millionlab kishilarning sa`y-

harakatlari, intilishlari va hayotiy maqsadlari mujassam. Ularni o‘z holiga tashlab qo‘yish mumkin emas. Ilm-fan xaosga, betartiblikka, boshboshdoqlikka zid hodisa sifatida globallashuvga ham ratsional bilimlarni olib kirishni istaydi. Mana, ilm-fanning globallashuvga munosabati!

Ilm-fan informativ xususiyatga ega bo‘lib, u mavjud tajribalar va bilimlarni ommalashtirish, yoyish tarafdori. Axborotlar (informatsiya) tarzida keladigan ilm-fan tez ommalashadi, kishilarning axborotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi, ularda bilimlar tizimini shakllantiradi. Agar mazkur “Globallashuv asoslari” predmetidan kelib chiqsak, u global dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar qonuniyatlarini, bu qonuniyatlarni anglash, ilg‘ash sirlarini, kishilarda global o‘zgarishlarga ong ratsional bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu bilimlar to‘liq emas, ayniqsa, hozir. Globallashish jarayonlari intensiv va ekstensiv tarzda davom etar ekan, bu bilimlar ham shakllanishida, boyishida davom etadi. Demak, ilm-fanning informativ funksiyasi obyekt, predmetning o‘zi kabi harakatchan, o‘zgaruvchan, u fluktuatsiya tarzida o‘zini-o‘zi boyitadi.

Hozirgi bosqichda globallashuvga sinkretizm xosdir. Turli, hatto qarama-qarshi narsalarni, hodisalar va xususiyatlarni ham o‘zida uyg‘unlashtirish uning belgisidir. Ammo globallashuvni permanentligi shubha uyg‘otmaydi. Integratsiyani endi to‘xtatish mumkin emas, xalqlar va davlatlar integratsiya orqali taraqqiyotga erishishni bilishadi, ammo bu integratsiya ratsional ahamiyatga ega bo‘lganida inqirozlarni, deviant xulq-atvorlarni, destruktivlikni keltirib chiqarmaydi. Ilm-fan mazkur ratsional yondashuvni xalqlar va davlatlar xatti-harakatlariga, faoliyatiga singdirishi bilan ahamiyatlidir. Aynan shuning uchun ham sotsium ilm-fan yutuqlari va xulosalariga tayanib globallashish xususiyatiga ega.

Bugungi kunda globallashuv ta’lim tizimiga ham ta’sir etmoqda, bugun ilmiy adabiyotlarda “global ta’lim”, “global maorif”, “global etika”, degan atamlar paydo bo‘lmoqda, endi ta’lim, tarbiya, maorif lokal, milliy doirada qololmaydi, ular umuminsoniy, umumsayyoraviy ahamiyat kasb etib, kishilarni mutlaq yangi ijtimoiy borliqqa tayyorlaydi. Bu mutlaq ijtimoiy borliq ilgari bo‘lmagan, buni insoniyat

xayoliga ham keltirmagan. Faylasuflar orzu qilgan ideal jamiyat global borliq emas, ular, lokal doiradagi kishilar hayot tarzi va umidlarining ifodasi edi.

Hozirgi global dunyo xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni, ixtiyoriy tarzda, shunday darajada tashkil etmoqdaki, u chegara bilmaydi. Aloqa qilish, integratsiyaga kirishish yoki kirishmaslik ayrim xalqlar, davlatlar ixtiyorida emas, axborot texologiyalari bu boradagi har qanday to‘sinqni bartaraf etadi. Mobil telefondan foydalanadigan kishining bir kun aloqasiz, qo‘ng‘iroqsiz tasavvur qiling, u muhim, eng yaqin narsasidan, kishisidan ajralib qolgandek sezadi o‘zini. Global aloqa ijtimoiy borlig‘imizga aylanib bormoqda, usiz biz dunyo bilan aloqamizni, bu dunyodagi o‘rnimizni yo‘qotamiz. Ota-bobalarimiz 60-70 yil davomida qiladigan aloqalarni bir kunda amalga oshirmoqdamiz, bunday aloqalarning intensifikatsiyalashuvi ilm-fan, texnika va intellektual izlanishlar tufaylidir. Tarbiya sohasidagi globallashuvni umuminsoniy qadriyatlarda ko‘rishimiz mumkin. Inson hayotini e’zozlash, unga mehr-muhabbat, izzat, hurmat ko‘rsatish, chin subyekt sifatida yashashi uchun zarur sharoitlar yaratib berish, iqtidorini ro‘yobga chiqarishni kafolatlash, ijtimoiy borliqni, munosabatlarni gumanizatsiyalash ana shunday qadriyatlarga kiradi.

Ta’lim-tarbiya, ilm-fan, maorif qanchalik muhim va zarur bo‘lmashin ular har doim ham kutilgan, ijobjiy natijalarga olib kelavermaydi. Ha, shaxsni shakllantirishda bu omillar muhim, lekin ularga hamma muammolarni hal etadi, “qodiri mutlaq” deb qarash mumkin emas. Maxsus sotsiologik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, kishilarning ko‘pchiligi (80% dan oshig‘i), agar qayta yashash imkonini bo‘lganida, hozirgi sivilizatsiya, taraqqiyot orzu, xayol bo‘lgan davrda yashashni istashardi. Vaholanki, ideologiya, ta’lim-tarbiya, ilm-fan o‘tmishni ideallashtirmagan, bu holda kishilarda o‘tmishini ideallashtirish qayerdan paydo bo‘ldi ekan? Respondentlar borini emas, xayolida, orzusida borini e’zozlashga tayyor ekan, Globallashuv muammosini G‘arb tajribasi misolida o‘rgangan A.A.Zinovyev yozadi: XX asr kishilar kelajakka umid

qilgan oxirgi asr bo‘ldi. Undan keyin kelajak keldi, kishilar unga bo‘lgan umididan ayrildilar”<sup>1</sup>.

Kishilar kelajakni orzu qilib, nimagadir umid qilib yashaganlari tufayli ta’limtarbiya, ilm-fan, maorif kuchiga ishongan edilar. Bu ishonch ma’rifatchilik davri (XVIIIasr)dan beri inson qalbida yashab, uning kuchiga kuch berib kelgan postindustrial jamiyat g‘arb kishisidagi kelajakka umidni, nimagadir ishonchni o‘ldirdi. Endi kishida sirli kelajakka bo‘lgan umid yo‘qoldi. G‘arb Ittifoqi qayerdaligini ruhan sog‘lom kishilarning o‘ndan to‘qqizi bilmaydi. Ular bunday Ittifoq borligi haqida xabardor ham emas ekan. Oddiy amerikaliklar uni Texasda joylashgan, uning Oliy qo‘mondoni (prezidenti) mashhur gollivud supermeni, aktyori, deb biladi. Oddiy nemislar G‘arb ittifoqi To‘rtinchchi Reyx, unga Sharqiy va Janubiy Yevropa va sobiq SSSRning O‘rolgacha hududi kiradi, deb hisoblaydi. Oddiy fransuzlar esa, G‘arb Ittifoqiga chet elliklar migratsiyasini to‘xtatuvchi kuch, deb qaraydi.

So‘rovnoma natijalaridan ma’lum bo‘ladiki, G‘arb Ittifoq fuqarolari o‘zları yashayotgan jamiyat xususiyatlarını, uning a’nanalarını bilishmaydi. Chunki ta’limtarbiya, ilm-fan, maorif, naf, foyda olishga qurilgan, ular shaxsda vatanparvarlik, insonparvarlik, tuyg’ularini shakllantirishga emas, balki shaxs individualizm va egoizmni qo‘llab-quvvatlaydi. Biz uchun muhim tomoni shundaki, globallashuv ilm-fan, tarbiya, maorifni keng targ‘ib etayotgan bir paytda g‘arb kishisi yozuvchizuvdan, kitob o‘qishdan, savodxon bo‘lishdan kechgan. Masalan, XX asr oxiriga kelib AQSHda 30 million, Fransiyada 6 million Germaniyada 3 million kishi, umuman, yozish-chizish va kitob o‘qishni bilmaydi. Shunga qaramasdan G‘arb aholisining 97% savodli bo‘lgan SSSR ustidan “g‘olib” kelishi va globallashuvning bosh faktorlariga aylanish g‘ayratli holdir<sup>2</sup>.

Demak, globallashuv ilm-fanga, ma’rifatga, savodga bog‘liq emas ekan-da? Jamiyatda ro‘y beradigan o‘zgarish hech qachon rasmiy axborotlar bilan

<sup>1</sup> Зиновьев А.А. Глобальный человек.-Москва: Эксмо, 2003 , С. 13.

<sup>2</sup> Ўша асар. С.14.

belgilanmagan, hatto ilm-fan ham uni to‘la qamrab ololmaydi. Industrial, postindustrial jamiyatlardagi tadbirkorlik, ishbilarmonlik, umuman, ta’lim-tarbiya qanday tamoyillarga qurilgan, degan savolga, ba’zan pragmatizmga, deb javob berishadi. Inkor qilish mumkin emaski, pragmatizm jamiyatda ishchanlik, harakatchanlik muhitini shakllantirgan, kishilarni o‘z vaqtini qadrlashga ko‘proq ishlab doramad, pul topishga o‘rgatgan. G‘arb ijtimoiy taraqqiyoti ushbu tamoyilga tayangani bois inson ma’naviyatiga urg‘u beruvchi Sharq mentaliteti, hayot tarzidan farq qiladi. Lekin inson o‘z hayotidan, topgan doromadlari va shuhratlaridan rozimi? Ming afsuski, eng badavlat, shon-shuhratga erishgan, o‘zidagi bor imkoniyatlarni ishga soladigan kishilar ham bu savolga, ha deb javob berolmaydi. Insonga kerak narsa avvalo – inson! U yonidagi inson orqaligina o‘zini omadli, baxtiyor sezishi mumkin. Yoningda shunday inson bo‘lmasa, topganing sariq chaqa turmaydi!

O‘zbek milliy maktabida globallashuvga xos o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Iqtidorli yoshlarni topish va qo‘llab-quvvatlash, ularni tarbiyalash, o‘qitish uchun tashkil etilayotgan “Prezident maktablari” ulardan biridir. Demokratik rivojlanishini ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonda kadrlar yetishmasligini ko‘rsatadi. Prezidentimiz bu borada keskin o‘zgarishlar qilish zarurligini payqadi va ilg‘or davlatlardagi universitetlarning filiallarini ochishga kirishdi. O‘tgan ikki yil ichida O‘zbekistonda 13 ta ana shunday ta’lim dargohlari tashkil etildi, ularga chet davlatlardan mutaxassislarni jalb etish yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish deyarli ikki barovarga oshirildi. Darvoqe, o‘tgan o‘n yilliklarda maktab bitiruvchilarning atiga 12-14 foizi oliy o‘quv yurtlariga kirish imkoniga ega bo‘lgan, chet ellarda bu ko‘rsatgich 60-70 foiz edi. Kadrlar tayyorlashdagi bu nomaqbul hol maorif, ta’lim, kadrlar siyosatida o‘z izini qoldirgan, albatta.

Ta’limdagi globallashuv jarayonlari o‘quv dasturlariga yangi predmetlar, fanlar kiritishni taqozo etadi. Bu o‘rinda asosiy e’tibor milliy taraqqiyot va milliy madaniyat nuqtayi nazardan yondashishga qaratilishi darkor. Chunki chet ellardan o‘zlashtirilib amaliyotga tatbiq predmetlar, fanlar har doim ham ijobiy natija beravermaydi.

Masalan, keyingi yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni qisqartirish, ularni tinmay “yangilash” an'anaga aylandi. O‘qituvchi-professorlar, talabalar bir predmetga moslashmay, uni yetarlicha o‘zlashtirmay yangi predmetga o‘tkazilishi fikrlarda chalkashlikni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar barqarorlikni, ma’lum ma’noda konservativizmni yoqtiradi, buni hisobga olmaslik bilimga bo‘lgan munosabatni sayozlashtiradi, xolos.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Texnika, intellektual, variativlik, destruktivlik, ilm-fan, ijtimoiy borliq, obyektiv tafakkur, uyushganlik, insonparvarlik, taraqqiy-parvarlik, axborotlar (informatsiya), ta’lim, tarbiya, sinkretizm, global ta’lim, global maorif, global etika, maorif, lokal aloqa, mehr-muhabbat, izzat, hurmat.

### **Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:**


*Globallashuvni umumsayyoraviy fenomenga aylantirgan omillardan biri  
ilm-fan, texnika, intellektual izlanishlardir.*

*“Insondagi bilishga bo‘lgan ehtiyoj, qiziqish, axloq, madaniyat “ikki yo‘l bilan, ya’ni ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi, ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar. Maqsadni amalga oshirishda jahd va g‘ayrat mo‘ljallangan ishni bajarishda zo‘r ta’sirga egadir. Nazariy bilimlarning yo‘ustozlar, yoki hikmatlar o‘rgatadilar”.*

*Abu Nasr Farobiy*

***Globallashuv muammosini G‘arb tajribasi misolida o‘rgangan***  
***A.A.Zinovyev yozadi:*** XX asr kishilar kelajakga umid qilgan oxirgi asr bo‘ldi. Undan keyin kelajak keldi, kishilar unga bo‘lgan umididan ayrildilar”.

***O‘zbek milliy mакtabida globallashuvga xos o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Iqtidorli yoshlarni topish va qo‘llab-quvvatlash, ularni tarbiyalash, o‘qitish uchun tashkil etilayotgan “Prezident maktablari” ulardan biridir.***



### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Hozirgi zamon fani va uning globallashuv jarayonlardagi o‘rnini qanday tasavvur etasiz?
2. Tabiiy va ijtimoiy sharoitlarni anglashda ilm-fanning vazifalari nimalardan iborat?
3. Ilm-fan, sotsium – globallashuv tizimidagi integratsiyani qanday tushunasiz?
4. Ilm-fanning funksiyalari haqida gapirib bering?
5. Ta’limning globallashuvi nima? U nimalarda namoyon bo‘ladi?.
6. O‘zbekistonda oliy ta’lim va uning hozirgi ahvoli qanday?

### **Referat mavzulari**

1. Globallashuvni umumsayyoraviy fenomenga aylanishi.
2. O‘zbek milliy mакtabida globallashuvga xos o‘zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar.
3. Ta’limdagi globallashuv jarayonlari.
4. Mul’timadaniy universitet ta’limini rivojlantirish omillari.
5. Hozirgi davr fanining global imkoniyatlari.
6. Ta’limning globallashuvida internet va masofali o‘qish.

### **Adabiyotlar:**

1. Пуанкаре А. О науке. – Москва.: наука, 1983.
2. Голованова В. Философия открытый и изобретений. – Тошкент: NOSHIR, 2013.

3. Зиновьева А.А. Глобальный человек. – Москва.: Эксмо, 2003 .
4. Фаробий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри, – Тошкент: А.Қодирий номидаги, Ҳалқ мероси нашриёти, 1993. 184-185б.
5. Зигуненко С.Н. Великие открытия. – Москва: Изд. Астрель, 2005.
6. Кедров Б. О творчестве в науке и технике. – Москва.: Мол. Гв, 1987.
7. Сирож О. Глобализации. Москва: Эксмо, 2004.

## **11-MAVZU: SPORTNING GLOBALLASHUVI**

### **REJA:**

1. Sportning global jarayonga aylanishining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Sport millatlar va davlatlararo o‘zaro aloqalarni o‘rnatish vositasi.
3. Sportning globallashuviga Olimpiya harakatining ta’siri.
4. Sport globallashuvning ijobiy xarakteri va salbiy xususiyatlari.
5. Sport globallashuvida gegemoniyaning namoyon bo‘lishi.
6. Nogironlar sporti globallashuvning ma’naviy axloqiy xarakteri.

Sportning globallashuvi inson salomatligini ta’minalash, jismoniy tarbiyaning ijobiy roli keng e’tirof etish, BMT, YUNESKO, Olimpiya qo‘mitasi, Juhon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, har yili turli ommaviy-ma’rifiy va jismoniy tarbiya o‘yinlarini uyushtirish kabilalar bilan bog‘liqdir. Mazkur xalqaro turnirlar xalqlar o‘rtasida do‘stlikni, integratsiyani, madaniy-texnik va maorifdagi yutuqlarni keng yoyilishini nazarda tutadi. Sport sport uchun emas, avvalo, inson, uning salomatligi, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiyani ommalashtirish, organizmni oshib borayotgan jismoniy va ruhiy tazyiqlarga qarshi tura oladigan qilish, yoshlarni barkamol shaxs bo‘lib yetilishi uchun zarur.

Insonning salomatligi baxt tuyg‘usi bilan uyg‘undir. Salomatligi joyida bo‘lmagan shaxsning o‘zini baxtiyor, baxtli inson sezishi qiyin. Mazkur tartib antik davr faylasuflariga yaxshi ma’lum bo‘lgan. Masalan, yunon donishmandi Aflatun (Platon) baxt haqida fikr yuritib, “Inson uchun birinchi baxt – uning sog‘ligi, ikkinchisi go‘zalligidir”, - degan edi. Sihat-salomatlik har qanday boyliklardan azizdir. Nasl-nasabi sog‘lom va ma’naviyati yuksak shaxs sog‘lom-baquvvat, iymone’tiqodli va sadoqatli bo‘ladi. Bu baxt xalq, Vatan shuhratiga shuhrat qo‘shadi. Xalqning baxt-saodati uchun sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim hisoblanadi. “Sog‘lom avlod” deganda ham jismonan ham ma’naviy tomonidan yetuk, bardam, har ishga qodir avlod nazarda tutiladi. Shunday noyob fazilatlariga ega shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakka katta ishonch bilan qarashi mumkin. Inson salomatligi va uning har tomonlama kamol topishida yurish, yugurish mashqlari, ovqatning sifati va ovqatlanish rejimi katta o‘rin tutadi.

Asrimizning eng ko‘p tarqalgan xastaliklari semirish, yurak-tomir xastaliklari, ovqatlanish rejimining yo‘qligi, kam harakatlik sababli vujudga kelmoqda. Semirish moddalar almashinuvining buzilishi sabablidir. Bu xastalikka chalinmaslik uchun eng, avvalo, harakatlanish va ovqatlanish tartibiga rioya qilish lozim. Ertalab va tushlikda yaxshi ovqatlanish, bunda oqsilga boy bo‘lgan go‘sht, baliq iste’mol qilish me’da shirasining ajralishini yaxshilaydi, moddalar almashinuvini kuchaytirib, asabni mustahkamlaydi. Organizmning aqliy va jismoniy mehnatga sarflagan energiyasi harakat va ovqatlanish tartibiga muvofiq tiklanadi.

Avstriyalik shifokor P.Bregg yurishni “barcha mashqlarning qirolichasi” deb ataydi. Shuning uchun ham doimo qomatni tik tutib, tez tabiiy chiroyli yelkalarni to‘g‘ri tutib va boshni ko‘tarib yurmoq zarur. Vrachlarning kuzatishicha, yurishni mashq qilish arterial bosimni pasaytiradi, bosh og‘rig‘i va bosh aylanishning oldini oladi. Bosh suyagi ichidagi arterial bosimning oshishi (gipertonik kriz) kasalligini yurish bilan davolash qadimgi yunonlarga ma’lum bo‘lgan. Agar odam ko‘p yursa, muskullardagi tananing barcha qismlariga tarqalib ketgan mayda tomirlar - kapillyarlar kengayadi. Qonning qayta taqsimlanishi natijasida fiziologik so‘rilish jarayoni yaxshilanadi, bu esa qon bosimini normallashtiradi.

Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti tashabbusi bilan, bugun ta’lim-tarbiya maskanlari, oliy va o‘rta maxsus ta’limi o‘quv rejasiga jismoniy tarbiya, aerobika, yugurish kabi salomatlikni tiklovchi darslar kiritilgan. Mutaxassislarning fikricha, bolalarni yoshlikdan salomatlikni asrashga, toza havoda dam olishga, sport o‘yinlari tashkil qilishga o‘rgatish zarur. Globallashib borayotgan kamharakatlilikka harakatchanlikni, jismoniy tarbiyani qarshi qo‘yish obyektiv ehtiyojga aylangan. Yurak-ishemiya, gipertoniya, depressiya, qon bosimi ko‘tarilishi, semirish globallashib borayotgan bir paytda, sport va jismoniy tarbiya hayot tarziga aylanishi darkor. Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 45-64 yoshlilar o‘rtasida yurakning ishemiya kasalligi ancha ko‘paygan.

25-35 yoshlilar o‘rtasida esa miokard infarkti uchrayapti. Mutaxassislar fikricha harakat qilish, yurish, yugurish bilan bu kassaliklar oldini olish mumkin.

Akademik P.K.Anoxin, insoniyat dahshatli dushmani qarshisida turibdi, bu dushmanning nomi yurak-tomir kasalliklaridir, degan edi. Bugun millionlab odamlar uning asoratidan azob chekmoqda. Yunon mutafakkiri degan: “Agar kuchli bo‘lay desang – yugur, agar sarvqomat bo‘lay desang – yugur, agar aqlli bo‘lay desang – yugur. Biroq jismoniy nagruzka me’yorida, organizm imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bo‘lishi darkor”<sup>1</sup>. Qo‘l mehnati avtomatlashtirilgan va robotlashtirilgan industrial, postindustrial jamiyatda jismoniy tarbiyaga, salomatlikni ta’minlovchi mashqlarga bo‘lgan ehtiyoj oshadi. Informatika tizimi, kompyuter, internet, robot jismoniy mehnatni ishlab chiqarish sohasidan siqib chiqarmoqda. Bunday paytda sport, jismoniy madaniyat tor doiralardan chiqib, umuminsoniy voqelikka aylanishi tabiiy holdir. Sportning davlatlararo va xalqlararo aloqalarini o‘rnatuvchi ommaviytarg‘ibiy funksiyasi faqat Olimpiya harakatlari bilangina bog‘liq emas. Sport, Olimpiya o‘yinlari, xalqaro uchrashuvlar transmilliy xususiyat kasb etayotgan bo‘lsada, ular negizida substantsional vazifa – sog‘lom avlodni tarbiyalash, tashqi ko‘rinishi go‘zal va xushsurat, ichki olami keng, yuksak, oliyjanob shaxsni kamol toptirishdir.

Xalqimiz “sog‘ tanda – sog‘lom aql”, “aftini ko‘r – hol so‘r”, “Bukri bukrigagina hamtovoq”, “Sog‘liqlikda xo‘rlik yo‘q”, “Tik o‘sgan terakka xaridor topiladi”, deb bejiz aytmaydi. Tanaga e’tibor - go‘zal xulq, to‘g‘ri tarbiya nishonasi. Kasalmand, majruh, mayib va nuqsonli bolani tarbiyalash oilaga ham, jamiyatga ham qimmatga tushadi. Yaxshisi jismoniy tarbiya, salomatlikni e’zozlashdir. Shuningdek, tibbiyot industriyasi inson tanasi, organizmiga e’tibor qaratadi. Organizmning sog‘lom bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan moddalarning katta qismi buyrak orqali parchalanadi, oqsil uglevodi esa o‘pka orqali o‘tadi. O‘sha yerda qon kislorod bilan to‘yinadi va oq qizil tus oladi. So‘ng u yurakka qaytib, arteriyalar orqali so‘riladi, tananing turli qismlariga tarqaladi. Bu qon aylanishi bir kunda ming marta takrorlanadi.

---

<sup>1</sup> Карапг: Раҳимжанова К.Т., Таронова А.В. Ҳаракат-жон озиги. – Тошкент: Медицина, 1996-10 б.

Shunday ekan, mashhur tabobatchi P.Bregg fikricha, “bir joyda juda uzoq o‘tirmaslik kerak. O‘tirgan holatda kechadigan hayotda qon aylanishi sekinlashadi, qon bir joyda turib qoladi. Uzoq vaqt bir joyda o‘tiradigan kishilarda tromboz (qonning quyuqlashishi) ro‘y berishi kuzatiladi. Agar sizning ishingiz o‘tirib ishlashga mo‘ljallangan bo‘lsa, har soatda turib, kuch-g‘ayrat bilan harakat qiling. Agar avtomobilda uzoq yursangiz mashinani har soatda to‘xtatib, bir necha mashqlarni bajaring. Esingizda bo‘lsin, siz mashqlarni bajarganiningizda, organizmdan zahar ajralib chiqadi va qon aylanishi ortadi, organizmdagi barcha to‘qimalarning iste’mol qilish holati yaxshilanadi”<sup>1</sup>.

P.Bregg konsepsiysi dunyoga tarqalgan. Undan nufuzli xalqaro klinikalar foydalanadi. Sog‘lom turmush tarzini, harakat qilishni, jismoniy mashqlarni targ‘ib etadigan bu konsepsiya ayrim global kasalliklarga qarshi ishlab chiqilgan. Inson tanasini, organizmini chiniqtirish, uni tashqi, ayniqsa, ruhiy tazyiqlarga chidamli qilish uning maqsadidir. Organizmnning eng katta ajratuvchi a’zolardan biri teridir. Bu millionlab teshiklar va ajralib chiquvchi ter suyuqligidir. Terning ajralishi ikki maqsadga ega: u tananing turli iflosliklardan xolos bo‘lishini ta’minlaydi hamda tana haroratini tartibga solib turadi. Tana faol harakati tufayli qizib ketsa, ter chiqaruvchi bezlar ishga tushadi. Bug‘lanib chiqayotgan ter qonnisovutadi. U teridan tashqariga chiqib, shu tarzda tanani turli qizib ketishdan muhofaza qiladi. Shu bilan birga, organizmdan tashqarida turuvchi “chiqindi”lar chiqarib yuboriladi.

Aynan shu kir bilan aralashgan ajratmalar teri qobig‘ida o‘rnashib, terida noxush hidni keltiradi. Agar teri top-toza bo‘lsa, sog‘lom tananing teri yaxshi hid taratadi. Shu sababli dezodorant ishlab chiqaruvchi firma reklamalariga diqqat-e’tibor qarating. Raqs kecharalari, sayr-tomosha, velosipedda yurish, uyda g‘ayrat-shijoat bilan ishlash... Har qanday faoliyat bizni terlashga majbur etsa, bu yurak faoliyati hamda umumiyl faoliyatni yaxshilaydi. Intensiv yuklama hech qachon sog‘lom odamga ziyon yetkazmaydi”<sup>2</sup>. Demak, sog‘-salomat organizmni shakllantirish

<sup>1</sup> Брэгг П. Юрак. Умуртқа: мўжизасини асранг. Ўзок умр кўриш коидалари. Чўлпон. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2017.-64.

<sup>2</sup> Ўша асар. С.64-65.

o‘zidan-o‘zi ro‘y bermaydi, u ,avvalo, shaxsdagi harakatchanlikni sevish tamoyiliga quriladi. Aytish joizki, globallashayotgan dunyo harakatchan kishilar dunyosi. Ammo u ko‘proq intellektual harakatchanlikni yoqtirmaydi. Salomatlik konsepsiysi esa jismoniy mashqlardan iborat, harakatlar rang-baranglagini targ‘ib etadi. Mana, ular o‘rtasidagi farq!

Shekspir bizning davrimizdagi hukmron psixologiyasini oldindan ko‘ra bilgan. Uning fikricha “aql tanani boy qilur”. Tana aqlga yordam bergandek, aql ham tanaga yordam beradi.

Bizning Koinot bilan aloqamiz ikki yoqlamadir: u - ruhiy va jismoniy. Biz cheksizlik bilan ma’naviy jihatdan bog‘langanmiz. Koinatdagi hayot va quvvat va bu hayot bizning ichimiz - shaxsiy hayotimizdadir. Bu hayotning butun, to‘laligicha anglamoq uchun biz doimo shu haqda eslashimiz kerak.

Bu ichki, ruhiy hayotdir. Jismoniy hayot bizni koinotning alohida qismi bilan bog‘laydi. Bu qism Yer deb ataladi. Biz ona zamin bilan aloqadormiz, oziq-ovqatlar orqali, ichadigan suvimiz, nafas oladigan havomiz orqali quyoshga bog‘langanmiz. Urimiz davomiyligi ham ular ta’siridadir. Masalan, oziq-ovqatni, ya’ni oziqlanishni olib qaraylik. Qon uning hayratga soluvchi taqsimot tizimi eng zarur vazifani ado etib, tanani har bir qismini quvvat bilan ta’minlaydi. Biz hozir nimani tanovul qilsak, 24 soatdan so‘ng u kuch bo‘lib tana bo‘ylab tarqaladi. Agar siz tabiat tayyorlagan ozuqani tanovul etsangiz, yuragingiz katta va kuchli bo‘lib, jonli va faoliyatga ega aql-idrokli kishiga aylanasisiz. Bu sizning hayotingizga yillarni, yillarga esa hayotni qo‘sib ketaveradi”<sup>1</sup>.

Salomatlik konsepsiyasini yaratgan olim P.Bregg inson uchun muhim bo‘lgan qoidalarini ishlab chiqadi. Bu qoidalar salomatlik-inson-globallashayotgan hayot tizimidagi dialektik bog‘liqlikni yangicha baholash imkonini beradi. U sport va jismoniy madaniyatni targ‘ib etishga asos qilib olinishi mumkin. Esda tutish kerakki, sport sport uchun emas, u avvalo inson salomatligi, barkamolligi uchundir. Vujudni sog‘lom, barkamol qilish – barkamol avlodni shakllantirish shartidir. Mana, P.Bregg

---

<sup>1</sup> Ўша acap. C.68.

ishlab chiqqan qoidalar: Sport inglizcha, eski fransuz tilidagi “desport” o‘yin, zavqlanish ma’nolarini beradi. Sport jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. U shaxsnинг jismoniy va aqliy salohiyatni yuksaltirib borishga, ma’lum bir qonun-qoidalar asosida yo‘lga qo‘yilgan chora-tadbirlar, faoliyat tizimidir.

Sport ko‘pgina fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Ularga pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik, tarix, jismoniy madaniyat nazariyasi, sotsiologiya, huquqshunoslik kabilar kiradi. Ushbu fanlarning har biri o‘zining immanent xususiyatlaridan kelib chiqadi.

- pedagogika – jismoniy madaniyatning metodlarini o‘rganadi.
- tarix – jismoniy madaniyat va sportning tarixiy davrning muayyan bosqichida vujudga kelishini.
- sotsiologiya – jismoniy madaniyat va sportning sotsial funksiyalarini tadqiq qiladi.

Sotsiologiya fani shuning bilan birga boshqa fanlardan farqli o‘larroq jismoniy madaniyat va sportni chuqur va mukammalroq o‘rganadi.

Sport madaniyati, umumiy madaniyatni tarkibiy qismi hisoblanib, insonning jismoniy va ma’naviy shakllanishidagi tushunchalar umumlashuvi, qonuniylar, bellashuvi faoliyat doirasini anglatadi, tadqiqotlarchilar sportni insonni o‘ziga tez tortadigan tomonlari borligini ta’kidlaydilar.

Olimpiada o‘yinlari genezisi uzoq tarixga borib tarqaladi. Stixiyali tarzda bo‘lsada, ibridoiy jamiyat odamlari qator hayvonlarni ovlashda zarur bo‘lgan xattiharakatlarni bajarish mashq qilishgan, bu faoliyat jarayonini an’ana sifatida keyingi avlodga qoldirilgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy tarixidan ma’lumki, davlatchilik an’analı, uning himoyasi bilan bog‘liq harbiy ish o‘ziga xos chaqqonlikni, kuchlilikni, epchillikni, botirlikni talab etgan. Bunga o‘xshash bir qator omillar sportni insoniyat faoliyatining maxsus bir shakli sifatida shakllanishini ta’milagan.

Qadimgi Yunonistonni himoya qilish dengizda amalga oshirilgan. Shunday ekan, harbiy madaniyat, harbiy san’at, epchillik, botirlik, dushman xavfi paydo

bo‘lganida tezkorlik bilan portdagi marralarni egallash ular uchun muhim, strategik vazifa edi. Ba’zi manbalarda “sport – portga yugurish” ma’nolarida ham keladi. Shu sababli Qadimgi Yunonda sportning bir qator turlari rivojlangan bo‘lib, ular amalda harbiy soha bilan bog‘liq edi: yugurish, kurash, disk uloqtirish, nayza otish. Miloddan avvalgi 776-yildan boshlab, Peloponnesning Olimp shahrida har to‘rt yilda Olimpiada o‘yinlarining Olimp xudosi Zevs sharafiga o‘tkazilishi dastlabki nasroniylik aqidalariga to‘g‘ri kelmay qoldi. Olimpiya o‘yinlari milodiy 396-yilga kelib o‘tkazilmay qoldi<sup>1</sup>. Ammo sportning inson salomatligi uchun nihoyatda muhimligi inobatga olinib, 1896-yildan boshlab Olimpiya o‘yinlari qayta tiklandi va bugungi kungacha o‘tkazilib kelinmoqda.

Sport insonni jismonan yetuklikka, epchillikka undaydi. Insondagi ijtimoiy hayotdagi barcha hatti-harakatlarning negizida uning jismoniy holati yotadi. Shunday ekan inson paydo bo‘libdiki, epchilikka, chaqqonlikka, jismonan baquvvat bo‘lishga intiladi. Sport insonni nafaqat jismoniy, shuningdek, ma’naviy yetuklikka ham chorlaydi. Lev Tolstoy so‘zi bilan aytganda: “Ma’nan sog‘lom bo‘lishi uchun jismonan bardam bo‘lmoq kerak”. Sport nafaqat jismoniy balki ma’naviy kamolotga yetishishda ham muhimdir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o‘rgatadi. Inson qalbida g‘alabaga ishonch, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Sog‘lom, bilimli va fidoiy farzandparvar bo‘lgan xalq, albatta, o‘zining buyuk kelajagini barpo etadi. Haqiqatdan ham, bugun sport mamlakatni tezda dunyoga mashhur qiladi. U odamni mard, matonatli, bardoshli qilib tarbiyalaydi.

Sportning globallashuvida bir qator xalqaro institutlar tashkilotlar muhim rol o‘ynaydi. FIFA, OOQ, OFQ, FMDE, UEFA va shu kabilar. Ushbu xalqaro tashkilotlar o‘z faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida qator tadbirlar rejasini ishlab chiqishgan va shu asosda faoliyatini yuritishmoqda: turli musobaqalar uyushtirish sport inshoatlari barpo etish, sohaga tegishli qonun-qoidalar ishlab

---

<sup>1</sup> Капанг: Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari?- Toshkent.: Navro‘z, 2015.1236.

chiqish, soha kadrlarini tayyorlash tizimini yaratish, reklama va h.k. Ulardan tashqari, sport katta daromad manbai hamdir. Xalqaro musobaqani o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan sport kiyimlari savdosi, sport jihozlari ishlab chiqish va h.k. 2017-yili Braziliyada bo‘lib o‘tgan futbol bo‘yicha jahon championatining mukofot jamg‘armasi 576 million dollarni tashkil etgan. Shuningdek, sportning ommaviy axborot vositalarning orqali namoyish qilinishi ham muhim ahamiyatga ega.

Sport turlari cheksiz. Ularni barchasini ham insonni jismoniy va ma’naviy yetuklikka undaydi, deb bo‘lmaydi. “Qoidasiz jang” sport turlari (agar ularni sport deyish mumkin bo‘lsa, yoshlarda qanday axloqiy fazilatlarni shakllantirishi mumkin? Ammo u G‘arbda o‘z quvvatini namoyon etadigan ommaviy o‘yin hisoblanadi). Bunday o‘yinlar zo‘ravonlik, individualizm egotsentrizmni targ‘ib etadi, boylik orttirish, boshqa xalqlarning an’ana va qadriyatlarini, turmush tarzini inkor qiladi, ma’naviy negizlariga bepisandliklar, tahdidlar soladi.

Sport globallashuvning salbiy tomonlaridan yana biri katta sport musobaqalarini o‘tkazishdan maqsad daromad ketidan quvish, mablag‘ga ega bo‘lish maqsadi bo‘lib qolmasligi lozim. Iqtisodiyoti yuqori mamlakatlarning kuchli, yosh sportchilarini katta pul evaziga o‘ziga chaqirib olish holatlari kuchaymoqda. Masalan, Sochi-2014 Olimpiya o‘yinlarida Rossiya qo‘lga kiritish medallarining 144 tasi chet eldan kelgan sportchilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Rossiya hukumati mamlakat jamoalarida xorijlik sportchilar soni umumiyligi sportchilar sonining chorak qismi (25%)dan oshmasligini belgilab beruvchi hujjat qabul qilgan. Sportni mafkuralashtirish ko‘zga tashlanadi. Jahoning yetakchi tashkilotlari, yetakchi mamlakatlari turli sohadagi kelishmovchiliklarni hal etishda sportni vosita qilish, sportning xalqaro maydonidagi mavqeidan foydalanishga intilishadi. Raqobatda bo‘lgan davlatlar sport maydonlaridagi uchrashuvlar sabab do‘sit davlatga aylansa, turli xil irq, din mazhab vakillari ahil, inoq bo‘lib ketishsa, a’lo ish. Lekin sportdan jazo vositasi sifatida foydalanish teskari natija berishi ham mumkin. Masalan, Antverpenda (Belgiya o‘tkazilishi belgilangan VII Olimpiya qo‘mitasi qaroriga binoan I jahon urushi sababchisi hisoblangan)gi holatni qaraylik.

Germaniya va unga ittifoqdosh bo‘lgan mamlakatlarning olimpiada o‘yinlarida ishtirok etishi ta’qiqlab qo‘yildi. Shuningdek, sobiq ittifoq vakillarining ham olimpiada uchrashuvlardagi ishtiroki man etildi. Balqon, Kavkaz, Sharqiy Yevropadagi ba’zi kelishmovchilik tufayli Rossiya - Ukraina, Rossiya - Gruziya, Armaniston-Ozarbayjon, Ispaniya-Gibraltar terma jamoalarning o‘zaro guruh bosqichlarida uchrashuvi man etilgan. Lekin negadir oktyabr oyining (2014-yil) o‘rtalariga belgilangan doimiy raqobatda bo‘lgan Serbiya-Albaniya uchrashuviga ruxsat berilgan. O‘yinning 42 daqiqasiga kelib maydan uzra Buyuk Albaniya banneri, alban millatchilarning bayrog‘i ilingan uchuvchisiz boshqariladigan vertolyot serb futbolchilarning jiddiy noroziligiga sabab bo‘lgan<sup>1</sup>.

Sport bilan nogironlarning shug‘ullanishi ham ijobiylari holat hisoblanib, bu bugungi kunda yuqori bosqichga ko‘tarildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Paralimpiada o‘yinlari jahondagi nogiron sportchilar o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga xizmat qilmoqda. Bugun dunyoda 1 milliardga yaqin nogironlar bor, O‘zbekistonda ular soni 850 mingdan oshiq. Indoneziyaning Jakarcha shahrida 2018-yili yozda o‘tkazilgan Paraosyo o‘yinlarida yurtdoshlarimiz T.Giyazov, R.Ergasheva, F.Omilova kabi sportchilarimiz 77 medalni qo‘lga kiritishgan. Sport insonlarga shodlik ko‘tarinkilik, hursandchilik baxsh etadi. Sportdan keladigan quvonch, hayajon inson ruhiyatiga ijobiylari ta’sir ko’rsatadi.

Ko‘pgina faylasuflar sportni san’at bilan qiyoslaydilar. Mashqlar o‘yinlar inson xatti-harakatlarini, qomatini, organizmini baquvvat, go‘zal chaqqon qilgani uchun sport o‘yinlari xalqaro birlashmalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Sportning ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy maqsadlari oliyjanob ekani aksiomadir. To‘g‘ri, bozor iqtisodiyoti unga ham ta’sir etmoqda, pul ishlab topish, pul tikib qimor o‘ynash hollari ko‘plab uchraydi. Ammo sportning globallashayotgan dunyonidagi insoniylashtirishiga go‘zallik, do‘stlik, ijobiylari musobaqa va integratsiya xizmat qilishini unitib bo‘lmaydi.

### Tajribaviy amaliy matnlari

<sup>1</sup> Ўша acap. 125-1276.

Sport, paralimpiada o‘yinlari, nogiron sportchilar, do‘stlik, hamkorlik aloqalar, shodlik, ko‘tarinkilik, hursandchilik, quvonch, hayajon, san’at, mashqlar, organizm baquvvatligi, go‘zallik, olivjanoblik, insoniyashtirish, do‘stlik, ijobjiy musobaqa, integratsiyaga, ijtimoiy-madaniy, tarbiyaviy, professional sport, ommaviy sport, jismoniy mashq, olimpiada o‘yinlar, globallashuv, nogironlar sporti, champion.

### **Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:**

*Sport-sport uchun emas, avvalo, inson, salomatlik, sog`lom turmush tarzi, jismoniy tarbiyani ommalashtirish, organizmni oshib borayotgan jismoniy va ruhiy tazyiqlarga qarshi tura oladigan qilish, yoshlarni barkamol shaxs bo`lib, etilishi uchun zarur.*

**Aflatun**

*Inson uchun birinchi baxt – uning sog`ligi, ikkinchisi go`zalligi.*

**Avstriyalik vrach P.Bregg**

**Yurish - “barcha mashqlarni qirolichasi”**

**Yurishni  
mashq qilish**

*arterial bosimni  
pasaytiradi*

*bosh og`rig`i va bosh  
aylanishning oldini oladi.*

*Agar odam ko`p yursa, muskullardagi tananing barcha qismlariga tarqalib ketgan mayda tomirlar-kapillyarlar kengayadi.*

**Globallashib borayotgan kamharakatchanlikka – harakatchanlikni va jismoniy tarbiyani qarshi qo`shish obyektiv ehtiyoj.**

Yurak-ishemiya

deprissiya

gipertoniya

qon bosimi

semirish

miokard infark

**Akademik  
P.K.Anoxin**

*insoniyat dahshatli dushmani qarshisida turibdi,  
bu dushmanning nomi yurak-tomir kasalliklaridir*

*Agar kuchli bo`lay desang – Yugur, agar sarvqomat bo`lay desang –  
yugur, agar aqli bo`lay desang – Yugur. Biroq jismoniy nagruzka  
me`yorida, organizm imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bo`lishi*

**P.Bregg ishlab  
chiqqan qoidalar:**

*Sport inglizcha, eski fransuz tilidagi “desport” o‘yin, zavqlanish ma’nolarini beradi.*

pedagogika

tarix

sotsiologiya

jismoniy madaniyatning metodlarini o’rganadi

jismoniy madaniyat va sportning tarixiy bosqichlarini vujudga kelishini

jismoniy madaniyat va sportning sotsial funksiyalarini tadqiq qiladi.

**Miloddan avvalgi  
776 yildan boshlab**

*Peloponnesning Olimp shahrida har to’rt yilda Olimpiada o‘yinlarining Olimp xudosi Zevs sharafiga o’tkazilishi dastlabki nasroniylik aqidalariga to’g’ri kelmay qoldi. Olimpiya o‘yinlari milodiy 396 yilga kelib o’tkazilmay goldi. 1896 yil qayta tiklandi.*

*Sportning globallashuvida bir qator xalqaro institutlar tashkilotlar muhim rol uynaydi.*

FIFA

OOO

UEFA

OFO

FMDE

va shu kabilar.

zo’ravonlik

individualizm

egosentrizm

**G’arbda  
“Qoidasiz jang”  
sport turi**

An’ana va qadriyatlarni inkor etadi

Xalqlar ma’naviyatiga bepisandlik va tahdiddir

boylik orttirishni targ’ib etadi

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Sportning ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy mohiyati nimada?
2. Professional sport deganda nimani tushunasiz?
3. Ommaviy sport, jismoniy mashqlarga nimalar kiradi?
4. Olimpiada o‘yinlari qanday paydo bo‘lgan?
5. Globallashuv va sport mavzusini qanday izohlaysiz, yoritasiz?

6. Nogironlar sportining globallashayotgani haqida nima deya olasiz?
7. O‘zbekistonni global sport olamiga tanitgan championlardan kimlarni bilasiz?

### **Referat mavzulari**

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash masalalari.
2. Sport madaniyati, umumiy madaniyatni tarkibiy qismi.
3. Sport globallashuvning salbiy tomonlari.
4. Sportning globallashuvida xalqaro institutlar va tashkilotlar.

### **Adabiyotlar:**

1. Раҳимжанова К.Т., Таронова А.В. Ҳаракат жон озифи. – Тошкент: Медицина, 1996.
2. Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari? – Toshkent.: Novro‘z, 2015.
3. Брегг П. Юрак. Умуртқа: мўжизасини асрнанг. Узок умр кўриш қоидалари. Чўлпон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017.
4. Зиновьев А.А. Глобальный человек. – Москва.: Эксмо, 2003 .
5. Востоков В. Шарқ давлатчиликларнинг сирлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
6. Спорт: Энциклопедия луғат. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
7. Абу Али ибн Сино. Мен англаган дунё. – Тошкент: Шарқ, 2015.
8. Зиямуҳамедов Б. Соғлом бола шахсиятини шакллантириш ҳақида. – Тошкент: Тафаккур: Tafakkur qanoti, 2014.

## **12-MAVZU: JAMIYATNING GLOBALLASHUVI**

### **REJA:**

1. Tashkillashgan jinoyatning global masshtablari.
2. Texnik modernizatsiyalashgan jinoyat: sputnik aloqa, internet, hozirgi zamon etnik vositalari, giyohvandlik moddalarini tarqatish va iste'mol qilishning globallashuvi.
3. Giyohvandlik moddalari yetishtiruvchi mamlakatlar, Rossiya, G'arbiy Yevropacha giyohvand moddalarni yetkazuvchi tranzit vositalari.

Tashkillashgan jinoyat deganda ma'lum bir shaxslar, guruhlar tomonidan maxsus uyushtiriladigan, boylik ortirish, beqaror vaziyatni yuzaga keltirish, g'ayriqonuniy tarzda boshqalar mulkini o'zlashtirish, o'z g'oyalalarini zo'r lab singdirish kabi inson huquq va erkinliklariga zid bo'lgan xatti-harakatlar tushuniladi. Keyingi yillarda bunday xatti-harakatlarning umumsayyoraviy miqyosda olib borish, uyushtirish yuzaga keldi. Transmilliy birlashmalar va aloqalarning ta'sirida jinoiy xatti-harakatlar lokal doiradan chiqib, mintaqaviy va global hodisaga aylandi. To'g'ri, bunga integratsiya sababchi emas, ammo integratsiya imkoniyatlaridan foydalanayotgan destruktiv kuchlar sababchidir. Ushbu destruktiv kuchlar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotiga juda katta darajada, global masshtabda xavf tug'dirmoqda. Ushbu xavflarni bartaraf qilishda "xalqaro hamkorlik" va "jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik"ni amalga oshirish nihoyatda ahamiyatlidir.

"Xalqaro hamkorlik" va "jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik" iboralari ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Hamkorlik tushunchasi birgalikda ish olib borish, jamoa ishida qatnashish degan ma'noni anglatadi. Xalqaro hamkorlik davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati va millatlar o'rtasidagi munosabatlarga tegishli umumiyl ishlardagi ishtiroki, jamoa hamkorligini uz ichiga oladi.

1945 yilgi BMT Nizomi, Davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli 1970 yilgi xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya, 1975 yilgi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Xelsinki yakunlovchi hujjatiga asosan, barcha davlatlar bir-birlari bilan hamkorlikni rivojlantirmog'i,

shuningdek, barcha davlatlar BMT Nizomining prinsiplari, boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar va majburiyatlarga binoan, turli sodalar bo‘yicha hamkorlik qilmog‘i lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, davlatlar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik, *bir tomonidan*, mustaqil faoliyatning bir turi sifatida ko‘rib chiqilmoqda va u o‘z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, insonparvarlik va boshka sohalar buyicha hamkorlikdagi ishni o‘z ichiga olmoqda, *ikkinchi tomonidan* esa, xalqaro huquqning umumiy prinsipi sifatida ishtirok etmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan maqsad – jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xorijiy davlatlarda to‘plangan boy tajribani o‘rgangan holda, O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning tizimi, faoliyati va huquqiy tartibga solinishini, moliyaviy-iqtisodiy jihatdan ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyatni amalga oshirishdan iborat.

Jinoyatchilikning sabablarini o‘rganish jinoyat huquqining predmeti hisoblanmaydi. Jinoyat huquqi faqat qilmishning jinoyat ekanligini aniqlasa, jinoyatchilikning sabablarini kriminologiya fani o‘rganadi. Shu sababli jinoyat huquqi kriminologiya fani bilan bog‘liq. Aynan kriminologiya fani jinoyatchilik va uning sabablari, jinoyatchilikning holati, darajasi, strukturasi, dinamikasini o‘rganadi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillika erishilgandan keyin qabul qilingan birinchi kodeksi Jinoyat kodeksidir. Jinoyat kodeksining 3-moddasi alohida diqqatga sazovor bo‘lib, ushbu moddada jinoyat qonunining prinsiplari belgilandi va 4-10 moddalarida esa, bu prinsiplarining mazmuni ochib berildi. Jinoyat Kodeksining 3-moddasida jinoyat qonunining asosiy prinsiplari ko‘rsatib berilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

- qonuniylik;
- fuqarolarning qonun oldidagi tengligi;
- demokratizm;
- insonparvarlik;
- odillik;

- ayb uchun javobgarlik;
- javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari nazarda tutildi. Oldingi jinoyat kodeksida jinoyat qonuning prinsiplari nazarda tutilmay, ular faqat jinoyat huquqi nazariyasidagina ishlab chiqilgan<sup>1</sup>. U yoki bu harakatni jinoyat deb atash uchun huquqshunoslarning asosiy prinsiplarini bilish zarur. Milliy qonunlar o‘rtasidagi farqlar ba’zan global jinoyatchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Bizning fikrimizcha, ushbu prinsiplarga quyidagilar kiradi:

*Qonuniylik prinsipi.* Sodir etilgan qilmishning jinoyatligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi. Jinoyat kodeksida jinoyatlarning qat’iy ro‘yxati berilgan. Jinoyat kodeksi Maxsus qismida jinoyat deb ko‘rsatilgan va jinoiy jazo belgilangan qilmishlargina jinoyat hisoblanadi. Faqat maxsus institutlar alohida jinoyatlarning tarkibini belgilaydi. Agar biror harakat uchun javobgarlik jinoyat kodeksida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, boshqa birorta normativ aktga, qonunga muvofiq sud shaxsni jinoyat sodir qilishda aybli deb topishi mumkin va unga nisbatan jazo tayinlaydi.

*Fuqarolarining qonun oldidagi tengligi prinsipi.* Jinoyat Qonuning bu prinsipi, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 18-moddasi qoidalariga asoslanadi. Jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega, barcha qonun oldida tengdir.

*Demokratizm prinsipi.* Ushbu prinsip jinoyat sodir qilgan shaxslarni axloq tuzatish ishida jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari yoki jamoalarning ishtirokini nazarda tutadi. O‘zbekistonda qabul qilingan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun shunday institutlarning sud-huquq ishlarida qatnashish imkonini beradi. Ayrim hollarda aynan mana shu institutlarning subyektlarning faoliyati huquq buzuvchilarni axloqan tuzatishga jiddiy ta’sir qilish mumkin.

---

<sup>1</sup> Жиноят хукуки (Умумий қисм). - Тошкент: Адолат, 1998.136.

*Insonparvarlik prinsipi.* Jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismonan azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida "Hech qachon hech kim qynoqqa solishi, zo'ravonlikka, shavqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas", deb qayd etilgan. Bundan tashqari, jinoyat huquqining insonparvarlik prinsipiga, eng avvalo, qonunga so'zsiz rioya qiladigan fuqarolar nuqtayi nazaridan, undan keyingina jazo qo'llangan shaxs nuqtayi nazaridan qaralishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sud-huquq tizimini isloh qilish, uni liberallashtirish va dekriminalizatsiyalash borasida keyingi uch yil ichida 20 dan ziyod farmonlari va qarorlari qabul qilindi. Prezidentimiz har yili, ayniqsa, xalqimiz nishonlaydigan Mustaqillik bayrami, konstitutsiya qabul qilingan kuni amnistiya va afv aktini qabul qilmoqda. Bu jazoni, aslida sud-huquq tizimi faoliyatini insonparvarlik prinsipiga qurilayotganiga ibratlari misoldir.

Jinoyat qonuniyati va insonparvarligi - jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektga og'ir zarar yetkazadigan jinoyatchilarga jinoyat qonuni normalarini tez, to'g'ri va adolatli qo'llash orqali jamiyat a'zolarining hayoti, turmushi, dam olishi, tinchligini to'la ravishda himoya qilishni ta'minlash, jamiyat a'zolarning asosiy ko'pchiligi manfaatlariga mos bo'lishidir. Insonparvarlik prinsipiga amal qilinishi jinoyat sodir qilgan shaxslarning axloqan tuzalishini, yangi jinoyat sodir etilishining oldini olishni nazarda tutadi.

*Odillik prinsipi.* Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi zarur. Bunda jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning ijtimoiy xavfining darajasiga e'tibor qilinadi.

*Ayb uchun javobgarlik prinsipi.* Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun eng, avvalo, uning aybi isbot qilingan, ya'ni jinoyat qasddan yoki ehtiyoitsizlikdan sodir etilganligi aniqlangan bo'lishi darkor. Ayb insonning shaxsi bilan bog'liq emas. Ayb u qanday ifodalanmasin, qonun bilan aniq belgilab qo'yilgan shaxsning o'z ijtimoiy xavfli qilmishiga qasd yoki ehtiyoitsizlik shaklidagi va uning xavfli oqibatiga nisbatan

bo‘lgan munosabatidir. Demak, shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishi uchungina javobgardir.

*Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi.* Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart. Shaxsning jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilinishi, agar bunga asoslar mavjud bo‘lsa, qonunda ko‘rsatilgan hollarda faqat sud tomonidan hal qilinadi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining barcha sohalarda yaqinlashuvi kuzatilayotgan davrda axborotning kirib kelishining kuchayishi, jinoyatlar sonini o‘sishiga ta’sir etmay qolmaydi. Bu esa, davlatimiz oldiga jinoyatchilikka qarshi kurashishida katta mas’uliyat yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasining uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uyushgan jinoyatchilik milliy chegaralardan chiqib, hozirda transmilliy jinoyatchilikka aylangan. Jinoiy guruhlar boshliqlarining katta miqdorda daromad keltiruvchi qonuniy iqtisodiyot tarmoqlariga, shuningdek, noqonuniy tadbirkorlik bilan shug’ullanish faoliyatida aniq tamoyillar aniqlandi. Shuning uchun ham unga qarshi samarali kurash olib borish uchun davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari o‘rtasida xalqaro hamkorlik olib borish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Keyingi yillarda jinoiy guruhlarning davlatlarning milliy qonunchiliklarida mavjud bulgan kichik bo‘shliqlardan foydalanish va hiyla ishlatish harakatlari keng tarqalgan, shu sababli ham barcha davlatlarning sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlariga boshqa davlatlardan huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimosnomalar kelib tushganda, ularga tezkorlik bilan javoblar qaytarish masalasi ko‘rib chiqilishi lozim. So‘nggi paytlarda alohida xavfni keng tarqalgan terrorizm, yollanish, giyohvandlik vositalari va qurol-yarog‘ni noqonuniy aylantirish bilan bog‘liq jinoyatlar tug‘dirmoqda.

Bugun xalqaro jinoyatlar texnikaviy qurollangan, sputnik aloqa, internet, etnik guruhlarni jalb etish va ularning kuchlaridan foydalanishga intiladi. Qurol savdosi bilan shug’ullanuvchi jinoyatchi guruhlar u yoki bu davlatlarga, ayniqsa, terrorist va

<sup>1</sup> Караңг: Ўша асап.14-16 б.

ekstremistlarga, “homiylid” qilishadi, milliy davlatlardagi osayishtalikni, tinchlikni buzib, mamlakat ichida nizolarni keltirib chiqarishadi. Quroq qarshi tomonga nisbatan ishlatish, ya’ni uni mahv etish, yo‘q qilish uchun sotib olinadi. Demak, g‘ayriqonuniy quroq savdosida inson hayotiga xavf solish maqsadi yotadi. Bu maqsadni oqlab bo‘lmaydi. Ba’zi qit’alar va davlatlarda yuzaga kelgan etnik diniy nizolar, fuqarolar urushi, separatizm ko‘pincha chetdan sotib olingan yoki keltirilgan quroq-aslahalar yordamida amalga oshirilgan. Sobiq SSSR hududi amalga oshirilgan. “To‘q sariq inqiloblar”da ham ana shunday qurollar ishlatilgan.

Xalqaro uyushgan jinoyatchilik giyohvandlik moddalarini tarqatish, sotish bilan ham bog‘liq. Bugun Afg‘oniston, Lotin Amerikasi giyohvandlik moddalarini yetishtirish va tarqatish o‘choqlari bo‘lib qolmoqda. Afg‘onistonda yetishtiriladigan giyohvandlik moddalari Tojikiston, Rossiya orqali Yevropaga tarqatiladi. 2006-yili Afg‘onistonda 6100 tonna, 2007-yili u 8000 tonnaga yetgan. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra Yevropada tarqatilayotgan giyohvandlik moddalarining Afg‘onistonda yetishtirilgan. 2008-yili Afg‘onistonda 157 ming hektar opium maydonlari buzib tashlangan. Bu umumi maydonning 22% xalos.

Rasmiy hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan giyohvand moddalar ishlab chiqish, tarqatish va sotishga qarshi choralar ko‘rilmoxda, albatta. Ammo bu choralar yetarli samara bermayapti. Afg‘onistondagi terrorchilarining asosiy daromadi giyohvand moddalar sotishdan 2008-yilda ular giyohvand moddalar sotishdan 470 million dollar doramad ko‘rishgan. Mamlakatdagi beqarorlik, xalqaro huquqiy normalarning buzilishi, terroristlarga qarshi kurashning samarali usuli yaratilmagani, kuchli davlat boshqaruvning yo‘qligi, korrupsiya, aholi asosiy qismining qashshoqligi, ishsizlik kabilar ijtimoiy taraqqiyotga xavf solmoqda. Aholining o‘sish darjasini yuqori. Bu bora Afg‘oniston dunyoda 5, bolalar o‘limi bo‘yicha 8, ko‘p bolalik borasida 4 o‘rinda turadi. 1000 chaqoloqdan 247 tasi vafot etadi. O‘rtacha umr 44,6 yosh, aholining ma’lumotlilik darjasini erkaklar o‘rtasida 43%, ayollar o‘rtasida esa 12% dir.

Mutaxassislar fikricha, “tarixiy taqdir va global manfaatlar to‘qnashuvi afg‘on xalqining keyingi salkam yarim asrlik taraqqiyotiga kuchli zarba berdi, butun mamlakatni inqirozga uchratib, jar yoqasiga olib keldi. Bu o‘lkada mavjud ijtimoiy omillar tanqisligi ichki majoralarning kuchayib ketishiga olib keldi va hatto, ular borgan sari chigallashib, yechimini topish qiyin global muammoga aylanib qoldi. Bunda, albatta, tashqi kuchlarining ham ta’siri bor.

Geosiyosi nuqtayi nazardan o‘ta muhim nuqtada joylashgan Afg‘oniston azaliy raqobatdagi Sharq-u G‘arb manfaatlar to‘qnashuvining asosiy nuqtasiga aylandi. Buyuk davlatchilik shovinizmi, suveren davlatlarning ichki ishlariga surbetlargacha aralashish singari turli siyosiy nayranglar va o‘yinlarning qurboni bo‘ldi. Ikkinchidan, mahalliychilik, millatchilik va boshqa illatlar. Afg‘on etnosining asosi hisoblangan tushunchalar mamlakat aholisining 40%, hazariylarda 9%, o‘zbeklar 9%, tojiklar 27% tashkil etadi. Yana bir qancha millat va elatlar ular bilan birga umrguzaronlik qilmoqda. Biroq umumiy manfaatlar atrofida birlashib, aqliy salohiyatni taraqqiyotga xizmat qildirish, tor mahalliychilik illatlariga barham berib, hissiyotlarni jilovlab aqlga suyanib yashash fazilati keyingi paytda ko‘zga tashlanmayapti. Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik singari umuminsoniy qadriyat o‘z mohiyatni yo‘qotgan”<sup>1</sup>. Jinoyatchilikning global hodisaga aylanib borayotganini odam savdosi ham tasdiqlaydi.

“Odam savdosi” tushunchasining qachon iste’molga kirgani, ilk bor u kim tomonidan qo‘llanilgani ma’lum emas, ammo u XX asrda, globallashuv jarayonlari bilan barcha yuzaga kelgan. Ammo odam savdosi deb atalmasa-da unga xos bo‘lgan belgilar Qadimgi davrlarda Misr, Yunoniston, Rim kabi davlatlarda mavjud bo‘lgan, hatto Afrika qit’asidan Yevropaga qul sotish qadimgi davrdan to XIX asrgacha mavjud edi. Yevropalik boy-badavlat kishilarda, zodagonlarda, qora negr qulni uyida ishlatish an’ana hisoblangan.

---

<sup>1</sup> Каранг: Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нуткини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола(Матн) – Тошкент: Маънавият, 2017.106-107б.

Odam savdosi, avvalo, arzon ishchi kuchini qo‘lga kiritish bilan bog‘liq hodisa. Mehnatning odilona baholanmasligi, ishchi resurslarining ko‘pligi, ishsizlar sonining oshib borishi, odam savdosini yuzaga keltirgan sabablardir. Qo‘lidan keladigan ishini qadrlamaslik, unga bo‘lgan ehtiyojning sustligi, ba’zi joylarda ish bilan bandlik muammolarini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarning ko‘rilmasligi natijasida kishilar o‘z kuchini sotib oluvchilarni qidirishga majbur bo‘ladilar. Avvalo, ishchi kuchini eksport qilish shaklida boshlangan odam savdosi endi ko‘proq ularning tanasini sotish, jismoniy imkoniyatlardan turli maqsadlar va ishlarda foydalanishga aylanib qoldi.

Shu tarzda seks-trafik, ya’ni fohishabozlik, shu maqsadda xotin-qizlarni boshqa yurtlarga sotish paydo bo‘ldi. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, odam savdosidan jabr ko‘radiganlar salkam 200 million kishiga yetgan. Har yili dunyoda 2,5-3 million kishi odam savdosi qurbaniga aylanmoqda. Har yili qarayib 1 millionga yaqin xotin-qizlar va bolalar aldov yo‘llari bilan chet ellarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda. 2008-yili Respublikamizda mingdan ortiq kishi odam savdosidan jabr tortgan. Ularning 35-40% ayollar, 10-15% bolalar tashkil etgan. Ular asosan Birlashgan Arab amirliklari, Rossiya, Qozog‘iston, Tailand, Turkiya, Hindiston, Isroil, Malayziya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Kosta Rikaga olib ketiladi. Bu savdodan, BMT ma’lumotlariga ko‘ra, jinoiy guruhlar yiliga, salkam 12 milliard dollar foyda ko‘rishadi. Bugun sobiq ittifoq hududidan har yili 180-200 ming xotin-qiz “ishlab kelish” bahonasida chet ellarga boradi. Sank-Petrburg (Rossiya)ning o‘zida turli respublikalardan kelgan 200 ming xotin-qiz tungi klublarda “xizmat qiladi”.

Seks-trafik XX asrning 70 yillarida Janubiy-Sharqiy Osiyolik (tailandlik va filippinlik) ayollarning Yevropa va AQSHga ommaviy ko‘chish bilan boshlangan. Keyin bu harakatga Gana, Nigeriya, Kolumbiya, Braziliya, Dominikan davlatlari xotin-qizlari qo‘shilishadi. SSSR tarqalgach, AQSH va Yevropa fohisha bozorlarini avvaliga Vengriya, CHexiya, Polsha, keyinroq Ukraina, Moldova, Rossiya, Belarusiya, Ruminiya, Gruziya va Bolgariya xotin-qizlari “zabt etishadi”. 1990

yillarning oxirlaridan boshlab bu harakatga Armaniston, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo xotin-qizlari ham qo'shilishadi<sup>1</sup>.

O'zbekiston 2008-yili "Odam savdosiga qarshi kurashishi to'g'risida" qonun qabul qilingan. Mazkur me'yoriy hujjatga muvofiq Respublikamizda odam savdosi taqiqlanadi, uni sodir etgan shaxslar jazoga tortiladi. Shunga qaramasdan, 2007-yilda odam savdosi bilan bog'liq 282 ta jinoyat aniqlangan bo'lsa, 2008-yili bu ko'rsatkich 891ga yetgan. Salkam mingga yaqin shaxslarga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan, 700 tasi jinoiy javobgarlikka tortilgan, ularning yarmidan ko'pini ayollar tashkil etgan<sup>2</sup>. Hayratli tomoni shundaki, odam savdosi bilan shug'ullanayotganlar ichida xotin-qizlar ko'p. Ular nolegal tarzda xotin-qizlarni boshqa davlatlarga chiqarib yuborishadi, u yoqdagi sheriklari esa migrantlarni "ish" bilan ta'minlaydi. Bunday xatti-harakat g'ayriqonuniy va g'ayriaxloqiy ekanini bilgan tashkilotchilar nolegal tarzda ish yuritadilar. Qonunni buzish ularga oson ko'rindi va shu tariqa moddiy boylik ortirishga intiladilar.

Nolegal migratsiya ham global voqelikka aylanib qolgan. Yevropaga har yili o'rta hisobda 4 milliondan ziyod osiyolik va afrikaliklar, AQSHga 1,5 millionga yaqin Lotin Amerikaliklar nolegal tarzda ishlab kelishga yoki shu yerlarda yashashga boradi. Nolegal migratsiyadan bugun AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya qutilish yo'llarini izlashmoqda, ammo uning samarali usuli topilmadi. Jahonda madaniy boyliklarga ega bo'lishga qiziqish keyingi ikki asrda keskin oshgani kuzatiladi. Antikvar artefaktlarni, badiiy asarlarni sotib olishga mukkasidan ketgan milliarderlar bu boradagi jinoyatchi guruahlarni qo'llab-quvvatlamoqda.

Milliy madaniy merosga aylangan antikvar asarlar san'at bozorida katta pul turadi, ularni noqonuniy tarzda sotish mumkin emas. Har bir davlat ularni maxsus qonunlar bilan to'playdi, asraydi, meros qilib qoldiradi. Respublikamiz muzeylarida beباو badiiy asarlar saqlanadi. Ularni tomosha qilish har bir kishining huquqi. Jinoyatchilarning globallashuvini yuzaga keltirayotgan bosh sabab oson yo'l bilan

<sup>1</sup> Каранг: Кувондиқов И. Миллий-маънавий қадриятлар – ўзликни англаш омили. –Тошкент: Nishon-noshir, 2010.58.

<sup>2</sup> Ўша асар, 60 б.

katta doramad topish. Xufiyona iqtisodiyotga qurilgan jinoiy guruhlarni goho transmilliy birlashmalarni ham qo'llab-quvvatlaydi. Xufiyona, ya'ni g'ayriqonuniy, yashirin faoliyat yuritish, guruhlar uyushtirish, savdo-sotiq bilan shug'ullanish davlat soliqlarini chetlab o'tishga, bojxona taqiqlarini mensimasllikka imkon beradi. Bunday guruhlarda davlat boshqaruvi xodimlari, nazorat va huquq idoralari rahbarlari qatnashishi odatiy holga aylanmoqda. Keyingi yillarda Respublikamizda korrupsiyaga qarshi keskin chora-tadbirlar ko'rilmoxda, ular sud oldida javob berishga majbur. Shunday bo'lsa-da, tamagirlik, korrupsiya, jinoiy guruhlarga qo'shilib, xufiyona boylik orttirishga intilish tugatilganicha yo'q. Xitoyda poraxo'rlikka, korrupsiyaga qarshi keskin choralar ko'rildi, hatto o'lim jazosi qo'llaniladi. Shunday bo'lsa-da, korrupsiya tugatilgan emas.

Jinoyat globallashuviga qarshi kurashishning asosiy vositasi – qonun. Qonunga itoatkorlikni shakllantirmay hech qanday jinoyatchilikni tugatib bo'lmaydi. Hatto o'lim jazosi ham Xitoyda korrupsiyani, uyushgan jinoyatchilikni tugata olmayapti.

Xalqaro huquqlarni davr talablariga muvofiq boyitish, ularni milliy huquq tizimlariga implementasiya qilish dolzarb masaladir. Globallashayotgan jinoyat turlari milliy sud-huquq tizimlarini hamkorlik qilishga, bir-biriga yordam berishga, interpolni faollashtirishga undaydi. Bu borada inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi imkoniyatlaridan keng foydalanish tartibini qo'llab-quvvatlash ayni muddao bo'lardi.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash ham ana shu vositalar qatoriga kiradi. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi (Samarqand 2018-yil noyabr)ni uyushtirib, bu borada izchil sud-huquq tizimini islohot qilayotganini tasdiqladi. Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev Forum ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida inson huquqlarini ta'minlash global voqelik ekanini, aynan ularga rioya etmaslik turli nizolar va fojialar keltirib chiqayotganini, barcha jinoyatchilarni, g'ayriqonuniy holatlarning oldini olish inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liqligini ta'kidladi.

Prezidentimiz fikriga ko'ra, "jahonda, jumladan, Janubiy Sharqiy Osiyodan tortib Yaqin Sharqqacha bo'lgan makonda qurolli to'qnashuvlar kuchayib, o'zaro ishonchsizlik va nizolar, millatlar va konfessiyalararo ixtiloslar chuqurlashib

borayotgani, barqaror taraqqiyotga qarshi boshqa global tahdid va xatarlar haqida so‘z bormoqda. Ilojsiz holda o‘z yurtini tashlab ketayotgan kishilar va qochqinlar soni tobora ortib borayotgani, ta’lim va tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati yo‘qligi, odam savdosi va majburiy mehnat, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minalash, qashshoqlik va ochlikka barham berish zaruriyati bilan bog‘liq muammolar murakkablashib borayotganiga biz chetdan tomoshabin bo‘lib qarab turolmaymiz.

Shu ma’noda, bizning qat’iy ishonchimizga ko‘ra, jami 4,5 millarddan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Osiyo mintaqasining kelajagi ko‘p jihatdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilga qadar barqaror taraqqiyot sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga tayyor bo‘lishga, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha samarali mintaqaviy mexanizmini shakllantirishga bog‘liq<sup>1</sup>. Prezidentimizning bu so‘zlari nafaqat globallashayotgan dunyo duch kelayotgan muammolarni ko‘rsatadi, xuddi shuningdek, ularni inson huquqlarini ta’minalash va bu borada samarali mintaqaviy mexanizmlarni yaratish orqali hal etish mumkinligi ham ta’kidlaydi.

### Tajribaviy amaliy matnlar

Globallashuv, global jinoyat, qurol savdosi, odam savdosi, giyohvandik, zo‘ravonlik, xotin-qizlar savdosi, jinoiy guruh, huquq, teng huquqlik, mintaqaviy muammo, xalqaro huquq.

### Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:

*Tashkillashgan jinoyat deganda ma’lum bir shaxslar, guruhlar tomonidan maxsus uyushtiriladigan, boylik ortirish, beqaror vaziyatni yuzaga keltirish, g‘ayriqonuniy tarzda boshqalar mulkini o‘zlashtirish, o‘z g‘oyalalarini zo‘rlab singdirish kabi inson huquq va erkinliklariga zid bo‘lgan xatti-harakatlar tushiniladi.*

**Jinoyat  
qonuniyati va  
insonparvarligi**

*jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ob‘ektga og‘ir zarar yetkazadigan jinoyatchilarga jinoyat qonuni normalarini tez, to‘g‘ri va adolatli qo‘llash orqali jamiyat a‘zolarining hayoti, turmushi, dam olishi, tinchligini to‘la ravishda himoya qilishni ta’minalash, jamiyat a‘zolarning asosiy ko‘pchiligiga nisbatan ularning manfatlariga mos bo‘lishidir.*

<sup>1</sup> Инсон хукуклари бўйича Осиё форуми иштирокчилари // Халқ сўзи, 2018, 23 ноябрь

***U yoki bu harakatni jinoyat deb atash uchun huquqshunoslarning asosiy printsplarini bilish zarur. Ushbu printsplarga quyidagilar kiradi:***

- **Qonunning printsibi** Sodir etilgan qilmishning jinoyatligi, jazoga sazovorligi va boshqa xuquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi. Jinoyat kodeksida jinoyatlarning q'a'tiy ro'yxati berilgan. Jinoyat kodeksi Maxsus qismida jinoyat deb ko'rsatilgan va jinoiy jazo belgilangan qilmishlargina jinoyat hisoblanadi.
- **Fuqarlari ning qonun oldidagi tengligi printsibi** Jinoyat Qonunning bu printsibi O'zbekiston Respublikasi konstituttsiyasining 18-moddasi qoidalariga asoslanadi. Jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega, barcha qonun oldida tengdir.
- **Demokratizm printsibi** Jinoyat Qonunning bu printsibi O'zbekiston Respublikasi konstituttsiyasining 18-moddasi qoidalariga asoslanadi. Jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega, barcha qonun oldida tengdir.
- **Insonparvarlik printsibi** Jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarji jismonan azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasining 26 moddasida "Hech qachon hech kim qynoqqa solishi, zo'rovonlikka, shavqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas", deb qayd etilgan.
- **Odillik printsibi** Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi zarur. Bunda jinoyatning og'ir-engiligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavfining darajasiga e'tibor qilinadi.
- **Ayb uchun javobgarlik printsibi** Ayb u qanday ifodalanmasin, qonun bilan aniq belgilab quylgan shaxsning o'z ijtimoiy xavfli qilmishiga qasd yoki ehtiyojsizlik shaklidagi va uning xavfli oqibatiga nisbatan bo'lgan munosabatidir.
- **Javobgarlik ning muqarrarligi printsibi** Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart. Shaxsning jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilinishi, agar bunga asoslar mavjud bo'lsa, qonunda ko'rsatilgan hollarda faqat sud tomonidan hal qilinadi.

Afg'onistonda yetishtiriladigan giyohvandlik moddalari Tojikiston, Rossiya orqali Yevropaga tarqatiladi

2006 yili Afg'onistonda 6100 tonna

2007 yili u 8000 tonnaga etgan

**2008 yili Afg'onistonda 157 ming hektar opium maydonlari buzib tashlangan. Bu umumiy maydonning 22% xalos.**

**Afg'onistondagi terrorchilarining asosiy daromadi giyohvand moddalar sotishdan 2008 yilda ular 470 million dollar doramad ko'rishgan.**

#### AFG'ONISTON

aholining o'sish darajasi bo'yicha dunyoda 5 o'rinda

bolalar o'limi bo'yicha dunyoda 5 o'rinda

ko'pbolalik borasida 4 o'rinda

1000 chaqoloidan 247 tasi vafot etadi

O'rtacha umr 44,6 yosh, aholining ma'lumotlilik darajasi erkaklar o'rtaida 43%, ayollar o'rtaida esa 12% dir.

**2008 yili Respublikamizda mingdan ortiq kishi odam savdosidan jabr tortgan. Ularning 35-40% ayollar, 10-15% bolalar tashkil etgan. Ular asosan quyidagi davlatga olib ketiladi.**

Kosta Rika

Rossiya

Qozog'iston

Tailand

Turkiya

Isroil

Hindiston

Malayziya

Janubiy Koreya

Birlashgan Arab amirliklari

Yaponiya

**Bu savdodan, BMT ma'lumotlariga ko'ra, jinoiy guruhlar yiliga, salkam 12 milliard dollar foyda ko'rishadi.**

**Jinoyat globallashuviga qarshi kurashishning asosiy vositasi - qonun.** Qonunga itoatkorlikni shakllantirmay hech qanday jinoyatchilikni tugatib bo'lmaydi. Hatto o'lim jazosi ham Xitoyda korrupsiyani, uyushgan jinoyatchilikni tugata olmayapti.

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Tashkillashgan jinoyat nima?
2. Globallashayotgan jinoyatchilik deganda nimani tushunasiz?
3. Giyohvandlikning global hodisaga, jinoyatga aylanayotgani haqida nimalar bilasiz?
4. Qurol savdosining salbiy jihatlari va oqibatlari haqida gapirib bering?
5. Odam savdosining global jinoyatchilikka qanday aloqasi bor?
6. Globallashayotgan jinoyatlarni qanday tasavvur etasiz?
7. Global jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali vositalariga nimalar kiradi?

### **Referat mavzulari**

1. Transmilliy birlashmalar ta'sirida jinoiy xatti-harakatlarning globallashuvi.
2. O'zbekistonda fuqarlarining qonun oldidagi tengligi.
3. Xalqaro uyushgan jinoyatchilikning dunyo hamjamiyatiga ta'siri.
4. Jinoyatchilikning global hodisaga aylanib borishi.
5. O'zbekistonda va jahonda: "Odam savdosiga qarshi kurash".
6. Nolegal migratsiya va uning oqibatlari.

### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Инсон хукуқлари бўйича Осиё форуми иштирокчиларига // Халқ сўзи, 2018, 23 ноябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола(Матн).-Тошкент: Маънавият, 2017.
3. Қувондиқов И. Миллий-маънавий қадриятлар – ўзликни англаш омили. -Тошкент: Nishon-noshir, 2010.
4. Инсон хукуқлари бўйича Осиё форуми иштирокчиларига // Халқ сўзи, 2018, 23 ноябрь.
5. Жиноят хукуки (Умумий қисм).-Тошкент: Адолат, 1998.
6. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари.-Тошкент: Маънавият, 2008.

7. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современное мире. Под ред. П. Бергера. С. Хантингтона.-Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.
8. Сорос Дж. О глобализации. – М.: «ЭКСМО», 2004.

## **13-MAVZU: GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA MILLAT VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MASALALARI**

### **REJA:**

1. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari.

2. Globallashuvning millat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari.

3. Demografik globallashuv, ma’naviyat va qadriyatlar.

4. Ommaviy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash.

5. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyati integratsiyasi davrida milliy o‘zlikni anglash masalalari.

Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari kun tartibining asosiy masalalari qatoriga ko‘tarildi. Agar globallashuv transmilliy voqelik ifodasi bo‘lsa, milliy va milliy o‘zlikni anglash ushbu voqelikning boshlang‘ich pog‘onasi hisoblanadi. Milliy voqelikni bilmay globallashuvdagi umuminsoniylikni anglash qiyin. Mabodo global voqelikni butun tarzida qarasak, milliy masalalar uning qismidir. Bu o‘rinda butun va qism, umum va xusus paydo bo‘ladi. Ijtimoiy-falsafiy yondashish esa ularni uyg‘un tarzda o‘rganishni talab qiladi.

Globallashuv XX asr mahsuli, millat, milliylik hamda milliy o‘zlikni anglash undan qadimiy voqelik. Hatto millat yuzaga kelmagan paytda ham millatga, etnosga oid qarashlar, tarixiy-madaniy tajribalar bo‘lgan. Shuning uchun ham K.Shoniyazov, o‘zbek xalqi genezisini qabila, elat va millat tarzida qarashni taklif etadi. U milliy davlatning shakllanish bosqichini (XIX asr) o‘zbek millati va milliy o‘zlikni anglashning asosi sifatida qarashga moyil<sup>1</sup>. Biz bu fikr bilan bahslashishdan yiroqmiz, tarixchi olimlarimiz shunday xulosaga kelgan, tarixiy, etnografik, arxeologik, etnomadaniy manbalar, topilmalar uni shu fikrga olib kelgan bo‘lishi mumkin.

Biroq, gap shundaki, mazkur qabila, elat bo‘lib yashagan paytdagi o‘zlikni anglashda milliy xususiyatlar qanday bo‘lgan ekan? Bu savolni qo‘ygan zahoti tarixiy-psixologik tadqiqotlarga ehtiyoj seziladi. Ammo ushbu mavzuda izlanishlar qilgan tadqiqotchilar bizda deyarli uchramaydi, biroq adabiyotlarda ularga taalluqli

<sup>1</sup> Карапг: Шониязов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. 88-89 б.

fikrlar uchraydi. Masalan, M.Imomnazarov va M.Eshmuhamedova “Milliy ma’naviyatimiz asoslari” kitobida bu borada ancha fikrlarni bildirganlar. Ular yozadi: “Turon o’lkasida asotir tafakkurning mutloq hukmronligi aslida qay davrgacha bo‘lganligini hozir aytish qiyin, ammo milodiy era boshlanishidan ancha ilgariyoq bu o‘lka xalqlari tafakkurida yangilanish boshlangan edi. Iskandar Maqduniy davridan Sharq va G‘arb madaniyatlarini uyg‘unligini yorqin timsoli ellinizm yo‘nalishi shakllangan bo‘lsa, keyinroq Mazdayansa e’tiqodini qayta isloh qilish orqali ma’naviylik bid’ati vujudga keldi. Kushonlar davrida Hindistondan Buddha ta’limoti tarqalib, Vizantiyadan nasroniylar ko‘chib kela boshladilar. Sibir va Mo’g’uliston turkiy xalqlari ko‘k tangri e’tiqodini takomillashtirib bordilar.

O‘lkamizda milliy birlik tamoyili kuchayib borishi e’tiqodlar xilma-xilligi bilan bir paytga to‘g‘ri keldi. Bunday murakkab ma’naviy vaziyatning ham ijobi, ham ma’lum darajada salbiy oqibatlari o‘zini ko‘rsatmoqda edi. Ijobiyligi shunda ediki, ajdodlarimiz ongidan asotir tafakkur unsurlari asta-sekin siqib chiqarilib, milliy tafakkur yetakchi mavqega ko‘tarilib bordi. Salbiy jihat shunda ediki, e’tiqodda sobitlik, dunyoni idrok etishda yaxlit tasavvurlar tizimi yo‘q edi. Eski asotir tafakkurning inson ongidagi mutloq hukmronligi boy berilgach, faqat milliy birlik, yagona davlatchilikka intilishigina ma’naviyatdagи umumiylilikni ma’lum darajada saqlab turar edi. Tan olish kerakki, bunday bo‘hron, nafaqat bizning mintaqaga xos bo‘lib qolmay, balki butun ahli bashar qarshisida ulug‘ bir ma’naviyatning yangilanishi ehtiyoji bunyodga kelgandi<sup>1</sup>. Aslida bu yangilanish ehtiyoji milliy o‘zlikni anglash, milliy ruhni uyg‘onishi in’ikosi edi. Mualliflar e’tiqodga e’tibor bergenlarida ana shu milliy ruh uyg‘onishga oid mavzuni tilga oladilar.

Haqiqatan ham milliy o‘zlikni anglashda din, e’tiqod muhim ijobi rol o‘ynagan. Hatto aytish mumkinki, din, e’tiqod milliy ruhni, milliy o‘zlikni anglashni keltirib chiqardi. Bu avvalgi qabila, elat, xalq ruhi edi, ma’lum etnik birliklar ta’sirida, ular milliy o‘zlikni anglashga oid sensitiv kechinmalar, tuyg’ular darajasiga ko‘tarilgan.

<sup>1</sup> Караг‘: Имомназаров М., Эшмухамедова М. – Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. 127-128 бет.

Dinning, e'tiqodning konsolidatsiya funksiyasi etnik ruhiy, milliy o'zlikni anglash ehtiyojini uyg'otgan. Bu substantsional asos, transsidental omil milliy davlatdan avvaldir.

Ilmiy adabiyotlarda millat va milliy o'zlikni anglashni milliy davlat bilan bog'lashadi, milliy davlat yuzaga kelgach, millat va milliy o'zlikni anglashni milliy davlat bilan bog'lanadi, milliy davlat yuzaga kelgach, millat va milliy o'zlikni anglash shakllangan, degan xulosa ilgari suriladi. Bu xulosa, fikr bilan metafizik mavzu sifatida, bahslashish, hatto uni inkor qilishi mumkin. Masalan, Amir Temur yoki Xorazmshohlar davlatidan oldin milliy o'zlikni anglash, milliy tuyg'u bo'lмаганми? Agar ularni inkor qilsak, mazkur davlatlarni yirik siyosiy institutlarga aylantirgan kuch nima? Davlat bo'lishi uchun kishilar, elatlar, qabilalar nimanidir, asosida birlashishi kerak edi-ki, xullas, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi genezisini milliy davlat shakllanishi bilan chegaralab qo'yish mantiqqa, etnologiyaga zid hisoblanadi.

Globallashuv mana shu fundamental savolga javob izlashga undamoqda. Endi biz tor qabila-elat-millat tizimini kegaytirish bosqichida turibmiz, bu tizim milliylik, milliy o'ziga xoslik, etnopsixologik tadqiqotlarga muhtojdir. Globallashuv davrida millat qanday jihatlari bilan diqqatni tortadi? Ushbu savolga javob berishni S.Otamurodov millatga ta'rif berishda ko'radi. U yozadi: "millat deganda, kishilarning yagona til, milliy o'zlikni anglash ruhiyati, ma'naviyat (keng ma'noda), urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, yagonaligi asosida ma'lum hududda yashovchi o'z davlatiga ega bo'lgan, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi hamda yaratuvchi kishilarning etnik birligi tushuniladi". Tadqiqotchi bu ta'rifda uchta ilmiy yangilik borligini uqtiradi. Ular:

- a) milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi ekanligi;
- b) "millat"ning mustaqil subyekt sifatida mavjudligida uning ma'lum davlatga egaligi;

v) inson (kishilar) “millat”ni ifodalovchi ekanligi kabilardir. Bu yerda yana bir asosiy farq millatga ta’rif berishda moddiy narsalarga emas, balki ma’naviy o‘ziga xoslikka ustuvorlik berishda o‘z ifodasini topgan”<sup>1</sup>. Bu o‘ziga xosliklar V.Yakubovskiy, K.SHoniyazov, A.Asqarov va etnologiyaga oid adabiyotlarga yetarlicha asoslangan, ochib berilgan. Muallifning demoqchi bo‘layotgan yangiligi, agar uni ilmiy deyish joiz bo‘lsa globallashuv muammolarini millat, milliy-ma’naviy xavfsizlik bilan bog‘lab o‘rganilishidadir. Xo‘s sh globallashuv jarayonlarida millat nima ekan?

Globallashuv, sivilizatsiya, fan va texnologiya, ma’naviyat to‘g‘risida ko‘plab (aslida ular tавtologik xususiyatga ega) fikrlar bildiriladi, ammo millat qani? Globallashuv jarayonlari millatlar sonini ko‘paytiryaptimi yoki kamaytiryaptimi? U qaysi millatni tarix sahnasidan tushirib yubordi yoki yangi millatni yaratdi? Millat ma’naviyatidagi inqirozlar faqat globallashuv, transmilliy korporatsiyalar, bozor iqtisodiyoti yoki “ommaviy ma’naviyat” ta’siri mahsulimi? Bularga javob yo‘q. Ijtimoiy borliqdagi o‘zgarishlarni faqat globallashuv bilan bog‘lash o‘rinli emas. Millat ruhida va hayotida kechayotgan o‘zgarishlarni o‘rganish uchun tarixiy psixologik izlanishlar zarur. Umumiy mavzudan uzoq, havoyi gaplar bilan globallashuvni qoralab ham, maqtab ham bo‘lmaydi. Millat nima? Uning milliy o‘zligi nima? “O‘zlikni anglash” xalq ruhi, hayot va mentalitetida kechayotgan o‘zgarishlarni yetarli ifoda etadigan tushunchami? Mazkur savollarga avvalo ijtimoiy falsafa javob izlashi darkor.

Professor, siyosatshunoslik fanlari doktori, V.Qo‘chqarov fikricha, “milliy o‘zlikni anglash etnogenez bilan chambarchas bog‘liqdir. Ya’ni etnogenezni bilmasdan turib, milliy o‘zlikni anglashning xususiyatlarini idrok etib bo‘lmaydi. Chunki ko‘pgina ilmiy konseptual qarashlarda milliylik, o‘zlikni anglash to‘g‘risidagi tushunchalar ma’lum bir xalq, millat yoki elatning kelib chiqish tarixi, urf-odati va madaniyatining yorqin aks etishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ushbu dialektik

---

<sup>1</sup> Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Тошкент.: Ўзбекистон НМИУ0, 2013.-756..

bog‘liqlikni alohida ko‘rib chiqish, tadqiq etish zarur”<sup>1</sup>. Ilmiy metodologik nuqtayi nazardan to‘g‘ri esalatma. Ammo uni globallashuv jarayonlari bilan bog‘lash murakkab, etnogenez xalqning, etnosning kelib chiqish tarixini anglashga yordam beradi. Bu tarixiy, retrospektiv mavzu, globallashuv esa bugunning mavzusi. Shuning uchun bizning diqqatimiz etnogenez va tarixiy bosqichlarda xalq, etnos hayotida, ruhida bo‘lgan o‘zgarishlarga emas, balki globallashuv va millat taqdiriga qaratilishi darkor.

*Globallashuvning o‘zbek millat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari quyidagi yondashuvlar va omillarda aks etadi:*

- o‘zbek xalqi, O‘zbekiston tobora xalqaro munosabatlarning faol subyektiga aylanib bormoqda (siyosiy yondashuv);
- jahon iqtisodiy hayotida savdo-sotiqlar, integratsiya, migratsiya sohalaridagi umumsayyoraviy jarayonlar o‘zbek xalqini, O‘zbekistonni boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan kamroq qamrab olganida (iqtisodiy omil);
- ilmiy-texnik taraqqiyotga, ilm-fan, ta’lim, kadrlar tayyorlash, global madaniyatga tayanish xalqimiz, millatimiz uchun obyektiv zaruriyatga aylanib qolganida (madaniy yondashuv);
- umuminsoniy qadriyatlar, sotsial normalari, transmilliy aloqalar ustuvorlik va yetakchilik qilib, o‘zbek xalqi ruhida, hayotida o‘zgarishlar yasayotganida (aksiologik omil);
- global dunyoning global ochiq fuqarolik jamiyati, demokratik davlat qurishga intilayotganini e’tirof etilib, o‘zbek xalqining mutloq yangi ijtimoiy borliqda yashashga tayyorgarlik ko‘rayotganida (etnopsixologik yondashuv).

Mazkur yondashuv va omillar o‘zbek xalqi, millati ruhida, hayotida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘layotganini ko‘rish, ilg‘ash qiyin emas. Yuqoridagi yondashuvlar va omillarga xalqimiz, millatimiz hayoti, izlanishlari, orzu-umidlaridan misollar keltiramiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi va uning tashabbusi bilan mazkur

---

<sup>1</sup> Кўчкаров В. Миллий ўзликни англаш ва ижтимоий-сиёсий жараёнлар.-Тошкент: Akademiya, 2007.-166.

nufuzli xalqaro tashkilot tomonidan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” va yoshlar huquqiga oid maxsus rezolyutsiyaning qabul qilinishi O‘zbekistoni xalqaro munosabatlardagi faolligi ifodasir. Shuningdek, Respublikamizning Markaziy Osiyoda tinchlikni asrash va yadro qurolosiz makon sifatida e’tibor etilishiga erishish, Afg‘onistonidagi mojarolarni to‘xtatishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlari, SHanxay hamkorligini faollashtirish, Yevroсиyo iqtisodiy hamkorligiga kirishi, Qирг‘изистон, Tojikiston bilan deyarli o‘ttiz yildan beri davom etib kelayotgan chegaralar atrofidagi ziddiyatlarning yechimini topishini global jarayonlar sintezi orqali o‘рганиш mumkin.

SH.M.Mirziyoyevning xalqaro mavqeyi, obro‘sı O‘zbekistonni global munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylantirilmoqda. Mazkur muammolar nafaqat lokal, mintaqaviy, shuningdek global ahamiyatga ega bo‘lib, buni chet davlatlar ekspertlari yakdillik bilan ta’kidlamoqda. Masalan, “The Tation” (AQSH) va “Washington texnology” jurnallari prezidentimiz AQSHga borib, D.Tramp bilan o‘tkazgan uchrashuvidan olgan taassurotini quyidagicha yozadilar: “2018 yilning may oyida Shavkat Mirziyoyev AQSHga rasmiy tashrif buyurib, prezident Donald Tramp bilan uchrashdi. Amerika rahbariyati O‘zbekiston yetakchisining sa’y-harakatlarini yuqori baholab, ichki va tashqi siyosatdagi o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashni bildirdi. Iqtisodiy sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida urg‘u berildi. Jumladan, “Boeing”, “General Electrix”, “Honeywell”, “Caterpillar” kabi dunyo sanoati gigantlari o‘zbek iqtisodiyotiga kirib kelmoqda.

O‘zbekiston rahbarining jadal diplomatik muloqotlari natijasida AQSH tez sur’atda respublikaning yirik investoriga aylanib borayotir. The “Janrestown Foudation” tahlili markazi esa e’tirof etadi: “O‘zbekiston prezidenti SHavkat Mirziyoyev beqiyos yetakchi sifatida nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda katta obro‘-e’tibor qozondi. Qisqa muddat ichida u AQSH, Xitoy, Fransiya, Hindiston kabi davlatlarga tashrif buyurib, barchani tashabbuskorligi bilan hayratda qoldirdi. Natijada O‘zbekistonni bugun Vashinton ham, Pekin ham, Parij ham, Nyu Dehli ham

to‘la qo‘llab-quvvatlamоqда. Xitoyda 20, Fransiyada 5, AQSHda 4,8 milliard dollarlik shartnomalar imzolab, respublika ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi”<sup>1</sup>.

Global migratsiya jarayonlari O‘zbekistonni chetlab o‘tayotgani yo‘q. Ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, o‘z navbatida, mehnat resurslarining harakatchanligini oshirmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan har yili 2 milliondan ziyod kishi boshqa davlatlarda ishlab kelishga ketmoqda. Agar norasmiy ketishlarni ham qo‘shsak, bu ko‘rsatgich 2-3 martaga oshadi. O‘zbekistonliklar asosan Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, AQSH, Xitoy, Germaniya, Turkiya kabi davatlarda ishlashni ma’qul ko‘rishadi. Bugun “o‘zbek mahalla”lari yetakchi davlatlarning barchasida bor. O‘zbekiston mehnat migratsiyasida keng ishtirok etayotgan davlatlardan biriga aylanib bormoqda.

Mazkur iqtisodiy omil O‘zbekistonga yangi mahsulotlar, texnika vositalari, intellektual ishlanmalar olib kirish imkonini bermoqda. Birgina Xitoydan O‘zbekistonga yiliga 20 milliard AQSH dollarida mahsulotlar, texnologik uskunalar kirib keladi. Respublikamizda barpo etilayotgan siti-shaharlarda dunyodagi eng yirik 130 ta kompaniyalar ishtirok etmoqda. Bu sa’y-harakatlar O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlab, yurtimiz qiyofasini mutloq o‘zgartirib yuboradi. Mana, global iqtisodiy hamkorlik natijasi!

“Global madaniyat” atamasida salbiy ma’nодаги “ommaviy madaniyat”га mushtaraklik bordek ko‘rinadi. Aslida madaniyat doimo umuminsoniylikka intilib kelgan. Umuminsoniy madaniyat inson faoliyati mahsuli bo‘lgan boyliklarga, artefaktlarga umrboqiylik, azaliylik baxsh etgan, uni avlodlardan-avlodlarga yetkazgan. Globallashuv madaniyatga ta’sir etishi tufayli umumsayyoraviy fenomendir. Hech bir soha, qadriyat tafakkur yo‘q-ku, umuminsoniy bo‘lishni mo‘ljallangan. Lokal, milliy madaniyatlar umuminsoniylikka intilib, global madaniyat qo‘ynidan joy olmoqda. Jahon ta’lim tizimi talablariga muvofiq keladigan universitet va akademiya tizimi joriy etildi. Bu chet ellik olimlar, professorlarni

<sup>1</sup> Халқ сўзи, 2018, 25 октябрь.

O‘zbekistonga jalb etish imkonini bermoqda. Markazdan uzoqdagi viloyatlar va shaharlarda chet el universitetlarining filiallarini tashkil etilayotgani ibratli.

Prezidentimiz islohotlarni keng ko‘lamda, barcha viloyatlar, qishloq va shaharlarda amalga oshirilishiga bosh-qosh bo‘lmoqda. Faqat poytaxt ilmiy, texnikaviy va madaniy taraqqiyotda ibrat, o‘rnak bo‘lib qolmasligi, balki butun yurt, zamin, fuqaro islohotlar ishtirokchisi, tashabbuskori, faoli bo‘lishi lozim. Globallashayotgan dunyo bizni chetlab o‘tmaydi, bu haq gap, ammo biz undagi ijobiy jihatlarni o‘zimiz izlab topishimiz, yurtimizga olib kelishimiz, global dunyo faktorlaridan biriga, faoliga aylanishimiz lozim.

Sh.M.Mirziyoyev nazarda tutayotgan O‘zbekistonni 2030-yilga borib 50 ta ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqishga qaratilgan konsepsiysi bizni globallashuvni quvib o‘tishga emas, balki uni ijobiy fenomen sifatida milliy zaminimizga, milliy madaniyatimiz va milliy tafakkurimizga olib kelishga undaydi. Global madaniyat – bizning taqdirimiz, kelajagimiz. Ushbu taqdirga, keljakka qanday milliy ruh, milliy qalb va milliy o‘zlik bilan boramiz, bu mutloq bizga bog‘liqdir.

Globallashuvdagi salbiy jihatlar, ayniqsa pornografiya, zo‘ravonlik, pulga o‘chlik, destruktiv kuchlarning undan foydalanayotgani nafaqat bizni, xuddi shuningdek, barcha insonparvar va taraqqiyparvar kishilarni tashvishga solmoqda. Kishilik jamiyati, u yaratgan sivilizatsiya, axloq, madaniyat va qadriyatlarga xavf tug‘ilayotganini inkor qilib bo‘lmaydi. Sharq falsafasiga ko‘ra, kishining bir yelkasida shayton(buzg‘unchi kuch) o‘tiradi. Ushbu destruktiv kuch globallashuvni o‘zining badniyatlari tomon burib yuborishi mumkin. Shunday ekan ijobiy globallashuvni qo‘llab-quvvatlovchi kuchlar, ayniqsa jaholatga qarshi ma’rifatni qo‘llovchi aql egalari birlashishi davr talabidir.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Globallashuv jarayonlari, millat, milliy o‘zlikni anglash, globallashuv, transmilliy masalalar, voqelik, milliy voqelik, umuminsoniylik, global voqelikni, etnosga, milliy tafakkur, til, ma’naviyat, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, global madaniyat, fuqarolik jamiyati, demokratik davlat.

## Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar:

*Professor, siyosatshunoslik fanlari doktori, V.Qo'chqarov fikricha, "Milliy o'zlikni anglash etnogenez bilan chambarchas bog'liqdir. Ya'ni etnogenezni bilmasdan turib, milliy o'zlikni anglashning xususiyatlarni idrok etib bo'lmaydi. Chunki ko'pgina ilmiy konseptual qarashlarda milliylik, o'zlikni anglash to'g'risidagi tushunchalar ma'lum bir xalq, millat yoki elatning kelib chiqish tarixi, urf-odati va madaniyatining yorqin aks etishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ushbu dialektik bog'liqlikni alohida ko'rib chiqish, tadqiq etish zarur".*

### **Ushbu ta'rifda uchta ilmiy yangilik mavjud. Ular:**

- milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi ekanligi
  - "millat"ning mustaqil subyekt sifatida mavjudligida uning ma'lum davlatga egaligi
- inson (kishilar) "millat"ni ifodalovchi ekanligi kabilardir.

### **Globallashuvning o'zbek millat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari quyidagi yondashuvlar va omillarda aks etadi:**

o'zbek xalqi, O'zbekiston tobora xalqaro munosabatlarning faol subyektiga aylanib bormoqda (siyosiy yondashuv)

ilmiy-texnik taraqqiyotga, ilm-fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash, global madaniyatga tayanish xalqimiz, millatimiz uchun obyektiv-zaruriyatga aylanib qolganida (madaniy yondashuv)

umuminsoniy qadriyatlar, sotsial normalar, transmilliy aloqalar ustuvorlik va yetakchilik qilib, o'zbek xalqi ruhida, hayotida o'zgarishlar yasayotganida (aksiologik omil)

jahon iqtisodiy hayotida savdo-sotiq, integratsiya, migratsiya sohalaridagi umumsayyoraviy jarayonlar o'zbek xalqini, O'zbekistonni chetlab o'tayotganida (iqtisodiy omil)

global dunyoning global ochiq fuqarolik jamiyati, demokratik davlat qurishga intilayotganini e'tirof etilib, o'zbek xalqining mutloq yangi ijtimoiy borliqda yashashga tayyorgarlik ko'rayotganida (etnopsixologik yondashuv).

**Professor S.Otamurodov:** *Millat deganda, kishilarning yagona til, milliy o'zlikni anglash ruhiyati, ma'naviyat (keng ma'noda), urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, yagonaligi asosida ma'lum hududda yashovchi o'z davlatiga ega bo'lgan, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi hamda yaratuvchi kishilarning etnik birligi tushuniladi.*

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Millat nima?
2. Globallashuvning millatga qanday aloqasi bor?
3. Milliy o'zlikni anglash va globallashuv jarayonlari o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni, ziddiyatlarni qanday baholaysiz?
4. Globallashuvning o'zbek xalqi, millati hayotida namoyon bo'lish xususiyatlarini nimalarda deb bilasiz?
5. "Global madaniyat" degan tushunchaga izoh va tavsif bering?
6. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning global dunyo bilan o'rnatayotgan aloqalarini, siyosatini qanday tessavur etasiz?
7. O'z hayotingizdagи globallashuv ta'siri nimalarda namoyon bo'lmoqda?

### **Referat mavzulari**

1. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari.
2. Globallashuvning millat hayotida namoyon bo'lishi.
3. Globallashuv, sivilizatsiya, fan va texnologiyalar.
4. "Global madaniyat" atamasida salbiy ma'nodagi "ommaviy madaniyat"ga mushtaraklik.

### **Adabiyotlar:**

1. Кўчқаров В. Миллий ўзликни anglash ва ijtimoiy-siёsий жараёнлар. – Тошкент: Akademiya, 2007.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги

нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола (Матн). – Тошкент: Маънавият, 2017.

3. Қувондиқов И. Миллий-маънавий қадриятлар – ўзликни англаш омили. – Тошкент: Nishon-noshir, 2010.
4. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУО, 2013.
5. И момназаров М., Эшмуҳамедова М. - Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001.
6. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: Маънавият, 2008.
7. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П.Бергера, С.Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.
8. Сорос Дж. О глобализации. – М.: «ЭКСМО», 2004.
9. Шониязов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001.

## **14-MAVZU: GLOBAL INQIROZLAR DAVRIDA YUKSAK MA'NAVİYATNING DOLZARBLIGI**

### **REJA:**

1. Jamiyat hayotining turli sohalarida globallashuvning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotga ta'siri.
2. Xalqaro miqyosda ro'y berayotgan global inqirozlar davrida yuksak ma'naviyatning dolzarbligi masalalari.
3. Globallashuv va ma'naviy inqiroz, "Ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi turli ma'naviy tahidlardan ko'zlangan maqsadlarni anglab yetish zaruriyati.

Insoniyat hayoti yildan yilga Arastu nazarda tutgan "umum"ga, "butun"ga, hozirgi talqindagi globallashuvga yaqinlashib bormoqda. Ba'zi mutaxassislar globallashuvni uchib borayotgan poyezdga qiyoslashadi. Bu poyezdga ulgurmagan bugun ro'y berayotgan ilmiy-texnik inqilobdan orqada qoladi. Uning milliy rivojanishi asrlar orqaga suriladi, degan fikr mavjud. Ha, insoniyat taraqqiyoti shunchalik jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqdaki, goho an'anaviy tartiblarda yashashga o'rgangan jamiyat kishilari ongida, o'yida "qayerga chopayapmiz o'zi?" degan savolni uyg'otadi. Yon atrofimizda bo'layotgan voqealar: davlat boshqaruv ishlari, ijtimoiy munosabatlar, shahar va qishloqlar qiyofalari, kishilarning turmush-tarzi, xatti-harakatlari shunchalik tezlashib borayapti, bu serharakatchanlik o'yga g'ulg'ula ham soladi. P.L.Berger va S.P.Xantington, Xitoy, Tayvan, Hindiston, Janubiy Arab Respublikasi, Chili kabi mamlakatlardagi globallashuv jarayonlarini o'rganishganida amerikacha yashash tarzi, kiyinish, ovqatlanish, ommaviy axborotlar va saytlardan, internetdan foydalanish bilan birga milliy madaniyat uyg'unlashayotganini kuzatishgan. Ular hind yoki xitoylikning hech qanday e'tirozsiz, yov qarashsiz G'arbona qadriyatlardan foydalanayotganini bildirashadi<sup>1</sup>. Demak, an'anaviy jamiyatlar chetdan, g'arbdan keladigan innovatsiyalarni, yangiliklarni rad etaverishmas ekan, balki ulardan bahramand bo'lishga intilishlar ekan.

<sup>1</sup> Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П.Бергера, С.Хантингтона. - Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.

Global lashuvning ta'sirini sistemalashtirishga urinishlar bor bo'lsa-da, ular ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan. Shuning uchun tadqiqotchilar istagan bir sohadan manba, asos qidirishga, shu tarzda global lashuv xususiyatlarini ochib berishga intilishiadi. Ushbu ta'sirlarni quyidagi ijtimoiy sohalar orqali tahlil qilish mumkin:

- iqtisodiy;
- siyosiy;
- madaniy;
- mafkuraviy;
- ijtimoiy-demografiya;
- migratsiya;
- ilmiy-texnika;
- badiiy-estetika;
- rekreatsiya;
- etnoturizm.

Global lashuvning ijtimoiy-iqtisodiy voqelik ekani aksioma sifatida qabul qilinadi. Tadqiqotchilarning barchasi, global lashuv avvalini iqtisodiy integratsiyada ko'rishadi. XX asrning ikkinchi yarmida yer yuzida boshlangan integratsiya va differentsiatsiya (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida milliy davlatlarning yuzaga kelishi, kolonizatsiya siyosatining inqirozi) global ahamiyat kasb etadi. Ammo, kolonizatsiya ostida bo'lgan milliy davlatlar kolonizator davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni keskin uzolmasdi, albatta. Ammo bu aloqalar endi boshqa yo'nalishda va boshqacha maqsadda amalga oshirilishi darkor edi. Natijada yangi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tizimi yuzaga kela boshladi. Ilmiy-texnik kashfiyotlar bu aloqalarni yanada kengaytirish, global miqyosda olib borish imkonini berdi. Transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lishi savdo-sotiqni misli ko'rilmagan darajada olib borishga yordam berdi.

Iqtisodiy sohadagi global lashuv yangi-yangi bozorlarni yuzaga keltirdi, ishlab-chiqarilgan ne'matlarni sotish, milliy yoki korporatsiya brendini yaratish avj oldi. Adidas, Mc Donald's, Disney, Coca-Cola, KFC, Microsoft, Ford, Sears Roebuck,

Appolo, Sun, Silicon Graphich, Digital Equipment Corporation, Xerox, Bucyrus Erie, Honda, Yamana kabi kompaniyalar jahon bozorini egallash, o‘z mahsulotlarini tezroq va ko‘proq o‘tkazish uchun iqtisodiy aloqalarni kengaytirish yo‘llarini izladilar. Ularning izlanishlari globallashayotgan iqtisodiy hayotni umumsayyoraviy miqyosda tasavvur etishga undadi. Endi iqtisodiy soha lokal, milliy makon bilan chegaralanib qola olmasdi. Hozirgi bosqich ham asosan iqtisodiy integratsiyaga qurilgan, xalqaro iqtisodiy aloqalar globallashuv determinantiga aylangan. Endi bu aloqalar, xalqlar, davlatlar hayotiga jiddiy ta’sir qiladigan kuchga aylangani real voqelikdir. Bu integratsiya imkoniyatlaridan unumli foydalanadigan xalq, davlat yutishi mumkin.

Etnoegoizm globallashuvning dushmani, u erkin savdo-sotiqlari, ixtiyoriy integratsiya va ochiq dialogni yoqtiradi. Siyosiy jarayonlardagi globallashuv, avvalo, davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalarda ko‘zga tashlanadi. G‘arb yaratgan kratologik ta’limotlar global voqelikka aylanib ulgurgan. Prezidentlik instituti, ikki palatali parlament, Ombudsman Yuvenal vazirlik yoki tashkilot (yuvenal Ombudsman), erkin matbuot, TV, fuqarolik jamiyati institatlari, nodavlat tashkilotlari kabilarni aslida g‘arb kratologiyasi yaratgan. Bugun bu institutlar milliy davlatlarda ham o‘z o‘rnini topmoqda.

Siyosiy globallashuv turli xalqaro, davlatlararo birlashmalar, ittifoqlarda ham ko‘zga tashlanadi. Yevropa Ittifoqi, NATO (harbiy soha), MDH, SHanxay hamkorligi, Davos iqtisodiy forumi, Yevrosiyo ittifoqi, BRIKS, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat kengashi, Markaziy Osiyo davlatlararo kengashi kabilar siyosiy hayotimizda o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega.

Madaniyat, mohiyatiga ko‘ra, umuminsoniy hodisa hisoblanadi. Madaniy boylik yarata olmaydigan xalq, millat, shaxs yo‘q. Inson madaniyatini qanday ijobjiy fenomenga aylantirgan bo‘lsa, madaniyat ham insonni ana shunday betakror mavjudlikka, lokal intellekt egasi, globallashuvni ijobjiy voqelikka aylantirishga qodir. Bugun hayotni, shaxsni madaniyatsiz tasavvur etish mushkul. Globallashuvdagi ijobjiy jihat madaniyatga tayanganligida hamda insondagi kreativlikni qo‘llab-quvvatlaganidadir.

Ma’naviyat deganda asosan inson ruhi, qalbi, intensiv kechinmalari natijasi bo‘lgan narsalar, jarayonlar, qadriyatlar tushuniladi. Ba’zan uni “ilohiy nur” deb talqin ham qilishadi. To‘g‘ri, bu mavhum, transsensual talqin, uning “ilohiy nur” ekanini faqat shu tushunchani bildirganlar tushunishi mumkin.

Mafkuraviy sohadagi globallashuv yevroposentrizm, amerikanizm, panislamizm va ularning aksi bo‘lgan g‘oyaviy qarashlar, oqimlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, yevroposentrizm g‘arb dunyosiga xos bo‘lgan qarashlari, turmush tarxi va modellarni keng yoyishga intilishida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-demografiya sohasida globallashuv mehnat migratsiyasi, qochqinlik, xalqlar vakillarining boshqa, asosan Yevropa va AQSHga ko‘chib borish natijasida yuzaga kelmoqda. Yoshlarning internet tarmoqlari orqali tanishib turmush, oila qurayotgani ham odatiy holga aylangan.

Migratsiya sohasidagi globallashuv tagida turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maishiy omillar yotadi. Demokratiya ustuvor bo‘lgan, inson erkinliklari ta’minlangan, farovon mamlakatlarga ko‘chish jarayoni XX asr oxiri XXI asr boshlarida avj oldi, bu asosan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi hududlarida ko‘proq kuzatildi. Bugun Yevropaga o‘rta hisobda har yili 4 milliondan ziyod, AQSHga va Janubiy Amerika davlatlarida taxminan 1,5 million kishi ko‘chib boradi. Ilmiy-texnika sohasidagi globallashuv ishlab chiqarishga ilm-fan yutuqlarini joriy etish, madaniy-maishiy xizmat turlarini kengaytirish, insonga ko‘proq bo‘sh vaqt qoldirishning umumsayyoraviy miqyosda an’anaga, tartibga aylanayotganida ko‘zda tashlanadi.

Ilm-fan yutuqlari insonni og‘ir qo‘l mehnatidan xolos qilib, ko‘proq samarali va daromadli mehnat bilan shug’ullanishga imkon bermoqda. Globallashuvning bu jihatni zamonaviy hayot tarziga endi oshno bo‘layotgan xalqlarni o‘ziga jalb etayotgani sir emas. Badiiy-estetika sohasidagi globallashuv modern, postmodern, syurrealizm, abstraktsionizm, dinamizm, impressionizm, pop-artxeppening, shlyager, avangard, giperrealizm, inkrustatsiya, kordebalet kabi turli san’at oqimlarining ommalashayotganida ko‘rinadi. Bu san’at turlarida “erkin ijod” tamoyiliga amal

qilish musavvir, artist, bastakor, badiiy ijodga intilayotgan har bir kishi diqqatini tortmay qolmaydi.

Rekreatsiya - dam olish, hordiq chiqarishni uyushtirish sohasi. Rekreatsiya zamonaviy sivilizatsiya mahsuli, ishdan keyin e'tiborli, go'zal, xushhavo joylarda dam olish, dunyoga tanilgan kurort, sanatoriya va oromgohlarga borish globallashuv bormoqda. Masalan, Turkiya o'z sohillariga dam olishga keluvchi turistlardan katta doramad ko'radi. Bugun 1 milliarddan ziyod kishi turli mamlakatlarga borib dam oladi. Yil bo'yi to'xtamaydigan turistlar oqimi ba'zi mamlakatlar byudjetining asosiy ulushiga aylanib bormoqda. Bu turizmni, dam olish sohasini global hodisaga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Ma'naviyat muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti jarayonida to'plagan, hayot tarzlarining yig'indisiga aylangan, boyliklaridir. Uning asosini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti tashkil qiladi.

Jamiyatda shakllangan falsafiy axloqiy, diniy, estetik, ilmiy va huquqiy qadriyatlar unga ta'sir etadi. Ushbu qadriyatlar orasidagi aloqadorlik, ular o'zaro ta'sirining tabiatni, xarakteri aholi ma'naviyatining mohiyatini va uning yo'naliishini aniqlab beradi. Shuning uchun ma'naviyat birinchidan, alohida olingan xalq va millatning borlig'i bilan, ikkinchidan, ma'lum bir tarixiy-madaniy davr bilan bog'liqdir. Alohida olingan har bir davlat o'zining tarixiy-madaniy rivojlanishini strategik hayotiy maqsadidan kelib chiqqan holda belgilaydi. Milliy ma'naviyatimizni takomillashtirish va mazmunini boyitishda ta'lim va tarbiyaning roli benihoya katta.

Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim va tarbiyani yuksak saviyada tashkil qilish va amalga oshirish ishi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan hisoblanadi. Falsafa fanlari doktori, professor B.Ziyamuhamedovning yozishicha: ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, jamiyatni bir butun qilib turuvchi barcha unsurlarni faqat o'zaro uzviy bog'langan holda va bir yo'naliishda harakat qilishgandagina, ezgu maqsadimizga erishimiz mumkin. Jamiyatning ta'lim-tarbiyaga oid yirik unsurlariga: oila, mahalla, mehnat jamoalari, jamoat va siyosiy tashkilotlar, diniy tuzilma, rasmiy ta'lim-tarbiya tizimi va ommaviy axborot vositalari kiradi. Jamiyatning bu unsurlari o'zaro aloqalarini funktsional bog'lab turib, milliy g'oya metodologiyasidan kelib

chiqqan holda, o‘z faoliyatlarini amalga oshirishlari lozim. Shundagina ular ta’lim-tarbiya sohasidagi oldimizga qo‘yilgan maqsadlarga yetkazadi”<sup>1</sup>. Bu o‘rinda olim ma’naviyat va ta’lim-tarbiyaning uyg‘unligidan, ular esa, o‘z navbatida, yuqoridagi unsurlar bilan bog‘liqligidan kelib chiqadi.

Jamiyat ma’naviyati undagi mavjud ta’lim-tarbiya, institutlar, normalar, demokratik qadriyatlar, shaxsiy, oilaviy munosabatlar mahsullaridir. Agar globallashuv ma’naviyatiga tahdid solsa, demak, u avvalo ana shu unsurlar faoliyatiga hujum qilgan, ularni izdan chiqarishga intilgan bo‘ladi. Globallashuvdagi salbiy jihatlar “ommaviy madaniyat” tahdidlarida yaqqol aks etadi. Ayniqsa internet tarmoqlarida tarqalayotgan pornografiya, yoshlarni g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlarga, fohishabozlikka undovchi lavhalar, videotasvirlar insondagi eng go‘zal, olivjanob tuyg‘ularga qarshi qaratilgan. Bu ma’naviy inqiroz belgisidir. Mazkur lavha va videotasvirlarga qarshi turmay milliy ma’naviyatni, sharqona odob-axloq va insonparvarlik an’ananalarini saqlab bo‘lmaydi.

Jinsiy tarbiyaga xususida B.Ziyomuhamedov o‘z mulohazalarini bayon qilib quyidagicha fikr bildiradi. Qadimgi Hind, Xitoy, Grek va Markaziy Osiyo allomalari asarlarida jinsiy tarbiya masalalari ham ko‘zga tashlanib turadi, bu uning hayotiy ehtiyoj tufayli yuzaga kelganini tasdiqlaydi. Jadallik bilan balog‘atga yetish jarayonida o‘g‘il va qizlardagi tabiiy ravishda, ularning ixtiyoridan tashqari, vujudidan otilib chiqayotgan bir-biriga bo‘lgan intilishlarni bilib-bilmaslikka olib yoki ota-oná va tarbiyachilarining bu tuyg‘ularning mohiyatini anglamasligi tufayli, bu nozik tuyg‘uni nomaqbul so‘zlar bilan bulg‘ash, yoshlardagi endi nish urib kelayotgan muhabbatni so‘nishiga sababchi bo‘lmoqda. Sevgi-muhabbatdan begona odamdan dahshatliroq jonzod bo‘lmaydi. U har qanday razolatga tayyor bo‘ladi. Fohisha, fohishabozlik, toshbag‘irlik va boshqa vahshiyliklarning ildizi kishilarda muhabbat tuyg‘usining yo‘qligidandir. Yoshlarga jinsiy tarbiya berishga qarshilar, bu bizning ruhiyatimizga, bizning urf-odat va qadriyalarimizga to‘g‘ri kelmaydi, degan fikrni aytadilar.

<sup>1</sup> Зиёмуҳамедов Б. Соғлом ъола шахсиятини шакллантириш ҳақида.-Тошкент: Tafakkur qanoti, 2014,-206-2076.

Unda “Visol lazzati”, “Lazzat un-niso” (Ayollar lazzati) kabi katta-kichik asarlarning yuzaga kelishiga sabab nima? Nima uchun bunday asarlar odob-axloq tavozesining beshigi hisoblangan Qadimgi Sharqda ko‘proq yaratildi va e’tirof etildi? Bu savollar zamirida qayd etilayotgan haqiqatning o‘zi ham bunday asarlarni shahvat targ‘ibi bilan hech qanday aloqador emasligini tasdiqlaydi. Hech shubhasiz, “Lazzat un-niso” qabilidagi o‘ziga xos tadqiqot xulosalarni bir tomondan, Sharqning rivojlangan tibbiyot ilmiga, ikkinchidan, insonning o‘z-o‘zini bilish borasidagi izlanishlariga, uchinchidan, inson barkamolligi yo‘lidagi qarashlarning muayyan tizim sifatida yuzaga keldi. Bunday bebaho, hayotiy zarur bilimlardan voz kechish muayyan sohada bizni gumrohlik tomon yetaklaydi”<sup>1</sup>.

Bu bilan olim Sharqona odob-axloq, normalarini, o‘zbek xalqiga xos ma’naviy qadriyatlarni inkor qilmoqchi, “ommaviy madaniyat”dagi pornografiya, fohishabozlikni qo‘llab-quvvatlamоqchi emas. Ammo uni “ommaviy madaniyat” ta’sirida, hali oqibatlari anglab yetilmagan omillar ta’sirida yuz berayotgan ma’naviy inqirozlar, noxush holatlar o‘yga soladi. Bu borada u qayg‘urib yozadi: “Hozir bizning o‘z-o‘zimiz haqidagi bilimlarimiz to‘liqmi? Agar bu savolga ijobiy javob bersak, nega unda kechagina bir umrga ahd-u paymon qilishib turmush qurgan yoshlar bugun yuz ko‘rmas bo‘lib ajralishib ketmoqdalar? Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, el-yurtdan, ota-onasidan andisha qilib, sevgisiz yashash kerak ekan deb, majburan er-xotinlik qilib yurgan baxtsiz oilalarning bizda son-sanog‘i yo‘q.

Shu sababdan bir-birini aldab, razolat botqog‘iga botib yotgan oilalarni hech qanda vaj bilan oqlab bo‘lmaydi. Bunday noxush voqealarning sabablari so‘zsiz jinsiy tarbiyani noto‘g‘ri yoki unga umuman e’tibor berilmaganligidadir. Ba’zan, ana shunday tarbiya inson baxti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Ko‘p hollarda shunday bo‘lmoqda ham”<sup>2</sup>. Oиласидан о‘зига яқин кatta kishilardan olmagan jinsiy tarbiyani, sevish va sevilish sirlarini yoshlar internetdan oladi-da! Xorijiy videotasvirlar bu borada zavqli, hayajonli va tuyg‘uli tomoshalar uyushtiradi, axloqiy

<sup>1</sup> Ўша acap. 93-94 б.

<sup>2</sup> Ўша acap. 93-94 б.

normalarni unutib fahshni hayotdagi zavq olib yashash usuli sifatida targ‘ib etadi. G‘arbda bugun tug‘ilish kam, ba’zi davlatlarda esa aholi o‘sishi to‘xtagan. Ular yoshlarda hirsni qo‘zg‘atib ijtimoiy-demografik muammolarini hal etmoqchi bo‘ladilar. P.Byukenening keltirishicha, G‘arbda, ayniqsa Yevropada aholi o‘sishi tashqi migratsiya hisobiga ro‘y bermoqda. XXI asrning o‘rtalariga borib migrantlar bilan asosiy xalq, titul millat soni tenglashib qoladi, bu esa jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

G‘arb tadqiqotchilarining o‘zi ham globallashuv milliy madaniyatlarga, ijtimoiy taraqqiyotga xavf solishini qayd etishadi. E.Saidning yozishicha, “globallashuvdan ayrim millatlar yutadi, ayrimlari esa yutqazadi. Gap shundaki, hukmron mavqedagi madaniyat egalari boshqa millatlar madaniyatiningayricha jihatlariini qabul qilmaydi. Masalan, Hollivud musulmonlik tushunchasini, islomiy madaniyatni o‘z qarichi bilan o‘lhashi ma’lum. Badiiy filmlarda musulmonlar ahli ayolini qora chimmatga o‘rantirgan, fikr-qarashi zamondan orqada qolgan yo‘lto‘sar yoki kallakesar obrazida tasvirlanganini ana shu jihat bilan izohlash mumkin. Ko‘p hollarda Sharq xalqlariga xos madaniyat xolis baholanmaydi. Sharq madaniyatini G‘arbnikiga qiyosan “ekzotik” deb ataladi. Orientalizmning xatarli jihat shundaki, u Yevropa madaniyatini mustamlaka xalqlarning “qoloq” madaniyati o‘rnini egallashi kerak bo‘lgan umuminsoniy qadriyat sifatida talqin etadi”<sup>1</sup>.

Demak, G‘arb “ommaviy madaniyati”, ilm-fanni, dunyoqarashi bilan boshqa xalqlar olami, boyliklari, ilmi o‘rtasida ma’lum bir farqlar, ziddiyatlar bor. Ammo taraqqiyparvar kuchlar, ayniqsa ilm-fan ahli Sharq va G‘arb sivilizatsiyasini uyg‘unlashtirish yo‘lidan borish lozim. Globallashuvning ijobiy maqsadi ham ana shundadir.



### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Yevroposentrizm, amerikanizm, panislamizm, migratsiya, iqtisodiy, siyosiy, postmodern, syurrealizm, abstraktsionizm, dinamizm, impressionizm, pop-artxepping, shlyager, avangard, giperrealizm, inkrustatsiya, kordebalet, musavvir,


<sup>1</sup> Дилсора К. Globallashuv: g’oliblar va mag’lublar// Тафаккур, 2018, №4.39-406.

artist, bastakor, rekreatsiya, dam olish, hordiq chiqarish, go‘zallik, kurort, sanatoriya, axloqiy, diniy, g‘oyalar, oila, mahalla, mehnat jamoalari, jamoat, siyosiy tashkilotlar, diniy tuzilma, ta’lim-tarbiya, institutlar, normalar, demokratik qadriyatlar, shaxsiy munosabat, oilaviy munosabatlar, pornografiya, fohishabozlik, videotasvir, sevgi-muhabbat, fohisha, fohishabozlik, toshbag‘irlilik, toshbag‘irilik.

### Qo‘shimcha va tushuntiruvchi matnlar:



### Quyidagi kompaniyalar jahon bozorini egallah uchun harakat qilganlar



*G`arb yaratgan kratologik ta'limotlar global voqelikka aylanib ulgurgan. Bular:*

*Prezidentlik instituti* → *ikki palatali parlament*

*Ombudsman Yuvenal vazirlik yoki tashkilot (yuvenal Ombudsman)*

*erkin matbuot* → *TV* → *fuqarolik jamiyatni institutlari va b.*

Inson erkinliklari ta'minlangan, farovon mamlakatlarga ko'chish XX asr oxiri XXI asr boshlarida avj oldi, bugun Yevropaga o'rta hisobda har yili 4 milliondan ziyod, AQShga Janubiy Amerika davlatlarida taxmin 1,5 million kishi boradi.


**Ular asosan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidadir.**


**Rekreatsiya** → *dam olish, hordiq chiqarishni uyushtirish sohasi*

zamonaviy sivilizatsiya mahsuli, ishdan keyin e'tiborli, go'zal, xush havo joylarda dam olish, dunyoga tanilgan kurort, sanotoriya va oromgohlarga borish globallashuv bormoqda.

**Masalan,** Turkiya o'z sohillariga dam olishga keluvchi turistlardan katta doramad ko'radi. Bugun 1 milliarddan ziyod kishi turli mamlakatlarda borib dam oladi. Yil bo'yisi to'xtamaydigan turistlar ogimi ba'zi mamlakatlar budgetining asosiy ulushiga aylanib bormoqda.

**Falsafa fanlari doktori, professor B.Ziyamuhamedovning yozishicha:**  
ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, jamiyatni bir butun qilib turuvchi barcha unsurlarni faqat o'zaro uzviy bog'langan holda va bir yo'nalishda harakat qilishgandagina, ezgu maqsadimizga erishimiz mumkin.  
*Jamiyatning ta'lim-tarbiyaga oid yirik unsurlariga:*





### **Agar globallashuv ma'naviyatiga tahdid salsa, demak, u avvalo ana shu unsurlar faoliyatiga hujum qilgan, ularni izdan chiqarishga intilgan bo`ladi.**

**bo`ladi.** Globallashuvdagi salbiy jihatlar “ommaviy madaniyat” tahdidlarida yaqqol aks etadi. Ayniqsa internet tarmoqlarida tarqalayotgan pornografiya, yoshlarni fahshga g`ayriaxloqiy xatti-harakatlarga, fohishabozlikka undovchi lavhalar, videotasvirlar insondagi eng go`zal, olivjanob tuyg`ularga qarshi qaratilgan. **Bu ma'naviy inqiroz belgisidir.**

#### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Jamiyatning turli sohalarida ro`y berayotgan globallashuvni tasvirlang, izohlang.
2. Madaniy sohada yuz berayotagan globallashuvni qanday tushunasiz?
3. “Ommaviy madaniyat” nima?
4. Ma’naviyat va globallashuv: dialektik aloqalarini nimalarda ko‘rasiz?
5. Ma’naviy inqiroz nimada aks etadi?
6. O‘zbek milliy madaniyatiga tashqi tahdidlar nimalarda namoyon bo‘lmoqda?
7. Globallashuvning migratsiya va aholi o‘sishiga ta’siri nimalarda ko‘rinadi?

#### **Referat mavzulari**

1. Globallashuvning ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotga ta’siri.
2. Globallashuv va ma’naviy inqiroz.
3. Mafkuraviy sohadagi globallashuv: yevroposentrizm, amerikanizm, panislamizm.
4. Globallashuvning salbiy jihatlarini “ommaviy madaniyat” tahdidlarida aks etishi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. Т.2. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
2. Бьюкенен П. Смерть Запада. – Москва: Аст. 2001.

3. Зиёмуҳамедов Б. Соғлом бола шахсиятини шакллантириш ҳақида. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2014.
4. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П. Бергера. С. Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.
5. Дилсора К. Globallashuv: g'oliblar va mag'lublar // Тафаккур, 2018, №4. 39-40б.
6. Глобаллашув. Оммавий маданият. Миллий ғоя. – Тошкент: Маънавият, 2009.
7. Миллий-маънавий қадриятлар-ўзликни англаш омили – Тошкент: Nishon-noshir, 2010.
8. Глобальные проблемы и общечеловеческие ценности. – Москва: Прогресс, 1990.

## **15-MAVZU: MA’NAVIY TAHDIDLARNING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI**

### **REJA:**

1. “Ma’naviy tahdidlar”ning namoyon bo‘lish xususiyatlari.
2. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari asosida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash yo‘llari va vositalari.
3. Ma’naviy tahdidlarga qarshi muntazam va uzlusiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkinligi.

“Ma’naviy tahdidlar” borasida aniq, ilmiy asoslangan, ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan tushuncha yo‘q. Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlardagi ta’riflar real voqelikni o‘rganishdan emas, balki globallashuvga bo‘lgan salbiy munosabatlardan kelib chiqqan. Bunday yondashuvlar esa, ijtimoiy fikrda noto‘g‘ri tasavvurlar uyg‘otib, globallashuvni mutloq salbiy tushuncha sifatida talqin qilishga olib kelmoqda.

Xo‘sh, nimani ma’naviy tahdid deb atash kerak? Qaysi jihatlari bilan globallashuv ma’naviy tahdidga aylangan? Buni ijtimoiy fikr, xalq, aholi, ayniqsa yoshlar qanday baholaydi? Globallashuvni “Ma’naviy tahdid” atab undan “olabo‘ji yasash”dan ham osoni yo‘q. Ammo uning “olabo‘ji” ekanini qanday asoslash mumkin?

Falsafa fanlari doktori, professor A.Ochilidiyev bu masalalar to‘g‘risida fikr yuritib, rasmiy ustanovkalarga ergashadi, mazkur ustanovkani u quyidagicha keltiradi: odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodasiga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol”<sup>1</sup>. Bu fikrdan ma’lum bo‘ladiki, odamning mustaqil fikrlashiga, hayotiy-milliy qadriyatlarga, mustahkam irodasiga qaratilgan xurujlar ma’naviy tahdiddir. To‘g‘ri, ma’naviy tahdidlar milliy-an’anaviy

---

<sup>1</sup> Очилдиев А. Глобаллашув ва маънавий-ғоявий таҳдидлар// глобаллашув. Оммавий маданият. Миллий – ғоя. – Тошкент: 2009.86.

hayotga, tasavvurlar va turmush tarziga qarshi qaratilgandir. Biroq nega yuqoridagi ta’rifda ma’naviyatning o‘ziga tahdidlar qayd etilmagan. Axir mavzu “Globallashuv va ma’naviy-g‘oyaviy tahdidlar”ni o‘rganishga bag‘ishlangan, demak, mazkur tahdid nima ekaniga oydinlik kiritilishi zarur edi.

Tadqiqotchi ma’naviy tahdidni OAV bilan bog‘lashga intilib yozadi: 1980 yilda tuzilgan CNN (The Cable News Network) kompaniyasi bugungi kunda 24 soat davomida axborot uzatish bilan shug’ullanadi (Buning nimasi yomon yoki ajabnalarli? Axborot tarmoqlaridan foydalanish jamiyat a’zolarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor bo‘lishlariga xizmat qiladi-ku! – M.X.). Hozirda CNN tarkibida yangilik tarqatish bilan shug’ullanadigan 14 ta kabel va sputnik kanallari, 2 ta radio stansiya, 6 ta internet sayti va xorijiy mamlakatlardagi 37 ta byuro faoliyat ko‘rsatmoqda, CNN yangiliklari 38 ta kosmik yo‘ldosh signallari yordamida uzatiladi, uni 212 mamlakat va hududdagi 1,5 milliard odam bir vaqtning o‘zida ko‘rish imkoniga ega. 1991-yilning yanvarida aynan CNN yordamida Fors ko‘rfazida olib borilgan harbiy harakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri teleefiriga uzatildi, 2001-yilning 11-sentyabridagi terrorchilik amaliyoti haqidagi reportajlar ham shu kompaniya harakati tufayli butun dunyoga voqeа sodir etilgan joydan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatib turildi.

Bi-Bi-Si eshittirishlar korporatsiyasiga (British Broadcasting Corporation, BBC) esa 20 dan ortiq telekanal va 14 ta radiokanal, bir qator saytlar va 40 ga yaqin jurnallar tegishlidir. VVS 40 dan ortiq tillarda eshitirishlar olib boradi.

Rey Xser axborot agentligi tizimida dunyoning 91 mamlakatida 14 000 xodim, shu jumladan, 2300 jurnalist, fotomuxbir va videooperatorlar ishlaydi. Reyer agentligi dunyoning turli mamlakatlarida 197 byurosiga ega. Agentlik xabarlarini bilan har kuni 1 milliard odam tanishadi<sup>1</sup>. Bu misollarni keltirish bilan muallif nima demoqchi? Milliy axborot agentliklarini ibrat olishga chaqirmoqchimi yoki CNN, Bi-Bi-Si, Reyxter agentligini ma’naviy tahdidlar uyushtirayotganini tanqid

<sup>1</sup> Очилдиев А. Глобаллашув ва маънавий-гоявий таҳдидлар// глобаллашув. Оммавий маданият. Миллий ғоя.-Тошкент: 2009.86.

qilmoqchimi? Aslida bu jarayon, ya’ni axborot tarqatish, undan foydalanish davr talabi.

Haqiqatan,OAV kishilar ongi, tasavvurlari va dunyoqarashiga ta’sir etish imkoniyatlari ega. Ayniqsa,internet tarmoqlarida tarqatiladigan “noan’anaviy” xabarlar, lavhalar tez tarqaladi, kishilarni turli munosabatlar uyg‘otadi. Bugun internet tarmoqlarida o‘zini-o‘zi o‘ldirishning oson yo‘llarini targ‘ib etuvchi 9 mingdan, erotikaga oid 4 mingdan ziyod saytlar mavjud. Maxsus kuzatishlardan ma’lumki mavjud saytlarning taxminan 12% pornografik harakaterga ega. Mavjud maxsus dasturlar internet tarmog‘idagi pornografiyaning 90% nagina filtrlaydi. Internetdan foydalanuvchi bolalar va o‘s’irinlar 42% onlayn pornografiya ta’siriga tushib qoladi. Kompyuter o‘yinlarining 49% sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlikni, 41% jangari otishmalarni namoyish etadi, 17% kompyuter o‘yinlari ana shu otishmalarga, zo‘ravonlikka qurilgan. Dunyoda internetdan foydalanuvchilarning 10% unga qaram, muntazam bog‘lanib qolgan<sup>1</sup>.

Shubha yo‘q, zo‘ravonlik, yovuzlik, pornografik videotasvirlar milliy axloqiy qadriyatlarga, ezgulik g‘oyalariga qarshi qaratilgan. Hali dunyo haqida tessavvurlari qat’iy shakllanmagan, yaxshi nima-yu nimani aniq ajratolmaydigan yoshlar ongi, tasavvurlari ana shu videotasvirlarga moslashib, o‘rganib qoladi, ular bu mavzulardagi “betakrorlik”ni, “san’at”ni erkinlik, izlanish deb qabul qiladi. Odam borliq, tashqi olam haqidagi xabarlarning 90% ni ko‘zi orqali oladi. Olgan bu xabarlarga ishonish yoshlarda katta ko‘rsatgich (o‘rtacha 45-55%) beradi. Demak, resonentlarning deyarli yarmi ko‘zi orqali ko‘rgan xabarga, mulohoza yuritmay, ishonadi.

Hamma narsa televidiniyaga aylanadi, - deydi Eldar Razanovning kino qahramonlaridan biri “Moskva ko‘z yoshlariga ishonmaydi” (“Москва слезам не верит”), - hech narsa bo‘lmaydi, na kino, na teatr, na kitob, - hech narsa, keljakda faqat televiedeniya bo‘ladi. Deyarli yarim asr oldin aytilgan bu fikrni adashmay internetga nisbatan qo’llangan deyish mumkin. Ijtimoiy borliq kompyuterlashmoqda,

---

<sup>1</sup> Ўша acap. 10-116.

raqamli OAV, raqamli sud, raqamli iqtisod, raqamli hukumatga o‘tish sur’ati kundankunga tezlashib bormoqda. Globallashayotgan dunyoga aylanib bormoqda. Ayrim davlatlar an’ anaviy tarzda yashashdan voz kechishga majbur bo‘lib, raqamli hukumat tizimiga o‘tayotgani odatiy hol. Shunday ekan, insoniyat juda muhim muammo oldida turibdi, nimani biz internetdan olishimiz kerak, ularning ma’naviyatga tahdidni qanday o‘lchaymiz? Kimlar o‘lchaydi? Tag‘in maxsus organlarmi, unda tag‘in senzuraga qaytamiz-ku.

Pornografiyanı san’at, badiiy asar, ijod darajasiga ko‘targan qalamkashlar doimo bo‘lgan, “Ming bir kecha” asarida erotik lavhalar yetarlicha topiladi. “Kama sutra” esa bunday lavhalarga to‘la. Ahmad ibn Sulaymon (X asr), Bakkacho (XIV asr), Markiz de Sad (XVIII asr), Salvador Dali (XX asr) asarlarida erotikka istagancha uchraydi. Xo‘s, biz mazkur ijodkorlar asarlarini taqiqlashimiz, ulardan voz kechishimiz kerakmi? Jinsiy aloqa inson hayotining tarkibiy qismi, mazkur aloqaning normal kechmasligi shaxs psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zan OAV da shunday e’tirozlar uchrab turadi. Biz shuni aytishimiz kerakki, erotikani “san’at asari” sifatida taqdim etish fahshni san’atga aylantirishdir. Bu maqbul yondashuv emas. Internet targ‘ib etadigan erotikka-fahsh, aslo san’at emas. San’at insondagi yuksak badiiy-estetik tuyg‘uni, undagi ichki ijodiy salohiyatni, o‘zida go‘zal tuyg‘ularni ifodalash vositasi hisoblanadi. San’at insonni, uning tanasida go‘zallikni ulug‘laydi. Bochellining “Veneraning tug‘ilishi” asari yoki P.Rubensning “Yer va Osmon ittifoqi” rang tasvirida yalang‘och parivashlar respientda fahshni emas, faxr, havas, go‘zallikka oshnolik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Internet saytlaridagi erotikka esa, kishidagi hayvoniy instinktni qo‘zg‘atadi, bu instinkt zo‘ravonlikka, kuch ishlatalishga asoslangani bilan g‘ayriaxloqiyidir. Biz internetga emas, hatto jinsiy tarbiya beruvchi ma’rifiy saytlarga ham emas, balki zo‘ravonlikka qarshimiz. Hatto erotikka “qahramonlari” o‘z ixtiyorlariga uchrashsa, munosabatlarga kirishsa ham, ular zo‘ravonlikka asoslangan fahshni targ‘ib etadilar. Insoniyat e’zozlab kelayotgan nozik tuyg‘ularni qo‘pol, ochiq tarzda videoga olib internetda uni ko‘z-ko‘z qilishda nafaqat zo‘ravonlikka da’vat, shuningdek, respient

cho‘ntagini shimish niyati ham mavjud. Porno industriya bugun hayratli tarzda rivojlangan. Masalan, AQSHlik pornomagnat Larri Flintning yozishicha, pornografiyani targ‘ib etish saylov kompaniyalari paytida keng qo‘llaniladi. Ular saylov paytlari pornografiyani targ‘ib etishga yiliga 10 milliard dollar ajratishadi. Larri Flint ochiqchasiga iqror bo‘ladi: “Men beadablikni sotuvchiman”, Amerikaliklar porno-seks-o‘yinchoqlarni juda yoqtiradilar, buni rad etish munofiqlik bo‘lardi. Buni axir bozorning o‘zi ham tasdiqlaydi. Agar amerikaliklar pornoga qiziqmaganida mendek sotuvchi “Bentli”da kezmagan va xususiy samolyotda uchmagan bo‘lardi”<sup>1</sup>. pornomagnat bu fikri bilan Amerikada siyosat porno bilan bog‘lanib ketganini, bu esa ma’lum doirlarda katta foyda keltirayotganini fosh etadi. Demak, internet saytlarida targ‘ib etilayotgan erotika tagida siyosiy va iqtisodiy maqsadlar yotadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ma’naviy - tahdidlardan yoshlarni himoya qilish haqida fikrlar yuritiladi. Unda qayd etilishicha, globallashuv davrida yoshlarimizning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, axloqiy fazilatlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, ana shu fazilatlarga, xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash-odamzotning ma’naviy boyligini ifoda etish qayd etiladi. Kitobda yozilishicha, XXI asr intellektual izlanishlar va izlanishlar natijasida yaratilgan mahsulotlariga tayanadigan asr. Bu asr kishilardan, ayniqsa yoshlardan teran aqlni, kuchli bilimli, sog‘lom fikr egasi bo‘lishni taqozo etadi. Intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish, uni xalq, jamiyat manfaatlariga yo‘naltirish, kishilik madaniyatidagi moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirish dolzarblashadi, og‘ir qo‘l mehnati ilmiy-texnik kashfiyotlar ustiga yuklanadi. Shu bilan birga I.Karimov ta’kidlaydi: “Biz bugun yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida

---

<sup>1</sup> Флант, Л, Секс, ложь и политика. Голая правда. – Москва: ACT: ACT MOCKBA, 2006.-C.320.

sog‘lom hayot tarzini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom tuyg‘usini bolalik yoshidan boshlab shakllantirishimiz zarur”<sup>1</sup>.

Ma’naviyat negizi va ma’no-mazmuni o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan odob-axloq normalaridadir. Yosh avlodni milliy axloqiy qadriyatlar vositasida tarbiyalashga e’tibor berish shunchaki shior yoki da’vat bo‘lib qolmasligi kerak. Bunday yuzaki yondashuv yoshlar ongiga, ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ulardagi yon-atrofga tanqidiy yondashuvni, sotsiokreativlikni, ijtimoiy faollikni o‘ldiradi. O’tgan o‘n yilliklarda ma’naviyat, ta’lim, yoshlar siyosatida ro‘y bergan, odatga aylangan rasmiyatçilik, sansolarlik, yoshlarning hayotidan, qiziqishlaridan yiroqlashish, ularga befarqlik jamiyatga qimmatga tushdi. Bu o‘rinda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari IV-qurultoyidagi nutqini misol qilib keltirishimiz mumkin. U yoshlarga qarata, bugun diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib borayotganini ta’kidlaydi. “Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar, deydi Sh.M.Mirziyoyev, - insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani-ayni haqiqat va buni hech kim inkor qilolmaydi”. Prezidentimiz “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati o‘zini oqlay olmaganini ko‘rsatadi. Masalan, “Kamolot” o‘z atrofiga 4 million yoshni birlashtirganini keltiradi, bu 10 milliondan ziyod yigit-qizlarning 40% demakdir. Ammo bu tashkilot faollarini yoshlar tanimaydi, yoshlar bilan deyarli hech kim shug’ullanmaydi, salbiy ta’sirlarga beriluvchi yoshlar soni ortib, ular o‘rtasida jinoyatchilar ko‘payib borishi kuzatilmoqda. Birgina 2016-yilda yoshlar ishtirokida 1 million 740 mingga yaqin huquqbazarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgan, yosh oilalar o‘rtasida 8 mingdan ortiq ajralish ro‘y bergan. Davlatimiz rahbari mutasaddilarga, joylardagi hokimlar, mahalla faollariga qarata deydi: “Qani, ana shu shahar va tumanlarning hokimlari, tegishli mutasaddilar, bu masalalarga qanday baho berishingiz mumkin?

Sizlar rahbar bo‘lgan hududlarda yashaydigan yoshlar zerikkanidan nima qilinishini bilmasdan, bemaza ishlarga berilishi bezorlik, jinoyat yo‘liga kirishi,

<sup>1</sup> Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.1126.

zararli oqimlarga qo'shilib ketishi mumkinligi nahotki sizlarni bezovta qilmasa? Yoshlar uchun barcha sharoitlarni muhayyo qildik, deb biz kimni aldayapmiz? Shu munosabat bilan barcha katta-kichik rahbarlar qulog'iga qo'rg'oshindek quyib olsin: biz endi sizning faoliyattingizga paxta yoki g'allaga qarab emas, eng avvalo, sizlarning yoshlarga, yoshlarga oid davlat siyosatiga bo'lgan munosabatingizga qarab baho beramiz”<sup>1</sup>.

Prezidentimiz yoshlar bilan ishlashni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatini O'zbekiston yoshlar ittifoqiga aylantirishni, ularning “Yoshlar nashriyot uyi”ni, “Temurbeklar maktabi”ni tashkil etishni, “Mard o'g'lonlari” medalini ta'sis etishni, shuningdek, har yili 30-iyunni Yoshlar kuni deb e'lon qilishni tavsiya qildi. Internet tizimi orqali ma'naviy targ'ibot ishlarini, jumladan, elektron kitobxonlikni kuchaytirish zarurligini uqtirdi. Bunday chora-tadbirlar yoshlarda ijtimoiy faollikni oshiradi, ularda intellektual izlanishlarga qiziqish uyg'otadi, ma'naviy tahdidlarga qarshi g'oyaviy mafkuraviy immunitetni shakllantiradi.

Ma'naviy tarbiyaning sifatini samaradorligini oshirish targ'ibot-tashviqot ishlari oldidagi eng dolzarb masalaladir. Aynan shu joyda olib borayotgan ma'naviy tarbiya ishlarimizdagi kamchiliklar, nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Biz hali yoshlar bilan ishslashning zamonaviy, interaktiv shakllaridan foydalanish metodikasiga ega emasmiz. Juda nari borsa, biz maktab o'quvchilari yoki talabalardan iborat yoshlarni u yoki bu tadbirga “ixtiyoriy-majburiy” tarzda jalb etamiz. Yoshlarning ma'naviy qiziqishlari, internet saytlardan foydalanish darajasi, qanday kitoblar, gazeta va jurnallar o'qiyotgani sotsiologik tadqiq etilmagan. Goho o'n-o'n besh yillar oldin qayerdadir, kimlardir o'tkazgan sotsiologik so'rovnomalar natijalari ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda keltiriladi. Ularning obyektivligiga, samara berishiga hech kim kafolat berolmaydi. Bunday nomigagina o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlardan jamiyatga, ma'naviy muammolarni hal etishga naf yetmaydi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъиёт билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1.-Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017.5286.

Yoshlar ma’naviyati dinamik hodisa, u har kuni, har bir ijtimoiy hodisa ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Buni hisobga olmay uyuştirilgan ommaviy-madaniy va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar kutilgan natija bermaydi. Yoshlarning diniy oqimlarga kiritib ketayotganiga qarshi biror ta’sirli ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil qilingani jamoatchilikka ma’lum emas. Tashkil etilgan ilmiy-amaliy anjumanlarning maqsadi, ta’sir doirasi boshqa, ular yoshlarga mo‘ljallanmagan. Dindagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar aksariyat yoshlarni o‘ziga jalg‘etayotgani yaxshi, albatta. Biroq dinga berilish yoshlarni dunyoviy ilm-fanni o‘rganishdan, ijtimoiy hayot faoliyatidan, ijtimoiy burchni bajarishdan chalg‘imasligi lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “yurtimizda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, yoshlarni turli ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy vazifa bo‘lib turibdi”<sup>1</sup>.

Ma’naviy tarbiya ibrat tarbiyasidir. Ibratga aylanmagan tarbiya – quruq va’z. Shuning uchun, biz ma’naviy tarbiya haqida so‘z yuritishdan oldin ibrat bo‘lg‘udek tarbiyachini, ibrat bo‘lg‘udek xulq-atvorni, ibrat bo‘lg‘udek hayot tarzini shakllantirish haqida qayg‘urishimiz kerak. “Ming bor eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal degan xalq maqolimiz bor. Ibrat ana shu “bir marta” ko‘rsatish vositasi hisoblanadi. Ibrat bo‘ladigan shaxs, xatti-harakat, fazilat yoshlar ma’naviyatiga tez, samarali ta’sir etadi. Prezidentimiz nazarda tutgan “ijtimoiy-ma’naviy kuch”ni ana shu ibrat yaratadi.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Internet, ma’naviy tahdid, pornografiya, san’at, badiiy asar, ijod, OAV, san’at asari, erotika-fahsh, faxr, havas, go‘zallikka oshnolik, ma’naviy tahdid, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy fazilat, moddiy va ma’naviy boyliklar, odob-axloq, yoshlar ongi, ma’naviyat, ta’lim, yoshlar siyosati, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, bezorlik, jinoyat, kitoblar, gazeta va jurnallar, ibrat, shaxs, xatti-harakat, fazilat, yoshlar.

---

<sup>1</sup> Ўша acap. 531б.

## Qo‘shimcha va tushuntiruvchi matnlar:

### *Falsafa fanlari doktori, professor A.Ochiliyev:*

*“Odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodasiga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rnishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol”-deb, fikr yuritadi.*

*professor A.Ochiliyev ma’naviy tahdidni OAV bilan bog‘lashga intilib yozadi:*

1980-yilda tuzilgan CNN (The Cable News Network) kompaniyasi bugungi kunda 24 soat davomida axborot uzatish bilan shug‘ullanadi

CNN yangiliklari 38 ta kosmik yo‘ldosh signallari yordamida uzatiladi, uni 212 mamlakat va hududdagi 1,5 milliard odam bir vaqtning o‘zida ko‘rish imkoniga ega.

BBC eshittirishlar korporatsiyasiga esa 20 dan ortiq telekanal va 14 ta radiokanal, bir qator saytlar va 40 ga yaqin jurnallar tegishlidir. VVS 40 dan ortiq tillarda eshitirishlar olib boradi.

Hozirda CNN tarkibida yangilik tarqatish bilan shug‘ullanadigan 14 ta kabel va sputnik kanallari, 2 ta radio stansiya, 6 ta internet sayti va xorijiy mamlakatlardagi 37 ta byuro faoliyat ko‘rsatmoqda

1991-yilning yanvarida aynan CNN yordamida Fors ko‘rfazida olib borilgan harbiy harakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri teleefirga uzatildi, 2001-yilning 11-sentabridagi terrorchilik amaliyoti haqidagi reportajlar ham shu kompaniya harakati tufayli butun dunyoga voqealari sodir etilgan joydan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatib turildi.

Reyxser axborot agentligi tizimida dunyoning 91 mamlakatida 14 000 xodim, shu jumladan, 2300 jurnalist, fotomuxbir va videoopratorlar ishlaydi.

Bugun internet tarmoqlarida o‘zini-o‘zi o‘ldirishning oson yo‘llarini targ‘ib etuvchi 9 mingdan, erotikaga oid 4 mingdan ziyod saytlar mavjud.

*Botichellining “Veneraning tug‘ilishi” asari yoki P.Rubensning “Yer va Osmon ittifoqi” rang tasvirida yalang‘och parivashlar respientda fahshni emas, faxr, havas, go‘zallikka oshnolik tuyg‘usini uyg‘otadi.*

*Maxsus kuzatishlardan ma'lumki, mayjud saytlarning taxminan 12% pornografik xarakaterga ega. Mayjud maxsus dasturlar internet tarmog'ida parnografiyaning 90% nigina filtrlaydi. Internetdan foydalanuvchi bolalar va o'spirinlar 42% onlayn pornografiya ta'siriga tushib qoladi. Kompyuter o'yinlarining 49% sezilarli darajada zo'rovonlik va yovuzlikni, 41% jangari otishmalarni namoyish etadi, 17% kompyuter o'yinlari ana shu otishmalarga, zo'ravonlikka qurilgan. Dunyoda internetdan foydalanuvchilarning 10% unga qaram, muntazam bog'lanib qolgan.*

### **I.A.Karimov**

*"Biz bugun yoshlارимизning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom tuyg'usini bolalik yoshidan boshlab shakllantirishimiz zarur".*

***Sh.M.Mirziyoyev** - "Yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yoshlarni turli ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy vazifa bo'lib turibdi"*

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Ma'naviy tahdid deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'naviy tahdid ko'rinishlarini, vositalarini sanab, tavsiflab bering.
3. Siz yashayotgan ijtimoiy muhitda yoshlar ma'naviyatini qanday baholaysiz?
4. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asaridagi asosiy g'oyalarni sanab bering.
5. Ma'naviy tarbiyaning samarasini oshirishda axloqiy qadriyatlarning o'rnini qanday tushunasiz?
6. Jamoangizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar sizni qoniqtiradimi?

### **Referat mavzulari**

1. Globallashuv ma'naviy tahdidmi?
2. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda xalq qadriyatlari va ma'naviyati.
3. Globallashuv va ommaviy axborot vositalari.
4. Axloqiy buzuqlik milliy ma'naviyatimiz kushandası.

5. Ma'naviyat negizi va ma'no-mazmuni.
6. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ma'naviy tahdidlar to‘g‘risida.
7. Talaba-yoshlarni ma'naviy tahidlarga qarshi kurash ruhida tarbiyalashning mexanizmlari.
8. Yoshlar o‘rtasida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish yo‘llari.

### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2017.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий маънавий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, НМКУ, 2013.
4. Сайдов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқат. – Тошкент: Akademiya, 2008.
5. Глобальные проблемы и общечеловеческие ценности. – Москва: Прогресс, 1990.
6. Глобаллашув. Оммавий маданият. Миллий ғоя. – Тошкент: Маънавият, 2009.
7. Глобальных проблем социального развития (философско-методологические аспекты). Кишинев:Шойинка, 1998.
8. Шайхова Х. Баркамол авлод – ахлоқий қадриятлар қуршовида. – Тошкент: Фалсафа ва хукуқ институти нашриёти. 2010.

## **16-MAVZU: MA’NAVIY TAHDIDLARNING OLDINI OLISHDA OILA VA MAHALLANING O‘RNI**

### **REJA:**

1. Oila va mahalla-fuqarolik jamiyati mustaqil institutlaridan biri sifatida.
2. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda oilaviy tarbiyaning o‘rni va ahamiyati. Oila sog‘lom bo‘lishi – jamiyat va mamlakat barqaror bo‘lishinung muhim sharti.
3. Yoshlarda mafkuraviy kurashchanlik, ogohlik va hushyorlik tuyg’ularini shakllantirishda mahallaning o‘rni va ta’siri.
4. Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyatlar, udum va an’alarimizning tiklanishi.

Inson ma’lum mikro muhitda – oilada tug‘ilib o‘sadi. Undagi go‘zal va olivjanob fazilatlar ham, deviant xulq-atvorlar ham, yon-atvorlarga, jamiyatga beparvolik, shuningdek indifferentlik ham ana shu mikromuhitdan olgan ta’sirlar mahsuli hisoblanadi. Oiladagi diaxron va sinxron aloqalar, qaror topgan qadriyatlar shaxs, inson ongiga singadi, unda xulq-atvorni, dunyoqarashni, munosabatlarni shakllantiradi. “Dunyo, - deb yozadi, A.Fitrat o‘zining “Oila” asarida, hamma uchun umumiylar sinov maydonidir. Odam ota-onasi tarbiyasi doirasidan chiqar ekan, hayotini davom ettirib, izzat va sharafga ega bo‘lish uchun majburan shu maydonga kiradi, sa’y-harakat qiladi, yo o‘z maqsadiga erishadi yoki sharafsiz va xor bo‘lib qoladi. Qaysi millatning namoyondalari sa’y-harakat egasi bo‘lsalar, qo‘l-oyog‘i kuchli va chaqqon hamma a’zolari sog‘ va faol, izzat va e’tibor sohibi bo‘ladilar, qaysi qavmning namoyondalari harakat va intilishdan mahrum bo‘lsa, qo‘l-oyog‘i dardmand kishiga o‘xshab zaif va nozik bo‘ladi. Uylanish sunnatini qabul qilgan kishi xotin va bola-chaqasini tarbiyalab, boqish uchun o‘zini kasb-korga uradi, harakat va amal yo‘liga qadam qo‘yadi. O‘zini va oilasining tinchligi va farovonligini ta’minalash uchun harakat qiladi. Shu yo‘l bilan mo‘min odam o‘zini xorlik va pastlik jarligidan qutqaradi. Qaysi millatning namoyondalari shu yo‘l bilan tinchlik va totuvlikka erishgan bo‘lsalar, o‘sha millat hurmat va xotirjamlikda bo‘ladi”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари.—Тошкент: Маънавият, 2016.-15 б.

Oila qurish, unda farzandlar tarbiyalash shunchaki amal, zaruriyat emas, u insonni “xorlik va pastlik jarligi”dan qutqaruvchi institutdir. Bunday ayanchli qismat oiladan voz kechishga yoki undan ayricha yashashga intiluvchi har bir shaxsning kelajagidir. “Odamlar avval oila shaklida jam bo‘ladilar va bir nechta oiladan qavm paydo bo‘ladi. Ma’lumki, bir qavmning har bir oilasi saodatli va baxtli bo‘lmalar, o‘sha qavmni baxtiyor va baxtli deyish xatodir. Hamda oila a’zosidan birortasi baxtli bo‘lmasa, o‘sha oilani baxtli deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Madomiki, qavm oilalardan va oila alohida odamlardan tarkib topgan ekan, “ozdan ko‘pgi” deganidek aytish mumkinki, har qavmning saodati shu qavm oilalarining baxtiyorligidan va har oilaning saodati shu oila a’zolarining baxtiyorligi va baxtliligi bilan bog‘liq”<sup>1</sup>.

Bir qarashda Fitrat gaplarining globallashuvga hech qanday aloqasi yo‘qdek tuyiladi, chunki baxt va baxtiyorlik globallashuvdan kechadigan jarayon. Biroq nima uchun inson oila quradi, degan savolni o‘zimizga bergen zahoti oila qurish negizi – insonning baxtiyor yashashga intilishi va ehtiyojning mavjud ekanligidandir degan xulosaga kelamiz. Inson bunday baxtni faqat yaqin kishilar davrasida bo‘lganidagina his qila olishi mumkin, bu muqaddas maskan oiladir. Inson aziyat chekib mehnat qiladi, biror nima yaratish, o‘zidan iz qoldirishga intiladi, chekkan aziyatlari va topgan narsalarini kimlar bilandir bo‘lishgisi, baham ko‘rgisi keladi. Bu borada u oiladan boshqa mikromuhit bo‘la olmaydi.

Globallashuv sharoitida kishilararo munosabatlar, ayniqsa oiladagi munosabatlar davr sinoviga ro‘para keladi. Globallashuvning ziddiyatli xususiyatlari oiladagi munosabatlarga ta’sir etmay qolmaydi. Masalan, migratsiya, internet, integratsiya va modernizatsiya o‘zidan-o‘zi ro‘y bermaydi, ular, avvalo, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir qiladi. Migratsiya kishilarni boshqa muhitga, o‘zgacha tasavvurlar va qadriyatlar ustuvor diyorga moslashishga majbur etadi. Migratsiyaning Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidan AQSH va Yevropaga ko‘chish tarzida sodir bo‘layotganini eslasak, an’anaviy oila instituti qanday sinovga ro‘para kelayotganini payqaymiz.

---

<sup>1</sup> Ўшма acap. 16-176.

Oila bo‘yicha mutaxassislar yozadi: “G‘arbda oila degan tushuncha yana 20-30 yil o‘tib mutlaqo ishlatilmay qolsa, hayron bo‘lmayman. Tezkor va o‘zgaruvchan hozirgi davrimiz uchun erkin munosabatlar bir oz qulayligi va ortiqcha mas’uliyat yuklamasligi bilan urf bo‘lib kelmoqda. Afsus, bunday qulay munosabatlar tug‘ilajak farzandlarning ruhan sog‘lom va komil inson bo‘lishiga soya soladi. Eskicha avtoritar oila tushunchasi hozirgi demokratik ruhda tarbiyalanayotgan avlod uchun to‘g‘ri kelmas, ammo rusum bo‘lib borayotgan erkin munosabatlar asosidagi turmush tarzi nafaqat bizning mentalitetga, balki butun insoniyat kelajagiga raxna solmoqda”<sup>1</sup>.

Oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlarni bunday fojia tarzida izohlash to‘g‘ri emas. Bu o‘zgarishlar oila institutini inkor qilayotgani yo‘q, ammo er-xotin munosabatlarini yangicha tashkil etishni olib kirmoqda. Bu munosabatlarni biz “ixtiyoriy demokratik munosabatlar” deb atashimiz mumkin. Ya’ni oila endi erkakni boquvchi, ayolni uy-o‘choq qo‘riqlovchisi deb emas, balki ularning huquq va erkinliklarini to‘la e’tirof etadigan, bir-birining qiziqish va intilishlariga xalaqit bermaydigan, ammo farzandlarni birga tarbiyalaydigan mikromuhitdir. Ha, farzandlar ma’lum bir ma’suliyatni er-xotin o‘z zimmalariga olishni talab qiladi. Ayol har doim ham o‘zini, farzandlarini moddiy ta’minalash imkoniga ega bo‘lavermaydi. Masalan, u homilador paytida, farzandi bog‘cha yoshiga yetguncha erkakning moddiy yordamiga muhtoj. Bu o‘rinda erkakni ma’suliyati ayolnikidan ko‘proq bo‘ladi. Bunday mas’uliyatni tarbiyalash “ixtiyoriy demokratik munosabatlar” doirasida amalga oshirishni taqozo etadi. Ko‘pincha oiladagi “san-man” va ajralishlar ushbu mas’uliyatga munosabat bilan bog‘liq bo‘ladi. Statistik ma’lumotlar ko‘rsatadiki, dunyoda rasmiy e’tirof etilgan 1000 oilaning 600 ajralishadi, 350 tasi bir kvartirada yashasa-da, bir-birining hayoti bilan qiziqmaydi, bir-biriga yordam bermaydi, hatto bir-birini ko‘rishiga ko‘zi yo‘q. Demak, 1000 oiladan atigi 50 ga yaqini barqaror baxtiyor<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Халилова Ш. Оила номли давлат сирлари. —Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.-86.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

Ba'zan oilaviy munosabatlarning buzilishiga internet ham sababchi bo'ladi. To'g'riroq'i, internetdan noto'g'ri va o'rinsiz maqsadda foydalangan kishi sababchi bo'ladi. Yuqoridagi mutaxassisimiz ibratli bir misol keltiradi. U yozadi: "O'zbegimning zamonaviy qizlaridan biri muammoli bir vaziyatda maslahat so'radi. U bir chet ellik yigit bilan tanishgan. Yigit Sharq mamlakatidan bo'lishiga qaramay, oxirgi o'n yil ichida Yevropada yashagan va shubhasiz, yangi muhit ta'siridan bebahra qolmagan. Yevropa go'zallari erita olmagan qalbni o'zbegimning qizi rom etgan oshiq yigit oila qurish taklifini kiritgan. Qiz ham doimiy telefon muloqotlardan so'ng unga befarq emasligini anglagan va nikohga rozi bo'lgan. To'yga bir nechta kun qolganda qizning internetdagi manziliga yigitning oilasi borligi haqida xabar va uning isboti o'laroq bir necha fotosurat kelib tushganini ko'radi. Xabarda oshiq yigitimizning oilasi bor ekanligini uning xotini da'vo qilib jo'natgan xabardan juda og'ir ahvolga tushgan qizni o'ziga keltirish oson ketmadi. Keyin vaziyatni birgalikda o'rganishga kirishdik. U ayoldan haqiqatda xotini ekanligi haqida hujjat, ya'ni nikoh guvohnomasini va to'y suratlarini isbot sifatida talab qildik, ammo bu fuqarolik nikohi ekani ma'lum bo'ldi, munosabatlar esa barham topganiga olti oy bo'libdi. Qizimiz bilan tanishganiga esa to'rt oy bo'lgan. Mantiqan olib qaralsa, yigit ikki yuzlamachilik qilmagan, qizni aldamagan, faqatgina bu munosabatini aytmagan yoki aytishga arziydi deb ham o'ylamagan. Sobiq xotini esa hech qanday haq-huquqlari yo'q, munosabatlar esa o'z nomi bilan erkin bo'lgan, ya'ni kim qachon xohlasa, shunda hisob berib o'tirmasdan o'yindan chiqadi deb kelishilgan. Mana sizga sanoqda bor-u sonda yo'q bo'lgan erkin munosabatlarning ahmoqona tarafi..."

Erkin munosabatlar xuddi,sovun pufagiga o'xshaydi. Uni mahorat bilan har xil shaklga solsa bo'ladi. Bir qarasang, oilaga o'xshaydi, bir qarasang, har kuni har xil tovlanadigan, yurakni orziqtiradigan oshiq-ma'shuqlik o'yiniga o'xshaydi. Ammo istalgan vaqt yorilib, undan asar ham qolmasligi tayin. Bu munosabatlar insonda mas'uliyatsizlik, betayinlikdan boshqa narsani kashf eta olmaydi. Eng yomoni shunday tutruqsiz munosabatlar natijasi o'laroq farzand dunyoga kelsa-chi, uning taqdiri nima bo'ladi? Qolaversa, bunday munosabatlar homilasining taqdiri bitta

taqdir fojiasi bilan yakunlansa, mayliydi. U insoning taqdirini boshi berk ko‘chaga olib kirmayaptimi? Agar g‘arb oilasi tanazzulga borayotgan bo‘lsa, nega u ijtimoiy taraqqiyotda oldinda? Nega davlatlar, xalqlar ushbu taraqqiyot darajasini o‘ziga ibrat, model qilib olayapti? Chamasi, bizning fikrimizcha g‘arb oilasi inson huquq va erkinliklarini chuqur e’zozlash prinsipiga qurilgan. Bu prinsipning himoyachisi, avvalo, shaxs oila emas. Bizda uni oila, ota-ona, an'analar, etnostreotipler belgilaydi. Shunga qaramasdan, respublikamizda ajralish yiliga 10-13% oshib bormoqda. Demak, oila demokratiyasi bilan etnostreotipler o‘rtasida muayyan ziddiyat mavjud.

Ma’naviy tahdidlar turlicha bo‘ladi:

- ochiqdan ochiq o‘zgacha oilaviy qadriyatlar va munosabatlarni targ‘ib etish;
- fohishabozlik, g‘ayriaxloqiy normalarni qo‘llab-quvvatlash;
- “ish bilan ta’minlash” bayrog‘i ostida xotin-qizlar savdosini uyushtirish;
- internet tarmoqlarida erotikani, pornografiyani, hayvoniy instinktni, fahsh va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi videotasvirlarni, saytlarni ochish;
- “global madaniyat” va “global fuqarolik jamiyati” shiori bilan etnomadaniyatlarga, etnoan‘analarga salbiy munosabatlar shakllantiruvchi tadqiqotlar o‘tkazish, asarlar chop etish;
- bir jinsli nikohlar, gey va lesbiyankalar harakatini, chiqishlarini uyushtirish va hokazolar.

G‘arb ushbu tahdidlarni etnomadaniyatlarga qarshi qaratilgan tadbirlar deb emas, balki o‘z demokratik hayat tarzining bir ko‘rinishi, deb qaraydi. AQSHda pornografik tasvirlar chiqaruvchi kinostudiylar bor. Germaniya, Nederlandiya kabi Yevropa davlatlarida fohishabozlikka rasmiy ruxsat etilgan. Bular g‘arb madaniyatining tarkibiy qismiga aylangan. Ular xizmatidan foydalanish kishilar ixtiyoridadir.

Sog‘lom oila sog‘lom jamiyat asosidir. Oilaning sog‘lomligi, avvalo, oila a’zolarining qo‘lida. Agar oila sog‘lom bo‘lsa, tashqi tahdidlar uni buzolmaydi. Bundan oilaning mustahkam bo‘lishi er-xotinning o‘zlariga, ular o‘rtasidagi

munosabatlarning ishonch va muhabbat rishtalari asosida qurilganiga bog‘liq ekan degan xulosaga kelish mumkin. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev deydi: “Biz odatda jamiyatimiz hayotiga qarshi qaratilgan xavf-xatarlar haqida gapirganda, ko‘pincha chetdan kiradigan tahdidlarni tushunamiz. Lekin eski zamondan qolgan ayrim salbiy holatlar, afsuski, bugungi tinch va yorug‘ hayotimizga soya solib turibdi. Loqaydlik, bir-birini ko‘ra olmaslik, oilada er-xotin, qaynona-kelin, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi kelishmovchilik, ayollarga bepisand qarash bunday yaramas illatlar bizga, bizning xalqimizga mutlaqo yarashmaydi”<sup>1</sup>.

2018-yil 27-iyunda prezidentimiz qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiysi qabul qilindi. Unga muvofiq “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib har bir oilani o‘rganib chiqish, yuzaga kelgan noxush hollarning, ajralishlarning oldini olish, ma’naviy muhitni yaxshilash vazifa qilib belgilandi. Respublika “Oila” ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan qarorda esa oila institutining milliy modelini yaratish, oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlarning boislarini o‘rganish kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Respublikamizda 7 milliondan ortiq oila bor. Ulardan 2 millionga yaqini namunali oila sifatida e’tirof etilmoqda. Demak, 5 million oilalarda turli muammolar, kelishmovchiliklar mavjud. Statistik manbalar ko‘rsatadiki, ajralishgan oilalardagi ajralishlarning bosh sababchisi (47%) er-xotin o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Oilaviy nizolarning kelib chiqishi (25%) uchinchi tomon – qaynona, qaynota, qaynsingil sababchi bo‘lar ekan<sup>2</sup>.

Shuning uchun mutaxassislar, huquqshunoslar tomonidan er-xotin munosabatlariga uchinchi tomonning aralashishini taqilovchi me’yoriy hujjat qabul qilish zarurligi kun tartibiga qo‘yilgan.

Oiladagi ma’naviy muhitni ayol kayfiyati bilan o‘lhash keng tarqagan. Ayol o‘zini baxtiyor sezsa, demak, shu oila baxtli. Bu fikr, yondashuv bahsli, chunki, oilada boshqa kishilar er, farzandlar va oilaning boshqa a’zolari ham bor. Ularning

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтаримиз. Т.1.-Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2017.350-351б.

<sup>2</sup> Тошмуҳамедова Д. Баҳт қўргони мустаҳкам бўлсин// Халқ сўзи, 2019, 15 май.

fikri ham muhim. Bu o‘rinda bahs yuritish ortiqcha, u o‘zga tadqiqotni taqozo etadi. An’anaviy yondashuvga ergashib oiladagi ma’naviy muhitni ayol baxtiyorligi bilan izohlashga intilamiz.

Respublika “ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan “O‘zbekiston ayolları - 2017: ijtimoiy mavqe va kayfiyat” mavzusida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazilgan. Unga ko‘ra, respondent-ayollarning 88,1% o‘z hayotidan mammun, 76,1% esa o‘zini baxtli hisoblaydi. Bu ko‘rsatgichlardan kelib chiqsak, aksariyat ayollar o‘zini baxtiyor, oilasidan mammundir.

Oiladagi ma’naviy muhit bilan mahalladagi ma’naviy muhit o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Oilaviy ma’naviy muhitni asosan er-xotin, mahalladagi ma’naviy muhitni asosan katta yoshdagi kishilar, mahalla faollari, fuqarolar yig‘ini xodimlari, joylardagi infrastrukturalar shakllantiradi.

O‘zbek xalqi turmush tarzida mahalla instituti muhim o‘rin tutib kelgan. Mahalla oilaga nisbatan tashkilotchilik funksiyasini bajargan. Ayni qo‘ni-qo‘shnilarni u yoki bu tadbirlarga jalb etgan, yetim-yesirlar, qariyalar, yolg‘iz kishilar turmushidan xabar olib ularga zarur yordamlar uyushtirgan oiladagi noxush muhit mahallani ham bezovta qilgan, natijada u oilaviy munosabatlarga aralashgan. Bu aralishish ijtimoiy-tarbiyaviy va madaniy xarakterga ega.

Mahalla – jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va ushbu fikr orqali ma’naviy muhitni yaxshilovchi institut, mahallaning avtoriteti ko‘p asrlar davomida shakllangan etnoan‘analar, ushbu qadriyatlarning ijobiy ta’siri orqali belgilanadi. Farzandlarlar tarbiyasidan tortib to‘y-maraka, xasharlar uyushtirish, uylar atrofini obodonlashtirish, maishiy xizmat uylari ochish mahalla instituti tashabbusi, ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Mahalla o‘zbek xalqi etnomadaniyatiga oid to‘y, maraka, udum va an’analar, milliy qadriyatlarni asrash bilan shug‘ullanib keladi. Mustaqillik yillarida u tom ma’nodagi o‘zini o‘zi boshqarish organiga aylandi. Fuqarolar yig‘ini raisi(oqsoqoli)ni ochiq saylash mexanizmi joriy etildi. Bugun Respublikamizda 10 mingga yaqin mahallalar mavjud. Ularning har birida o‘rtacha 700 ga yaqin oila istiqomat qiladi.

Mazkur oilalardagi ma’naviy muhitni yaxshilash ishlari bilan prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan farmoniga muvofiq fuqarolar yig‘inida 2018-yil 1-apreldan joriy etilgan xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis shug’ullanadi. Ularning soni 8800 ta. Prezidentimiz farmoni bilan xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tuzildi, FHDYO idoralari xotin-qizlar qo‘mitasi raisiga bo‘ysundirildi.

Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm, ma’naviy tahdidlar kuchayib bormoqda. Bu tahdidlar yurtimizdagi osoyishtalikka raxna solmoqda, ko‘pgina yoshlarga salbiy ta’sir etib, ularning miyasini zaharlamoqda. Bu tahdidlardan yoshlarni asrash, avvalo, oila va mahallaning vazifasidir. To‘g‘ri, terroristik, ekstremistik guruhlarga yoshlari, kishilar turli sabablar bilan qo‘silib qoladi. Goho ular adashib, bilmasdan diniy ekstremistik oqimlarga ergashadi, g‘ayrimilliy va g‘ayri axloqiy qarashlarni targ‘ib etadi. Prezidentimiz bunday adashgan kishilarni avf etish lozim, deb topdi. Bu haqda u deydi: Ma’lumki, mamlakatimizda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish maqsadida diniy-ekstremistik oqimga mansub shaxs sifatida hisobga turadigan fuqarolarga nisbatan munosabatimizni butunlay o‘zgartirdik. Bunday shaxslarni o‘zimizga yaqin olib, dardiga qulqoq tutganimiz bugun o‘z natijasini bermoqda. Hozirgi vaqtda ana shunday minglab fuqarolar sog‘lom turmush tarziga qaytarildi<sup>1</sup>. Bu aslida xalqimizga xos bo‘lgan insonparvarlik, kechirimlilik, bag‘rikenglik an’analari va qadriyatlarning davomidir.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Sog‘lom oila, sog‘lom jamiyat, tashqi tahdid, ichki tahdid, xavf-xatar, loqaydlik, bir-birini ko‘raolmaslik, oilada er-xotin, qaynona-kelin, qo‘ni-qo‘shnilar, kelishmovchilik, ma’naviy muhit, mahalla faollari, fuqarolar yig‘ini, infrastruktura,

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2. – Тошкент.: Ўзбекистон. НМКУ, 2018. 474б.

etnoan'analar, to'y-ma'raka, hasharlar, xalqaro terrorizm, ekstremizm, ma'naviy tahdidlar insonparvarlik, kechirimlilik, bag'rikenglik, qadriyat.

### **Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar:**

**"Dunyo hamma uchun umumiy sinov maydonidir".**

*A.Fitrat "Oila" asaridan*

**Oila bo'yicha mutaxassislarning fikricha:** "G'arbda oila degan tushuncha yana 20-30 yil o'tib mutloqo ishlatalmay qolsa, xayron bo'lmayman. Tezkor va o'zgaruvchan hozirgi davrimiz uchun erkin munosabatlar bir oz qulayligi va ortiqcha mas'uliyat yuklamasligi bilan urf bo'lib kelmoqda. Afsus, bunday qulay munosabatlar tug'ilajak farzandlarning ruhan sog'lom va komil inson bo'lishiga sova soladi."

**Statistik  
ma'lumot**

Dunyoda rasmiy e'tirof etilgan 1000 oilaning 600 ajralishadi, 350 tasi bir kvartirada yashasa-da, bir-birining hayoti bilan qiziqmaydi, bir-biriga yordam bermaydi, hatto bir-birini ko'rishiha ko'zi yo'q.

**Demak, 1000 oiladan atigi 50 ga yaqini barqaror baxtiyor**

**Respublikamizda ajralish yiliga 10-13% oshib bormoqda.**

**Sh.M.Mirziyoyev** - "Biz odatda jamiyatchimiz hayotiga qarshi qaratilgan xavf-xatarlar haqida gapirganda, ko'pincha chetdan kiradigan tahdidlarni tushunamiz. Lekin eski zamondan qolgan ayrim salbiy holatlar, afsuski, bugungi tinch va yorug' hayotimizga soya solib turibdi. Loqaydlik, bir-birini ko'raolmaslik, oilada er-xotin, qaynona-kelin, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi kelishmovchilik, ayollarga bepisand qarash-bunday yaramas illatlar bizga, bizning xalqimizga mutlaqo yarashmaydi"

ochiqdan ochiq o'zgacha oilaviy qadriyatlar va munosabatlarni targ'ib etish: fohishabozlik, g`ayriaxloqiy normalarni qo'llab-quvvatlash;

internet tarmoqlarida erotikani, parnografiyani, hayvoni instinktni, fahsh va zo'rovonlikni yoyuvchi videotasvirlarni, saytlarni ochish;

### ***Ma'naviy tahdidlar turlichcha bo'ladi:***

"ish bilan ta'minlash" bayrog'i ostida xotin-qizlar savdosini uyuştirish;

bir jinsli nikohlar, gey va lesbiyankalar harakatini, chiqishlarini uyuştirish

"global madaniyat" va "global fuqarolik jamiyat" shiori bilan etnomadaniyatlarga, etnoan'analarga salbiy munosabatlar shakllantiruvchi tadqiqotlar o'tkazish, asarlar chop etish;

Respublikamizda 7 milliondan ortiq oila mayjud. Shundan:

2 millionga yaqini namunali oila

5 million oilalarda turli muammolar, kelishmovchiliklar mavjud

ajralishgan oilalardagi ajralishlarning bosh sababchisi (47%) er-xotin o'rtaсидаги зиддиатларидир

Oilaviy nizolarning kelib chiqishi (25%) uchinchi tomon – qaynona, qaynota, qaynsingil sababchi bo'lar ekan

*Respublika "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan "O'zbekiston ayollari – 2017: ijtimoiy mavqe va kayfiyat" mavzusida sotsiologik so'rovnomalar o'tkazilgan. Unga ko'ra, respondent-ayollarning*

88,1% o'z hayotidan mamnun

76,1% esa o'zini baxtli hisoblaydi

**Sh.M.Mirziyoyev** – "Ma'lumki, mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashdirish maqsadida diniy-ekstremistik oqimga mansub shaxs sifatida hisobga turadigan fuqarolarga nisbatan munosabatimizni butunlay o'zgartirdik. Bunday shaxslarni o'zimizga yaqin olib, dardiga quloq tutganimiz bugun o'z natijasini bermoqda. Hozirgi vaqtida ana shunday minglab fuqarolar sog'lom turmush tarziga qaytarildi".

## **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Oila instituti qanday tasavvur etasiz?
2. O‘zbek oilasining xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Globallashuvning oilaviy hayotga ta’siri nimalarda aks etadi?
4. Oilaviy ma’naviy hayotga tashqi va ichki tahdidlar deganda nimani tushunasiz?
5. Sog‘lom avlodning asosiy belgilari nimalarda ko‘rinadi?
6. Mahallaning oilani mustahkamlash va ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishdagi o‘rni nimalardan iborat?

## **Referat mavzulari**

1. A.Fitratning “Oila” asari va uning mazmun-mohiyati.
2. Yoshlarda mafkuraviy kurashchanlik ruhida tarbiyalash.
3. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda oilaviy tarbiyaning o‘rni.
4. Globallashuvning ziddiyatli xususiyatlarini oilaviy munosabatlarga ta’siri.
5. Sog‘lom oila sog‘lom jamiyat asosi.
6. Oiladagi ma’naviy muhit bilan mahalladagi ma’naviy muhit o‘rtasida uzviy bog‘liqlik.
7. Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyatlarning tiklanishi.

## **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2. –Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2018.
2. Ҳалилова Ш. Оила номли давлат сирлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.
3. Тошмуҳамедова Д. Баҳт қўрғони мустаҳкам бўлсин // Халқ сўзи, 2019, 15 май.
4. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2016.

5. Саифназаров Ф. Ўзбек оиласи : ижтимоий ва маънавий қадриятлар.  
–Тошкент: YURIST-MEDIA MARKAZI, 2007.
  6. Бўриев О., Усманов М. Ўзбек оиласи. –Тошкент : O`zbekiston, 2012.
- Икрамов Ш.Т., Қобилов Ш.Р. Мустақиллик, барқарорлик ва хавфсизликни таъминлаш осон кечган эмас... – Тошкент: ЎзР ИИВ Академия, 2013.

## **17-MAVZU: MA’NAVIY TAHDIDLARNING OLDINI OLİSHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARNING AHAMIYATI**

### **REJA:**

1. Ommaviy axborot vositalari – insonning qalbi va tafakkuriga ta’sir etadigan sohalardan biri sifatida.

2. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarning mavqeい. Ular bir vaqtning o‘zida ham axborot maydoni hamda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasining bajarishi.

3. Ommaviy axborot vositalari zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va so‘z erkinligi prinsiplarini amalda ta’minalashga erishish borasidagi dolzarb vazifalar.

4. Turli g‘oyaviy tahdidlarni oldini olishda, yoshlarni ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar xurujidan asrab qolishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati.

Bugun ijtimoiy hayotni, demokratik taraqqiyotni OAVlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Aynan OAV so‘z erkinligini, axborotlar olish va tarqatish imkonini bermoqda. Bugungi kunda OAV ning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va ta’siri oshib bormoqda. OAV o‘zining faol pozitsiyasini bildirib, ijtimoiy borliqni o‘zgartirishga, kishilarda demokratik qarashlarni shakllantirishga xizmat qilmayotgan dunyoning biror nuqtasi yo‘q. Mutaxassislar fikricha, 2025-yilga borib dunyo aholisining 90%i internet axborotlaridan foydalanadigan bo‘ladi, axborot markazlarining roli va o‘rnii, demak, ma’rifiy-targ‘ibiy ishlar, keskin oshadi. Bugun AQSHda har yuz kishiga bittadan gazeta, Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa to‘rt yuz kishiga bittadan gazeta, jurnal, axborot byulletenlari to‘g‘ri keladi. Jamiyatning ijtimoiy hayoti shu zaylda rivojlanishda davom etsa, kelgusida OAV soni yanada ko‘payadi. Hatto oilaviy gazeta, jurnallar, internetda nafaqat shaxsiy, xuddi shuningdek axborotlar almashishga qaratilgan oilaviy saytlar paydo bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga axborot texnologiyalari badniyat kishilar uchun oson doramad manbaiga aylanayotgani kuzatiladi. Masalan, G‘arbdagi xakerlarning banklardagi kompyuter tizimiga suqilib kirib, milliardlab dollar o‘g‘irlashayotgani, kompyuter viruslari yordamida iqtisodiyotga, boshqaruv ishlariga katta zarar yetkazayotgani,

yoshlar ongida trivial, g‘ayriaxloqiy qarashlar uyg‘otayotgani haqida istagancha misollar keltirish mumkin. Masalan, AQSH kompyuter huquqbuzarligi oqibatida har yili taxminan 100 milliard, Buyuk Biritaniyada 4,45 milliard, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 30 milliard AQSH dollari miqdorida zarar ko‘radi. Ayrim yillarda yo‘qotishlar hajmi yiliga 430 foizdan oshdi<sup>1</sup>.

OAV va kommunikatsiya texnologiyasi bugun g‘oyaviy kurashlar maydoniga aylanib qolgan. OAVning har biri nafaqat o‘z uslubini, tematikasini, xuddi shuningdek, o‘zining g‘oyaviy ustakovkasini ommalashtirish, yoyish uchun kurashadi. Ular ijtimoiy fikrni o‘z tasavvurlariga, nazariy-g‘oyaviy ustakovkalariga muvofiq shakllanishini istaydi. To‘g‘ri, o‘z g‘oyalarini targ‘ib etmaydigan nashr, OAV yo‘q. OAVlardagi so‘z erkinligi aynan ana shu o‘ziga xoslikdadir. Ammo axborotlar xolis, obyektiv va qonun doirasida bo‘lishi darkor, OAV xodimlari kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni, oliyanob, insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirish zarur. Aks holda OAV ijtimoiy-madaniy va gumanistik funksiyalarini unutadi, buzg‘unchi mafkuralar targ‘ibotchisiga aylanadi.

Inson qalbi va tafakkuri juda nozik, insitiv tuyg‘ular makoni hisoblanadi. Uni istagan tomonga burish, o‘zgartirish mumkin. Barqaror ideal, ustakovka va dunyoqarash shakllanmaguncha kishilar qalbi va tafakkuriga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida qoladilar, hatto hayotiy tajribaga, ma’lum bir g‘oyaviy ustakovkaga ega, ilm-fan vakili ham tashqi ma’naviy tahdidiga egilib, bo‘ysunib qolishi mumkin. Egilmaydigan, o‘zgarmaydigan dunyoqarash yo‘q, subyektiv omilning o‘zgaruvchanligi sababli kishi tashqi ma’naviy, g‘oyaviy tahdidlarga ergashib qoladi, yon bosadi.

Ommaviy axborot vositalari jamiyatda o‘z mavqeiga ega. Ular:

*birinchidan*, qonun bilan himoyalanadi;

*ikkinchidan*, ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy-ilmiy funksiyalarini bajargani uchun jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi;

*uchinchidan*, kishilarning axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi;

<sup>1</sup> Карапг: Глобаллашув, Оммавий маданият. Миллий ғоя.-Тошкент: Маънавият, 2009.-626.

*to ‘rtinchidan*, shaxsga axborot olish va axborot tarqatish imkonini beradi; *beshinchidan*, ommaviy-tarbiyaviy xarakterga ega, shu nuqtayi nazardan ijobiy fazilatlarni, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida e’tirof etiladi, e’zozlanadi;

*oltinchidan*, shaxsga ilmiy, badiiy-estetik ijod bilan shug’ullanish imkonini beradi.

Bu funksiyalarni yana davom ettirish mumkin, biroq, muhimi shundaki, OAV xalqni, millatni tashqi mafkuraviy xurujlardan asrashidir. OAV hozir javobligi, ijtimoiy fikrga tez ta’sir etishi, barqaror qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari bilan qadrlidir. Uning ijtimoiy mavqeい jamiyat ongi va ma’naviy hayotiga ta’sir eta olishida namoyon bo‘ladi.

Globallashuv axborotlar rang-barangligini oshirmoqda, yangi-yangi axborotlar tarqatish uchun AQSH va Yevropada minglab xodimlariga ega, professional darajada axborot texnologiyasi sirini egallagan radio, telekompaniyalar mavjud. Ular dunyoning istagan burchagidan o‘ziga zarur axborotlarni oladi va uni sanoqli daqiqalarda dunyoga yozadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, 30 minnutdan keyin olingan axborotning 60 foizi, kun oxiriga kelib 40 foizi, hafta oxiriga kelib 10 foizi yodda qoladi. Axborotning bunday tez eskirishi, unutilishi kishini yangi-yangi manbalar izlashga undaydi. Agar uning bu ma’naviy-ruhiy ehtiyoji qonmasa, u noto‘g‘ri yoki ko‘cha axborotlaridan foydalanadi. Shuning uchun ham ma’naviy tahdidlar ko‘cha axboroti sifatida tez tarqalish xususiyatiga ega. U kishilar yashaydigan, istiqomat qiladigan joylarda “faollar”ni izlab topadi, bu “faollar” mafkuraviy xurujni amalga oshiradilar.

Noto‘g‘ri, real hayotdan uzoq, milliy manfaatlarga zid axborotlar bir qarashda yangi, ko‘pchilik bilmaydigan, hatto qiziqarli ko‘rinadi, biroq ularning mohiyati, asl maqsadi keyinroq ayon bo‘ladi. OAV shunday axborotlarning asl mohiyatini, maqsadini ochib bergenligi uchun alohida mavqega ega. Mafkuraviy xurujning milliy ma’naviyatga tahdidi shundaki, undan foydalanib, millatning o‘ziga xosligiga zid bo‘lgan salbiy xususiyatlarni uning ongiga singdirish, o‘z zaminlaridan mahrum

qilish va shu yo‘l bilan uni o‘zligidan judo qilishdadir. Mafkuraviy ta’sir o‘tkazish jarayoni uzoq davom etishi sababli olib borilgan barcha xatti-harakatlarning natijalari ham inson va millat ongini mustahkam egallaydi. Shuning uchun ham ongni g‘arazli-g‘oyalilar, milliy ma’naviyatga zid qadriyatlardan qutulish murakkab. Chunki mafkura turli qarashlar va g‘oyalarni inson va millat ongiga aqidaga aylantirish qudratiga ega bo‘lgan omil hisoblanadi.

Aqidadan qutulishdan ko‘ra, uning oldini olish mafkuraviy xurujlarga barham berishning eng maqbul yo‘lidir.

Mafkuraviy xuruj zamirida ma’lum bir g‘arazli maqsad va manfaatlar turadi. U muayyan millat, jamiyat va davlatni zaiflashtirish, ularni o‘ziga tobe qilish, moddiy resurslarni qo‘lga kiritishni nazarda tutadi. Ularni anglab yetish uchun milliy birlik mustahkam, siyosiy ong va tafakkur yetarli darajada qaror topgan bo‘lishi zarur. Agar kishida siyosiy ong zaif, milliy birlikni asrash g‘oyasi yetarli shakllangan bo‘lmasa, tashqi-ma’naviy, mafkuraviy va g‘oyaviy tahdidlar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. OAV ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy minbar vazifasini o‘tar ekan, u kishilarni ijodkor shaxslar bo‘lishiga, tarqalayotgan axborotlarga ijodiy munosabatlar bildirishga undaydi. Badiiy-estetik ijod uchun makon vosita vazifasini o‘taydi. Maxsus tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, OAVdagi ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik ijodga oid materiallar o‘quvchilar diqqatini ko‘proq o‘ziga jalb etadi. To‘g‘ri, ijtimoiy-siyosiy mavzular bilan ko‘proq erkaklar qiziqadi, aksariyat ayollarni esa maishiy-oilaviy, tibbiyot bilan bog‘liq mavzular qiziqtiradi. Badiiy estetik ijod mavzulari erkaklarni ham ayollarni ham bab-barobar qiziqtiradi.

Globallashuv dam olish va hordiq chiqarishni alohida soha, voqelikka aylantirmoqda. Transmilliy madaniy-maishiy muassasalar, maskanlar (Mc Donald, KFC, RED Houze) an’anaviy dam olish shakllarini, maskanlarni o‘zgartirib yubormoqda. Tez, sifatli, ozoda-sarishta xizmat qiladigan bu kafelar uzoq vaqtini, tayyorgarlikni taqozo etadigan an’anaviy choyxona-oshxonalarini siqib chiqarmoqda. Ko‘pgina oilalar ana shu zamonaviy, g‘arbona madaniy-maishiy maskanlarda

ovqatlanishga, hordiq chiqarishga o‘rganib qolishgan. Demak, globallashuv rekreatsiya sohasini ham o‘zgartirmoqda.

Globallashuv milliy OAV o‘zi shartlarini qo‘ymoqda. Birinchi sharti shundaki, milliy OAV transmilliy OAV bilan raqobatlashishi, ular kabi tezkor, hujumkor, ommaviy bo‘lishi zarur. OAV ichidagi raqobat, kim o‘zdi iqtisodiy sohadagi raqobatlardan kam emas, hatto ulardan ham keskin, jiddiydir. BBC, SNN, “Ozodlik”, “Yevropa ovozi”, “Washington post”, “English News”, “Today News”, “Время” kabi dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida o‘z muxbirlariga ega, mashhur agentliklar bilan raqobatlashishi oson emas. Shuning uchun milliy OAV o‘sha mashhur agentliklar tayyorlagan materiallardan foydalanishga, axborotlarni demak, ikki-uch kun keyin uzatishga majbur. Hozirjavob bo‘lmaslik, tezkorlikning yetishmasligi milliy OAV ning mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Globallashuvning milliy OAVga qo‘yayotgan ikkinchi sharti axborotning professional darajada, uzatilishidadir. Muxbir, jurnalist, operator kasb-koridagi kamchilik tezda ko‘zga tashlanadi va axborotning ta’sirchanligini susaytiradi.

Uchinchi sharti esa obektivlik va ijodiy usullardan samarali, o‘rinli foydalanishdadir. Har qanday hodisani, axborotni turlicha, goho g‘arazli maqsadga tarqatish mumkin, goho OAV sensatsiya uyg‘otish uchun hodisani, axborotni bo‘rttirib ko‘rsatishga intiladi. Bu bilan u “uxlayotgan” yoki “mudrayotgan” o‘quvchini harakatga keltirmoqchi, uni qiziqishini oshirmoqchi bo‘ladi. Bunday yondashuvlarni taqiqlab bo‘lmaydi, ammo u etnomadaniyatga, etnoan’analarga qarshi qaratilsa yomon.

OAV so‘z erkinligini amalda ta’minalash vositasi hisoblanadi. Axborot olish va tarqatish ana shu erkinlik ifodasidir. O‘zbekistonda OAV soni 1500 dan ziyod. So‘z erkinligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya hamda sohaga oid qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan kafolatlangan. Shunday bo‘lsa-da milliy OAVning jahonga mashhur agentliklar bilan raqobatga, ijodiy musobaqaga kirishishi qiyin kechmoqda. “Bugun biz, – deydi davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev, – uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizdagi demokratik o‘zgarishlarni

yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo'yicha ham hali ko'p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunamiz. Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi zarur. Bu – zamon talabi, islohotlarimiz talabi"<sup>1</sup>. Prezidentimiz OAV faoliyati samarasini oshirish, ularning xalq bilan muloqatning ishonchligi vositasiga aylantirish, zamonaviy axborot xizmatlari bozorini shakllantirish masalalarining dolzarbligini ta'kidlaydi.

Bugun milliy ma'naviyatga qarshi xurujlar, g'oyaviy tahdidlar asosan OAV orqali amalga oshirilmoqda. Bu tahdidlar, asosan, yoshlarga qaratilgani uchun ham xavflidir. Hali ongi, dunyoqarashi, hayoti maqsadi va ideali shakllanib ulgurmagan yoshlar bu xurujlar asl mohiyatini tushunib yetavermaydi, yengil-yelpi kuy, xabar, qo'shiq, mahsulot tarzidagi g'ayrimilliy narsalar ularga yangilik, maftunkor ko'rindi. Goho ushbu g'ayrimilliy narsalarni milliy OAVning o'zi targ'ib etib qoladi. Masalan, "Xalq so'zi" yoki "Нородное слово" gazetalarida tez-tez banklar faoliyatiga oid reklamalar, axborotlar berib turiladi. Goho ular gazetalarning oxirgi sahifalarini butunligicha egallaydi. Banklar rahbarlari davlatimiz rahbari ushbu gazetalarni o'qib berishini bilishadi va o'quvchiga hech qanday yangilik bermaydigan xabarlarni ko'z-ko'z qilishadi. Axir bank tizimining o'z nashrlari bor-ku? Bundan tashqari, mazkur gazeta O'zbeklarga "majburiy-ixtiyoriy" obuna qildirish odati saqlanib qolmoqda. Bir oliy o'quv yurtida barcha kafedralar, dekanatlar, kasaba uyushmasi, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qo'mitasi, goho talabalar guruhlari ham obuna qilinishini holatlari kuzatilmoqda. Bunday tartib bilan OAV ta'sirchanligini, tezkorlik va obyektivlik prinsiplariga rioya qilinishini ta'minlash mushkul. Bunday "majburiy-ixtiyoriy" obuna qildirgan nashrni kishi, ayniqsa yoshlar o'qimaydi, shubhasiz. Ular gazeta o'qigandan internetdagi saytlarni tomosha qilishni afzal ko'rishadi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2.-Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2018. -485-486б.

Bizda OAVning roli, ta'sirchanligi haqida ko'p gapirishadi. Prezidentimiz kitob mutolaa qilish masalasini kun tartibiga qo'ygach barcha OAV kitob o'qish to'g'risida ovoza tarqata boshladi. Axir ularning azaliy va muqaddas vazifasi kishilarni, xalqni ilmli, ma'rifatli, o'qimishli qilish emasmi? CHamasi bizning OAV ichki hadik senzuradan kutilmagan, jurnalistlarimizda g'ayrat, dadillik va kasb-mahorat yetishmaydi. "OAV orqali amalga oshiraladigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbanlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot, dushmanni yo'q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda, yuqori samara beradi. Bunday g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istiklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgani holda, asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishiga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kengaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta'sir o'tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televide niya fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanmoqda"<sup>1</sup>.

OAVda amalga oshiraladigan ma'naviy, g'oyaviy xurujlarni tez ilg'ash, ularga qarshi usullar qo'llash, ko'zlangan ijobiy natijalarga erishish oson emas. OAV qanchalik tez, ta'sirli va keng tarqalgan bo'lmasin, ular ma'naviy-tarbiyaviy jarayonlarning atiga bir qismi, bir yo'nalishi xolos. Ma'naviy, g'oyaviy tahdidlar avvalo moddiy yetishmovchilik, ichki nizolar va ongi bo'sh kishilar orasida tez tarqalishi xususiyatga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ishsizlik,adolatsizlik, korrupsiya, oilaviy nizolar ro'y beradigan muhitdagi kishilar tashqi tazyiqlar ta'siriga tez tushib qoladilar. Mazkur ijtimoiy-psixologik omilni hisobga olmaslik har qanday tarbiyani, targ'ibotni besamar qiladi.

OAV xodimlaridagi kasbiy mahorat masalalari ko'pdan beri ilmiy doiralarda, jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinadi. Ammo, milliy jurnalistika tub yangilanishga muhtojdir. Prezidentimizning maxsus qarori bilan O'zbekiston

<sup>1</sup> Глобаллашув. Оммавий маданият. Миллий ғоя. – Тошкент: Маннавият, 2009.9-106.

jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etilganidan ko‘zlangan maqsad ham jahon standartlariga mos keladigan bilimga, mahoratga, tajribaga ega mutaxassislarni tayyorlashdir.

OAVlar soni qanchalik muhim bo‘lmasisin ular berayotgan materiallar o‘quvchi ham ularni obyektiv baholay olishi lozim. Jurnalist va o‘quvchi muammosi bevosita ma’naviyatga, OAVlar sohasiga, yoshlarni g‘oyaviy xurujlardan asrashga borib taqaladi. Agar o‘quvchida materiallarni o‘qishga qiziqish bo‘lmasa u iqtisodiy, moddiy va oilaviy tashvishlar bilan band qolsa, shubhasiz, u OAVdagi axborotlarni o‘qimaydi. Bugun o‘zbek jurnalistikasida jonlanish, yon-atrofga tanqidiy qarash, xalq, kishilar dardini ochiq aytish an'anaga aylanmoqda. Ammo, o‘tgan o‘n yilliklarda ijtimoiy ongda shakllantirilgan “men senga tegmayin, sen menga tegma”, “o‘ynashmagin arbob bilan arbob urar har bob bilan” degan naqlarga muvofiq yashash, fikrlash o‘zbek o‘quvchisida OAVga befarqlik, ishonmaslik, qiziqmaslik tuyg‘usini tarbiyalagan. Prezidentimiz bu haqda fikr bildirib, tanqidiy tahvilni o‘z faoliyatining mezoniga, usuliga aylantirgan, ba’zi OAVlarda qiziqarli, dolzarb materiallar uchrab qolmoqda. Ammo ularga o‘quvchining munosabati faol emas. Bugun OAV o‘quvchilarni hamkorlikka chaqirmaqda, ularni yangi, muhit va dolzarb materiallar kutmoqda. OAV o‘quvchidan keladigan har bir xabarni, maqolani berishga tayyor, ammo o‘quvchi o‘z so‘zini, fikrini bildirishga shoshilmayapti. Bunday befarqlik ham ma’naviy, g‘oyaviy tahdidga yo‘l oolib beradi. Ijtimoiy faol shaxsni shakllantirmay turib yoshlar qalbiga, ongiga g‘oyaviy immunitetni joylab bo‘lmaydi, – deb ta’kidlaydilar.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Globallashuv, milliy, axborot, professionallik, muxbir, jurnalist, operator, so‘z erkinligi, qonunlar, ommaviy axborot vositalari, to‘rtinchchi hokimiyat, milliy ma’naviyat, xuruj, g‘oyaviy tahdid, dunyoqarash, xabar, qo‘sish, yangilik, ilm-ma’rifat, g‘ayrat, dadillik va kasb-mahorat, g‘oyaviy xuruj, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ishsizlik,adolatsizlik, korrupsiya, bilim, mahorat, tajriba, so‘z, fikr, befarqlik.

## Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar:

**Mutaxassislar fikricha** – 2025-yilga borib dunyo aholisining 90% internet axborotlaridan foydalanadigan bo'ladi, axborot markazlarining roli va o'rni, demak, ma'rifiy-targ'ibiy ishlar, keskin oshadi.

*Bugun AQShda har yuz kishiga bittadan gazeta, Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa to'rt yuz kishiga bittadan gazeta, jurnal, axborot byulletenlari to'g'ri keladi.*

Kompyuter  
huquqbuzarligi  
oqibatida  
yetkaziladigan  
zarar miqdori

AQSh 100 milliard dollar

Buyuk Biritaniyada 4,45 milliard dollar


G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 30 milliard  
dollar

*Ayrim yillarda yo'qotishlar hajmi yiliga 430 foizdan oshdi.*

*Ommaviy axborot vositalari jamiyatda o'z mavqeiga ega. Ular:*

- *birinchidan*, qonun bilan himoyalanadi;
- *ikkinchidan*, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy – ilmiy funksiyalarini bajargani uchun jamiat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;
- *uchinchidan*, kishilarning axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi;
- *to'rtinchidan*, shaxsga axborot olish va axborot tarqatish imkonini beradi;
- *beshinchidan*, ommaviy-tarbiyaviy xarakterga ega, shu nuqtayi nazaridan ijobiy fazilatlarni, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida e'tirof etiladi, e'zozlanadi;
- *oltinchidan*, shaxsga ilmiy, badiiy-estetik ijod bilan shug'ullanish imkonini beradi.

*Mutaxassislarning ta'kidlashicha, 30 minutdan keyin olingan axborotning 60 foizi, kun oxiriga kelib 40 foizi, hafta oxiriga kelib 10 foizi yodda qoladi.*



**O'zbekistonda OAV soni 1500 dan ziyod.  
So'z erkinligi Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlangan.**

***Sh.M.Mirziyoyev***

Bugun biz uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizdagи demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo'yicha ham hali ko'p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunamiz. Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda "to'rtinchи hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi zarur.

**Bu – zamon talabi, islohotlarimiz talabi”.**

**Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Ommaviy axborot vositalariga nimalar kiradi?
2. Bugungi kunda OAV ijtimoiy mavqeini qanday baholaysiz?
3. Axborot maydoni va uni shakllantirishda OAV o'rnini qanday tushunasiz?
4. So'z erkinligi haqida nimalar ni bilasiz?
5. Ma'naviy g'oyaviy tahdidlarning asl maqsadi nima?
6. Milliy OAV va globallashuv o'rtaqidagi aloqalardan xabardormisiz?

**Referat mavzulari:**

1. Yurtimizda ommaviy axborot vositalari zamon talablari asosida rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar.
2. Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotidagi o'rni.
3. Globallashuv sharoitida axborotlar rang-baranglarligi.
4. Axborot xurujining milliy ma'naviyatimizga ta'siri.
5. OAVda amalga oshiraladigan ma'naviy, g'oyaviy xurujlar.

### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2. – Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2018.
2. Глобаллашув. Оммавий маданият. Миллий ғоя – Тошкент: Маънавият, 2009.
3. Глобальные проблемы социального развития (философско-методологические аспекты). Кишинев: Шойинка, 1998.
4. Қамар Амон. Маънавият назарияси ва тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2002.
5. Икрамов Ш.Т., Қабилов Ш.Р. Мустақиллик, барқарорлик ва хавфсизликни таъминлаш осон кечган эмас... – Тошкент: ЎзРИИВ Академия, 2013.
6. Қуранов М. Биз англаётган ҳақиқат. – Тошкент: Маънавият, 2008.  
Эркаев А. Маънавиятшунослик. 1-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2018.

## **18-MAVZU: MILLIY TARAQQIYOTNING MA’NAVIY-AXLOQIY NEGIZLARI**

### **REJA:**

1. Taraqqiyot yo‘lining zamirlari va milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlarining Prezident asarlarida yoritilishi.
2. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etish masalalari.
3. Xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik illatlariga qarshi kurashning axloqiy jihatlari.

Har bir xalq, davlat o‘z taraqqiyotini rejalashtiradi, o‘zining immanent xususiyatlari va tarixiy-madaniy tajribasiga, paradigma-siga mos milliy modelini yaratadi. Bunday modellar (yapon modeli, nemis modeli, xitoy modeli, shved modeli, koreya modeli, turk modeli kabilarni eslang) xalqqa, davlatga qayerga intilishi zarurligini, qanday strategiyalar bilan olg‘a siljishi mumkinligini ko‘rsatib turadi. Bunday modellar nazariy-ilmiy konsepsiya tarzida shakllantirilsa-da, u xalqning, davlatning tarixiy-madaniy tajribasidan, ma’naviy boyliklari va axloqiy imperativlaridan kelib chiqadi. Tashqaridan kiritiladigan model zo‘ravonlikka, kuch ishlatishga olib keladi, natijada xalq qalbiga zid fojialar kelib chiqadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan birinchi kunlaridanoq xalqimiz ma’naviy merosiga, u e’zozlaydigan axloqiy imperativlarga tayanishini e’lon qildi va ularni milliy taraqqiyot negizi sifatida e’tirof etadigan bo‘ldi. Demak, biz milliy taraqqiyotimizning ma’naviy-axloqiy negizlarini anglab, bilib va o‘zlashtirib globallashuv uyg‘otayotgan tahdidlarga, g‘oyaviy xurujlarga qarshi turishimiz mumkin.

“Milliy demokratik taraqqiyot” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, uning yaxlit talqini va ta’rifi yo‘q. Ba’zi faylasuflar (E.Yusupov, V.Alimasov, SH.Mamadaliev, F.Musayev, S.Agzamxodjaeva, R.Ro‘zieva, O.Nishanova, U.O‘tanova) uni Sharqona demokratiya bilan bog‘lashadi. Sharqona demokratiya xususida, falsafa fanlari doktori V.Alimasov quyidagicha fikr bildiradi: Sharqona demokratiya – Sharqona tarixiy-madaniy paradigmaga, ijtimoiy-

ma’naviy merosga asoslanishi bilan o‘zining immanent xususiyatlarini namoyon etadi. “Sharq kishisi deb, – yozadi u o‘zini ota-onasi qaromog‘idan, oila keng ma’noda makrokosm ta’siridan tashqarida sezmaydi, ayniqsa G‘arb kishisidek, unga qarshi turmaydi. U umri bo‘yi kommunitar hayot tarzi mahsuli ekanini his etib, shunga muvofiq hayotga, borliqqa davlat va jamiyat ishlariga munosabatlarini shakllantirib, ifodalab yashaydi. Kommunitar borliq uning mavjudlik, tiriklik va o‘zini namoyon qilish, baxtli hayot kechirish shartidir”<sup>1</sup>.

V.Alimasov milliy demokratik taraqqiyot negizini Sharq ijtimoiy-ma’naviy merosidan izlar ekan, quyidagi xulosaga keladi: “Sharq ijtimoiy-ma’naviy merosida axloq bilan siyosat, inson bilan sotsium, fuqaro bilan davlat G‘arbdagidek ancha antagonistik emas, balki bir-birini taqozo etuvchi, bir-biriga permanent bog‘liq kuchlar, subyektlar sifatida qaraladi. Ushbu kuchlar, subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar taraqqiyotga xizmat qiluvchi o‘zaro munosabatga, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va hurmat qilishga, o‘zaro mas’ullik prinsipiga qurilishi darkor. Sharq demokratik taraqqiyot yo‘lini har bir xalq, millatning tarixiy-madaniy paradigmasidan, ma’naviy-axloqiy imperativlardan, ijtimoiy-siyosiy tajribasidan qidirganida ushbu prinsipdan kelib chiqadi”<sup>2</sup>.

Boshqa tadqiqotchilar (S.SHermuhamedov, A.Ochildiyev, B.Valiyev, I.Saifnazarov, F. Jo‘raqulov, S.Norqulov, J.Mavlonov) milliy demokratik taraqqiyot negizini fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ko‘radilar. Masalan, falsafa fanlari doktori J.Mavlonov O‘zbekistonda shakllantirayotgan va milliy demokratik taraqqiyot yo‘li sifatida e’tirof etilayotgan fuqarolik jamiyatini quyidagi negizda ko‘radi. U yozadi: O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish mamlakatlarning milliy o‘ziga xosliklarini hisobga olish tajribasini, shuningdek, siyosiy va fuqarolik madaniyatini implementatsiya qilish (implementatsiya – davlat tomonidan xalqaro huquq me’yorlarining bajarilishi, amalga oshirilishi) bilan chambarchas bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Saqlab turish va muvozanatlashning samarali tizimini yaratish,

<sup>1</sup> Алимасов В. Ижтимоий-маънавий мерос ва Шарқона демократия. – Тошкент: Noshir, 2013.-206.

<sup>2</sup> Ўша асар.-108-109б.

shuningdek, davlat hokimiyatini markazlashtirishdan qochish O‘zbekiston Respublikasida demokratlashtirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

Milliy demokratik taraqqiyot negizlarini ilmiy-texnik rivojlanish, iqtisodiy yuksalish, huquq fenomeni va sud-huquq tizimini isloh qilish, mintaqaviy va xalqaro integratsiyani kengaytirish, OAVning faolligini oshirish, barkamol insonni tarbiyalash, madaniyatni rivojlantirish kabilarda ko‘rvuchi tadqiqotchilar ham bor. Bu o‘rinda A.Valiyev, M.Xayrullayev, G.Navro‘zova, B.To‘rayev, B.Ziyomuhamedov, R.SHodiyev, J.Yaxshilikov, E.Bobamurodov, B.Ochilova, X.SHayxova, Z.Qodirova, M.Qaxxorova kabilarning ilmiy izlanishlarni keltirish mumkin. Ammo, milliy taraqqiyot yo‘llariga ular turlicha yondashishsa-da, bu taraqqiyot ma’naviy-axloqiy negizlaridan ayricha kechishi mumkin emasligini ular yakdillik bilan e’tirof etadilar. Masalan, falsafa fanlari doktori, professor G.N.Navro‘zova va uning izdoshlari yozadi: “Barkamol avlodni shakllantirish azaldan-azal xalqimizning ezgu orzusi, ma’naviyatning uzviy bir qismi bo‘lib kelgan va mutafakkirlarimizning asarlarida teran ifodasini topgan.

Buyuk ajdodlarimiz o‘z ilmiy qarashlarida insonning komillik darajasiga yetishishiga, uning xulq-atvorida yuksak fazilatlar shakllanishiga undovchi ichki turtki, ma’naviy intilish, kuch va g‘ayrat, ya’ni motiv va motivatsiya mavjud bo‘lmash ekan yuksak kamolotga erishish mumkin emasligini bayon qilganlar. “Komil inson to‘g‘risidagi bunyodkor g‘oyani amalga oshirishga bo‘lgan intilishlar jamiyat tamaddunining mohiyatini tashkil etadi. Chunki komil inson jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir etadi”<sup>1</sup>.

Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- inson va jamiyat taraqqiyoti dialektik bog‘liq tarzda ro‘y berishi e’tirof etilganida;

<sup>1</sup> Наврӯзова Г.Н., Зоиров Э.Х., Юнусова Г.С. Тасаввуда инсон ва унинг камолоти масаласи. - Тошкент: Фалсафа ва хукуқ. Институти нашр., 2006.-7б.

- Sharq ma’naviy-axloqiy normalari, imperativlari va qadriyatlarining ustuvorligi qayd etilganida;
- Sharq ma’naviy-axloqiy normalari, imperativlari va qadriyatları umuminsoniy qadriyatlarga zid kelmasligi, balki ular inson shaxsini ma’naviy kamolotini nazarda tutishi bilan e’zozlanayotganida;
- islohotlar, modernizatsiya va globallashuv mezoni bitta – inson kamoloti, uning go’zal va olivjanob fazilatlaridir. Ilmiy, falsafiy va jamiyatshunoslikka oid adabiyotlardagi konsepsiylar, qarashlarni shu tarzda guruhlash mumkin.

Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari haqida Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.Karimov quyidagilarni bildirgan edi: “Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan, tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko‘z qorachig“imizdek asrash va yanada boyitish”<sup>1</sup>. To‘g‘ri, o‘tgan o‘n yilliklarda tarixiy-madaniy va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni, merosimizni qayta tiklash borasida ko‘p ishlar qildik. Ulardagi umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, o‘zining sotsiokreativ imkoniyatlarini namoyon etish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarimiz tufayli mamlakatda tinch-totuvlikni, osayishtalik va millatlararo ahillikni, diniy bag‘rikenglikni ta’mindik. Mustaqillik yillarida o‘zbek etnomadaniyati muammolarini maxsus tadqiq etgan, globallashuv jarayonlarining ularga ta’sirini o‘rgangan falsafa fanlari doktori O.Nishonova quyidagi xulosalarga keladi.

Birinchidan, u milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimiz, o‘zbek etnomadaniyati bugun Amerikanosentrizm va Yevropasentrizm ta’sir etayotganini ta’kidlaydi. Shu bois O.Nishonova ushbu fenomenlarni o‘rganishga diqqatini qaratadi.

U savol qo‘yadi: Amerikanosentrizm va Yevropasentrizm dunyo taqdirini, taraqqiyotini belgilab beruvchi g‘oyalarga aylanishi mumkinmi?

---

<sup>1</sup> Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008, -786.

Ha, ijtimoiy o‘zgarishlar, innovatsiyalar eng avvalo xalq, millat ongiga ma’lum bir qarashlar va g‘oyalar tarzida kirib keladi. Ijtimoiy ongdan o‘rin olgan qarashlar va g‘oyalar xalqni, millatni harakatga keltiradi, ularni tarixiy-madaniy jarayonlarning subyektiga aylantiradi. Shuning uchun qarashlar va g‘oyalar shunchaki subyektiv voqeliklar emas, ular subyektlarni harakatga keltiruvchi ega.

Globallashuvni shakllantirayotgan, uni o‘zining “texnologik quroli”ga aylantirayotgan Amerikanizm va Yevropasentrizm negizida amerikacha va Yevropacha hayot tarzini, fikrlashni, yashashni global voqelikka aylantirish yotadi. Buni barcha, shu jumladan g‘arb tadqiqotchilarning o‘zi ham tasdiqlaydi. Amerikanizm va yevropasentrizmning ta’sirini har qadamda kuzatamiz. Sobiq SSSR davrida yaratilgan madaniyat asosan yevropacha edi. Rossiya Yevropa va Osiyo o‘rtasida joylashganidan foydalanib, g‘arbdan o‘zlashtirgan madaniy qadriyatlarni sharqqa yangilik, innovatsiya tarzida tarqatdi. Masalan, XIX asrgacha O‘rta Osiyoda stol-stulda o‘tirish, ommaviy madaniyat o‘choqlariga qatnash, tasviriy san’at, haykaltaroshlik, opera va balet, texnik ijodiyot an’ana bo‘lmagan. Rossiya, ayniqsa rus ma’rifatparvarlari mazkur hayot tarzining O‘rta Osiyoda shakllanishiga, san’at va ijod turlarining ommalashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdilar. Qadimgi Buyuk ipak yo‘li Osiyo, shu jumladan, O‘rta Osiyoni Yevropa bilan bog‘lashga xizmat qilgan bo‘lsada, yevropasentrizmning ta’sirini XIX asrdan keng ijtimoiy-madaniy voqelikka aylanadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin jadal rivojlangan Yevropa ijtimoiy taraqqiyotning modeliga aylandi. Inson erki va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan demokratik o‘zgarishlar esa tez orada uni global borliqqa ta’sir etuvchi faktor sifatida tanitdi. Yevropa bo‘ylab amalga oshirilgan modernizatsiya kishilar turmush darajasini yuksaltirdi, natijada eng muhim xalqaro normalar, ko‘rsatkichlar, mezonlarga asos qilib Yevropa hayot tarzi olinadigan bo‘ldi. Bugun dunyodagi deyarli barcha davlatlar ana shu o‘lchovlarga muvofiq yashamoqda.

Ammo bu dunyo xalqlari, mustaqil davlatlar faqat amerikanizm va yevropasentrizm g‘oyalari bilan, amerikacha va Yevropacha hayot tarziga muvofiq

yashaydi yoki yashamoqda, degani emas. Globallashuvda goho amerikanizm, yevropasentrizm ta'sirlari mavjud bo'lsa-da, ular milliy o'lkalarda transformatsiyaga uchramay qolmaydi. Shuning uchun ham ba'zan ilmiy adabiyotlarda "amerikacha-yaponcha", "amerikacha-koreyscha", "fransuzcha-turkcha" kabi iboralar uchraydi.

AQSH va Yevropaning global dunyo ("global davlat", "global hukumat", "global parlament" kabi iboralar va takliflar ham g'arb kashfiyotlaridir) yaratish borasidagi faolligi amerikanizm va yevropasentrizm g'oyalarini global voqelikka aylantirishga qaratilgan xatti-harakatlarni yanada kengaytirish mumkin. Ularning borligini davlatlar ochiq e'tirof etmayotgan bo'lsa ham, lekin tashqi g'oyaviy, ma'naviy tahdid borligini deyarli barcha davlatlar sezadi, biladi<sup>1</sup>. "G'oyaga qarshi – g'oya" shiori o'rini da'vat, biroq amerikanizm va yevropasentrizm faqat g'oyalar emas. Ular shaxs erki va huquqlarini, yuksak turmush darajasini, haqiqiy demokratik qadriyatlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan hayot tarzi hamdir. AQSH va Yevropa mazkur qadriyatlarga amal qilishi bilan millionlab kishilarni o'ziga jalb etmoqda.

O.Nishonova globallashuvning etnomadaniy plyuralizm ta'sirida amerikanizm va yevropasentrizm g'olib keladimi degan savolga javob izlaydi, uning fikricha, globallashuv madaniy rang-baranglikni unifikatsiyalashtiradi, etnomadaniy plyuralizmning ichki, immanent xususiyatlarini tugatishga, hammabop qilishga yo'l ochdi. Siyosiy institutlarni bir xil nom bilan atashdan tortib, to oddiy imo-ishora, yeyish-ichishgacha aynanlashtiradi.

Globallashuvga qarshi qaratilgan harakatlar asosan etnomadaniy plyuralizmni asrashga, milliy-madaniy paradigmani integratsiya jarayonlarida ustuvor qilib qo'yishga qaratilgan. To'g'ri, bu borada aniq, ilmiy asoslangan, ma'lum bir milliy-madaniy makonda tajribadan o'tgan konsepsiya yo'q. Xitoy tadqiqotchisi Yansen Yan yozishicha, 1997 yil 7 mayda NATO Belgraddagi Xitoy xalq respublikasining elchixonasiga bomba tashlaganida Pekinlik yoshlar AQSH elchixonasi oldida "yo'qolsin Amerika imperializmi!" deb baqirganlar. Lekin ularning qo'lida "coca-

<sup>1</sup> Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч.- Тошкент: Маънавият, 2008, -116 б.

cola” bo‘lgan. Hatto shunday kulgili hollar bo‘ladiki, amerikanizm va yevropasentrizmga qarshi chiqayotgan kishi o‘z noroziligini internetda ingliz tilida bildiradi, tagiga ismini xitoycha emas, balki Djoan yoki Frenk deb yozadi<sup>1</sup>. Mazkur misollar ko‘rsatadiki, ba’zan g‘arb madaniyatiga qarshi chiqayotgan osiyolik kishi amerikacha-yevropacha globallashuv nima ekanini aniq bilmaydi.

Globallashuv notekis jarayonlar ta’sirida kechgani uchun unda tasodifiy, nochiziq, sinergetik elementlar, hodisalar tez-tez o‘zini namoyon etib turadi. Tasodifiy, notekis ta’sirlarga berilish globallashuvning etnomadaniy plyuralizmga bir joyda pozitiv, boshqa joyda negativ ta’sir kelishini keltirib chiqaradi. Globallashuvni pozitiv voqelik sifatida qabul qilgan etnomadaniyat uni yoki amerikacha-yevropacha qarashlarni, qadriyatlarni hayot tarziga singdirish yo‘lidan boradi, kishilarni, ayniqsa yoshlarni yangilikni, innovatsiyani o‘rganishga da’vat etadi. Negativ yondashuvga moyil etnomadaniyat o‘zini tashqi ta’sirdan asrashga, amerikanizm va yevropasentrizmning har qanday ko‘rinishiga qarshi chiqadi.

Sovet apologetlari “sotsialistik madaniyat” va “soviet xalqi”ni asrash uchun g‘arbona g‘oyalarga, qadriyatlarga qarshi chiqqan edilar, biroq ular amerikanizm va yevropasentrizmga hech nimani qarshi qo‘ya olmadilar. Madaniyatlarning bir-biriga ta’sirini to‘xtatish, ayniqsa hozirgi globallashuv jarayonida, amalga oshirish mushkul vazifadir. Ammo etnomadaniyatlardagi: a) yuksak, oliyjanob, jamiyat ma’naviyatini, axloqini boyitadigan qadriyatlarni; b) insondagi qobiliyatni, intellektual salohiyatni, yaratishga bo‘lgan intilishni; v) xalqdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib yashash tajribalarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Bu passiv munosabat emas, balki ijtimoiy-madaniy hayotning immanent xususiyatlarini tashqi ta’sirlarida pozitiv jihatlar bilan yaqinlashtirish, uyg‘unlashtirishdir.

Demak, etnomadaniyatlar plyuralizm xalqlar, millatlar mavjudligining, borlig‘ining shartidir, ammo ular tashqi ta’sirlardan mutlaq xoli qololmaydi. Mazkur plyuralizmni asrashning samarali yo‘li global, tashqi ta’sirdagi pozitiv jihatlarni

<sup>1</sup> Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П. Бергера. С. Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.-С.27.

topish, ularni real hayot ehtiyojlariga, ijtimoiy-madaniy taraqqiyot talablariga muvofiq etnomadaniy paradigma bilan uyg‘unlashtirishdir.

Amerikanizm va yevropasentrizm etnomadaniyatlar, ular plyuralizmi ustidan g‘olib kelolmaydi, chunki ular tashqi ta’sir sifatida milliy davlatlarda o‘zining obyektiv, siyosiy, iqtisodiy zamiriga ega emas. Ular ma’naviy, g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatsa-da, etnomadaniyatdagi o‘zakni o‘zgartirish kuchiga, zamiriga ega emas, shu bois ular etnomadaniyatlar bilan moslashishi, transformatsiyaga uchrab innovatsiyaga aylanishi mumkin. Bu o‘rinda siyosiy va iqtisodiy omillarning o‘rni katta ekanini unitib bo‘lmaydi<sup>1</sup>. Ayniqsa, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur erishgan yutuqlarda milliy bilan tashqi, amerikacha-yevropacha hayot tarzi, tajriba ko‘rsatadiki, milliy taraqqiyot globallashuvdan ayricha, tashqaricha kechmaydi. To‘g‘ri, ba’zan amerikanizm va yevropasentrizm ta’siriga tushib qolishdan qo‘rqan ayrim davlatlar globallashuvni ham inkor qilishga, ijtimoiy taraqqiyotini faqat milliy model doirasida cheklashga harakat qilishadi, masalan Saddam Husayn paytidagi Iroqda va hozirgi Eronda shunday yondashuvar kuzatiladi. Lekin integratsiya talablari ayrim siyosiy doiralarning bu harakatlarini foydasiz ekanini ko‘rsatadi.

Globallashuv qay darajada keskin va keng tus olmasin, u milliy taraqqiyot talablari va xususiyatlari bilan hisoblashishga majbur. Shuning uchun imkonim boricha globallashuv bilan milliy-madaniy modellarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish yo‘lidan bormaslik zarur. Milliy taraqqiyot globalizmga qarshi turuvchi narsa emas, balki globallashuvni boyitib, to‘ldirib, uni milliy zaminda barqaror voqelikka aylantiruvchi alternativ taraqqiyot yo‘lidir. Mazkur alternativ taraqqiyot yo‘lisiz globallashuvning o‘zi funksiyaga, u da’vo qilayotgan maqsadlar esa diktatorlik usuliga aylanadi<sup>2</sup>.

Ijtimoiy hayot, jamiyatdagi o‘zgarishlar permanent xususiyatlarga ega, ular ta’sirida kishilardagi yondashuvar, fikrlar, hatto fazilatlarga ham o‘zgarib turadi.

<sup>1</sup> Қаранг: Нишонова О.Ж. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари. Фалсафа фанлари доктори дисс. —Тошкент: 2016.173-179 б.

<sup>2</sup> Қаранг: Нишонова О.Ж. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари. Фалсафа фанлари доктори дисс. — Тошкент: 2016.180 б.

O‘zgarishlar kishilarga doimo ijobiy ta’sir etavermaydi, goho ular ayrim shaxslarda xudbinlik, loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik, korrupsiya kabi illatlarni uyg‘otadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarda pulga boylikka, mulkka o‘chlikni uyg‘otgani sir emas. Shunday ekan, bunday illatlarning uchrashi tabiiy holdir. Lekin milliy, ijtimoiy taraqqiyotini ko‘zlagan, komil inson tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ygan xalq, davlat bu illatlarga befarq qaray olmaydi. Har qanday g‘ayri qonun va axloqiy me’yorlar nuqtayi nazaridan baholanishi kerak, aks holda ular jamiyatni tanazzulga yetaklaydi.

Rim imperiyasi yirik va qudratli sultanat bo‘lgan, ammo uni boylikka o‘chlik va g‘ayriaxloqlik, faxsh ichidan yemirdi. Milliy taraqqiyotini ko‘zlagan xalq, davlat ushbu ibratli misolni unitishi mumkin emas. Bunday misollarni hozirgi davrdan ham keltirish mumkin. Shuning uchun milliy taraqqiyotni ta’minalash va insonda go‘zal va oliyjanob axloqni shakllantirish uyg‘un amalga oshirladigan vazifadir. Shuni ta’kidlashimiz kerakki, axloq, ma’naviyat yuqoridagi illatlarni bartaraf etadigan yagona vosita emas, u huquq, qonun bilan qo‘llab-quvvatlanganida ijobiy ta’sir vositasiga aylanadi.

Illatlarni quriq pand-nasixat bilan tugatish mumkin, deb o‘ylash hayotni bilmaslik, uni trivial tasavvur etishdan boshqa narsa emas. Jamiyat taraqqiyotini ta’minalashning eng ta’sirchan vositasi – iqtisodiyotdan keyingi o‘rinda qonun muhim ahamiyatga ega ekanini unutib bo‘lmaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya huquqiy qadriyatlar, qonun mexanizmlari bilan mustahkamlanadi ijobiy natija beradi. Inson sirli, xatti-harakatlari va xulq-atvorini programmalashtirish qiyin mavjud zot.

Mamlakatimiz prezidenti SH.M.Mirziyoyev davlat idoralarini xalqqa, uning manfaatlariga xizmat qilishga undayapti, sud-huquq tizimini isloh qilib, jamiyat ijtimoiy- siyosiy hayotida sud organlarining rolini yanada oshirishga bosh-qosh bo‘lyapti, korrupsiyaga qarshi beayov kurash e’lon qilgan. U yuqori lavozimlarga tashabbuskor, xalq g‘ami bilan yashashga tayyor kishilarni tayinlashga harakat qilmoqda. Ammo ular ichida burchiga, xalqiga xiyonat qilayotganlari uchrashganini taajjublidir. Prezidentimiz sudyalar bilan uchrashgan paytidagi nutqida, joylarda pora

olayotgan, o‘z vazifasini suiiste’mol qilib, fuqarolarda ishonchsizlik uchrayotgan sud-huquq tizimi xodimlari uchrayotganini afsus bilan qayd etadi. Shuning uchun u borada ma’naviy-axloqiy masalaga urg‘u berib deydi: “Yuksak ma’naviy-axloqiy saviyaga ega bo‘lmagan yurist kadrlar hech qachon sudya lovozimiga tayinlanmasligi kerak. Adolat va ma’naviyat o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Ma’naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat bo‘lmaydi”<sup>1</sup>.


Insonning sirli mavjudot ekanligi, uni ba’zi illatlarga yon bosishi unda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mumkinligini rad qilmaydi. Globallashuv va bozor iqtisodiyotida ziddiyatli jihatlar undagi ma’naviy-axloqiy soflikni, poklikni butkul yo‘q qilolmaydi. Shunday ekan ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi doim dolzarb vazifa bo‘lib qolaveradi.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Amerikanizm, yevropasentrizm, etnomadaniyatlar, pluralizm, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy etnomadaniyat, transformatsiya, innovatsiya, milliy taraqqiyot, permanent, xudbinlik, loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik, korrupsiya, komil inson, qonun, axloqiy me’yorlar, g‘ayriaxloqlik, faxsh, xalq, davlat, ma’naviyat, huquq.

### **Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:**

Har bir xalq, davlat o‘z taraqqiyotini rejalashtiradi, o‘zining immanent xususiyatlari va tarixiy-madaniy tajribasiga, paradigmasiga mos milliy modelini yaratadi.



<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтаримиз. Т.1.-Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2017.-432б.

*Milliy demokratik taraqqiyot tushunchasini Sharqona demokratiya bilan bog`lagan olimlar*

E.Yusupov, V.Alimasov,  
Sh.Mamadaliyev, F.Musayev,  
S.Agzamxodjayeva, R.Ro`ziyeva,  
O.Nishanova, U.O`tanova

*Milliy demokratik taraqqiyot negizini fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ko`rgan olimlar*

S.Shermuhamedov, A.Ochildev,  
B.Valiev, I.Saifnazarov,  
F.Jo`raqo`lov, S.Norqulov,  
J.Mavlonov

*Milliy demokratik taraqqiyot negizlarini ilmiy-texnik rivojlanish, iqtisodiy yuksalish, huquq fenomeni va sud-huquq tizimini isloh qilish, mintaqaviy va xalqaro integratsiyani kengaytirish, OAVning faolligini oshirish, barkamol insonni tarbiyalash, madaniyatni rivojlantirish kabilarda ko`rvuchi olimlar*

A.Valiyev, M.Xayrullayev, G.Navro`zova, B.To`rayev,  
B.Ziyomuhammedov, R.Shodihev, J.Yaxshilikov, E.Bobamurodov,  
B.Ochilova, X.Shayxova, Z.Qodirova, M.Qaxxorova

*Milliy taraqqiyot yo`llariga ular turlicha yondashishsa-da, bu taraqqiyot ma`naviy-axloqiy negizlaridan ayricha kechishi mumkin emasligini ular yakdillik bilan e'tirof etadilar.*

### **MILLIY TARAQQIYOTNING MA`NAVIY-AXLOQIY NEGIZLARI QUYIDAGILARDA NAMOYON BO`LADI:**

- inson va jamiyat taraqqiyoti dialektik bog`liq tarzda ro`y berishi e'tirof etilganida;
- Sharq ma`naviy-axloqiy normalari, imperativlari va qadriyatlarining ustivorligi qayd etilganida;
- Sharq ma`naviy-axloqiy normalari, imperativlari va qadriyatları umuminsoniy qadriyatlarga zid kelmasligi, balki ular inson shaxsini ma`naviy kamolotini nazarda tutishi bilan e'zozlanayotganida;
- islohotlar, modernizatsiya va globallashuv mezoni bitta - inson kamoloti, uning go`zal va oliyjanob fazilatlaridir.

*Respublikamizning birinchi Prezidenti I.Karimov* - “Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to`plangan, tarixning ne-ne sinovlaridan o’tgan. Insonlarga og`ir damlarda madad bo`lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko`z qorachig`imizdek asrash va yanada boyitish”

Globallashuvda goho amerikanizm, yevropasentrizm ta’sirlari mavjud bo`lsa-da, ular milliy o’lkalarda transformatsiyaga uchramay qolmaydi. Shuning uchun ham ba’zan ilmiy adabiyotlarda quyidagi kabi iboralar uchraydi.

“amerikacha-

“amerikacha-koreyscha”

fransuzcha-turkcha

### **Xitoy tadqiqotchisi Yansen Yan yozishicha,** 1997 yil 7 mayda NATO

Belgraddagi Xitoy xalq respublikasining elchixonasiga bomba tashlaganida Pekinlik yoshlar AQSh elchixonasi oldida **“yo`qolsin Amerika imperializmi!”** deb baqirganlar. Lekin ularning qo`lida **coca-cola bo`lgan**. Hatto shunday kulgili hollar bo`ladiki, amerikanizm va yevropasentrizmga qarshi chiqayotgan kishi o`z noroziligini internetda ingliz tilida bildiradi, tagiga ismini xitoycha emas, balki Djoan yoki Frenk deb yozadi.

*Madaniyatlarning bir-biriga ta’sirini to`xtatish, ayniqsa hozirgi globallashuv jarayonida, amalga oshirish mushkul vazifadir. Ammo etnomadaniyatlardagi:*

yuksak, olijanob, jamiyat ma’naviyatini, axloqini boyitadigan qadriyatlarni;

insondagi qobiliyatni, intellektual salohiyatni, yaratishga bo`lgan intilishni;

xalqdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg`unlashtirib yashash tajribalarini qo`llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

*Bu passiv munosabat emas, balki ijtimoiy-madaniy hayotning immanent xususiyatlarini tashqi ta’sirlarida pozitiv jihatlar bilan yaqinlashtirish, uyg`unlashtirishdir.*

**Globalashuv qanday keng tus olmasin, u milliy taraqqiyot talablari va xususiyatlari bilan hisoblashishga majbur.**

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Milliy taraqqiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy asosi nima?
3. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlardagi qaysi jihatlar sizga ko‘proq yoqadi va nima uchun?
4. Ijtimoiy-ma’naviy meros va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligini qanday tasavvur etasiz?
5. O‘zbekiston jamiyatida qaysi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar e’zozlanadi?
6. Globallashuv va ma’naviy-axloqiy qadriyatlar o‘rtasida qanday yaqinlik mavjud?
7. O‘zingiz yoqtirmaydigan illatlar nima?

### **Referat mavzulari**

1. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlarining prezident asarlarida yoritilishi.
2. Milliy demokratik taraqqiyot tushunchasiga yondashuvlar.
3. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari.
4. Amerikanosentrizm va Yevropasentrizm.
5. Mamlakatimizda inson erki va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan demokratik o‘zgarishlar.
6. Globallashuvni pozitiv voqelik sifatida.

### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтаримиз. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2017.-
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Нишонова О.Ж. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари. Фалсафа фанлари доктори дисс. – Тошкент: 2016.
4. Алимасов В. Ижтимоий-маънавий мерос ва Шарқона демократия. – Тошкент: Noshir, 2013.

5. Наврӯзова Г.Н., Зоиров Э.Х., Юнусова Г.С. Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқук. Институти нашр., 2006.
6. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под ред. П.Бергера, С.Хантингтона. – Москва. АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.
7. Эркаев А. Маънавиятшунослик. 1-китоб. –Тошкент: Маънавият, 2018.
8. Сорос Дж. О глобализации. –Москва: ЭКСМО, 2004.
9. Ўтанова У. Ўзбек халқ маданияти: назария ва амалиёт. –Тошкент : Фан, 2010.

## **19-MAVZU: MAFKURAVIY IMMUNITET VA G‘OYAVIY KURASHCHANLIKNI SHAKLLANTIRISH VAZIFALARI**

### **REJA:**

1. Bugungi kunda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasidagi chuqur o‘zgarishlar.
2. Xalqimizning ma’naviy olamini turli g‘oyaviy tahdidlardan asrashning dolzarb vazifalari.
3. Ma’naviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talabi ekanligi.
4. Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish zaruriyati.

“Mafkuraviy immunitet” deganda ma’naviy-g‘oyaviy tahdidlarga qarshi o‘zligini saqlash o‘z e’tiqodi, ideali va hayotiy maqsadini himoya qilish, yot qarashlarga zarba berishga tayyorlik darajasi tushiniladi. U buzg‘unchi mafkuralarning asl mohiyatini anglash va milliy g‘oyadan ajrata olishini, buning uchun g‘oyaviy, mafkuraviy tayyorgarlikka, ijobiy va salbiy tashviqotni farqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishini talab qiladigan tushunchadir.

Ilmiy adabiyotlarda “g‘oyaviy immunitet” kabi tushuncha va iboralar uchraydi. Goho ularga ta’rif berilmaydi, barchaga tushunarli hodisalar deb qaraladi. Qisqa qilib aytganda, mafkuraviy immunitet - bu buzg‘unchi mafkuraga qarshi turish, undan g‘oyaviy, ma’naviy, axloqiy himoyalanishdir. Demak, mafkuraviy immunitetga qarshi turish uchun buzg‘unchi mafkura nima, uni yuzaga keltiradigan omillar qanday, degan savolga javob berish darkor. Maxsus lug‘atda, buzg‘unchi mafkura “jamiyat taraqqiyotining turli sharoitlarda obyektiv zaruriy bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘ladigan mafkura”, deb ta’rif beriladi. Mazkur ta’rifga ko‘ra, buzg‘unchi mafkuralar “umumqabul qilingan qonunlarni, axloqiy me’yorlar, madaniy va ma’naviy qadriyatlarni rad etish, o‘z dunyoqarashini, siyosiy hohish irodasini jamiyatning qolgan qismiga chiqishtirishga intilishi, terror, ma’naviyatga va axborotga oid zo‘ravonlik va nayrangbozlik

usullaridan foydalanish”<sup>1</sup>. Bularning aksi, ularga qarshi turuvchi kuch bu mafkuraviy immunitetdir.

Bugun dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tez ilg‘ash, ularni izohlash, ayniqsa ularning ichki qonun niyatlarini aniqlash, topish juda qiyin. To‘g‘ri dunyo va davlatlararo munosabatlar o‘zgarayapti, globallashuv va integratsiya ta’sirida ijtimoiy munosabatlar ham shaklan, ham mohiyatan yangi tus olmoqda. Ammo ushbu o‘zgarishlarni globallashuv va integratsiya bilangina tushuntirish, bog‘lanish yetarli emas. Ular har bir sohaning ichki xususiyatlaridan, strukturaviy aloqalaridan va imkoniyatlaridan kelib chiqishini, har biri obyektga xos ziddiyatlarni, ayniqsa famulisizm va indifferentizm boislarini aniq bilishni taqozo etadi.

Famulisizm mohiyatan ko‘r-ko‘rona, hech qanday qarshiliksiz, nullarcha itoatgo‘ylikni, cho‘rilikni ifoda etadi, nima uchun ba’zi kishilarda feodalizm kuchli bo‘ladi? Ular tayyor qarashlarni, ko‘rsatmalarni hech qanday mulohasiz ijro etadi, ularga to‘la itoat etadi? Famulistik xulq-atvor kishida mafkuraviy, g‘oyaviy va axloqiy immunitetning shakllanmagani tufaylidir.

Din dogmatikasiga ya’ni dinda qat’iy qilib belgilangan(buyurilgan) amallarni bajarish – har bir e’tiqodi mustahkam bo‘lgan kishidan talab etiladigan ma’naviy burch hisoblanadi. Dindor bu burchini bajarib e’tiqodi chuqur, mustahkam ekaniligini tasdiq etadi. Biroq bu dogmatikaga so‘zsiz, hech qanday o‘zgarishsiz, nullarcha itoat etishni anglatmaydi. Masalan, musulmonlar besh mahal namozni imkoniga, shart-shoroitiga moslab o‘qishi mumkin. Shunindek islom dinida farz hisoblangan hajga borish amalini imkon bo‘lgan musulmonlar amalga oshiradi. Islom dogmatikasida bu erkinlik unda familizm ustun ekan, degan xulosaga olib kelmaydi. Xullas, dindagi dogmatika (bajarilishi lozim bo‘lgan amal)ga itoat etish bilan dunyo ishlaridagi famulisizm o‘rtasida farq mavjud.

---

<sup>1</sup> Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар (маънавиятга таҳдид солувчи иллатлар). – Тошкент: Turon Zamin ziyo, 2015.-356.

Indifferentlik bo‘layotgan o‘zgarishlarga, voqeа-hodisalarga, jamiyatga befarqliкni anglatadi. Aynan indifferentlik buzg‘unchi g‘oyalar va mafkuralarning kishi ongidan joy olishiga olib keladi.

Indifferentlik kishi miyasidagi bo‘shliq emas, u ma’lum bir g‘oyalarga, mafkuraga asoslanishi mumkin. Masalan, kishi g‘arbona feminismni yoqlay turib, o‘z yurtidagi gender tenglikning buzilishiga, oilaviy zo‘ravonlikka befarq qarashi mumkin. Bu bilan u g‘arbona feminismni, ochiq bo‘lmasa-da, tarafdoi sifatida harakat qiladi, o‘zida oilaviy zo‘ravonlikka yo‘l ochib beradi.

Famulisizm va indifferentlik faqat shaxsiy psixologik jihat emas, ularni ijtimoiy muhit, borliq shakllantiradi. Jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar shaxsning tub qiziqishlarini ifoda etmasa, unga o‘z kuchi va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish imkonini bermasa bu holda, shubhasiz, ushbu shaxs o‘zgarishlarga ham jamiyatga ham befarq munosabatda bo‘ladi. Agar u biror lavozimda bo‘lsa, yuqorida keladigan ko‘rsatmani ko‘r-ko‘rona, hech qanday ijodiy yondashishsiz bajaradi. Jamiyatda amalga oshiriladigan islohotlar inson uchun, uning tub manfaatlari uchun o‘tkazilsa, shaxs bunday o‘zgarishlarga faol aralashadi, bu o‘zgarishlarning faol subyektiga aylanadi. Aslida milliy g‘oya va mafkura har bir kishini, shaxsni modernizatsiyalashtirishning bevosita ishtirokchisiga, faol subyektiga aylantirgani bilan qimmatli va ko‘zlangan natijaga erishadi.

Xalqimizning ma’naviy olamini turli tadqiqotlardan asrash bugun dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Jamiyatimiz modernizatsiyalashgan va jahon hamjamiyatiga yaqinlashgani sayin unga yot, begona ma’naviy, g‘oyaviy tahdidlarning xuruji oshmoqda. Bu ikki yo‘l bilan amalga oshirilmoqda. Birinchisi – bu ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar orqali, ikkinchisi – axborot-kommunikatsiya vositalari orqali.

O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyoti jahon hamjamiyati bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarga, integratsiyaga bog‘liq. Bugun Respublikamizda 2 mingdan ziyod chet el kompaniyalarning filiallari, qo‘shma korxonalar, firmalar, transmilliy birlashmalar agentliklari, ofislari faoliyat olib boradi. Erkin iqtisodiy zonalarimiz, avtomobil

chiqaruvchi korxonalarimiz asosan chet el investorlari yordamida, ishtirokida qurilgan. “Arter” “XIAMWEST BAISSHUM TRAINING CO, LTD, Globacink logistics group Ltd”, “GlobaCink Logistics group LTD”, “MULTIVAC EXPORT AQ” (SHvetsariya), TASIMA, “YAM International (Cis)”, “Hundae Motor Grup”, “Volkswagen”, “Kaz Avto prom”, “Chandon Automobile Group” kabi xalqaro kompaniyalar shular jumlasidandir.

Agar 2011-2016 yillarda O‘zbekistonga keladigan investitsiyalar 3,3 milliard dollardan 1,9 milliard dollarga tushib ketgan, ya’ni 40% ga qisqargan bo‘lsa, 2017 yilning o‘zida u 4,2 milliard dollarga, 2018 yili 6,850 milliardga oshgan. Bu O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarining keskin kengayganidan, darak beradi. Bu aloqalar kelgusida yanada kengayadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar faollashadi. O‘zbekistonning 2030 yilga borib jahondagi taraqqiy etgan 50 davlat safiga kirish uchun amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlari uchun integratsiyani chuqurlashtiradi va milliy taraqqiyotni jahon taraqqiyoti bilan uyg‘unlashtiradi. Bu degani o‘zbek xalqi jahon xalqlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nafaqat iqtisodiy, shuningdek, madaniy, kommunikatsion, demografik, oilaviy-maishiy, shaxsiy aloqalarini o‘rnatadi.

Bugunning o‘zidayoq o‘zbek qizlari chet elliklarga turmushga chiqmoqda, o‘zbek yigitlari chet ellarda qolib, yashab, shu yurt madaniy hayoti, ishlab chiqarish sohasi, ilm-fan tarmoqlarida xizmat qilmoqda. Ular albatta, shu yurt urf-odatlarini, qadriyatlarini o‘zlashtirib oladi va o‘z eliga olib keladi. Bunday ta’sirlar, o‘zlashtirilgan qadriyatlar hamisha ijobjiy bo‘lavermaydi, goho ochiqdan-ochiq milliy madaniyatimiz, etnoan'analarimiz va axloqimizga ziddir.

Ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning bunday tus olishi millatimiz, xalqimiz uchun ma’lum bir muammolarni uyg‘otadi. Ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar, integratsiya orqali kirib keladigan ma’naviy, g‘oyaviy tahdidlarning oldini qanday olish mumkin? Bunga javob topish oson emas. Ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya real borlig‘imiz ekan, ma’naviy-g‘oyaviy tashqi tahdidlar ham real hayotimiz bo‘lib qolaveradi. Ammo gap, ana shu tahdidlarga qarshi shaxsda immunitetni shakllantirishdadir. Bu aslida

shaxsning oilada kamol topayotganida mahallaga qo'shilayotganida, maktabda ta'lim-tarbiya olayotganida amalga oshiriladigan vazifadir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy, g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurash uchun dastlab, mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifasi izchil olib borilishi dorkor. Uning yuqori cho'qqisi, samarasi shaxsning tahdidlarga qarshi kurashchanligidir. Ammo bugun jamiyat a'zolarida immunitet hali to'la shakllanmagan passiv darajadadir yoki faol qarshilik ko'rsata oladigan darajada shakllantarilmagan. U ko'pincha ichki kechinma, ichki qarshilik tarzida keladi. Tahdidlarga qarshi kurashish, ochiq tortishish, tahdidlarni baholay olish, g'oyaga qarshi g'oya qo'yish, har qanday yot g'oyani fosh etishga va qarshi tura olishga shaylik o'ta muhim fazilatdir. Bu fazilat orqaligina jamiyat o'zini-o'zi va o'z idealini asrab qoladi.

Kurashchanlikni jo'n, dag'al, qo'pol ma'noda tushunmaslik kerak. Ateistlar jangovorligi qanday oqibatlarga olib kelganini unita olmaymiz. Kurashchanlik – avvalo intellektual jang, ya'ni aql vositasida (yaxshini yomondan, ojni qoradan ajrata olish va qarshi turish) bo'lishi lozim. Intellektual tayyorgarligi yuqori, opponentining har qanday savoliga yuqori, bilimli javob bera oladigan shaxsgina g'oyaviy, ma'naviy tahdidlar bilan kurasha oladi. Bu borada S.Otamuradov quyidagi fikrlarni bildiradi: "Eng avvalo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy intellektual millat ichidan o'sib, ulg'aygan yuksak aql-zakovatga ega bo'lgan elita hisoblanadi, unda milliy taraqqiyotda kechayotgan ijobiylar salbiy jarayonlarni tezlik bilan anglab yetish salohiyati taraqqiy qilgan. Milliy intellektualning milliy ma'naviyatini, umuman, millatni globallashuvning o'tkazayotgan salbiy ta'siridan himoya qilishdagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritamiz". Shu tariqa muallif xulosa chiqaradi: "Real taraqqiyotda millat o'zida mavjud bo'lgan aql-zakovat, bilim va tafakkur bilan umumiyligi taraqqiyotga ta'sir o'tkazadi, o'zini tashqi zararli ta'sirlardan himoya qila oladi. Ayni paytda, ularni umumiyligi taraqqiyot darajalarida rivojlantirsa, moddiy kuch

darajasiga ko‘tara olsa va o‘zining “men”ligini mustahkamlay olsagina, o‘zining intellektual salohiyatiga ega bo‘lgan millat darajasiga ko‘tarila oladi<sup>1</sup>.

Demak, intellekt maxsus elita, uning yetakchiligi, milliy g‘oya va mafkurani yaratish va salbiy jarayonlarni oldindan sezishiga taalluqli hodisa. Tavtologik talqinlarni hisobga olmaslik, intellektualizmning ijobiyligi shundaki, u opponentlar fikrini aql-idrok, hayotiy tajriba, ilmiy kuzatishlar nuqtayi-nazaridan baholanadi. U g‘ayri hayotiy mulohazalarga real, obyektiv hayotdan olingan materiallarni qarshi qo‘yadi. Fikrni, da’voni ratsional nuqtayi-nazardan tahlil qiladi. Intellektualizmning ijobiyligi shundaki, u opponentlar fikrini aql-idrok, hayotiy tajriba, ilmiy kuzatishlar nuqtayi-nazardan baholaydi. U g‘ayri hayotiy mulohazalarga real, obyektiv hayotdan olingan materiallarni qarshi qo‘yadi. Fikrni, da’voni ratsional nuqtayi-nazardan tahlil qiladi. Intellektual jang-bilimlar, dalillar jangi, g‘oyaviylik, dunyoqarashdagi yetuklik, ma’naviy yuksaklik va huquqiy madaniyat bu jangdagi asosiy usullardir. Bizga ana shunday intellektual jang olib borishga qodir, o‘z bilimi va dunyoqarashini har qanday tahdiddan himoya qila oladigan kurashchanma’naviyatshunoslar kerak. Faqat shunday mutaxassislar, milliy tahdidlarga qarshi fidoiyillik ko‘rsatib kurashadigan intellekt egalari o‘z ketidan jamiyat a’zolarini(xalqni), millatni ergashtiradi. Ularning tashabbusi, so‘zi, g‘oyasi va da’vatini jamiyat o‘ziniki sifatida qabul qiladi.

Hozirgi kunda g‘oyaviy kurashchanlikni olib borishning eng samarali vositasi OAV hisoblanadi. Televideniya, internet, gazeta, jurnal, axborotnomalar, ziyolilarning ommaviy chiqishlari, uchrashuvlari, madaniyat va ma’naviyat o‘choqlari uysushtiradigan ma’rifiy tadbirlarning go‘zal, oliyjanob va insonparvar g‘oyalar bilan to‘ldirilgani ana shu kurashchanlik samarasini oshiradi. Demak, g‘oyaviy va ma’naviy tahdidlarga nafaqat milliy boyliklarimizni, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni qarshi qo‘yishimiz, shu bilan birga ularga bag‘ishlangan tadbirlarning inson ongi, qalbi va ruhiga ta’sir etadigan samarali usullar bilan boyitish

---

<sup>1</sup> Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий маънавий хавфсизлик .- Тошкент: Ўзбекистон, НМКУ, 2013.-401-4026.

lozim. Shunchaki, tadbirlar emas, balki insondagi ma’naviy boyliklarni yanada mustahkamlashga, ma’naviyatga putur yetkazadigan g‘oyaviy hurujlarga qarshi turadigan pozitsiyani shakllantirish darkor. Mustahkam a’naviy, g‘oyaviy va axloqiy pozitsiyaga ega bo‘lmagan shaxs tezda tashqi tahdidlar ta’siriga tushib qoladi va ma’naviy boyligidan mahrum bo‘ladi.

Bugun ilm-fanda, ma’naviy-ma’rifiy sohada rang-barang fikrlar, yondashuvlar mavjud. Fikrlar plyuralizmi( xilma-xilligi) yaxshi hodisa bo‘lib, u demokratiya mezoni, hurfikrlik ifodasi hisoblanadi. Ammo, boshqa tomondan, u qanday yondashishni, fikrni tanlashni, ratsionallikni shakllantirishni murakkablashtiradi ham. Ayniqsa tafakkuri hali yetarli shakllanmagan, hayotiy maqsadi va ma’naviy ideali tugallanmagan yoshlarda bu hol ikkilanishlarni, u yoqdan bu yoqqa, bir fikrdan ikkinchi fikrga ko‘chib yurishni keltirib chiqaradi. Barqaror hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lmaslik avvalo g‘oyada, tafakkurda, dunyoqarashdagi beqarorlik oqibatidir. Shunday ekan g‘oyaviy, ma’naviy ustakovkani shakllantirish uchun g‘oyaviy, ma’naviy tarbiyaga katta e’tibor berish talab qilinadi.

Ma’naviy tahdidlarga qarshi g‘oyaviy immunitetni kuchaytirish, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, ya’ni intellektual kurashchanlikni shakllantirishda adabiyot va san’atning o‘rni alohidadir. Xalqimiz azaldan adabiyot va san’at namoyondalarining so‘zlariga quloq solib, ulardan ibrat olib va ularga ergashib keladi. Ijodkorlarni ulug‘lash xalqimizdagi ajoyib fazilatdir. Aynan shuning uchun ham prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan respublikamizda kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san’at sohasini takomillashtirish, hududlarda ulug‘ san’atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy mакtab va markazlar tashkil etish to‘g‘risida maxsus qarorlar, Farmonlar qabul qilindi. Toshkent shahrida Adiblar hiyoboni bunyod etildi. Namangan viloyatida ulkan ma’rifatparvar shoir Ibratga, Jizzax shahrida Hamid Olimjon, Zulfiya va SHarof Rashidovga, Xorazmda Komiljon Otaniyozov, Nukusda Ibroyim Yusupov, Farg‘ona viloyatida Erkin Vohidov, Qarshida Abdulla Oripov, Andijonda Muhammad Yusufga haykallar qo‘yishdi, uy-muzeylar, tashkil etildi. 2010-yildan buyon O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining

“Ijod” fondi tomonidan “Birinchi kitobim” seriyasida 1 milliard 300 million so‘m mablag‘ sarflandi, 73 nomda, jami 1 million 220 ming nusxada yosh ijodkorlar asarlari chop etildi.

Prezidentimiz ta’kidlaydi: “Albatta, biz xalqimizning ma’naviy kamol topishida madaniyat namoyondalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e’tirof etamiz. Yuksak ideallar yo‘lida fidoyillik ko‘rsatib yashash, o‘zligimizni anglash, g‘urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog‘lab maydonga chiqish-siz, ijod ahliga xos ezgu fazilat ekanini hammamiz yaxshi bilamiz va buni yuksak qadrlaymiz”. Davlatimiz rahbari fikrini davom ettirib deydi: “Ijodkorlar nafaqat bugungi kun, balki kelajakni ko‘zlab ish tutishga, shu asosda puxta uylangan, mustahkam rejalarini tuzishi kerak emasmi? Deylik, 15-20 yildan keyin O‘zbekistonning madaniy rivojlanishi qanday kechadi, bugun biz yashayotgan Internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san’at, madaniyatimizning o‘rni va ta’sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin, degan to‘g‘ri va odilona savollar barchamizni, birinchi navbatda, xalqimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lgan ijod ahlini o‘ylantirishi zarur emasmi?”<sup>1</sup>.

Shu bilan birga davlatimiz rahbari tashqi ma’naviy va g‘oyaviy tahidilar haqida to‘xtaladi, yoshlarimizni ijodga, kitob o‘qishga, yaratishga undashga oid adabiyot va san’at namoyondalarining vazifalarini ko‘rsatadi. “Biz bugun - deydi u, - jaholat degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, qo‘yingki, hayotimizning barcha jabhalarida duch kelyapmiz va bu illat qo‘l-oyog‘imizda bomisoli kishan bo‘lib turibdi. Bu kishandan xalos bo‘lmasdan turib, taraqqiyot haqida hech qanday so‘z bo‘lishi mumkin emas. Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2. –Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2018. 183б.

<sup>2</sup> Ўша асар.-195-196 б.

Prezidentimiz ilgari surayotgan fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishni nazarda tutuvchi ezgu da’vatkorlik g‘oyasi ilmiy, ijtimoiy-falsafiy hamda ijtimoiy-amaliy nuqtayi nazardan konseptual ahamiyatga ega hisoblanadi. Globallashuv jarayonida yuzaga keladigan salbiy illatlarning ta’sirini faqat sog‘lom fikr, sog‘lom tafakkur va ezgu amal bilan yengish mumkin. Shunday sog‘lom fikr va sog‘lom tafakkur egasi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash, vatanga daxldorlik hissini uyg‘onish hamda ijobiy faoliyatiga yo‘naltirish obyektiv, milliy taraqqiyotimiz talabidir.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar, millat, xalq, integratsiya, ma’naviy-g‘oyaviy tahdid, integratsiya, tashqi tahdid, immunitet, intellektual, millat, aql-zakovat, bilim, tafakkur, milliy g‘oya, mafkura, tavtologiya, aql-idrok, hayotiy tajriba, ratsional, g‘oyaviylik, dunyoqarashdagi yetuklik, ma’naviy yuksaklik, huquqiy madaniyat, fikrlar xilma-xilligi, demokratiya mezoni, hurfikrlik, ratsionallik.

#### **Qo‘srimcha va tushuntiruvchi matnlar:**

**“Mafkuraviy immunitet”** deganda ma’naviy-g‘oyaviy tahdidlarga qarshi o‘zligini saqlash o‘z e’tiqodi, ideali va hayotiy maqsadini himoya qilish, yot qarashlarga zarba berishga tayyorlik darajasi tushiniladi.

**Famulisizm**

mohiyatan ko‘r-ko‘rona, hech qanday qarshiliksiz, qullarcha itoatgo‘ylikni, cho‘rilikni ifoda etadi.

***Famulistik xulq-atvor kishida mafkuraviy, g‘oyaviy va axloqiy immunitetning shakllanmagani tufaylidir.***

***Indifferentlik*** – kishi miyasidagi bo‘shliq emas, u ma’lum bir g‘oyalarga, mafkuraga asoslanishi mumkin. Masalan, kishi g‘arbona feminizmni yoqlay turib, o‘z yurtidagi gender tenglikning buzilishiga, oilaviy zo‘rovonlikka befarq qarashi mumkin. Bu bilan u g‘arbona feminizmni, ochiq bo‘lmasa-da, tarafdori sifatida harakat qiladi, o‘zida oilaviy zo‘rovonlikka yo‘l ochib beradi.

**Famulisizm va indeferentlik faqat shaxsiy psixologik jihat emas, ularni ijtimoiy muhit, borliq shakllantiradi.**

**Erkin iqtisodiy zonalarimiz, avtomobil chiqaruvchi korxonalarimiz asosan  
chet el investorlari yordamida, ishtirokida qurilgan.**

“XIAMWEST BAISSHUM  
TRAING CO, LTD, Globacink  
logistics group LtD”

“MULTIVAC EXPORT AQ”  
(Shvetsariya) TASIMA,

“Globa Cink Logistics group LTD”

“Chandon Automobile Group”

“YAM International (Cis)”

“Hundae Motor Grup”

“Volkswagen”

“Kaz Avto Prom”

“Chandon Automobile Group”

“Arter”

*Agar 2011-2016 yillarda O'zbekistonga keladigan investitsiyalar 3,3 milliard dollardan 1,9 milliard dollorga tushib ketgan, ya'ni 40% ga qisqargan bo'lsa, 2017 yilning o'zida u 4,2 milliard dollorga, 2018 yili 6,850 milliardga oshgan.*

**Sh.M.Mirziyoyev**

*“Albatta, biz xalqimizning ma'naviy kamol topishida madaniyat namoyondalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e'tirof etamiz. Yuksak ideallar yo'lida fidoyillik ko'rsatib yashash, o'zligimizni anglash, g'urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog'lab maydonga chiqish-siz, ijod ahliga xos ezgu fazilat ekanini hamمامиз yaxshi bilamiz va buni yuksak qadrlaymiz”*

### **Mavzuni takrorlash va chuqurlashtirish uchun savollar:**

1. Dunyoning geosiyosiy manzarasi deganda nimani tushunasiz?
2. G'oyaviy, ma'naviy tahdidlar nima?
3. Mafkuraviy immunitetning xususiyatlarini ochib bering?
4. G'oyaviy immunitetni shakllantirish nima uchun kerak?
5. O'zingizda, tengdoshlaringizda g'oyaviy immunitet yetarli shakllanganmi?
6. G'oyaviy kurashchanlikni tavsiflab bering, Sizda shunday kurashchanlikka ehtiyoj va moyillik bormi?
7. Jaholat nima? Nima uchun unga qarshi kurashimiz lozim?

## **Referat mavzulari.**

1. Mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talabi.
2. Mafkuraviy immunitet - bu buzg‘unchi mafkuraga qarshi turish.
3. Famulisizm tushunchasi va uning mazmuni.
4. Famulisizm va indifferentlik.
5. Ma’naviy tahdidlarga qarshi g‘oyaviy immunitetni kuchaytirish.
6. Globallashuvning salbiy jihatlarini sog‘lom fikr va sog‘lom tafakkur bilan yengish.

## **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2. –Тошкент: Ўзбекистон. НМКУ, 2018.
2. Глобаллашув. Оммавий маданият. Миллий ғоя – Тошкент: Маънавият, 2009.
3. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий маънавий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, НМКУ, 2013.
4. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар (маънавиятга таҳдид солувчи иллатлар). – Тошкент: Turon Zamin ziyo, 2015.
5. Сайдов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқат. – Тошкент: Muharrir, 2009.
6. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Akademiya, 2008.
7. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. Т.: Маънавият, 2006.

## MUNDARIJA

Kirish.....	5
<b>I-modul. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni. Globallashuv fenonenining nazariy asoslari</b>	
1-MAVZU: “Globallashuv asoslari” fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari.....	6
2-MAVZU: “Globallashuv” tushunchasi, mohiyati, jamiyat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari.....	17
3-MAVZU: Globallashuvning milliy rivojlanishga o‘tkazayotgan ta’siri va uning oqibatlari .....	31
4-mavzu: Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari.....	44
5-mavzu: Siyosiy jarayonlarning globallashuvi.....	57
6-MAVZU: Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi va milliy manfaatlar.	69
7-mavzu: Madaniyat sohasida globallashuning mohiyati.....	80
8-MAVZU: Globallashuv va axborot texnologiyalari.....	91
9-mavzu: Dinlararo munosabatlarning globallashuvi.....	103
10-MAVZU: Fan va ta’limning globallashuvi sharoitida g‘oyaviy tarbiya masalalari. ....	114
11-MAVZU: Sportning globallashuvi.....	125
12-MAVZU: Jamiyatning globallashuvi.....	137
13-MAVZU: Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari.....	152
14-MAVZU: Global inqirozlar davrida yuksak ma’naviyatning dolzarbligi. ....	163
15-MAVZU: Ma’naviy tahdidlarning namoyon bo‘lish hususiyatlari. ....	175
16-MAVZU: Ma’naviy tahdidlarning oldini olishda oila va mahallaning o‘rni. ....	186
17-mavzu: Ma’naviy tahdidlarning oldini olishda ommaviy axborot vositalarning ahamiyati. ....	193
18-MAVZU: Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari. ....	209
19-MAVZU: Mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish vazifalari. ....	223

## СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	5
<b>I модуль. Содержание теоретических занятий. Теоретические основы феномена глобализации</b>	
1-ТЕМА: Предмет, объект, цели и задачи курса «Основы глобализации».....	6
2-ТЕМА: Понятие «глобализация», его сущность и особенности проявления в общественной жизни.....	17
3-ТЕМА: Влияние глобализации на национальное развитие и его последствия.....	31
4-ТЕМА: Положительные и отрицательные стороны глобализации.	44
5-ТЕМА: Глобализация политических процессов.....	57
6- ТЕМА: Глобализация экономических процессов и национальные интересы.....	69
7-ТЕМА: Сущность глобализации в сфере культуры.....	80
8-ТЕМА: Глобализация и информационные технологии.....	91
9-ТЕМА: Глобализация межрелигиозных отношений.....	103
10-ТЕМА: Вопросы идеологического воспитания в условиях глобализации науки и образования.....	114
11-ТЕМА: Глобализация спорта.....	125
12-ТЕМА: Глобализация общества.....	137
13-ТЕМА: Проблемы наций и национальной идентичности в процессах глобализации.....	152
14-ТЕМА: Важность высокой духовности в эпоху глобальных кризисов .....	163
15-ТЕМА: Особенности проявления духовных угроз .....	175
16-ТЕМА: Роль семьи и махалли в предотвращении духовных угроз.....	186
17-ТЕМА: Значение средств массовых информаций в предотвращении духовных угроз.....	193
18-ТЕМА: Духовно-нравственные основы национального развития.....	209
19-ТЕМА: Задачи формирования идеологического иммунитета и идейного противостояния.....	223

## CONTENTS

<b>Introduction.....</b>	<b>5</b>
<b>Module 1. The content of theoretical studies. The theoretical foundations of the phenomenon of globalization</b>	
THEME 1: The subject, object, goals and objectives of the course "Fundamentals of Globalization".....	6
THEME 2: The concept of "globalization", its essence and features of manifestation in public life.....	17
THEME 3: The impact of globalization on national development and its consequences.....	31
THEME 4: The positive and negative aspects of globalization .....	44
THEME 5: Globalization of political processes.....	57
THEME 6: Globalization of economic processes and national interests.....	69
THEME 7: The essence of globalization in the field of culture.....	80
THEME 8: Globalization and Information Technology.....	91
THEME 9: Globalization of interreligious relations.....	103
THEME 10: Issues of ideological education in the globalization of science and education.....	114
THEME 11: Globalization of sports.....	125
THEME 12: Globalization of society.....	137
THEME 13: Problems of nations and national identity in the processes of globalization.....	152
THEME 14: The importance of high spirituality in the era of global crises.....	163
THEME 15: Features of the manifestation of spiritual threats.....	175
THEME 16: The role of the family and the mahalla in the prevention of spiritual threats.....	186
THEME 17: The importance of the media in preventing spiritual threats.....	193
THEME 18: Spiritual and moral foundations of national development.....	209
THEME 19: Tasks of the formation of ideological immunity and ideological confrontation.....	223

**M.S. XAJIYEVA**

**GLOBALLASHUV ASOSLARI**

**OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARI UCHUN DARSLIK**

**Mas'ul muharrir:**

falsafa fanlari doktori., professor Viktor Alimasov

**Sahifalovchi**

**Musahhih**

**Taqrizchilar:**

falsafa fanlari doktori., professor S.S.Karimov  
tarix fanlari doktori., professor S.R.Davletov

Litsenziya raqami AI M 163. Bosishga 20\_\_-yil \_\_\_\_\_ da ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog‘ozi. Tayms garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 13,26.  
Nashr tabog‘i \_\_\_\_\_. Adadi 200 nusxa. Sharhnomalar №---. Buyurtma №-----. Bahosi  
kelishilgan narxda.

«-----» nashriyoti, 100115. Toshkent sh. ----, ---r ko‘chasi, -uy. Telefon:

«TOSHKENT ----- BOSMAXONAS1» mas’uliyati cheklangan jamiyati  
bosmaxonasida chop etildi. -----, Toshkent, -----, -----.

Bosishga ruxsat etilgan ----- 2020. Bichimi: Rizografiya bosma. Nashr ---- b. t.  
Adadi ---- nusxa. Buyurtma № -----. Bahosi kelishilgan narxda. Bosmaxona manzili:  
-----